



# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan  
chiqa boshlagan

2021-yil. 5-son

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

## IKROM OTAMUROD 70 YOSHDA!

### Ushbu sonda



Dolzarb mavzu

3-bet

Til, alifbo, imlo: muammoga ilmiy  
yechim zarur



Folklorshunoslik

9-bet

Piskent dostonchilik maktabi va Berdi  
baxshi haqida yangi ma'lumotlar



Tahlil

20-bet

"Maymun yetaklagan odam"  
hikoyasida mifologik ramzlar



Tadqiqotlar

48-bet

Chet til grammatikasining  
ilmiy talqini



К юбилею писателя

80-bet

Рыцарь польское литературы



Научные исследования

83-bet

Функционирование устойчивых  
словесных комплексов в эпистолярном  
наследии А.С.Пушкина



### Akmal Saidov, akademik:

**Ikrom Otamurod** kangul so'zini jon-u dilidan sevadi, mudom kangulga sayr etadi va kangulda yashaydi. Hayoti hamda ijodida kangulga sadoqat ko'rsatib kelayotgani uchun u hatto "Kanglum" degan samimiy kunya (laqab) ham orttirib olgan. Bu ham shoirning "kanglu" dard ne'matiga boy, o'zi esa xokisor "ahli dard"lardan biri ekanining ajib bir tasdig'idir. Zero, shoir yozganidek:

*Kanglum, mendan bo'lak kiming bor sening,  
Kanglum, sendan boshqa mening kimim bor!  
Ne desang deguvchi – yolg'izim mening,  
Ne aytsam aytguvchi – o'zing xokisor.*

# Eng faol filolog-muallimlar



**FERUZA JABBAROVA,**

Termiz shahridagi Al-Hakim at-Termiziy nomidagi 1-son viloyat yosh fizik-matematiklar maktab-internatining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Inson o'z kasbini ulug'lab yashashi lozim. Chunki bu-siz jamiyatda yaxshi muhandis, sartarosh, huquqshunos, fermer yoki o'qituvchi ham bo'lmaydi. Ana shunday kasbini ulug'lab yashovchi fidoyi ustozlardan biri – Feruza Jabbarovadir.

Ilk faoliyatini poytaxtda boshlagan Feruza bugun Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi Al-Hakim at-Termiziy nomidagi 1-son viloyat yosh fizik-matematiklar maktab-internatida faoliyat yuritmoqda. O'quvchilari qalbida adabiyotga bo'lgan chin ixlosni uyg'ota olgan muallimaning shogirdlari birin-ketin uning ishonchini oqlamoqda: 2016-yilda o'quvchisi Shoyimova Komila, 2020-yilda o'quvchisi Abdurazzoqova Ruxshona Adabiyot yo'nalishi bo'yicha Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Ko'plab o'quvchilari fan olimpiadalarida ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egallamoqda. Turli ko'rik-tanlovlarda g'olib bo'layotir. O'zi ham tinib-tinchimaydi. Jamoat ishlarida faol. "Xotin-qizlar qo'mitasining eng namunali boshlang'ich tashkiloti", "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi", "Yilning eng yaxshi kitobxon maktabi" singari ko'rik-tanlovlarda qatnashib, o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi. 2019-yilda "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik-tanlovining respublika bosqichidagi faol ishtiroki ham buning yaqqol dalilidir. Tinib-tinchimas o'qituvchining mehnatlari yuqori baholanib, 2020–2021-o'quv yilida "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

– Orzularim bir olam. Eng katta orzum esa bugungi kunda o'qituvchilarga bildirilayotgan ishonchni oqlab, kelgusida Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan yetuk kadrlar yetishtirishga o'zimizning munosib hissamni qo'shishdir, – deydi Feruza Jabbarova.



**MUHAYYO ISAYEVA**

Termiz shahridagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabida ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

«Ustoz-shogird» maktabi yo'nalishida yosh o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish, dars jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda ko'mak va maslahatlar berib kelish barobarida maktab va maktabdan tashqari tadbirlarda faol ishtirok etib kelayotgan Muhayyo Isayeva Termiz davlat universitetining filologiya fakultetini imtiyozli diplom bilan tamomlab, bugungi kunda Termiz shahridagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabida faoliyat yuritib kelmoqda. Ming-minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etgan muallimaning ko'pgina shogirdlari ustoziga havas qilib aynan muallimalik kasbini tanlagani ham bejiz emas.

2018–2019-o'quv yilida «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovining shahar bosqichida sovrinli I o'rin, viloyat bosqichida esa II o'rinni egallagan tinib-tinchimas muallimaning o'quvchilari ham fan olimpiadalarida, «Bilimlar bellashuvi»da faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, 2017, 2018, 2019, 2020-yillarda o'zbek tili fanidan shaharda I o'rin, viloyatda faxrli II o'rinni egallagan o'quvchisi Razzoqov Shodibek bu yil Respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritib, ustozining ishonchini yana bir bor oqladi.

– O'z ishini topa olgan odam saodatlidir, deyishadi donishmandlar. Darhaqiqat, men hayotda o'zim sevgan kasbni tanladim va kasbimdan baxtimni topdim, – deydi Muhayyo Isayeva.

# BOLALARNI SEVGAN PEDAGOG-SHOIR



Ulug' adib G'afur G'ulom iste'dodli shoir bo'lishdan tashqari ko'p qirrali mohir pedagog ham edi. Shoir maktablarda bilim olishning zarurligi, ayniqsa, jamiyatning iqtisodiy, ma'naviy yuksalishi kishilar bilimi, iste'dodiga bog'liq ekanligi haqida tez-tez ma'ruzalar uyushtirar edi. Shuningdek, kechki kurs maktablarida to'garak ishlarini yo'lga qo'ygan, ta'lim jarayonida faqat dars mashg'ulotlari bilan chegaralanib qolmasdan, sinfdan tashqari o'qish, badiiy adabiyotni doimiy o'qishga oid ma'ruzalar o'tkazgan. Bundan tashqari yoshlarning havaskorlik to'garaklarini tashkil etgan, ssenariylar yozgan.

G'afur G'ulomning pedagogik xislatlaridan biri – u nihoyatda bolalarni sevar, ayniqsa, ota-onasiz qolgan bolalarning mehribon g'amxo'ri edi. Ulug' shoirning "Sen yetim emassan" she'rida urush davrida yetim qolgan bolalarning tuyg'usi, iztiroblari, eng muhimi, O'zbekiston xalqining bolalarga nisbatan mehri, muhabbati o'zining yuksak badiiy ifodasini topganligi ham bejiz emas.

G'afur G'ulom she'riy va nasriy asarlarida bolalarning ichki dunyosi, hissiyoti, dunyoni idrok etishi, orzularini kitobxonni hayajonga soluvchi tashbehlar orqali bayon etadi. Bunga uning "Yodgor" povestini misol qilib keltirish mumkin. Asarda mamlakatimizda yashayotgan o'zbek oilalari, millatning yoshlarga bo'lgan gumanizmi ishonarli voqealar yordamida tasvir etilgan.

Bu poetik va falsafiy talqin egasining pedagogik va falsafiy qarashlari "Shum bola" povestida o'zining yorqin badiiy ifodasini topgan. Asarda og'ir hayot yo'lga sho'ng'ib ketgan bolaning taqdiri, uning komik xarakteri, odamlar bilan bo'lgan munosabatlari kitobxonni tinimsiz kuldiradi, u bilan yonma-yon yurishga, voqealarning guvohi bo'lishga sabab bo'ladi. Aslida, asarda shum bola, uning do'sti Omon taqdiri misolida chor Rossiyasining zulmi ostida ezilgan, mol-mulki talon-taroj bo'lgan, ilm-ma'rifatdan uzoq, faqir xalqning taqdiri, masalasi qo'yilgan edi. Bu asarni povest-nasriy asar deb atash unchalik to'g'ri emas. Shum bolaning sarguzashti drammatizmga boy sahna asarini eslatadi. Misol uchun, uning boy bilan bo'lgan dialogining o'zi o'sha davrdagi ziqna, besavod, rahmsiz boylarning tasvirini beradi. Bu jihatdan yozuvchi XX asr adabiyotiga yangi komik, satirik obrazlarni olib kirdi. U asarida chor Rossiyasining hukmron bosqinchilik siyosati ma'naviyatdan uzoq ekanligi, Nikolay II oilasida yuz bergan manzara, uning onasining kasallanishi va kasallikdan vafot etishini kuchli badiiy tashbehlarda ochib beradi. Ana shu jihatdan ham ulug' adib rus hukmdorlari zulmi ostida yashash mumkin emasligi, yoshlarni, ayniqsa, yetimlarni ta'lim maskaniga tortish va mamlakatni og'ir illatlardan qutqarish, ma'rifat va madaniyat maskanlarini barpo etish g'oyasini ilgari suradi. Zotan, o'zi ham bor qobiliyati, bilimini O'zbekistonda maktablar ochish, kurslar tashkil qilish, yoshlarni ta'lim maskanlariga tortish, o'quv qo'llanmalari yaratishga bag'ishladi. Mohir pedagog tarbiya jarayonida har bir oilaning, ota-ona va bolaning o'zaro munosabatlarini yuzaga keltirishda xalqimizning ming yillik an'analariga, ijobiy urf-odatlariga tayanish zarurligini ta'kidlaydi.

Hayotda uchragan bir voqeani keltiramiz: Urgut tumaniga yaqin, Zarafshon daryosi qirg'og'ida Jumabozor degan qishloq bor. Yigirma ming aholiga ega ming yillik qadimiy bozor daryo sohilida joylashgan. 2019-yil ko'p qatori bozor ichida yurgandim, go'sht bozorida ikkita ayolning suhbatiga quloq soldim. Biri: "O'g'lim qayerdan bo'lmasin G'afur G'ulomning "Shum bola" kitobini topib keling, degandi. Lekin shu kitobni topolmayapman", – dedi. Ikkinchisi: "Menga ham, qizim, qanday bo'lmasin Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini olib keling, degandi. Men ham kitob izlayapman", – dedi. Mana shu ikki ayolning suhbatini XX asr adabiyotimizning daho ijodkorlariga berilgan yuksak baho, desak, adashmagan bo'lamiz. Bundan 10–15 yil avval, ochig'i, odamlar unchalik o'qish uchun kitob surishtirmas edi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilda qabul qilingan "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish haqida"gi Farmoyishining e'lon qilinishi cho'pondan tortib, ziyoli, tadbirkor va dehqon oilalari xonadoniga madaniyat eshigini ochdi. Keyingi 4 yil mobaynida hatto uzoq-uzoq tumanlarda kutubxonalar tashkil etildi. Respublika miqyosida o'tkaziladigan kitobxonlar g'oliblariga mashinalar beriladigan bo'ldi.

Shu o'rinda, o'zi buyuk kitobxon bo'lgan akademik shoirimiz – G'afur G'ulomning yoshlarni kitob o'qishga qilgan da'vatlari yodimizga tushadi. Adib asarlari, ijodiy xazinasini esa yangi O'zbekistonning kelajagi – yoshlarning komil inson, o'z vataniga foyda keltiradigan shaxs bo'lib yetishishi, vatanni sevishi, shuningdek, xalqimizning asriy qadriyatlariga amal qilishiga katta ma'naviy yordam berishini ham unutmashimiz zarur.

**Fazliddin BADRIYEV,**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;  
**Fahriiddin SHODIYEV,**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

# BARCHA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI HAMKORLIKKA TAKLIF QILAMIZ!



**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI TARMOQ  
MARKAZI "INNOVATSION TA'LIM STRATEGIYALARI: MILLIY VA JAHON TAJRIBASI" O'QUV LOYIHASI  
ASOSIDA "TA'LIM SIFATI VA ILMIY-TADQIQOT ISHLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH" NOMLI QISQA  
O'QUV KURLARI BOSHLANGANLIGINI MA'LUM QILADI**

**Ushbu kursdan maqsad:**

- tinglovchilarning o'quv hamda ilmiy-pedagogik jarayondagi faoliyatini xalqaro standartlar va jahon tajribasi asosida yana-da rivojlantirish;
- jahonning nufuzli platformalari (Google Scholar, Research Gate va h.k.)da o'z ilmiy ishlari bilan faol bo'lish imkoniyatini yaratish;
- ta'limi rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida eng ilg'or interfaol usullardan foydalanib darslarni tashkil qilish;
- Angliya tajribasidagi xalqaro baholash usullarini o'zlashtirish va amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini shakllantirish;
- davlat tilida ish yuritish, shuningdek, nutq va imlo qoidalarini o'zlashtirish hamda amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**Kursni jahonning eng yetakchi universitetlari (Kembrij, Kolumbiya, Garvard, Michigan, Gumboldt va h.k.)da tahsil olgan, xalqaro tajribaga ega respublikamizning oliy toifali mutaxassislari hamda malakali professor-o'qituvchilar olib boradi. O'qish shakli masofaviy (online).**

## **TO'RT OYDA ONA TILI VA ADABIYOTI FANI MUTAXASSISI BO'LMOQCHISIZ. UNDA SHOSHILING!**

ToshDO'TAU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi turdosh yo'nalishlarni tamomlagan pedagog kadrlarni ona tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha tayyorlov kursiga taklif etadi. Siz ijtimoiy-gumanitar fanlardan (tarix, jurnalistika, huquqshunoslik, ma'naviyat, ingliz, rus va h.k. tillar) qaysi birini tamomlagan bo'lsangiz, bizga murojaat qiling, o'qing hamda ona tili va adabiyoti fanidan dars bering!

**4 oy davomida jahonning eng yetakchi universitetlari (Kembrij, Kolumbiya, Garvard, Michigan, Gumboldt va h.k.)da tahsil olgan, xalqaro tajribaga ega, respublikamizning oliy toifali mutaxassislari hamda malakali professor-o'qituvchilar dars berib boradi. Imkoniyatni qo'ldan boy bermang! O'qish shakli masofaviy (online).**

## **BARCHA XALQ TA'LIMI SOHASI ONA TILI VA ADABIYOT FANI O'QITUVCHILARI DIQQATIGA!**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi yangilangan o'quv dasturlari asosida **"O'zbek tilini bilish darajasi bo'yicha Milliy sertifikatlash (CEFR) tizimi"**, **"Adabiyot fanlarini o'qitishda xalqaro standartlar"**, **"O'zbek tilida to'rt ko'nikma: tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozib tushunish va gapirish"** yo'nalishlarida qisqa o'quv kurslarini tashkil etmoqda.

Kursni jahonning eng yetakchi universitetlari (Kembrij, Kolumbiya, Garvard, Michigan, Gumboldt va h.k.)da tahsil olgan, xalqaro tajribaga ega malakali professor-o'qituvchilar olib boradilar. Kursni tamomlagan tinglovchilarga Sertifikat beriladi. Hamkor tashkilotlar: Respublika ta'lim markazi, "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, "Xalq ta'limi" jurnali, "Ma'rifat" gazetasi. **O'qish shakli masofaviy (online).**

**Murojaat uchun telefon:**

**(90) 047 6161; (94) 648-63-60; (90) 345 85 64**

**ToshDO'TAU tarmoq markazi telegram kanaliga ulanish:**

**<https://t.me/joinchat/836SqafJozZmMTli>, e-mail: @Globaledu6161**

**TIL VA ADABIYOT  
TA'LIMI**

ОЗБЕКISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ  
LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING

Tahririyat manzili: Mirobod tumani Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
e-mail: [til\\_adabiyot@umail.uz](mailto:til_adabiyot@umail.uz) veb-sayt: [www.tilvaadabiyot.uz](http://www.tilvaadabiyot.uz)

Telefon raqamlarimiz:

Bosh muharrir o'rinbosari: (71) 233-03-62

Mas'ul kotib: (71) 233-03-10

Adabiyot o'qitish metodikasi bo'limi:

(71) 233-03-45

Til o'qitish metodikasi bo'limi:

(71) 233-03-67

Chet til o'qitish metodikasi bo'limi:

(71) 233-03-67

Преподавание языка и литературы:

(71) 233-03-67

Hisobxona: (71) 233-03-68



ISSN 2010-5584



ИНДЕКС 872



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 5-son.

# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

### Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

### Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV  
Dilshod KENJAYEV  
Qozoqboy YO'LDOSHEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Nargiza RAHMUNQULOVA  
Yorqinjon ODILOV  
Mamatqul JO'RAYEV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANİYAROV  
Abdurahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
Ravshan JOMONOV  
Zulxumor MIRZAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinsbosari)

### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Emma TOROSYAN

### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi  
32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10,  
(71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2021.21.05 da topshirildi. Ofset usuli da chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasini. 10, 11 kegl. «PRESS-PRINT» bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent vil., Yuqorichirchiq tum., Yik-ota, Oqibat ko'chasi 50-uy. Buyurtma \_\_\_ Adadi 5200 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

### MUNDARIJA

#### DOLZARB MAVZU

Baxtiyor MENGLIYEV. Til, alifbo, imlo: muammoga ilmiy yechim zarur .....3

#### ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Dilfuza PO'LATOVA. Rusiyazabon guruhlarda bosh bo'lak - eganing ifodalanishini klaster texnologiyasi orqali tushuntirishning o'ziga xos afzalliklari .....5  
Muharram KAMOLOVA. Mumtoz matnlar bilan ishlash usullari .....7

#### FOLKLORSHUNOSLIK

Mamatqul JO'RAYEV. Piskent dostonchilik maktabi va Berdi baxshi haqida yangi ma'lumotlar ..... 9

#### METODIK TAVSIYA

Xo'jamurod JABBOROV. Dehqonchilikka oid terminlarni o'quvchilarga o'rgatish ..... 11  
Anadjan BALTAYEVA. Adabiyot darslarida o'quvchilarga badiiy asar qahramonlarini tanqid baholashni o'rgatish ..... 13  
Abdulaziz SHARIPOV. Talabalarga chet til leksikasini o'rgatishda nutq faoliyati turlarining ahamiyati .....15  
Nargiza BABANIYAZOVA. Use of ICT in teaching foreign languages .....16

#### TAHLIL

Shoira NORMATOVA. O'zbek nasrida gender mavzusining shakllanish bosqichlariga bir nazar .....18  
Bahodir JOVLIYEV. "Maymun yetaklagan odam" hikoyasida mifologik ramzlar .....20  
Gulruxbegim RAVSHANOVA. Shoir hajviyotining takomil tadriji .....22  
Muxayyo RAYXONOVA. Borliqda inson o'rni va uning vazifalari muammosi .....23  
Saida MAKSUMOVA. Tog'ay Murod asarlarida grammatik takror orqali ekspressivlikning ifodalanishi .....25  
Qonaqbay TURDIBAYEV. Davr ruhiyatini tasvirlashda lirik qahramonning o'rni .....26  
Nilufar SULTONOVA. Badiiy iqtibosning adabiyotdagi o'rni .....28  
G'ayrat URAZBAYEV. Isajon Sulton hikoyalarda mavzu va muammo ifodasi .....30

#### TARJIMASHUNOSLIK

Shamsiddin YODGOROV. Toledo tarjima maktabi vakillarining Qur'on tarjimasi bilan bog'liq ilmiy faoliyatiga tanqidiy nazar .....32  
Farida SAFAROVA. Translation of confectionery terminology through transcription and transliteration .....34

#### TADQIQOTLAR

Sarvar MAXMUDOV. Malaka oshirish jarayonini innovatsion-variativ yondashuv asosida takomillashtirish ...36  
Ikromjon HABIBJONOV. Soliq-bojxona terminlari tizimi .....38  
Halima AHMEDOVA, O'g'lonoy XUDAYNAZAROVA. Frazeologizm - olamni ko'rish, his etish va anglashning lingvomadaniy usuli .....40  
Gulnoza KURBANOVA, Muharram XAFIZOVA. Shifobaxsh o'simliklarning ilmiy va xalq tilidagi nomlari .....42  
Nigina RASULEVA. Xitoy tarmoq (Internet) adabiyotining takomil bosqichlari .....44  
O'ral XOLIYOROV. Ta'limiy korpusda so'z ma'nolari izohiga doir ma'lumotlar bazasini shakllantirish .....46  
Sayyora SAMIYEVA. Chet til grammatikasining ilmiy talqini .....48  
Shohida ABDULLAYEVA. Tilshunoslikda leksikografik-tipologik muammolar .....50  
Zaxro URUNOVA. O'zbek tili "defektologiya" terminologik maydonining semantik-tarkibiy tuzilishi .....51

#### KICHIK TADQIQOTLAR

Feruza MURATOVA. "Devonu lug'otit turk" asarida "non" atamasi .....53  
Lobar MARDONOVA, Sohiba SAIDMURODOVA. "Mironshoh Mirzo" romanining tarixiy-badiiy aspektidagi tahlili .....55  
Nazira YANGIBAYEVA. "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalida imlo masalasining yoritilishi .....56  
Go'zal ZAKHIDOVA. "Mehmon" so'zining ingliz va o'zbek tillaridagi kognitiv tahlili .....57  
Dilfuza DJUMAMBETOVA. Ingliz tili stilistikasini o'qitishda milliy-madaniy yondashuv .....59  
Oybek ESHBAYEV, Nasiba MULLADJANOVA. Effective use of synchronous & asynchronous communication tools in assessing speaking and writing .....61  
Mahfuza TUYCHIYEVA. Adabiy ta'limda o'quv materialini taqdim etish talablari .....64

## QALBI MEHR VA MUHABBATGA OSHNO SHOIR

Shundan so'ng qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, yuridik fanlari doktori, professor, akademik Akmal Saidov so'z olib, milliy adabiyotimiz rivoji yo'lidagi ijodiy va ijtimoiy faoliyati bilan davlatimiz taraqqiyoti va jamiyatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan taniqli ijodkor "Do'stlik" ordeni va "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvoni sohibi Ikrom Otamurod ustozni hukumatimiz nomidan samimiy muborakbod etdi.



zi rahbari, taniqli shoir va publitsist Munhojiddin Mirzo (Xojimatov). – Keyinchalik birinchi kitobimni nashrga tayyorlab, ijodimga "Oq yo'l" tilagan ustozimdan behad minnatdorman.

Shoir ijodiga adabiyotshunos Matnazar Abdulxayrov shunday baho bergan: "Taniqli shoir Ikrom Otamurod she'riyatimizni o'zining xalqona an'analarga uyg'un yozilgan dostonlari bilan boyitib kelayotir. Shoirning "Tag'azzul",

"Xaritaga tushmagan joy", "Muqaddar", "Dog" singari dostonlari ketma-ket yaratildi va adabiyot ixlosmandlari orasida ancha mashhur bo'ldi".

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab lirik-falsafiy yo'nalishda samarli ijod qilib kelayotgan taniqli shoir Ikrom Otamurodov 1975-yildan buyon "Sharq yulduzi" jurnali tahririyatida uzluksiz ishlab kelmoqda, – deydi o'z so'zida Akmal Saidov. – Ikrom akaning sharofati bilan jurnal tahririyatida katta adabiy muhit shakllangan. O'tgan 46 yil davomida u yuzlab yosh shoirlarga ustozlik qilgan, ularning kitoblari va she'riy turkumlarini chop etish uchun shaxsiy tashabbus va amaliy yordam ko'rsatgan. Hozirgi kunda Ikrom Otamurodning shogirdlari xalq shoirlari, mashhur ijodkorlar darajalariga erishgan bo'lib, ular ustozning so'zga sodiqlik sabog'iga sobitlik bilan amal qilmoqdalar.

Ikrom Otamurodning dastlabki she'riy to'plami – "Vaqt ranglari" 1982 yilda nashrdan chiqqan. Shundan keyin "Janub qushlari" (1984), "To'rg'ayli manzillar" (1985), "Ufqlar orti bepoyon" (1987), "Uzoqlashayotgan og'riq" (1990) she'riy kitoblarini chop ettirgan. Shoir she'riyatida lirik-falsafiy yo'nalish ustuvorlik kasb etgani kuzatish mumkin. Xususan, "Sopol siniqlari" (1994), "Ruhimning qayg'usi" (1996), "Ichkari va tashqari" (1997), "Sen" (1999) kabi she'riy to'plamlari va dostonlari qalbga yana-da yaqinligi, toza va samimiy tuyg'ularga to'yinganligi bilan kitobxonga manzur bo'lgan.

Darhaqiqat, ustoz ijodkor hali talabalik yillaridayoq adabiyot olamining muhtasham ostonasiga qadam qo'yar ekan, ortidan iste'dodli do'stlari va keyinchalik yoshlarni ham o'z badiiy yuksak she'r va asarlari bilan ergashtira olgandi. Shu bois o'tgan yillar davomida ko'plab yosh ijodkorlar iste'dodini namoyon etishda o'z mehri va fidoyiligi bilan namuna ko'rsatdi. Buni tadbirida ustozning muborak yoshini qutlab so'z aytish, shogirdlik ehtiromini bildirish uchun kelgan ko'plab taniqli ijodkorlar ham e'tirof etdi.

Ayni paytda "Kanglum o'zing" (2002), "Tavr" (2005), "Tag'azzul" (2008), "Xaritaga tushmagan joy" (2011), "Muqaddar" (2012), "Yobondagi yolg'iz daraxt", "Qush" singari she'riy kitoblari va dostonlarida insoniy haqiqatni axtargan shoirning betakror badiiy usuli va ijodiy mahorati e'tiborni tortadi. Shuningdek, shoirning "Huviyyat" she'riy to'plami kitobxonga taqdim etilgan.

Ilk ijod namunalarimning "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilishida ustoz Ikrom Otamurodning hissasi katta bo'lgan edi, – deydi o'z tabrigida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat marka-

Tadbir doirasida taniqli shoir Ikrom Otamurodning "Adabiyot" nashriyatida yangi chop etilgan "Sukunat sadosi" kitobining taqdimoti ham o'tkazildi.

*Muxbirimiz*



Baxtiyor MENGLIYEV,

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti  
professori

## TIL, ALIFBO, IMLO: MUAMMOGA ILMIY YECHIM ZARUR

Tilga davlat tili yoki rasmiy til maqomining berilishi uni o'lik tilga aylanish xavfidan xalos etadi. Milliy tilning inqirozi esa milliy ma'naviyatning, milliy o'zlikning barbod bo'lishi demakdir. Tilning rasmiy maqomi millat yoki xalq uchun juda ulkan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarixiy, huquqiy ahamiyatga molik masala. Chunki rasmiy adabiy til o'z sohiblarining milliy-ma'naviy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy vosita. Shu ma'noda milliy yaxlitlikka erishish, vatanparvarlik milliy tilga e'tibordan boshlanishi bejiz emas. XIX asrda yashagan fransuz olimi M.Bellin hazrat Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" kitobidagi "Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz" degan hikmatli so'zlaridan ta'sirlanib 1861-yilda e'lon qilingan "Mir Alisher Navoiy biografiyasi va ijodi" kitobida bejiz "Alisher Navoiy o'z milliy tilining afzalliklarini inkor etib bo'lmaydigan dalillar bilan isbot qilganligi o'z xalqi orasida vatanparvarlikni boshlab berganligidan dalolatdir", demagan edi.

Tilning alifbo va imlo muammolari fonetika ilmi bilan chambarchas bog'liq. O'n yillar muqaddam filologiya fanlari doktori, professor Miraziz Mirtojdiyevning "O'zbek tili fonetikasi" kitobi nashrdan chiqdi. Kitobda olim fonetik eksperimentlarga tayangan holda o'zbek tilining o'z ichki xususiyatlarini kuzatib, tilshunosligimizda hukm surib kelgan qator g'ayriilmiy va soxta qarashlarni ag'dar-to'ntar qilib yuboradigan xulosalarga keldi. Masalan, bizga ona tili darslarida so'zning urg'usiga doir mavzu o'tilganda har doim bir qoida bot-bot uqtiriladi: "So'z bo'g'inlaridan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq aytilishi urg'u deyiladi". Bu qoida darsliklardan darsliklarga ko'chib yuribdi. Lekin M.Mirtojdiyev kuzatishlar asosida shunday xulosaga keldiki, o'zbekcha so'zlar bo'g'inlari kuchi asosida o'zaro kam farqlanib, asosiy tafovut urg'u tushgan bo'g'inning cho'ziqligida ekan. O'zbek tilida urg'u tushgan bo'g'in cho'ziq, rus tilida esa kuchli talaffuz qilinar ekan. Shuning uchun o'zbekona so'z urg'usi cho'ziqlik urg'usi ekanligi bilan rus tiliga xos dinamik urg'udan farqlanadi. Olim o'zbek tilidagi urg'uning an'anaviy qoidasi o'zga til qonuniyatining tilimizga ko'r-ko'rona ko'chirilishi oqibatida yuzaga kelganligiga tayanib, mazkur qoidani "so'z bo'g'inlaridan birining boshqasiga nisbatan cho'ziqroq aytilishi urg'u deyiladi" tarzida isloh qilish uchun ilmiy asos yaratdi.

Olim o'zbek tilida so'z urg'usiga doir yana bir masalaga oydinlik kiritdi. Shu vaqtgacha o'zbek tilining xususiyatlaridan biri urg'uning so'z oxiridagi bo'g'iniga tushishi deb hisoblanib kelinar edi. Ustoz fonetik eksperimentlar o'tkazib, bu qoidaning ilmiy asossiz ekanligini isbotladi. "Tajribalar shuni ko'rsatdiki, – deb yozadi olim, – o'zbek so'zlaridagi cho'ziqlik aksariyat hollarda

birinchi bo'g'inga xos ekan. Demak, mavjud ilmiy qoidalarimizga ham o'zbek tilining ichki xususiyatidan kelib chiqib, tuzatish kiritish lozim".

Joriy darslik va qo'llanmalarda "unli tovushlar o'pkadan chiqayotgan havoning tovush paychalariga urilishi natijasida hosil bo'lgan ovoz og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tishi natijasida hosil bo'ladi", degan nazariya yashaydi. Professor M.Mirtojdiyev agar ovoz og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramasa, unda "hamma unlilar" bir unli bo'lib qolar edi, degan aksiomatik bir fikrni aytadiki, uni kashfiyot sifatida baholash mumkin.

Umuman olganda, tilning o'ziga xosligi uning fonetikasi va grammatikasida aks etar ekan, fanda bu jihatlarni chuqur o'rganish tilning ontologik mohiyatini ochish va adabiy tilni me'yorlashtirishda ulkan ahamiyatga ega. Tilda leksik birliklarning ko'pligi uning boyligini ko'rsatgani kabi, nutq tovushlarining miqdori ham til imkoniyatini ko'rsatuvchi omillardan biridir. Ammo bugungi kunda alifbo masalasi yana bir qalqib ijtimoiy maydonga chiqqan ekan, bu borada ham xuddi yuqorida keltirilgani kabi tizimli, fundamental, innovatsion va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilishi zarur.

Alifbo masalasi bugun mamlakatimiz bo'ylab keng muhokama qilinmoqda. Buning sababi shundaki, birinchidan, alifbo hammaga havo va suvdek zarur vosita. Uning qulayligi barchamiz uchun foydali, ammo bu muammo yechimi minbarlarda bong urilayotganidek jo'n ish emas. Qimmatli vaksina darajasida muhim. Salbiy asorat qoldirmaydigan yechim zarur. Bu esa masalaga ilmiy yo'l bilan yondashishni taqozo etadi. Mana, yosh olimlarimiz – Eldor Asanov, Komil Jalilov, Shokir Yo'ldosh, Shohro'z Mo'minzoda kabilar qimmatli ilmiy fikrlarni bayon etishmoqda. Biz – ustozlar ularning fikrlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishimiz, takliflariga (bizga yoqish-yoqmasligidan qat'i nazar) keng yo'l berishimiz kerak. Ilmiy yechim ilmiy bahslarda tug'iladi, ijtimoiy tarmoqlardagi baqir-chaqirlarda emas.

Muhokamalarda bildirilayotgan fikrlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- mavjud *sh*, *ch*, *g*, *o'* harf va harf birikmalarini almashtirish;
- ular bilan birga *ng* harfini bitta shaklga keltirish;
- unli harflar sonini to'qqiztaga yetkazish;
- *x* va *h* harflarini birlashtirib yuborish;
- o'zbek alifbosini *sex* so'zini yozishga moslash.

Men ham FBdagi sahifamda tilshunos mutaxassis o'laroq (ammo alifboshunos emasman) bu boradagi o'z fikrlarimni aytgan edim. Hozirgi yo'sindagi islohnii qo'llab-quvvatlamasam-da, "dig'onim-dig'on" prinsipi-

ga yopishib olishim to'g'ri emas. Modomiki, isloh qilar ekanmiz, yondashuvni o'zgartirishimiz lozim, masalani yechish taktikasi boshqacha bo'lishi kerak deb o'ylayman. Bugun shunga doir subyektiv qarashlarimni oy-dinlashtirishga harakat qilaman.

Alifbomizdagi asosiy kamchiliklarning ikkita sababi bor:

1) o'tgan asrning 90-yillarida yangi alifboning shoshma-shosharlik bilan qabul qilinganligi;

2) o'zbek tilshunosligida "Alifbo va imloshunoslik" ilmiy sohasi shakllanmaganligi.

Alifboni isloh qilish bo'yicha qonun loyihasi e'lon qilindi. Jamoatchilik fikri olindi, endi qonun chiqarishga shoshilmaslik, fikrlardan kelib chiqqan holda ilmiy tadqiqotlarga navbat berilishi kerak. Muammo 2–3 yil mutaxassislar doirasida bafurja ilmiy o'rganilishi lozim. Har bir harfning ifoda qiymati aniqlanishi, kerak bo'lsa, ularning tavsifidan tashkil topgan harflarning "pasport"lari shakllantirilmog'i, harf almashtirilishi bilan bog'liq ehtimoliy muammolar prognoz qilinishi zarur. Bizda hali oddiygina masala – harflarning foizlardagi ifoda qiymati aniqlanmagan. Bular hal qilinishi kerak. Xullas, masalaga faqat siyosiy tus berib, ma'muriy yondashmasdan, balki ko'proq ilm yo'li bilan ish tush – davr talabi. Islohning samarasi va zararlari aniq hisob-kitob qilinishi lozim. Ayanchli tomoni shundaki, hanuz o'zbek alifbosi va imlosi bo'yicha tadqiqotlar olib borilmayapti, dissertatsiyalar himoya qilingani yo'q. Alifbomizning ham, imlomizning ham ilmiy poydevori mavjud emas. Bo'lsa ham, bu poydevor – kirill alifbosi va uning asosidagi imlo qoidalari. Tilshunoslarimiz esa "o'ta foydali" tadqiqotlar bilan bandlar, bu muammolar bilan shug'ullanishga vaqtlari yo'q.

Islohdagi milliy yoki etnik ehtirolarga berilmaslik, taqlidchilikdan voz kechilishi, mustaqil fikr bilan yondashish ustuvor bo'lishi, masalaga shuhrat vositasi emas, milliy yuksalish vositasi o'laroq qaramoq lozim. Xullas, avval o'tgan asrning 90-yillarida bu borada yo'l qo'yilgan xatoliklar har jihatdan sarhisob qilinishi, tegishli xulosalar chiqarilishi zarur. Masalan, oddiy bir masala – **CH**ni ifodalash uchun "dumli" **C** dan foydalanish. Zotan, o'zbek-latin alifbosida **C** harfi yo'q. Yo'q harfga "dum" qo'yishning nima keragi bor. U "dumsiz" ham **CH**ni ifodalayveradi-ku!

Alifbo qancha mukammal bo'lsa, shuncha yaxshi. Ammo mukammallik deganda nimani tushunish kerak? Bexato yozishmi, tildagi barcha tovushlarni yozuvda ifodalashmi, boshqa turkiy xalqlar bilan yaqinlashishni ta'minlashmi, bir lahja manfaatlarimi, dasturlashni osonlashtirishmi?

Aslida savodxonlik harflarning ko'pligiga emas, balki alifboning ixchamligiga bog'liq. Kompyuterning bitta tugmasi bilan bitta harfni yozish qulay va oson, albat. Ammo bu qulaylikning qiymati qancha? Agar ushbu amal samarador bo'lsa, nega kompyuter tiliga asos bo'lgan ingliz alifbosida bu inobatga olinmagan? Bizda bu borada tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlari o'tkaziladi-ku hali. O'zbek tilida ingliz tilidagi kabi harflarning ifoda qiymati foizlarda aniqlanganmi? Masalan, u tilda **E** eng yuqori ifoda qiymatiga ega – 12%, **Z** – eng past qiymatli – 0,05%. Yuqori ehtimol bilan tilimizda **A** eng

yuqori, **NG** eng past ifoda qiymatiga ega (quyidagi jadvalga o'zbek tilining imlo lug'atidagi jami 83910 ta so'z asos qilib olindi va harflar miqdori hamda so'zning birinchi harfiga ko'ra joylashtirildi):

Harf	Soni	Foizda	So'z boshida kelishiga ko'ra	Foizda
A	100273	13,195	5825	6,942
B	15572	2,049	6651	7,926
D	16594	2,184	3372	4,019
E	20915	2,752	1855	2,211
F	6566	0,864	1497	1,784
G	10922	1,437	3080	3,671
H	5385	0,709	1886	2,248
I	86038	11,322	2825	3,367
J	4191	0,551	1423	1,696
K	32106	4,225	5699	6,792
L	54259	7,140	1280	1,525
M	33548	4,415	5035	6,000
N	33257	4,376	2077	2,475
O	62203	8,185	2927	3,488
P	10818	1,424	3270	3,897
Q	26267	3,456	4795	5,714
R	48861	6,430	1667	1,987
S	25490	3,354	5627	6,706
T	42113	5,542	6892	8,214
U	23764	3,127	1537	1,832
V	14678	1,931	1422	1,695
X	5378	0,708	1664	1,983
Y	20154	2,652	3272	3,899
Z	13937	1,834	1198	1,428
O'	8298	1,092	1371	1,634
G'	5150	0,678	1133	1,350
Sh	18658	2,455	2096	2,498
Ch	12765	1,680	2534	3,020
Ng	1771	0,233	0	0,000
<b>Jami</b>	<b>759931</b>	<b>100,000</b>	<b>83910</b>	<b>100,000</b>

Bu – lisoniy qiymat. Nutqda-chi? Buning uchun harflarning qo'llanish chastotasi statistik metod yordamida aniqlanishi kerak. Shuningdek, agar o'zbek tilidagi "yo'g'on" va "ingichka" o' tovushlari (yo'g'on – a'lochi bo'l; ingichka – olmani bo'l) va "yo'g'on" va "ingichka" u tovushlari (yo'g'on – qalamning uchi; ingichka – yigirma uch)ning ifoda qiymatini aniqlamasdan ularga ikkita harf ajratish asossiz bo'lib qoladi. To'g'ri, mustaqil to'rtta fonema, fonematik nazariyaga ko'ra ularga alohida-alohida harf tayinlash kerak. Ammo ifoda qiymati past bo'lsa, ularga alohida-alohida harf ajratmasdan, muammo transkripsiya vositasida hal etiladi, yaqin fonemalar bir harfga birlashtiriladi. Ammo bu "yaqinlik" ham ilmiy asoslab berilishi zarur. Shuningdek, bu ikki juft unli o'zbek tilining barcha lahjalarida bir xil uchraydimi? Agar hamma lahjalarning barcha tovushlarini



tenglik tamoyili nuqtayi nazaridan harf bilan ta'minlaydigan bo'lsak, unda alifbomizda 50–60 ta harf bo'lishi kerak. Bunda esa alifbo transkripsiyaga aylanib qoladi. O'zbek tilida sirg'aluvchi **J** fonemasi bor. Ammo sanoqli so'zlardagina uchraydi. Shuning uchun unga kirillda ham harf berilmagan. Yaqin "qarindoshi" – portlovchi **J** bilan bir harf ostiga joylashtirilgan. Zotan, alifbodan ko'zlangan bosh maqsad – harfda tovushni emas, balki fikrni ifodalash. Holbuki, joriy alifbomizda bitilgan matnlarda isloh qilinishi taklif etilayotgan harflar bilan bog'liq ravishda fikr anglashilmay qolishi holati hali sodir bo'lmagan. Shunday ekan, ko'p hollarda, to'qqizta unli harf tarafdorlarida ilmiy tafakkur va milliy ruhdan ko'ra etnik ehtiros ustuvorlik qilayotganga o'xshaydi.

Mazkur qonun loyihasi, albatta, e'tiborga molik. Biroq bunda ikki holatga asosiy e'tiborni qaratish lozim:

1) alifbo haqida umumxalq fikrini olish uchun qo'yilayotgan takliflar avval tor doiradagi mutaxassislar kengashi tomonidan muhokama qilinib, kerak bo'lsa, yechimlari belgilanib, bir qarorga kelinishi lozim edi;

2) alifbo ilmiy muammo sifatida atroflicha tadqiq qilinmog'i kerak edi.

Demoqchimanki, alifboshunoslar va dasturchilardan iborat maxsus alifbo va imlo kengashi tuzilib, kengashning strategik va taktik vazifalari belgilanib olishi kerak.

Umuman olganda, xalq savodxonligi uchun alifbo qulay bo'lishi kerak, unga siyosiy, mafkuraviy qurol sifatida munosabatda bo'lmaslik lozim.

Xullas, strategiya (ya'ni alifboni takomillashtirish) to'g'ri, ammo taktika (yondashuv) menga uncha ma'qul bo'lmadi.

O'tgan asrning adog'ida ham shunday yo'l tutganmiz. Alifboni apil-tapil, ilmiy yondashmasdan qabul qilganmiz. Mana bugun: "Bilmayin bosdim tikonni..." deb o'tiribmiz. Masalani ilmiy muammo sifatida o'rganmasdan birdan omma hukmiga havola etish bilan millatchilar, taqlidchilar va shuhratparastlarning tegirmoniga suv quymoqdamiz. Olimlarimizning asosli ovozlari esa ularning shovqin-suronda bilinmay ketyapti.

Fonema, tovush, harf munosabatini bilmasdan alifbo haqida gapirish mumkin emas. Zero, fonetik va fonematik alifbo farqlanadi. O'zbek alifbosida fonematik an'ana ustuvor bo'lib kelgan. Turk, ingliz, ukrain, qozoq alifbolari esa fonetik alifbodir.

Biz, shukrki, milliy "jazava" davrini bosib o'tganmiz. Bugun esa yov quvib kelayotgani yo'q, shoshma-shosharlik qilish yana qator muammolarni keltirib chiqarmasligiga hech kim kafolat bermaydi. Achchiq xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish, milliy vazminlik, yetti o'lchab bir kesish – davr talabi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar



**Dilfuza PO'LATOVA,**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

## RUSIYZABON GURUHLARDA BOSH BO'LAK – EGANING IFODALANISHINI KLASTER TEXNOLOGIYASI ORQALI TUSHUNTIRISHNING O'ZIGA XOS AFZALLIKLARI

Ma'lumki, ega gapning bosh bo'laki bo'lib, u fe'ldan boshqa barcha so'z turkumlari bilan ifodalanadi. Eganing gapdagi o'rnini o'zbek va rus tillarida turlicha bo'lsa-da, maqsadi yagonadir. Klaster texnologiyasi esa ushbu bo'lakni tushuntirishda eng maqbul usul sanaladi.

Klasterning o'ziga xos fikrlash bosqichlarini 3 turga bo'lish mumkin:

### 1. Taklif (da'vat).

*Bu bosqichda jarayondagi barcha ishtirokchilar faollashadi va jarayonga jalb qilinadi. Bunda asosiy maqsad ushbu mavzu bo'yicha mavjud bilimlarni qayta takrorlash (ishlab chiqish), tasavvurlar (fikrlar) qatorini shakllantirish va savollarga javob topish.*

### 2. Anglash (tushunish).

*Anglash bosqichida esa ma'lumotlar bilan ishlash tashkil qilinadi, olingan asoslar tahlil qilinadi.*

### 3. Refleksiya (fikrlash).

*Refleksiya bosqichida olingan bilimlar ijodiy faoliyat natijasida qayta ishlanadi va xulosalar qilinadi.*

Klasterdan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega:

- u ma'lumotning keng hajmini qamrab olish imkonini beradi;
- ta'lim jarayoniga guruh ishtirokchilarining barchasi jalb qilinadi;
- talabalar faol, erkin va ochiq bo'ladi;
- ularda xato qilish, yangilish fikr bildirish qo'rquvi bo'lmaydi.

Ushbu faoliyat turida quyidagi ko'nikmalar shakllanadi va rivojlanadi:


- savol qo'ya olish mahorati vujudga keladi;
- asosiy fikrni ajrata olish imkoni paydo bo'ladi;
- sabab-oqibat aloqalarini o'rnatish va xulosa chiqarish yuzaga keladi;
- muammoni yaxlit anglagan holda umumiydan xususiyga o'ta oladi;
- qiyoslash va tahlil qilishni o'rgatadi.

Ma'lumki, har bir til tizimining sintaktik qatlamini o'rganishda gaplar struktura jihatidan kommunikativ yo'nalishiga hamda tarkibiga ko'ra tasniflanadi. Ammo

gapdagi so'zlar o'zaro bog'langan bo'lib, ularning har biri gap tarkibida biror grammatik vazifani bajaradi. Gap strukturasi tahlil qilishda undagi gap bo'laklari sintaktik kategoriya hisoblanadi. Mazkur kategoriyalar gap tarkibidagi elementlarning o'zaro munosabatini, ushbu munosabatning xarakterini, gapning grammatik jihatdan qanday bo'laklarga ajralishini, so'zning gapdagi rolini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, rusiyzabon talabalar, ko'pincha, gap tarkibidagi belgisiz qaratqich aniqlovchi va belgisiz vositasiz to'ldiruvchini gapning egasi sifatida (belgisiz bo'lganligi sababli) talqin qiladilar. Eganing har doim kesim bilan bog'langanligini yorqin tasavvur qilishlari uchun gapdagi ikkinchi darajali bo'laklarni farqlash orqali tushuntirish lozim.

O'zbek tilida gap bo'laklari tartibi deyarli aniq bo'ladi: ega gapning boshida, kesim gapning oxirida keladi. Obyektni bildiruvchi so'zlar kesimga bog'lanadi va ular ega va kesim o'rtasida keladi. Aniqlovchi esa o'zi aniqlayotgan bo'lakdan oldin turadi. Gapda o'rin va payt hollari gapning boshida kelishi holatlari uchraydi. Demak, rusiyzabon talabalarga ushbu g'oyani singdirish maqsadida sintaktik tahlil amaliyoti ilgari suriladi. Buning uchun, avvalo, eganing gapda qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishi misollar yordamida tushuntiriladi. Bunda bizga klaster usuli yordam beradi.




Shuningdek, gap bo'laklari mohiyati, avvalo, jadval yordamida, so'ng gaplarni sintaktik tahlil qilish jarayonida talabalarga yetkaziladi. Masalan, quyidagi jadval asosida talabalarning fikri, tushunchalari javob ustuniga qayd qilinadi; to'g'ri va noto'g'ri fikrlar tahlil qilinadi; mustahkamlash uchun berilgan gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklar tahlil qilinadi.

Quyidagi jadval asosida talabalarning fikri, tushunchalari javob ustuniga qayd qilinadi. To'g'ri va noto'g'ri fikrlar tahlil qilinadi. Mustahkamlash uchun berilgan gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklar tahlil qilinadi.

T/r	Gap bo'laklari	Javob	Mohiyatga oid tushunchalar
1.	Ega		Harakat subyekt
2.	Kesim		Hukm ifodalovchi
3.	Aniqlovchi		Predmet belgisi
4.	To'ldiruvchi		Harakat obyekti
5.	Hol		Harakat belgisi

Ega ko'pincha ot so'z turkumi bilan ifodalanganligi sababli otning ma'no turlari borasida tushuncha klaster orqali beriladi.



Buning uchun talabalarga otning ma'no turlari misollar yordamida tushuntiriladi.

**Shaxs otlari: (kim?)**

*o'qituvchi  
shifokor  
suvchi  
usta  
zargar*

**Kasb otlari: (nima?)**

*o'qituvchi+lik  
shifokor+lik  
suvchi+lik  
usta+chilik  
dehqon+chilik*

**Narsa-buyum otlari: (nima?)**

Tub otlar:  
*qalam  
chelak  
soat  
kitob  
daraxt*

Yasama otlar:  
*tara(o)+q  
supur+gi  
o'chir+g'ich  
ela+k  
chop+qi*

**O'rin-joy nomlari: (qayer?)**

Tub otlar:  
*maydon  
shahar  
ko'l  
davlat*

Yasama otlar:  
*paxta+zor  
o't+loq  
O'zbek+iston  
gul+zor*

Qo'shma otlar:  
*Mirza+cho'l  
Markaziy Osiyo  
Qora+suv  
Yakka+saroy*

**His-tuyg'u, sezgi, kayfiyatni bildiruvchi otlar:**

*qo'rqinch, hayajon,  
qayg'u, sevinch*

**Munosabatlarni bildiruvchi otlar:**

*ishonch, sevgi, mehr-oqibat,  
saxiylik, ezgulik*

Talabalar o'zbek tilidagi eganing gapdagi o'rnini aniqlash maqsadida uni ikki tilda ifodalaydilar va ularning gapda joylashish tartibini izohlaydilar.

**Topshiriq.** Gap tartibining ikki tilda ifodalanishiga misollar keltiring.

### GAPNING IFODALANISHI

#### O'zbek tilida

1. Men bugun do'stimni uchratdim.
2. ....
3. Biz kitob o'qishni o'rganishimiz kerak.
4. ....
5. Shoir Erkin Vohidov haqida suhbatlashdik.

#### Rus tilida

1. ....
2. Гулнара принесла книгу на занятие.
3. ....
4. Акмал исправил свои ошибки карандашом.
5. ....

Demak, gapning sintaktik qatlami tahlil qilinganda gapda ega yoki kesimning muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. A.G'ulomov va M.Asqarovalar bu haqida shunday deydi: "Bosh bo'laklar gapning asosini tashkil etadi: ular gap konstruksiyasining asosidir, markazidir – gapdagi ikki uyushtiruvchi markazdir. Lekin bosh bo'laklarning yolg'iz o'zi ham mustaqil gapni tashkil qiladi, biroq ba'zi o'rinlarda ularning o'zidan to'liq fikr ifodalanmaydi". Bu olimlar egani hokim tarkibning grammatik markazi, shuningdek, uni tobe tarkibdagi bosh bo'lakka – kesimga ham hokimdir, deb ta'kidlashadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1976.
2. Сайфуллаев А.Р. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном узбекском языке. Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1984.

#### Muharram KAMOLOVA,

Buxoro viloyati Jondor tumanidagi 2-son ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## MUMTOZ MATNLAR BILAN ISHLASH USULLARI

8-sinf ona tili darsligida o'quvchining o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlashini mustahkamlash maqsadida berilgan bir qator matnlar borki, ulardan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish, matndagi ma'lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

O'qish savodxonligi ko'nikmalari talabiga ko'ra:

- 1) matnda berilgan ma'lumotlarni olish;
- 2) ma'lumotlarni talqin qilish va uyg'unlashtirish;
- 3) matn yuzasidan mulohaza yuritishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Mumtoz matnlar oddiy matnlardan tubdan farq qiladi. Oddiy matnlarda faqat bir tomonlama mazmun ilgari surilsa, mumtoz matnlarimizda ikki xil: zohiriy va botiniy mazmun aks etadi.

8-sinf Ona tili darsligida Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi "Talab vodiysi" ta'rifi keltirilgan matnni misol tariqasida oladigan bo'lsak, matn tahlili yuzasidan birinchi bosqich matnda berilgan ma'lumotlarga ega bo'lish uchun, dastavval, matn bilan tanishib, undagi so'zlar ma'nosini aniqlab olish kerak bo'ladi:

*Chun talab vodiysig'a qo'ysang qadam,  
Ollinga har dam kelur yuz ming alam.  
Har dam anda yuz malolat yuzlanur,  
Har nafas ming sa'b holat yuzlanur...*

Zohiran ushbu matn orqali Talab vodiysi va undagi mashaqqatlar haqida tasavvur hosil bo'ladi. Lekin Talab vodiysi tushunchasi haqida o'quvchi tasavvurga egami? Asar nomidan ham bu parchaning boshdan oxirigacha majozga asoslanganini bilish qiyin emas. Talab vodiysi chin oshiqning dostonidagi bosib o'tilishi lozim bo'lgan yetti bosqichdan dastlabkisi. "Ma'rifiy-badiiy adabiyotda Haqqa yetishish yo'lida yetti maqom, yetti bosqich ajratiladi. Bu o'rinda yetti raqamining tanlanishi ham bejiz emas. Boisi azal-azaldan dunyodagi barcha musulmon xalqlarida bu raqam sehrli, ulug' allomalarimiz amal qilgan naqshbandiya tariqatida esa yetti raqami ushbu tariqatning ramzi sifatida qabul qilingan. Ustozlari izidan borgan Mir Alisher Navoiy "Lison ut-tayr"da vodiylarni: talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, faqr-u fano tarzida nomlab, shu bosqichlardan o'tishi lozim bo'lgan solik har bir maqomning talablarini bajarib, uning xususiyatlariga moslashmog'i zarur hisoblangan"<sup>1</sup>.

Shariatdan tariqatga o'tishda, mo'mindan solik darajasiga ko'tarilishda birinchi maqom Talab vodiysidir. Bu vodiyya mo'minni komil inson sari intilish, Haqni bevosita tanish ishtiyoqi yetaklaydi.

*Istamak ranji ko'gilni zor etar,  
Topmomog'lig' ruhni afgor etar.  
Ranj-u ko'shish sanchibon jismingg'a nesh,  
Dardi noyob aylabon joningni resh.*

Istamoqlik azobi solikning ko'nglini zor etadi, lekin topa olmaslik ruhni abgor etadi. Bunda jonni kuydirish mahrumlik, vaslga erishish noma'lumlik bo'lib, mashaqqat va kulfatlar jismga nish sanchib pora-pora qiladi. Lekin noyob durni qo'lga kiritish istagida bo'lgan solik uchun asosiy talab dunyo asboblarini tark etishdir. Chunki talab maqomiga o'tish solikdan:

*Har nekim g'ayri talabdur tashlamoq,  
O'zni maqsad manziliga boshlamoq.  
Qolmasa olam matoidin jihat,  
O'zga nav' o'lg'ay sanga ul dam sifot.*

Bu maqomda solikdan o'z tilagiga aloqador bo'lmagan barcha narsalardan voz kechish, faqat shu maqsad sari intilish, bunda hech narsadan qaytmaslik, hayiqmaslik talab etiladi:

*Gar yo'lungni tutsa yuz sher-u palang,  
Bo'lgay oldingda nechukkim mo'ri lang.  
Ajdahodin yetmagay ko'nglungga ranj,  
O'yla bo'lmish bo'lg'ay ul mash'uf ganj.*

“Talab maqomidagi solik yo'lini yuz sher-u arslonlar to'ssa, ular bir cho'loq chumoli maqomida, agar xazina (ishq)ga erishsa, ko'nglida ajdaho (nafs)ning xavfi bo'lmaydi. Uning uchun barcha eshiklar ochilib, to'siqlar olinadi. Kufr yoki imon bu yo'lga kirgan kishi uchun maslak emas, balki asl yo'lning to'siqlaridan boshqa narsa emasdir”.<sup>2</sup>

*Chun eshik ochildi ne kufr-u ne din,  
Ichkari kirgach qutulding barchadin.  
Kufr-u imon rohravg'a kesh emas,  
Asl yo'lda bandi rohe besh emas.*<sup>3</sup>

Matn yuzasidan mulohaza yuritish o'quvchi uchun ancha mushkul. Matnda ilgari surilgan g'oyani anglash uchun o'quvchidan matn tarkibidagi so'zlar ma'nosini aniqlash, bayt mazmunini o'zida hosil bo'lgan tushunchalar asosida izohlab berish talab etiladi. Buning uchun baytda ilgari surilgan mazmunni tushuntirish ikki bosqich asosida amalga oshiriladi:

- 1) talqin qilish;
- 2) uyg'unlashtirish (o'zaro bog'lash).

O'quvchi talqin qilish bosqichida:

- bayt mazmunidagi yashirin mazmunni anglashi;
- nazarda tutilgan asosiy maqsadni tushunishi;
- matn qismlari orasidagi ko'z ilg'amas aloqani aniqlashi;



– matnda ochiq holatda berilmagan ma'lumotlarni ajratib olishi lozim.

O'quvchida bu ko'nikmani shakllantirishda quyidagi innovatsion metodlarni qo'llash maqsadga muvofiq:

– “So'z bag'ridagi ma'rifat” metodida sharhlangan baytlarda ilgari surilgan g'oyalar har bir guruh ishtirokchisi tomonidan talqin qilinadi;

– “4\*4” metodida to'rt guruhdan bir nafardan o'quvchi bir-birini takrorlamagan to'rtta baytni leksik va grammatik hamda g'oyaviy tahlil qilishi talab etiladi. Bu topshiriqlarni guruhlar o'zaro yoki juftlikda bajarishlari ham mumkin. Har bir ishtirokchiga berilgan baytlar bo'yicha quyidagi to'rt talab qo'yiladi:

– berilgan lirik parchani vazn talablari asosida ifodali o'qish;

- baytdagi izohtalab so'zlarni sharhlash;
- baytda ilgari surilgan bosh g'oyani aniqlash;
- parchadagi leksik birliklar va grammatik munosabatlarni aniqlash.

Matndagi ma'lumotlarni o'zaro bog'lash bosqichida quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1) so'z yoki baytlarda ilgari surilgan mazmunni anglab, baytlarni zanjir usulida bir-biri bilan uzviylikda tahlil qilish;

2) xulosa chiqarish uchun ikki yoki undan ortiq baytlardagi ma'lumotlarni birlashtirish;

3) “Parchada mazmun”, “Xulosangiz qanday?”, “Mumtoz matn jilosi (baytda keltirilgan tushunilishi qiyin so'zlar izohlanadi)” kabi topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchiga mazmunni anglashdagi mashaqqatlarni yengishda ko'maklashish lozim.

Ishonchimiz komilki, mumtoz matnlar tahlilini o'qish savodxonligi va ta'limdagi innovatsion metodlarning baholanadigan kompetensiyalari asosida amalga oshirish bayt mazmunida ilgari surilgan g'oyalarni o'quvchiga yetkazishdagi mushkulliklarni yengishda yordam beradi.

<sup>1</sup> R.Vohidov, H.Ne'matov, M.Mahmudov. So'z bag'ridagi ma'rifat. – Toshkent, 2001. 98-bet.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent, 1991. 395-bet.

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 13-jild. – Toshkent, 1996. 214-bet.



Mamatqul JO'RAYEV,  
filologiya fanlari doktori, professor

## PISKENT DOSTONCHILIK MAKTABI VA BERDI BAXSHI HAQIDA YANGI MA'LUMOTLAR

da xotin-qizlarning holati, mavqeyi masalasi adabiyotda ko'tarila boshladi. Abdulla Qahhorning "Sinchalak" (1959) qissasidagi Saida o'zbek adabiyotida yangi zamon yetishtirgan birinchi ayol rahbar kadr obrazidir. Qissada yozuvchining unga xayrxohligi, uning zakovati, uquvi va imkoniyatlariga ishonch hissi sezilib turadi. Bir qarashda, Saida yangi tuzum bergan imkoniyatlar hosilasi. Lekin diqqat qilinsa, haqgo'y adib amaldagi haqiqiy holatni nazardan qochirmaganligini kuzatish mumkin. Ha, ayolning jamiyatdagi mavqeyi, darajasi ortgan, u zulmdan batamom xalos bo'lgan. Lekin haqiqatda shundaymikan? Biz bu yerda yozuvchining o'ta faollashib, "feministlashib" ketgan qahramoniga yengil kinoyali munosabati ustida to'xtalmoqchi emasmiz (bu haqida adabiyotshunoslikda fikr bildirilgan). Abdulla Qahhor talqinida gender tenglik masalasining qay darajada ko'tarilganligiga diqqat qaratamiz. Asardagi ko'plab ayol qahramonlar taqdirida millat mentalitetida shakllangan, "ong osti"da o'rnamshib qolgan eskicha munosabatlar o'z muhrini qoldirgan. Saida oilasining o'tmishi, yashirincha savod chiqarish kurslariga borib o'qigan uchun onasining otasi tomonidan o'ldirilishi, eri hadya qilgan uy-ro'zg'or bekasi bo'lishdan sevgan ishini, jamiyatdagi mavqeyini afzal ko'rgan Tojixon hikoyasi, zveno boshlig'i etib saylanib, oxir-oqibat ishini eplolmagan, yana o'sha ayollarga nisbatan past, buyumdek qarash sabab buzuq yo'llarga kirgan Mehri, onasining jaholat ortida qilgan jinoyati bois bolaligi jirkanch muhitda o'tgan Kifoyatxon kechmishi tasvirida gender mavzusi yetakchilik qiladi. Ayni paytda, yozuvchi paxta dalasida tengsiz og'ir mehnatga jalb qilingan o'zbek ayoli hayotining haqiqiy manzaralarini epizodik tarzda bo'lsa-da, birinchi bo'lib adabiyotga olib kiradi.

Asar personajlaridan biri kolxozchi ayol so'zlariga quloq tuting-a: "... Mana men, besh bolaning onasiman, erim olтинчи bola... O'tgan yil men sakkiz tonnadan ortiqroq paxta terdim. Bir hisoblab ko'ring-chi, shuncha paxta terganimga necha marotaba o'tirib turdim ekan, bundan tashqari, shu sakkiz tonna yukni ko'tarib necha kilometr yo'l bosdim ekan! Kechqurunlari yana ro'zg'or ishi, bola tashvishi, majlis..."

Umuman, qissada xotin-qizlarga nisbatan shakllangan stereotiplar asosida munosabatda bo'lish, uning aqliy va jismoniy imkoniyatlariga past nazar bilan qarash illatiga tanqidiy munosabat sezilib turadi.

O'tgan asrning 50-yillari o'rtalarida mamlakat ijtimoiy-ma'naviy hayotida ro'y bergan ijobiy o'zgarishlar natijasi o'laroq, "iliqlik" davri yetishtirgan 60–80-yillar

ijodkorlari bu og'riqli mavzuni dadil va keskin ko'tara boshladi. Bu davrga kelib, har tomonlama teng huquqli bo'lgan, "ozod mehnat nashidasi"ni tatib, erkaklar bilan teng mehnat qilish huquqiga ega bo'lgan ayol endi "ikki tomonlama zulm" ostida qoldi. Huquqlar tengligi amalda faqat mehnat borasida bo'lib, tengsizlik boshqacha ko'rinish kasb etdi. Jamiyatda erkaklar bilan barobar mehnat qilish huquqiga ega bo'lgan ayolga nisbatan oilada tengsiz munosabat avvalgidek qolaverdi. "Davlat o'rnatayotgan emansipatsiya jarayonlarining saqlanib kelayotgan patriarxal an'analar bilan chatishib ketishuvi erkaklar va ayollar tengligi faqat partiya hisobotlarida mavjud bo'lib haqiqiy hayotda xotin-qizlar kamsitilishi ishlab chiqarish sohasida ham, xususiy sohada ham saqlanib borishiga olib keldi. Dalalarda butun Sovet Ittifoqi to'qimachilik sanoati uchun paxta yetishtirilgan O'zbekistonda paxta terimi va birlamchi ishlov berilishi uchun, asosan, bola tug'ish yoshidagi ayollar va qiz bolalar mehnatidan foydalanilar edi. Uy-ro'zg'or ishlarini bajarish zarurati bilan bir qatorda malakasiz og'ir ishlarida bandlik ayol organizmiga haddan tashqari og'irlik tushishiga olib kelar edi"<sup>2</sup>.

Bu, bir tomondan, eskicha qarashlarning hali ham insonlar dunyoqarashida mavjud ekanligi bois bo'lsa, boshqa tomondan, butun jamiyatni o'z domiga tortgan iqtisodiy va ma'naviy aynishlar, bo'hronlar oqibati edi. Paxta yakkahokimligi avj olgan davrlarda ushbu siyosatdan butun "dehqon yurti" katta aziyat chekdi, u erkak-u ayol, yosh-u qarini ajratib o'tirmadi. Bu, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalar qismatida mudhish asoratlar qoldirdi.

Pirimqul Qodirovning o'z davrining qishloq (aniqrog'i, chorvadorlar) hayotidagi o'tkir muammolarini ko'tarib chiqqan "Qora ko'zlar" romanida olis tog' qishlog'ida xotin-qizlarning oila, sevgi, nikoh borasidagi huquqlariga nisbatan asrlar davomida shakllangan qarashlar hukmronligi bois oilalarda yuzaga kelayotgan ziddiyatli holatlar, ko'ngilsizliklar ro'yi rost aks ettiriladi.

Romanda masalaning har ikki jihatiga urg'u beriladi. Asar bosh qahramoni Hulkar qishloq udumlariga ko'ra unashtirilganiga emas, sevgan yigitiga turmushga chiqadi, atrofidagilarning ta'na-malomatlariga, gap-so'zlariga qaramasdan, erkaklar kasbini bajaradi, qishoq an'anasini buzib, eri bilan toqqa chorva boqqani chiqib ketadi. Hulkar o'z sevgisi, huquqi va jamiyatdagi o'rni uchun dadil kurashadi va oxir-oqibatda g'olib chiqadi. Ayni paytda romandan o'z vaqtida kuchli rezonansga ega bo'lgan, keng jamoatchilikni qattiq hayajonga solgan adolatsiz siyosat, amaldagi ijtimoiy, qolaversa, gender notenglik qurboni bo'lmish Ma'suda ismli ayol qissasi ham o'rin olgan. Ma'sudaning turmush o'rtog'i

tomonidan hikoya qilingan bu g'amgin qissada yosh qiz boshida ixtiyorsiz turmushga beriladi, o'qish, sevimli kasb haqidagi orzulari barbod bo'ladi; baxtiga turmush o'rtog'ini sevib qoladi, lekin butunlay qishloq udumlari asosida ongi shakllangan oila boshliqlari – qaynona va qaynota izmiga bo'ysunadi, uyining cho'risiga aylanadi, ketma-ket farzandlar tug'adi, boshi-adog'i yo'q ro'zg'or yumushlariga sho'ng'iydi. Buning ustiga, qishloq rahbarlarining zo'ravonlik siyosati tufayli og'ir dala ishlariga jalb qilinadi, salomatligi yomon bo'lishiga qaramasdan qishloq odatiga ko'ra andisha qilib holatini yashirishga harakat qiladi, odob yuzasidan to'yib ovqat yemaydi, oxir-oqibat kamqonlik dardiga yo'liqib dunyodan ko'z yumadi. Hayoti davomida bir marta bo'lsin norozilik bildirishga, nolishga ham jur'at qilolmaydi. O'limi oldidan "Men o'laman, ...rozi bo'ling!" deya eri bilan vidolashadi. Mazkur holat o'sha kezlar uchun yagona emas edi, bu o'zbek qishlog'i hayotining haqqoniy lavhalaridan edi.

Umuman, gender mavzusini bor keskinligi bilan ko'tarish borasida bu yozuvchilarimizning xizmatlarini alohida e'tirof etish zarur.

XX asrning 80-yillari so'ngiga kelib o'lkada milliy uyg'onish, istiqloq nafasi sezila boshlagan pallada ayol sha'ni, haq-huquqi mavzusi yana bir boshqa ko'rinish kasb etdi. Qishloq joylarda aholining turmush darajasi nihoyatda pasayib ketdi, paxta dalalarida kimyoviy dorilardan zaharlanish, kasallanishlar avjiga chiqdi, og'ir turmush zalvoriga chiday olmasdan ayollarning o'ziga o't qo'yishi kabi mudhish jinoyat ko'rinishi keng tarqaldi. 90-yillarda yaratilgan ko'plab nasr va she'riyat namunalari ushbu mavzu o'rin olgan. Xususan, Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida mazkur hodisa asar bosh qahramoni Dehqonqulning xotini taqdirida butun dahshati bilan o'ta haqqoniy tasvirlanadi.


Istiqloq davrida gender masalasi yangicha mazmun kasb etdi, endi o'tish davri qiyinchiliklari sharoitida xotin-qizlarning ahvoli, ishsizlik muammosi, odam savdosi, iqtisodiy qiyinchiliklardan qanday bo'lmasin qutulish ilinjida o'zga yurtlarga ish izlab ketgan ayollar qismati mavzusi yuzaga qalqib chiqdi. Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Iqbol Mirzo kabi ijodkorlar asarlari qahramonlari ana shunday hayot mashaqqatlari girdobida qolib, yo'l axtarayotgan, o'zini ming bir ko'chalarga urib, taqdir sinovlaridan ne-ne azoblarda o'tayotgan ayollardir.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiyotida gender mavzusi uzluksiz tadrijga ega, jamiyatning ilg'or fikrlovchi qatlamining doimo diqqat markazida bo'lib kelgan, u yirik va chuqur tadqiqotlarga boy material bo'lishda davom etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho'lpon. Asarlar. II jild. Roman. Hikoyalar. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
2. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2012.
3. Pirimqul Qodirov. Qora ko'zlar. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007.
4. Гапова Е. Классовый вопрос постсоветского феминизма, или об отвлечении угнетенных от революционной борьбы // Гендерные исследования. 2006, № 15. – С. 144–164.
5. Abdulla Qahhor. Sinchalak. – Toshkent: O'qituvchi, 1982.

## “MAYMUN YETAKLAGAN ODAM” HIKOYASIDA MIFOLOGIK RAMZLAR



Isomiddin Eshonqulov chizgan surat

Inson ongi va tafakkuridagi evrilishlar yangi ehtiyoj hamda kashfiyotlarga omil. Bu jihat badiiy adabiyotda ham o'ziga xos ifoda topadi. Hali yozuv kashf etilmagan davrdayoq vujudga kelgan badiiy adabiyot – xalq og'zaki ijodi o'sha muhit va makon tasavvur va ehtiyojlariga mos edi. Mazkur holat inson tafakkurining olamni anglash, uni idrok etishga bo'lgan izlanish, intilishi samarasi ekanligi tabiiy.

Shu ma'noda, o'tgan asrning 70–80-yillarida o'zbek ziyolilari o'rtasida G'arb falsafasi va adabiyoti namoyandalari asarlari va qarashlarini keng muhokama qilish – yangi yo'l izlash, ana shu qarashlarni ma'lum ma'noda milliy adabiyotga, milliy tafakkurga olib kirish ehtiyoji yuzaga kelganidan dalolat. Bu izlanish hosilasi o'sha davr adabiyoti vakillari bo'lmish M.Muhammad Do'st, A.A'zam, O.Otaxon, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, Sh.Hamro kabi adiblar ijodida yangi an'analar paydo bo'lishiga olib keldi.

Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi ana shu jihatdan ahamiyatlidir.<sup>1</sup>

Bu hikoyaning zamonaviy nasrdagi o'rni haqida bir qancha maqolalar, tadqiqotlar mavjud. Aksariyat adabiyotshunoslar X.Do'stmuhammad, B.Karimov, U.Normatov kabi olimlarning tadqiqotlarida bu asar badiiy-uslubiy nuqtayi nazardan yetarli tadqiq qilingan va bu hikoya o'zining ma'no-mazmuni, tili, ifoda usuli, ramziy-majoziy xususiyatlariga ko'ra o'zbek hikoyachiligida yangi davrni boshlab bergani e'tirof etilgan.

Biroq hikoyaning mifologik xususiyatlariga haligacha hech bir tadqiqotda yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shu bois mazkur maqolada Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasidagi mifologik ramzlar talqini va badiiy obrazlar tahliliga e'tibor qaratamiz.

O'tgan asrning 80-yillarida ziyolilar o'rtasida Osvald Shpenglarning “Yevropa zavoli” asari ko'p muhokama qilingan. Hikoyaning mifopoetikasini ochish uchun ushbu asarga ham to'xtalib o'tish ehtiyoji bor. Adib ham bu asar haqida o'zining matbuotdagi chiqishlarida fikrlar bildirgan. Ayni hikoyaning mazmunida ham, bizningcha, G'arb adabiyotida inson va jamiyatga nisbatan yangi qarashlar, yangi munosabatlar paydo bo'lishiga katta turtki bergan “Yevropa zavoli” asarining izi bor. Bizning bu fikrga kelishimiz bejiz emas. Bu haqida adabiyotshunos M.Xolbekov shunday deydi: “Darvoqe, XX asr oxirlashib qolgan bir paytda, uning yana o'z boshiga qaytganidan darak beruvchi alomatlar sezila boshlagandi. Ya'ni yuz yil burun aytilgan “G'arb sivilizatsiyasi poyoniga yetganligi” mavzusiga yana qaytildi. Fransuz shoiri Sharl Bodler (1821–1867)ning “Biz hammamiz go'yoki abadiy dafn marosimida qatnashayotgandekmiz” mazmunidagi hikmatli so'zlarini anglab olishga, mag'zini chaqishga qaytganligimiz bilinib qoldi. Birgina nomlar – J.Papini qalamiga mansub “Oxirgi odam”, O.Shpenglarning “Yevropa zavoli”, A.Blokning “Gumanizm halokati”, P.Valerining “Ruh tangligi”, E.Gusserlning “Yevropa odami va falsafasining tangligi” boshqa nomlar, ya'ni Romano Gvardini qalamiga mansub “Yangi zamon oxiri”, Daniel Bellning “Mafkura intihosi”, Rolan Bartning “Muallif o'limi”, Ixab Hasanning “Orfey halokati”, F.Fukuyamaning “Tarix xotimasi va oxirgi odam”, Semyuyel Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to'qnashuvi” bilan almashti. Baribir ham, Zigmund Freyd aytingidek, shartli ravishda “madaniyat qanoatlanganligi” deb nom olgan tamoyil o'zgarmasdan eskicha hoida qolaverdi. Gap shundaki, ilg'or G'arb madaniyati o'zining liberalizm ruhidagi ideallariga sodiq qolib, kelajak loyihalarini tuzishni, tarixning u yoki bu “xato”larini tuzatishni davom ettirgani bilan, ayni vaqtning o'zida, inson erkinligi muammosi bilan bog'liq ziddiyatlar hal qilinmaganligi tufayli, baribir orqaga qaytishga majbur bo'ldi”<sup>2</sup>.

O. Shpengler “Yevropa zavoli” asarida umumdunyo tarixiga o'zigacha bo'lgan munosabatni inkor qiladi. “Tamaddunning intihosi bor. U hayot bilan yonma-yon va izma-iz yuradigan o'lim kabi taraqqiyotning yakuni, ruhiyatning qarishi, insoniyat bolaligi tasavvurlarining mahsuli bo'lgan qubballi va gotika uslublarini rad etgan Ona zaminni to'ldirib tashlagan tosh shaharlar qiyofasida moddiy taraqqiyot niqobini kiyib olib madaniyat ortidan izma-iz keladi. U, albatta, o'z nihoyasiga yetadi: dunyodagi barcha madaniy dunyo intihoga sharoit va imkoniyat yaratadi”<sup>3</sup>.



Birinchi, ma'naviy tanazzulga, jahon urushi vayronagarchiliklariga, Sho'ro inqilobi, millionlab odamlar yostig'ini quritayotgan fuqorolar urushiga guvoh bo'lgan O.Shpengler nazarida XX asr insoniyat shu paytgacha erishgan madaniyatlarining intihosi davridir. Bu intihoning o'zining alohida jihatlari va xususiyatlari bor. Bunday xususiyatlardan birinchisi shuki, bu davrda "Mazmunsizlik, zoologiya hukmronlik qila boshlaydi, hamma narsaga befarqlik boshlanadi. Madaniy organizm tarixiy hodisa sifatida o'ladi. Lekin bu jismonan yo'q bo'lib ketishni anglatmaydi, balki endi inson faqat biologik mavjudot sifatida yashay boshlaydi"<sup>4</sup>.

Taraqqiyot XX asrga kelib, ana shunday vaziyatni boshdan kechirmoqda: inson shu paytgacha o'zining ijtimoiy xususiyatlarini namoyon etib kelgan bo'lsa, XX asrdan boshlab uning ruhiyatida biologik mavjudot hukmronlikka o'tdi. Endi inson yana izziga qaytadi, ya'ni unda hayvoniy, biologik ehtiyojlar kuchayib boradi.

Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasida keltirilgan birinchi va oxirgi surat, umuman, qahramon hayotining mazmunsizligi, inson umrining mavhumlikka yuz tutgani tasvirlari, ayniqsa, hikoya qahramoni hayotning birinchi bosqichida ijtimoiy-ma'naviy yuksalish (bu hikoyada odamning o'rmondan maymunni yetaklab chiqayotgani bilan ko'rsatiladi), keyin ma'naviy tanazzul davriga kirganini, ya'ni "biologik ehtiyojlar birinchi o'ringa chiqqanini" (bu holat maymun odamni o'rmonga yetaklab ketayotgani bilan tasvirlanadi) ramzlashtiruvchi qahramon hayoti chizgilari beixtiyor ana shu asardan tug'iladigan tassurotlarni esga soladi. Bu tasodifmi? Bizningcha, yo'q.

Osvald Shpengler "Yevropa zavoli" asaridan so'ng G'arb adabiyotida "Faust" mifologik arxipipi paydo bo'ldi. Dunyo adabiyotida Faust donishmand, hayotning qadrini biladigan, shu bilan birga Shayton bilan bitim tuzgan mifologik obraz sifatida talqin etiladi.

"Maymun yetaklagan odam" hikoyasidagi chol obrazi ko'p jihatdan ana shu obrazga o'xshab ketadi.

Gamlet, Don Kixot, Don Juan ma'lum bir davrdagi madaniyatning timsoli bo'lishsa, Faust jamiki insoniyat madaniyatining timsolidir. Bu Faustning insoniyat taraqqiyotiga xos bo'lgan fazilatlar va nuqsonlarida mujassamdir. U qadimgi madaniyat ko'rinishi bo'lgan Appolondan keskin farq qiladi. Bu obrazni adabiyotga yangidan olib kirishga turtki bergan Shpengler Faust Gyote asarining birinchi qismida harakatdagi, intilishdagi, izlanishdagi, yuksalishdagi madaniy ongini, fojining ikkinchi qismida esa ruhiyati va qalbi so'nish arafasidagi, harakatsiz, faqat aqlga suyanagan, ma'naviy tanazzul bilan birga o'tirgan Yevropaning so'nggi yuz yillik madaniyatini timsollashtiradi, deydi. Shpengler nazarida, Gyotening ulug'ligi shundaki, u "Faust" fojiasi orqali Yevropa madaniyatining yuksalishi va tanazzuli nuqtalarini bashorat qilib berdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Faustning fojiasi uning iblis bilan bitim tuzishi bilan boshlangan. U aynan iblis bilan bitim tuzgani uchun ham halokatga mahkumdur. O'zida insoniyat ongining yuksalishi va tanazzulini timsollashtirgani uchun Faust Shpengler nazarida, insoniyat

tamaddunining yuksalishi va tanazzulini timsollashtiradi. "Yuksalish" va "tanazzul" tushunchalari "Maymun yetaklagan odam" hikoyasining qahramoniga ham xos. U ham avval ongning, aql-idrokning yuksalish, keyinchalik tanazzulini boshdan kechiradi va suratlar orqali adib bu jarayonni timsollashtiradi.

Keyinchalik Shpenglarning qarashlari ta'sirida ijtimoiy hayotning va siyosiy miflarning dialektikasini tahlil qilgan A.Losev asarlarida sho'ro tuzumi aql-idrok, madaniy ongning tanazzuli timsolidi tahlil qilinadiki, "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi qahramoni ko'p jihatdan ana shu tahlillarning badiiy ifodasiga o'xshaydi.

Shundan kelib chiqib aytish kerakki, hikoyadagi chol obrazi o'zi mansub bo'lgan miflashgan siyosatning yoki siyosiy mifning timsolidir.

Chol obraziga yuklatilgan bu xil mifologik vazifa keyinchalik "Qora kitob" qissasining qahramoniga ham ko'chib o'tadi. Qissa qahramoni o'zining hayoti va qarashlari bilan inson ma'naviyatining yuksalish va tanazzulini ramzlashtiradi. Bu asar haqida hali alohida to'xtalamiz.

"Doktor Faust" romanini yaratishda va uning ma'no mazmunida, falsafiy talqinida Tomas Mannga Osvald Shpenglarning Faust haqidagi qarashlari juda katta ta'sir o'tkazgan.

Tomas Manning ushbu romani haqida N.Eshonqulov shunday yozadi: "Roman qahramoni dunyoning eng zo'r taniqli kishisiga aylanish uchun xuddi Faust kabi iblis bilan o'zaro kelishuv bitimini tuzadi. Iblis avvaliga uni fahsh, xudbinlik bilan sinab, o'z tuzog'iga tushiradi. Keyin esa eng muhim shartini qo'yadi. Adrian Leverkuyunga ko'nglining tubida yashirinib yotgan orzusini – dunyoning eng mashhur bastakori bo'lishini kafolatlaydi, bunga erishtiradi, biroq buning evaziga Adrian hech kimni sevishga haqqi yo'q, sevgidan, mehrdan, bir so'z bilan aytganda qalbdan xoli yashashi kerak. Adrian iblisning bu qabih shartlarini qabul qiladi va dunyoning taniqli kompozitoriga aylanadi. Uning har bir yozgani unga beadad shuhrat keltiradi. U endi san'at va tafakkur dunyosining titanlaridan biri edi. Adrian bitimning fojiasini keyinchalik anglab yetadi".

Albatta, N.Eshonqul dunyo adabiyotidagi bu jarayonlardan va bu xil falsafiy qarashlardan bexabar bo'lganda, bizning talqinimizga o'rin qolmasdi. Lekin "Mendan "men" gacha" kitobi N.Eshonqul dunyo adabiyoti an'analardan, oqim va asarlarning falsafiy talqinlaridan ancha yaxshi xabardor bo'lganidan va bu qarashlar hamda an'analarni milliy adabiyotga olib kirishga uringanidan darak beradi.

Xulosa qilib aytganda, "Maymun yetaklagan odam" adib ijodining o'ziga xosligini belgilab beradigan, o'zbek nasrining eng zabardast hikoyalaridan biridir. Hikoya turlicha talqinlar imkonini beradi. Y.Solijonov va boshqa tadqiqotchilar ta'kidlashganidek, N.Eshonqulov ijodida G'arb adabiy-estetik qarashlari ta'siri haqidagi fikrlardan kelib chiqsak, adib ijodining dastlabki bosqichiga taalluqli "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi ham ana shu ta'sirdan xoli emas. Shunday ekan, hikoya poetikasini tahlil qilish dunyo adabiyotining yaxlitligini qayta-qayta isbot qilaveradi.

<sup>1</sup> Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004 y. 212 b.

<sup>2</sup> Xolbekov X. XX asr modern adabiyoti manzaralari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. 9 b.

<sup>3</sup> Шпенглер О. Закат Европы. – Минск: Попурри, 1997. – С. 6.

<sup>4</sup> Шпенглер О. Закат Европы. – Минск: Попурри, 1997. – С. 31.

## SHOIR HAJVIYOTINING TAKOMIL TADRIJI

Abdulla Oripov mutafakkir shoir sifatida xalq qalbini, ming yillar davomida o'zbek xalqi hayot tajribalaridan o'tib, ma'naviy qoliplashgan hikmatlar, maqollar, matallar, hikoyat va rivoyatlarni juda yaxshi bilgan. Shoir xalqimiz yaratgan ma'naviy xazinaga, xalq qalbining diltortar ohanglariga shunchaki ergashmaydi; uning mazmun-mohiyatini to'la o'zlashtirib, o'z badiiy tafakkuri mezonlari, o'zi yashayotgan davr muammolari, hamnafas vatandoshlari va millatdoshlari ko'ngli bilan bog'laydi. Shoir katta muammolarni ham hajviyotga singdirib, o'quvchiga taqdim etish mahoratini mohirlik bilan egallagan:

*Odamlar och,  
Kolbasa lekin kuchuklarga yedirilmoqda.  
Sharh etamiz bu holni sekin:  
Sabablari qidirilmoqda.  
O'ldirmoqda aka ukani,  
Oilalar yemirilmoqda.  
Sababini kim aytar, qani?  
Sabablari qidirilmoqda.*

Mazkur she'r 1990-yilda yozilgan. Ayni mustaqillik arafasida, majlisbozliklar avj olgan, jamiyat turg'un ahvolga kelib qolgan payt. Shoir xalq ruhiyatini, milliy turmush tarzini shirali tilda, hayotiy tasvirlaydi. Bu she'rdagi kulgi achchiq kulgi bo'lib, uning zamirida yo'qotilgan inson umri, foydasiz ishga sarflangan qimmatli vaqtga achinish hissi hukmron. Majlisbozlik qorin to'ydirmasligi, hal qilinmagan biror ishni hal qilmasligi ma'lum haqiqat. Odamlarni ishdan qoldirib, kunini majlisbozlik qilib o'tkazadigan rahbarlarni tanqid qiladi bu she'r. Aka ukani o'ldirsa, oilalar yemirilsa, hatto yer yuzidan katta bir davlat yo'qolsa ham pinagi buzilmaydigan rahbarlar faqat foydasiz ish bilan, ya'ni majlisbozlik bilan ovora bo'lib qolganliklari shoirni iztirobga soladi.

*Samolyotni opqochdi bиров,  
Norozilik bildirilmoqda.  
Javobimiz tayyordir darrov:  
Sabablari qidirilmoqda.  
Yer yuzidan katta bir davlat  
Shitob bilan sidirilmoqda.  
Biz-chi majlis qilamiz faqat:  
Sabablari qidirilmoqda.*

Odamzod paydo bo'libdiki, u kamchilik, nuqson, illat bilan yonma-yon yashaydi. Eng oliyjanob odamda ham boshqalarga ma'qul kelmaydigan qandaydir nuqsonning bo'lishi tabiiydir. Inson komillikka intiladi, lekin unga to'liq erishishi deyarli mumkin emas. Shuning uchun ham odamga yig'i, dard qanchalik doimiy yo'ldosh bo'lsa, kulgi ham shunchalik ajralmas sherikdir.

Shuni aytish joizki, hajviy asarlar dunyodagi barcha xalqlarda bo'lishiga qaramay, unga munosabat turli

millatlarda o'z ma'naviy-axloqiy o'lchamlaridan kelib chiqqan holda turlichadir. Bizning ma'naviyatimizda jiddiyat, andisha ustun bo'lgani uchun ham yozma adabiyotdagi hajviy yo'nalish rivojiga kam e'tibor qaratilgan deyish mumkin. Chunki islomiy axloq o'rinni-o'rinsiz kulishni, birovlarini hajv qilishni unchalik ma'qullamagan. Bu hol badiiy adabiyotimizda hajvchilikning juda ham taraqqiy etishiga imkon bermagan. Lekin diniy, axloqiy aqidalarning qandayligidan qat'i nazar, hayot insonni kulgili vaziyatlar, kulgi va masxaraga loyiq odamlar orasida bo'lishga majbur qilar ekan, tabiiy ravishda, badiiy hajviyot ham yuzaga kelgan va ma'lum darajada rivojlangan.

Biz yuqoridagi she'rni o'qir ekanmiz, majlisbozlik, va'dabozlik ustidan kulamiz, shu bilan birga behuda o'tayotgan umrimizga achinamiz, og'ir o'yga tolamiz. Shoarning "Mehr-oqibat haqida ballada" nomli she'ri bor. Bu she'rda insonlar o'rtasida mehr-oqibatning kamayib ketayotganligi haqida bong uriladi:

*Dema ko'tarildi mehr-u oqibat,  
Birgina chora bor bunday chog' faqat.  
Toki tanangda jon, og'zingda so'zing,  
Endi xabar olgin o'zingdan o'zing.*

Demak, shoir aytmoqchi, birovlardan mehr kutib o'tirma. Xotining, hamkasblaring, hatto ota-onangdan ham mehr kutma, hatto kasalxonaga tushib qolsang ham birovni kutma, deydi shoir. She'ringni ham o'zing o'qi, ko'chadan ulfat izlama, chunki hozir hamma pulning izidan ketgan. Xullas, mehr-oqibat yo'qoldi deb o'tirma, chora izla, uni topishga harakat qil. Hozirgi tezkor, jadal zamonda mehr-oqibat anqoning urug'i bo'lib qolgan. Sog'dan ham, bemordan ham hech kim xabar olmaydi, hammada bahona bisyor: vaqti yo'q. Odamzod hech qaysi jamiyatda ham, zamonda ham yakka holda yashay olmaydi. Odam taftini odam oladi, deydi dono xalqimiz. Shoir oqibatsizlik, mehrsizlikdan tashvishga tushadi. Bu muammoning hazilomuz yechimini topadi: mehr-oqibatni topishga harakat qil, hech bo'lmasa o'zingga o'zing mehr ko'rsat, deydi shoir hazilomuz. Bu, albatta, hazil. Lekin ana shu hazil zamirida og'ir illat aks etgan. Afsuski, bu illat jamiyatda rivojlanib bormoqda. Shoirni ana shu hol bezovta qilgan. Achchiq kinoya orqali hayotdagi illatlarni o'quvchi ko'z oldida namoyon etmoqda.

Abdulla Oripov hajviyotining asosiy mavzusi oddiy xalq, mehnatkash ommaning hayoti, taqdiri, orzu-umidlari to'sqinlik qilayotgan salbiy illatlar, manfaatparast, doim o'z foydasini ko'zlovchi amaldorlarning ustidan ayovsiz, zaharxanda kulish bo'lib kelgan. Garchi, o'zi domla bo'la turib yosh avlodga tarbiya berish o'rniga o'zi shunga muhtoj, fe'li tajang, ig'vogar qahramonni shoir to'g'ri yo'lga solishga harakat qiladi. She'ring

birinchi qismida qahramonning o'y-fikrlari, hayot deb atalmish ummonning past-balandlari, g'am-tashvishlari tahlil etiladi va inson o'zligini hech qachon unutmashligi kerakligi uqtiladi:

*Ruhingizni chulg'amasa  
Nogahoniy bir balo,  
Miyangizning tarxi endi  
Ochilgaydir inshoolo.*

Ikkinchi qismda esa domlaning xarakter xususiyatlari, ig'vogarligi-yu murakkab hajviy xulq-atvori mohiro-na tasvirlanadi. U doim nimadandir norozi, unga hech narsa yoqmaydi, hatto xotinining turishi-yu, bolalarining quvligi, choyxonadagi chollar uning ko'ziga g'iybatchi bo'lib ko'rinadi, tramvayda joy berishmaganda u yanada tajanglashadi, bezovta bo'ladi:

*Bolalar-chi, oh bolalar,  
Tarbiyasiz, quv, suyuq.  
Shox bilan dum bitsa agar  
Shaytondan hech farqi yo'q.  
Xotini-chi, u xotin emas  
Dam so'zlab, dam to'xtaydi,  
Supurgini minib chopgan  
Alvastiga o'xshaydi.*

Bu ig'vogardan uy-ichi, mahalla-ko'y, hamkasblari tugul ishxonasidagi gullar ham cho'chidi, o'zi esa o'rgimchak misoli o'zini panaga olib o'ljasiga tashlanishga shay bo'lib turadi. Gazetani varaqlab, yana xunobi oshadi: "Mukofotni berishibdi padarla'nat anovga"<sup>1</sup>. Xabarni o'qigach yana ig'vo, fitna boshlanib ketadi. Adabiyotning vazifasi go'zallik, yaxshi xulqlarni ko'rsatish bilan bir qatorda insonlarni tarbiyalash, to'g'ri yo'lga solish hamdir. Ushbu she'r to'g'ridan to'g'ri hajvga olingan obyektga murojaat shaklida yozilgan bo'lib, unda mazax, kalaka, kulgidan ko'ra ayblarini yuziga

solib fosh etish yetakchilik qiladi. Shoir shu maqsadda: "Dil ochsangiz, jami odam dilkash erur sizga ham", deya nasihat qiladi. She'r so'ngida domlaga murojaat qilib, uni insofga chaqiradi va uning zamirida piching va kinoya yotadi:

*Endigi so'z... xullas, fe'lni  
Kengroq qiling, domlajon.  
Sizning ko'rgan bu kun esa  
Kun emasdir hech qachon.*

Novator shoir sifatida Abdulla Oripov hajvni yangi bosqichga olib chiqa oldi va buning uchun turli badiiy vositalardan keng foydalandi. "Imom" she'rida bu yaqqol namoyon bo'ladi:

*Hazratim, aslida Sizga ham qiyin,  
Somelar ko'pincha qilishar o'yin.  
Avval ortingizda namoz o'qishar,  
Qatiqqa suv qo'shib sotishar keyin.<sup>2</sup>*

Xulosa qilib aytganda, hajviyotda satira ko'proq dunyoning nomukammalligini va insoniy illatlarni shafqatsizlarcha masxara qiluvchi tur bo'lib, satirada kulgini namoyish etish usuli hamda masxara qilish tufayli muallifga nuqsonli bo'lib tuyulgan hodisa yoki narsani yo'qqa chiqarish tushuniladi va unda fosh etish xususiyati mavjud bo'ladi. Hajvnavis yuz berayotgan hayot hodisalarini tahlil qiladi, uning asl mohiyati yashirin ko'rinadigan va aldamchi kiyimlarni olib tashlaydi, befarqlik, go'llik, shuhratparastlik, ochko'zlik va insonning boshqa kamchilik hamda illatlarini fosh qiladi. Bundan tashqari, hajvnavis har doim salbiy hodisa va holatlarini yerga urishga, uning bema'ni, badbashara ko'rinishini nafrat to'la kulgi bilan ifodalab berishga intiladi. Abdulla Oripov ham ko'proq satira tig'i bilan hayotdagi nuqsonlarni yo'qotishga, odamlarni ogohlikka chaqirishga intiladi.

<sup>1</sup> Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. 1-jild, 11-bet.

<sup>2</sup> Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. 5-jild, 113-bet.

**Muxayyo RAYXONOVA,**

Qarshi davlat universiteti Adabiyotshunoslik  
kafedrasida o'qituvchisi

## BORLIQDA INSON O'RNINI VA UNING VAZIFALARI MUAMMOSI

(Abdulla Oripov she'riyatida misolida)

Mutafakkir shoir sifatida Abdulla Oripov she'riyatining markazida ham inson va uning hayoti, borliqdagi o'rnini, vazifalari masalasi turadi. Albatta, shoir tug'ilgan va dunyoqarashi shakllangan sho'ro tuzumining bosh shiorida ham – garchand mohiyat bo'lakcha bo'lsa ham – "Hammasi narsa inson uchun, uning baxt-saodati uchun!" deyilgan edi. Abdulla Oripovning mashhur to'rtligi bor:

*Koinot gulto'ji – Insondir azal,  
Undadir eng oliy tafakkur, amal.*

*Lekin u tubanlik ichra ham tanho,  
Yo falak! Ijoding buncha mukammal.*

Mana shu to'rtlik Abdulla Oripovning insonga oid nuqtayi nazarining ham, butun ijodining ham programmasi, desak bo'ladi. Chunki unda Abdulla Oripovning inson va uning borliqdagi o'rniga oid qarashlari tezis shaklida o'z ifodasini topgan. Ya'ni:

1. Inson – mulki borliqdagi eng ulug' mavjudot. Ya'ni koinot gulto'ji (1-misra).

2. Tafakkur faqat ungagina berilgan (2-misra).
3. Inson tubanlikda ham yagona (3-misra).
4. Ikki qarama-qarshi tomoni bilan u oliy darajada mukammal qilib yaratilgan (4-misra).

Shoir butun ijodi davomida insonning mana shu xil tiyatiga turli rakurslardan nazar tashladi. Shu tezislarni lirik, dramatik, liro-epik planda keng badiiy voqelantirdi. Inson siymosida azal-abaddan mujassam ziddiyatni badiiy talqin qildi. Shoirning butun ijodini yaxlit holda ko'z oldimizga keltirsak, ayon bo'ladiki, eng oliy mavjudot o'laroq xalq etilgan odamzodning shaytoniy qilmishlari uni ko'proq tashvishga solgan. U insoniylikka zid illatlarni ko'proq qalamga olgan. Buni adibning badbinligi emas, o'z qavmini mukammal, yorug' siymoda ko'rish istagidan tug'ilgan iztirob, dardlari deb tushunishimiz kerak. "Tilla baliqcha", "Temir odam", "Xatolar", "Mo'min Mirzo", "Avgust to'rtliklari" kabi qator she'rlarida insonlik rutbasiga soya soluvchi qusurlarni qalamga oladi.

Inson siymosida buyuklik va tubanlik birday mujassamlashganida oid badiiy-g'oyaviy mazmun shoir she'rlaridan qizil ip bo'lib o'tadi, shoir uni qayta-qayta ta'kidlayveradi. Iftixor, maqto'v bilan zimdan fojialar tasviri yonma-yon keladi.

*Odamni mahv etur farzandi odam  
 Ammo odam erur tomoshabin ham...  
 O, buyuk mavjudot, hazrati inson,  
 Sening asling gohi g'aflati inson.  
 Sen gahi barkamol bo'lib ko'rinding,  
 Gahi bechorahol bo'lib ko'rinding.  
 ...olam uzra bu kun ko'tarmishsan qad,  
 Unutma, buyuksan, buyuksan behad.  
 ("Malomat toshlari" she'ri, 1976-yil.)*

Abdulla Oripov insonni, eng avvalo, tabiatning ajralmas bir bo'lagi deb angelaydi. Agar shoirning o'zi yozgan tarjimayi holiga ham, she'rlariga ham sinchiklab nazar tashlasak, tabiatning juda ingichka tasvirlarini ko'ramiz, ya'ni u tabiatni ham o'zini bilgan kabi chuqur biladi, bilishga intiladi. "...Hayotning buyuk saltanati bilan o'z qondoshligini, mushtarakligini, birligini anglamaslik emas, balki anglash tuyg'usi ruhimizni tabiatning sirli hodisalarida o'z aksini ko'rishga majbur etadi!.. – deb yozgan edi inson va tabiat munosabati haqida buyuk rus tanqidchisi V.Belinskiy. – Chamasi, ruhimiz insonda shaxs bo'lib qaror topgan individualligi bilan umumdandan ajrab chiqqan sayin o'ziga qondoshligini sezishdan mahrum tabiat bilan yaxliligini shu qadar jonliroq va teranroq anglay boshlaydi... Tabiatda bizning ruh yo'q, lekin bizda tabiat ruhi bor. Negaki, borliqning qonuni shunday: oliy mavjudot pastrog'ini o'zida jamlagan bo'lishi shart. Ha, bizning ruhimizda tabiat bilan umumiylik bor va bu umumiylik hayotdir".

Shoir she'riyatida tabiiy mavjudot sifatidagi insonga oid ko'zga hadeganda tashlanavermaydigan yana bir haqiqat badiiy idrok etilgan: odamzod hayotining tashqi tomonlari o'zgardi-o'zgaryapti-o'zgaradi, lekin uning fitrati, tuyg'ulari azaldan qanday berilgan bo'lsa, shundayligicha qoladi, o'zgar olmaydi.

Abdulla Oripov inson va uning yaratilishi, borliqdagi o'rniga oid ana shu ilg'anmas, ammo o'ta muhim haqiqatni mutafakkirning ko'zlari bilan ko'ra olgan. Bu xil anglamda yangi zamon kishisini tarbiyalash da'vo-

sidagi sho'rocha konsepsiyaga yashirin raddiya bor. Qizigi shundaki, shoir bu haqiqatni juda erta anglagan. 1965-yilda yozilgan "Uyqu" she'rida o'qiyimiz:

*Asrim, samolarda yoqolding chiroq,  
 Yulduz qilib otding samoga o'zni.  
 Qo'zg'ata olmading o'rnidan biroq  
 Askar yelkasida turgan yulduzni.  
 Asrim, izga solding ummonlar kuchin,  
 Yaratmak istading so'nmas bir chiroq.  
 Biroq gulzoringni toptamoq uchun  
 Qaydadir razilga berib qo'yding joy.*

1979-yilda yozilgan "Kavkaz" she'rida ham xuddi shu motiv ko'zga tashlanadi:

*Qor kabi pokiza, tog'dek sarbaland  
 O'tyurak insonlar diydori armon.  
 Inson dasti ko'kka yetsa ham garchand  
 G'arib tuyg'ularga tutqun u hamon.  
 Hamon qaylardadir hasad, xusumat  
 Eng oliy hislarni toptagay mutloq.*

Birinchi parchaga ko'ra, shoir deydi: odam bolasi osmonga chiqdi, o'zga sayyoralarini tadqiq qildi, ummon osti dunyosini zarrama-zarra o'rgandi, lekin o'zidagi tabiatida azaldan mavjud ochko'zlik, o'zgalari ustidan hukmron bo'lish, razillik, buzg'unchilik kabi mayllarni yenga olmadi. "Kavkaz"dan olingan parchada ham xuddi shu ruh bor: odamning qo'li ko'kka – yulduzlariga yetdi-yu, lekin tuyg'ulari o'sha-o'sha. Badiiy matnni yuza sathlariga ko'ra tahlil qilsak, manzara shunday. Lekin chuqurroq tushsak, ayon bo'ladiki, yosh shoir g'ayriixtiyoriy ravishda Yaratganning qudratini idrok etyapti. Insonning ixtiyoridan tashqaridagi, unga bog'liq bo'lmagan hodisalar ham borligidan so'z yurityapti. Odam aql-u tafakkur bilan olam sirlarini ochishi, tabiatni o'z foydasiga xizmat qildirishi va boshqa yana juda ko'p buyuk ishlarni amalga oshirishi mumkin, lekin u Alloh belgilab qo'ygan chegaradan o'ta olmaydi – o'zgartirish mumkin bo'lmagan narsalarni o'zgartira olmaydi. Shoir inson koinot gulto'ji bo'lsa-da, o'z Parvardigori oldida ojiz ekanligini e'tirof etyapti.

Sho'ro mafkurasi bilan qarama-qarshi kelib qolgan tarixiy-ijtimoiy muhitda yashagan shoir she'riyatida ba'zi bahsli nuqtalarning paydo bo'lishi tabiiy hol edi. Bu jihatdan "Tafakkur monologi" she'ri ahamiyatli. She'r 1976-yilda yozilgan. Tafakkur tilidan so'zlayotgan shoir avvaliga:

*Asrlar qa'ridan o'taman sokin,  
 Menga bari birdir – kim qul, kim hokim.  
 Sizning qutqu bilan zarra ishim yo'q,  
 Shundoq salobatli karvonman ulug', –*

deya insonni har qanday toifalash, har qanday ijtimoiy iyerarxiyalashga qarshi o'z programmasini e'lon qiladi. She'ning 2-qismida esa marksistik ta'limotning aniq izlarini ko'ramiz:

*Meni atadilar xudo deb avval,  
 Payg'ambar dedilar va daho tugal.  
 Buyukman baridan ming-minglab karra,  
 Xudo ham, daho ham mendan bir zarra.*

Aminmizki, shu monolog istiqloq yillarida yozilganda, shoir aslo bunday yozmas, inson tafakkurini Xudodan ming-minglab karra buyuk, Xudo tafakkurdan bir zarra, demas edi. Bu yerda “din tabiat stixiyasi oldida ojiz qolgan ibtidoiy odam tomonidan o‘ylab topilgan” degan materialistik aqida she’riy talqin qilingan deb o‘ylaymiz.

Abdulla Oripov fenomenidagi inson konsepsiyasida bir-biriga zid bo‘lib tuyuladigan ikki nuqta bor. Birinchisi shuki, odam, albatta, jamiyat ichida, jamoa bo‘lib yashashi kerak. Bu, albatta, yangilik emas. Jamiki progressiv mafkuralar, falsafiy ta’limotlar shunday deb uqtiradi. Individualizm, egoizm qattiq qoralanadi. “Kuz xayollari” she’rida olamni, umrni falsafiy idrok etishga urinayotgan yosh shoir kuzgi xayollarini “Xazonlar shoshadi, shoshaman men ham, Do‘stim, huzurimga shoshib kel sen ham”, deya yakunlaydi. Insonning insonga muhabbati – uning uchun hayotning eng oliy a’moli va shu bois “sevgisiz odam” degan so‘z unga haqorat bo‘lib tuyuladi. Bu jihatdan 1963-yilda – shoir 22 yoshida yozgan “Odamlar” she’ri nihoyatda katta axloqiy, badiiy-estetik mazmun tashiydi. Qosh qoraygan, manzil hali uzoq. Ovulda yo‘lovchini tunab qolishga tak-

lif qilishadi. Zo‘rlash ham yo‘q: “Tag’in o‘zing bilasan...”. Yo‘lovchi qoladi, tuni bilan choyxo‘rlik, suhbat... Erta tongdayoq yo‘lovchi jo‘nab ketadi. Mehmon va mezbon hatto bir-birlarining nomlarini ham so‘rashmaydi. O‘zbekona hayotning oddiy kundalik manzarasi. Biroq unda nafaqat milliy mentalitet, balki umuman, katta insoniylik, beta‘ma yaxshilik qilish kabi ulkan olijanoblik ma‘nosi yashiringan.

Abdulla Oripov ilk izlanishlaridanoq xalq qalbidan o‘rin oldi, xalqimiz nazariga tushdi; milliy ruh ila o‘zbek xalqi dilidagi orzu-armonlarni badiiy tasvirlab, inson ruhiyatini jami murakkabliklari bilan ifodalash yo‘lidan bordi. Shoir she’rlarida shaxs va jamiyat ruhiyati, olam va odam g‘am-tashvishlari, orzu-umidlari, baxt-saodati kuylanadi. Shu boisdan ham shoir asarlarida ezgulik, adolat, go‘zallik singari umuminsoniy qadriyatlar talqini asosiy o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek she’riyatida falsafiylik ustuvorlik qiladi. Abdulla Oripov ijodi orqali o‘quvchi qalbi tarbiyalanadi. Inson qalbi va uning inja tuyg‘ulari shoir ijodi orqali kamol topadi.

Saida MAKSUMOVA,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

## TOG‘AY MUROD ASARLARIDA GRAMMATIK TAKROR ORQALI EKSPRESSIVLIKNING IFODALANISHI

O‘zbek adabiy tilining rivojlanishi, umummilliy adabiy til darajasiga ko‘tarilishida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos. Shunday ekan, o‘zbek adabiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan ijodkorlar asarlarining tili va uslubini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda yozuvchi Tog‘ay Murod asarlarining o‘ziga xos uslubiy jihatlarni o‘rganish diqqatga sazovordir.

Tog‘ay Murod asarlarida grammatik takror orqali ekspressivlikning ifodalanishi kuzatiladi. Yozuvchi ijodida grammatik takrorlarning quyidagi ko‘rinishlarini uchratish mumkin:

**1. Bir o‘zakli so‘zlarning qaratqichli birikmalari.** Intensivlikni ifodalovchi bu konstruksiya sifat va o‘zida biroz belgi tasavvurini ham ifodalovchi otning birikuvidan tuziladi. Bunda bir sifat yoki bir otning aynan o‘zi qaratqich+qaralmish shakllari vositasida takrorlanadi: *go‘zallarning go‘zali, donolarning donosi* kabi. Quyidagi misolga e’tibor bering: *Erkaklarning erkagi olishadi, ha! – dedi. – Ana, Xidir polvon, kezi kelganda davrani gursillatib olishib keta beradi.* [1: 50]

Ba‘zan qaratqich kelishigi belgisiz holatda kuzatiladi: *Ot mo‘l bo‘lsa, aksincha bo‘ladi. Bunda zo‘rlar zo‘ri, otlar oti uloqqa talpinadi. Bundayroq otlar to‘da chetida tomoshago‘y bo‘ladi.* [1: 155] Bu gapda qo‘llangan qaratqich+qaralmish munosabatidagi birikmalar orqali ma‘no kuchaytirilgan, belgi bo‘rttirilgan (*zo‘rlar zo‘ri* – eng zo‘r; *otlar oti* – eng yaxshi ot) va shu orqali nutq subyektining ijobiy baho munosabati ifoda etilgan.

**2. So‘zlarning -mi+san shakllari orqali takrorlanishi.** Bu konstruksiya bir otning yoki sifatning -mi+san qo‘shimchalari bilan shakllangan holda takrorlanishidan hosil bo‘ladi va doim predmet belgisining o‘ta darajada kuchli ekanini ifodalashga xizmat qiladi. Otdan tuzilgan bunday konstruksiyalarda belgi bildiruvchi so‘z ishtirok etmaydi, lekin qandaydir belgi tasavvuri kuchaytiriladi. Masalan: *O‘ziyam, yigitmisan yigit edim-da. Mening kimligimni kunduzi-da bilsa bo‘lard, kechasi-da bilsa bo‘lard.* [1: 94] *Yigitmisan yigit* deganda eng yaxshi yigit, ya‘ni yigitning kuchliligi, aqlliligi, bilimi, zehni, kamtarligi kabi belgilari mujassam bo‘lib kelgan. Shuningdek, gapda nutq subyekt, ya‘ni shaxsning o‘zidan faxrlanishi, g‘ururi, maqtanishi kabi tuyg‘ulari -mi+san munosabatidagi so‘zlarning o‘zaro muvofiqlashuvi orqali namoyon etilgan.

**3. Bir o‘zakli so‘zlarning chiqish kelishigi (-dan) qo‘shimchasi orqali takrorlanishi.** Bu konstruksiya miqdor-daraja ravishlari, sifat, son, sifatdosh kabilardan tuziladi. Daraja-miqdor ravishlaridan tuzilgan gaplarda predmet, hodisa, belgining miqdor jihatidan ko‘p yoki oz ekanini kuchaytirib ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Mening kallam yaltirab qoldi. Bitta-da soch bitmad!* *Do‘xtirlar ajablendi, kamdan kam uchraydigan voqea, dedi.* [1: 102]

Quyidagi gaplarda *Bo‘ri polvon juda hayron bo‘ldi, bug‘ juda quyuq bo‘ldi*, deb berilishi kerak edi. Yozuvchi ta’sirchanlikni oshirish uchun *hayron* va *quyuq* so‘zlarini takror qo‘llaydi. Natijada, chiqish kelishigi qo‘shimchasi orqali takror so‘zlarni bog‘lab ekspressivlikni oshirgan:

*Bo'ri polvon hayrondan hayron bo'ldi.* [1: 66] *Polvonlar og'zidan chiqmish bug' quyuqdan quyuq bo'ldi.*

Tog'ay Murod bunday shakldagi takrorga *-lan* fe'l yasovchi qo'shimchasini qo'shib ma'no kuchaytirishning o'zgaracha turini hosil qilgan: *Ma'yusdan ma'yuslandi. Ma'yus bosh egdi, ma'yus xayollandi.* [1: 243] *Qahrim qo'zigandan qo'zidi.* [1: 127] Bu gapda qo'llangan *qo'zigandan qo'zidi* takrori juda ham *qattiq g'azablandi* ma'nosini ta'sirchan ifoda etishga yordam bergan. Yuqoridagi gaplarda ham *-dan* chiqish kelishigi bog'lovchilik vazifasini bajarib, analitik shaklni hosil qilishda ishtirok etgan. Yozuvchi tomondan hosil qilingan bu grammatik takror orqali harakat ifodasining ta'sir kuchi bo'rtirilgan.

**4. Bir o'zakli so'zlarning egalik qo'shimchasi orqali takrorlanishi.** Bir o'zakning 3-shaxs egalik qo'shimchasi yordamida takrorlanishi ham o'ziga xos ekspressivlik hosil qiladi. Bunda voqea-hodisaning doimiy, davomli ravishda bo'lib turishi kuchaytirilgan holda ifodalaniadi. Masalan: *O'g'lim o'ktamligida yulduzlar yongani yongan bo'ldi. O'g'lim mag'lubligida so'ngani so'ngan bo'ldi...* [1: 100] Ushbu gaplarda qo'llangan *yongani yongan, so'ngani so'ngan* grammatik takrori orqali harakatning me'yordan ortiq darajada, hamma vaqt bajarilishi ifoda etilgan. Harakat tarzining bu shaklda bayon etilishi ifodaning ta'sirchanligini ta'minlagan. Shu bilan birga, gapda grammatik takror orqali nutq subyekting baho munosabati (e'tirozi) ham aks etgan: *Xaloyiq, ko'rdilaring, Boboqul polvon bilan Mamat polvon ne vaqtdan buyon olishib, na yiqitadi, na yiqiladi! Yerga qarab suyashib yurgani yurgan!* [1: 31] *Bilib qo'y, oshna... izingdan surganim surgan! Qayerda davra bo'lsa, izingdan quvib boraman!* [1: 99] Tog'ay Murod bu gaplarda ham harakatning me'yordan ortiq darajada, hamma vaqt bajarilishini sifatdoshning 3-shaxs shaklida ifoda etgan.

Yozuvchi sifatdoshning takrorini 1-shaxs shaklida ifodalab asar qahramoni bir so'zli ekanligini, fikri qat'iy ekanligini ta'sirchan ifodalab bergan: *Haq-nohaqni men – o'zim ajrim qilaman! Aytganim aytgan, deganim degan.* [1: 17]

#### 5. Aynan bir so'zni takror holda qo'llash.

Tog'ay Murod ma'noni kuchaytirish maqsadida bir so'zning aynan takrori, ayniqsa, fe'lning vazifadosh shakllaridan biri – ravishdoshning takrorini ko'p qo'llagan. Masalan: *Davrada ikkita go'zal eshilib-eshilib o'ynadi, to'lg'onib-to'lg'onib o'ynadi.* [1: 14] *Bolasi Momoqiz ro'molini tortqilab-tortqilab turdi.* Ravishdoshning bo'lishsizlik shakli ham takrorlanib, ekspressivlikni oshirishga xizmat qiladi: *Bo'ri polvon yosh polvonga mensimay-mensimay qaradi.* [1: 51]

Quyidagi parchada yozuvchining o'ziga xos uslubi ni ko'rish mumkin: *U, o'roq o'rib-o'rib... ro'molining uchi ko'kragiga tushib-tushib... uni tag'in yelkasiga tashlab-tashlab... menga qiyo boqib-boqib... Zulflarini toblab-toblab... Ham iboli, ham ginali kulib-kulib... qo'shiq aytadi.* [1: 99]

Ot so'z turkumi takror va juft holatda keladi: *Taboq-taboq palov suzildi. Olam-jahon odam bo'ldi.* [1: 15]

Sifat so'z turkumi takrorlanadi: *Ayniqsa, hind kinolaridagi qizlar! Suv bilan yutguday qizlar! Suluv-suluv qizlar! Og'ir-og'ir toshlar gurs-gurs yumalaydi.* [1: 98]

Yozuvchining mahoratini shunda ko'rish mumkinki, u gaplarda takror so'zlarni ketma-ket qo'llab badiiy nutqning ta'sir kuchini oshirishga erishgan: *Adirlar o'rkach-o'rkach bo'ldi. Tovatoshlar ulkan-ulkan bo'ldi. Yong'oqlar azim-azim bo'ldi.* [1: 230]

Ravish so'z turkumi takrorlanadi: *Ohista-ohista joyidan turdi. Qo'l chil azal-azaldan man etiladi.* [1: 35] *Shu-shu o'ylasa, ko'ngli tub-tubida parokandalik kechar edi.* [1: 43]

Bizga ma'lumki, bir soni so'z oldidan qo'llanganda ma'noni kuchaytirib keladi: *Bir kuldi, bir urdi.* Tog'ay Murod bunday birikmani takror qo'llab ma'noni yanada bo'rttiradi: *Sollanib-sollanib bir uchdi-bir uchdi-ye!* [1: 243]

Misolalar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, Tog'ay Murod asarlarida qo'llangan grammatik takrorlarning barchasi ma'noni kuchaytirish, bo'rttirish uchun, ta'kidni oshirish uchun xizmat qilgan. Shu bilan birga, nutq subyekting baho munosabatini aks ettirgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, 2008.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Qosimova M.B. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog'ay Murod asarlari asosida): filologiya fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 2007.

**Qonaqbay TURDIBAYEV,**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
Qoraqalpoq filologiyasi fakulteti dekani, f.f.n., dotsent

## DAVR RUHIYATINI TASVIRLASHDA LIRIK QAHRAMONNING O'RNINI

Haqiqiy she'riyat davr kayfiyati va ruhiy kechinma bog'lamidan vujudga keladi. Ma'no ziddiyati badiiy fikr mantiqiy taraqqiyotiga yo'l ochadi. Poetik maqsad-mudao aniqligi aslida alohida ijodiy dunyoqarsh hosilasi, unda ruhiy holatgaingan ijtimoiy manzaralar jilvalanadi, ko'ngil rozi umuminsoniy salmoq kasb etadi, an'ana bardavomligi uslubiy izlanishlar hosil qiladi, hissiy idrok va estetik tanlov yaxlitlashadi, ifoda usuli va tahlil mala-

kasi markazlashadi. Shaxs falsafasini milliy o'lchamda tadqiq etishga ixtisoslashgan har bir adabiy talqinda lirik ifoda subyekti davr haqiqatiga payvandlanadi. Unda tasvir ruhiyatini muntazam yangilash mayli mohiyatan shakl-mazmunda poetik voqelanish darajasini tavsiflaydi.

Milliy mustaqillik davri qoraqalpoq nazmi solnomasida T.Sarsenbayev ijodi mustahkam o'rin tutadi. Ruhiy holat manzarasini publitsistik ohangda qayta tiklashga

intiladigan adabiy talqinda ifoda miqyoslarini kengaytirish malakasi yetakchilik qiladi. Ta'bir joiz bo'lsa, lirik tasvir fitratida xayol va hayot, istak va imkon, holat va harakat ziddiyati mantiqiy kengliklar hosil qiladi. Tug'yon shiddati hamda hissiy idrok omuxtalashgan "Jarshi" (1974), "Qubiluv" (1980), "Debduv" (1977), "Qiynavul" (1983), "Shabivul" (1986), "Dunya menen dartlesuv" (1990), "Tanirqant" (1995) she'riy to'plamlari bilan kitobxon ko'ngil saltanatiga kirib borgan ijodkor talqinida inja ruhiy kechinma, ifoda mustaqilligi hamda nafis ishorat ustuvor! Muallif ko'ngil falsafasi ijtimoiy mohiyatini taftish va tavsiflashga urinadi. Iztirobga qoniq jarayonda qoraqalpoqona ohang, milliy idrok va ijodiy tasavvur g'alati tarzda omuxtalashadi:

*Ko'z o'ngimdan yalt etib o'tar,  
Chaqmoq kabi qamashtirar ko'z,  
Qaldiroqlar dilni zabt etar,  
Yomg'ir kabi yog'iladi so'z. [1: 65]*

Tug'yon jilvasi va anglam po'rtanasida qabarib ko'rinadigan ruhiy kechinma aslida shoir xotirasi quyqalari, muvaqqat va o'zgaruvchan kayfiyatda oniy lahza ijtimoiy suvrati chiziladi. Holat manzarasidan ruhiy kechinma tadrijiga o'tish yordamida she'r daxlsizlik maqomini oladi. Poetik lavhada ranglarda hissiy tovlanuvchan tashbehlar, tasvir harakatiga ko'chadigan teran mushohada zalvori seziladi. Shaxs ruhiyatiga hamohanglik – shoir lirikasi yetakchi taomili. Umumiy g'oya va uning yaxlit tasavvurda namoyon bo'lishi muallif badiiy izlanishlari o'ziga xosligini belgilaydi. Ijodkor lirikasida holat manzarasi tahlil malakasini aniqlashtiradi. Qabarib ko'rinadigan kuchli ehtiros falsafiy talqinni detallashtiradi. Xos ifodada u aksar hollarda ruhiy kechim shiddatini ta'minlash maqsadida tafakkur jilosini kuchaytiradi. Fikriy tiniqlik va ravon tasvir usuli joriy ijod muvaffaqiyatini tayinlaydi. Tuyg'u tabiati hamda ifoda mustaqilligini markazlashtiradigan muallif konsepsiyasida tasvir miqyosi o'zgachaligi bo'rtib turadi. Hayrat hamda zavq-shavq tug'dirishga qodir sohir she'riyat uslubda barqarorlik va ruhiy ishlanmani birlashtiradi. Dardni idrok etishga moyillik hamda shafqatsiz ifoda she'r falsafasini belgilaydi:

*Chorasizlik chulg'aydi jonni,  
Armon etib so'nggi diydorni,  
Intiq kutmay shirin visolni,  
Ayriqliqqa eltar ilhomni. [1: 65]*

Shoirning xalq tilidan o'zlashtirgan nozik qochirimlari, teran obrazga qoim iboralari, falsafiy mushohadaga yo'g'rilgan ifoda yo'sini allaqachon muxlislar qalbini zabt etgan. Bu borada adabiyotshunos-olimlar, she'riyat ixlosmandlari tomonidan shoir lirikasi o'ziga xosligi, she'riy ifoda subyekti haqida iliq fikrlar bildirilgan. Monografik tadqiqotlarda ijodkor adabiy talqini tabiati, badiiy mushohada mantiqiy taraqqiyoti u yoki bu darajada nazariy umumlashtiriladi [2: 122–124]. Jumladan, professor Q.Orazimbetov T.Sarsenbayevning "Dunyo bilan dardlashuv" to'plamidagi she'rlarning falsafiy qamrovini ta'kidlab, lirik qahramon kechinmalarini o'quvchiga yetkazishda estetik ta'sirchanlik, urg'uda assonans va alliteratsiya vazifadoshligiga e'tibor qaratadi. Muallif

shoir ijodini I.Yusupov, M. Qarabayev, K.Rahmonov, B.Genjamuradov lirikasi bilan ichki muqoyasada tavsiflaydi. [3: 89–90] Ilmiy qarashlarda e'tiborni tortadigan asosiy jihat badiiy mahorat hamda ijodiy an'ana birikuvi asosiy o'ringa ko'tarilganligiga bog'liq. Ayniqsa, shoirning "Achchiq qand" to'plami muallifning tinimsiz mehnatlari, ko'p yillik izlanishlari samarasi bo'lib, unda shoirning estetik ta'sirchan, ma'no mag'zi teran ijod namunalari o'rin olgan. Masalan, shoirning bu to'plamdan o'rin olgan "Shinglaniv", "Qubiliv", "Tangirqant", "Kunning qurishi", "Aspan astinda", "Kisining kadiri", "Dunyo", "Adam kuni adam" kabi ijod namunalari jamiyat va borliqning o'zaro aloqalarini haqqoniy baholay olishi, kutilmagan xulosalar berilganligi bilan diqqatga sazovor. Bu ijod namunalari lirik qahramon kayfiyatida haqiqatga intilish, borliq sinoatlaridan ogoh bo'lish, qalb, ruh va jism birligiga erishish hodisalari kuzatiladi. T.Sarsenbayevning "Tangirqant" to'plamiga kirgan "Muhabbat fasllari" deb nomlangan she'ri hozirgi adabiy jarayondagi qoraqalpoq adabiyoti intim lirikasiga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi, desak adashmagan bo'lamiz. Shoirning bu ijod namunasidagi so'z saralash mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Tuyg'ular nafasi ufurib turgan she'r satrlari kitobxon qalbiga g'oyibona his-hayajon soladi.

Malaka oshirish tizimiga innovatsion-variativ yondashuv tizimini joriy etish – pedagog kadrlar kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq malaka oshirish sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir-birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etish, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Pedagog kadrlar malaka oshirish tizimida ta'limning andragogik modelini

qo'llash, innovatsion yo'naltirilgan amaliyot va pedagog kadrlar kompetensiyalarining yetarli darajada ilmiy asoslanmaganligi o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish imkonini beradi.

Malaka oshirish tizimiga innovatsion-variativ yondashuv, avvalo, malaka oshirish tizimi sifatini belgilovchi asosiy omil, davlat, jamiyat, ta'lim muassasalari va pedagoglar talablari, ehtiyojlari hamda imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim dasturlari va ta'lim xizmatlari variantlarini ishlab chiqish, taqdim etish ko'rsatkichi, barcha malaka oshirish jarayoni qatnashchilarining ta'lim maqsadlarini amalga oshirish, davlat talablari



asosida ta'lim mazmuni, ta'lim texnologiyalari, faoliyat va muloqot vositalari va usullarini tanlashda hamkorlikdagi faoliyatni, shuningdek, ularning ehtiyojga asoslangan malaka oshirishga talablarini qondirish, tizimlilik asosida malaka oshiruvchilar uchun yagona ta'lim sifatini ta'minlash bilan bog'liq jarayon sifatida qaraladi. Bundan tashqari malaka oshirish tizimiga innovatsion-variativ yondashuv, malaka oshirish jarayonining turli bosqichlarini tanlashda malaka oshiruvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etish usullari sifatidagi ta'lim texnologiyalari tushunchasini kengaytirish imkonini berishi, uzluksizlik – ta'limni tadqiq qilishning metodologik tamoyili sifatida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida muhim global muammo sifatida ko'rsatiladi.

Malaka oshirish jarayonida variativlik, pedagog kadrlarning malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlari inobatga olingan resurslarni yetkazib beradi, malaka oshirish tizimidan esa uning pirovard mahsuloti – ma'naviy-madaniy sifatleri va kasbiy kompetentligi zamon talablariga javob beradigan pedagogik kadrlarni oladi va iste'mol qiladi. Buning o'ziga xosligi shundaki, tizim faoliyatining mahsulotlari qoidaga ko'ra muhitda yaratilishi mumkin emas (aks holda tizimni muhitdan ajratish zarurati bo'lmas edi).

Malaka oshirish tizimiga innovatsion-variativ yondashuvning eng ahamiyatli komponentlaridan biri malaka oshiruvchilarning malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini inobatga olishga qaratilgan va o'quv komponentiga asos bo'ladigan variativ dasturiy-metodik majmuadir.

Malaka oshirish tizimiga innovatsion-variativ yondashuvni rejalashtirish, loyihalash, amalga oshirish va undan foydalanish psixologik-pedagogik, metodik va texnologik tavsifdagi talablar va tavsiyalar majmuasiga qat'iy amal qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Malaka oshirish tizimida innovatsion-variativ yondashuv deganda nafaqat mazmun jihatdan farqlanuvchi variativ dasturlardan (chuqurlashtirilgan, kengaytirilgan darajadagi) foydalanish, balki ta'lim usullari, shakllari va ta'lim texnologiyalari bilan farqlanuvchi dasturlar ham nazarda tutiladi. Shundan kelib chiqqan holda variativlik malaka oshiruvchi shaxsining talablari, ehtiyojlari, imkoniyatlariga yo'naltiriladi.

Shuningdek, malaka oshirishda variativ yondashuv quyidagi omillarga asoslanadi:

- xalq ta'limi xodimlarining kasbiy kompetentligi, pedagogik salohiyati darajasiga qarab malaka oshirish dasturlarining turli-tumanligi;

- malaka oshirish tizimiga talablar ortishi va rivojlanishining inobatga olinishi;

- malaka oshirish tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalar rivojlanishi hamda ularga bo'lgan talabning ortishi.

Malaka oshirishda variativ yondashuvni amalga oshirishda malaka oshirish muassasalari, ta'limni boshqaruv organlari quyidagi yo'nalishlarga asosiy e'tiborlarini qaratishlari lozim:

- xalq ta'limi muassasalari xodimlarining kasbiy kompetentlik darajasi va pedagogik salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan (qisqa muddatli, maqsadli) malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda barcha

talablar, ehtiyojlarni inobatga olgan malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish;

- xalq ta'limi xodimlarining davlat, jamiyat va ta'lim muassasalari talablaridan kelib chiqqan holda yangi, zamonaviy pedagogik kadrlar professiogrammasi (xalq ta'limi xodimi ijtimoiy-pedagogik modeli)ni ishlab chiqish;

- xalq ta'limi xodimlarining variativ yondashuv asosida malaka oshirganliklariga qarab ma'naviy va moddiy rag'batlantirish choralari ko'rish.

Yuqoridagi fikrlar inobatga olingan holda malaka oshirish tizimini tubdan takomillashtirish, xalq ta'limi xodimlarining ehtiyojlarini inobatga olishga va variativ malaka oshirish dasturlari, pedagogik texnologiyalardan jadal foydalanishga olib keladi. Ushbu tarzda yondashuv esa malaka oshirish tizimining jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, malaka oshirish jarayonida ilg'or pedagogik g'oyalar va texnologiyalar tatbiq etilishini ta'minlaydi.

Har qanday sharoitda ham malaka oshirish pedagogik xodimlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosini belgilovchi yetakchi jarayon hisoblanib, malaka oshirishda ularning ehtiyojlarini inobatga olish muhim sanaladi.

O'rganishlar natijasida pedagoglar malakasini oshirishning bir nechta innovatsion funksiyalari aniqlandi:

*moslashish funksiyasi* – xalq ta'limi xodimlarini zamonaviy ta'limiy vaziyatlarga tayyorlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shu kunning ijtimoiy-pedagogik talablariga moslashtirishga yo'naltiradi;

*to'ldirish funksiyasi* – amaliy pedagogik faoliyat davomida kelib chiqadigan yoki malaka oshirish jarayonida vujudga keladigan bo'shliqlarni to'ldiradi;

*innovatsion funksiya* – xalq ta'limi xodimlarining psixologik-pedagogik tayyorgarligini ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijalariga moslashtirish zaruriyatini aks ettiradi, pedagogni o'z kasbi bo'yicha ijodiy izlanishga ruhlantiradi.

Pedagog kadrlarning variativ yondashuv asosida malakasini oshirish uchun elektron didaktik vositalar yaratishda axborot-telekommunikatsion texnologiyalarni qo'llash metodikasi taklif qilingan. Pedagog kadrlar malakasini oshirishning variativ shakllari pedagogning kasbiy faoliyatdan ajralmagan holda mustaqil ta'lim olishini metodik jihatdan qo'shib olib borish imkonini beradi, bu esa, avvalo, nafaqat pedagog o'z ish joyini tark etmasligini, balki ta'lim nazariyasi va amaliyoti o'rtasidagi masofaning kamayishini ham bildiradi.

Pedagog kadrlarning variativ malakasini oshirishni ta'minlashning malaka oshirishning amaldagi tizimidan farqi shundaki, malaka oshirish ta'lim muassasalarida kunduzgi, masofaviy bo'ladimi har qanday holatda ham, variativ, ehtiyojga asoslangan malaka oshirishni amalga oshirishga yo'naltirilgan dasturlardan foydalaniladi.

Bugungi kunda oldimizda turgan eng dolzarb vazifa malaka oshirish tizimi iste'molchilari, eng avvalo, pedagoglarning moyilliklari, qobiliyatlari, layoqatlari, tafakkurlari, tayyorgarliklari va qiziqishlari inobatga olingan ta'lim dasturlarini ishlab chiqishdir. Bu esa, o'z navbatida

da, pedagog kadrlarning variativ malakasini oshirish tizimi modeli amaliyotga tatbiq qilinganligining mantiqiy yakuni hisoblanadi.

Variativ malaka oshirish jarayoni barcha malaka oshirish jarayoni qatnashchilarining ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda, davlat talablari asosida ta'lim mazmuni, ta'lim texnologiyalari, faoliyat va muloqot vositalari va usullarini tanlashda hamkolikdagi faoliyatni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

*Malaka oshirishda innovatsion yondashuv* deganda yangilikni yaratish, o'zlashtirish, undan foydalanish, uni tarqatish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan majmualar faoliyat tushuniladi. Malaka oshirishda innovatsion jarayonlarni amalga oshirish esa malaka oshirish sifatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

*Malaka oshirishda innovatika* (yangilik kiritish, innovatsiya) – malaka oshirish muassasasi faoliyatiga nisbatan barqaror yangilik elementlarini kiritib, uning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishiga samarali ta'sir etuvchi maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishdir.

*Innovatsion-variativ texnologiyalar* aynan malaka oshirish jarayonida ta'lim oluvchilar (tinglovchilar)ga muayyan fan (mavzu) bo'yicha bilim berish va shaxsni shakllantirishga qaratilgan, tinglovchilarning ehtiyojlariga moslangan malaka oshirishning zamonaviy o'quv-metodik, axborot-didaktik shakllari va axborot-kommunikatsion texnologiyalar majmuyi sanaladi.

*Malaka oshirishning innovatsion axborot-didaktik shakllari* – ta'lim oluvchining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya mazmuni, ta'lim maqsadi, tinglovchilarning ehtiyojlariga mos ravishda loyihalash hamda pedagogik axborot-kommunikatsion uslublar, shakllar va o'qitish usullarini tatbiq etishga

yo'naltirilgan psixologik, umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar asosida amalga oshiriluvchi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tizimi hisoblanadi.

*Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish shakllari* – yuqori darajadagi samaradorlikni ta'minlovchi, pedagogik qonuniyatlar, maqsadlar, prinsiplar, mazmun, shakl, uslublar, o'qitish vositalari va axborot-kommunikatsion texnologiyalar hamda tarbiyalash usullaridan tashkil topgan loyihalash va mos holda ushbu texnologiyani amaliyotda qo'llash tizimidir.

*Xalq ta'limi xodimlarining muntazam malakasini oshirishi* – o'zida pedagogning kasbiy-shaxsiy rivojlantirishining muntazamliligi, uzluksizligini ta'minlash uchun sharoitlar tizimini aks ettirgan, pedagogik ta'limning shaxsga yo'naltirilgan paradigmasini amalga oshirishning yetakchi vositalaridan biri. U kasbiy-pedagogik tayyorgarlik va malaka oshirishning barcha bosqichlari muntazamligi, uzviyligi; rasmiy va norasmiy kasbiy-pedagogik mustaqil ta'limning birligi; umumiy (umummadaniy, umumrivojlantiruvchi) va kasbiy-pedagogik ta'limning birligi; o'zgaruvchan hayot sharoitlariga mos holda pedagogik ta'lim tizimining barcha elementlarini muntazam, uzluksiz yangilashni o'z ichiga oladi.

Xullas, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini innovatsion-variativ yondashuv asosida takomillashtirish bilan bog'liq masalalar keng qamrovli bo'lib, pedagog kadrlar malakasini oshirishning innovatsion shakllari va texnologiyalarini aniqlash hamda nazariy asoslash muammolari bo'yicha turli nazariy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Ikromjon HABIBJONOV,**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining  
Farg'ona mintaqaviy filialida Yoshlar bilan ishlash  
bo'yicha dekan o'rinbosari

## SOLIQ-BOJXONA TERMINLARI TIZIMI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lgan terminologiyaning soliq-bojxona tizimiga oid terminlari, ularning o'rganilishi haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** terminologiya, soliq, to'lov, bojxona, termin.

**Annotation.** This article gives a brief overview of the terms related to the tax-customs system of terminology, which is one of the most important branches of linguistics, and their study.

**Keywords:** terminology, tax, payment, customs, term.

**Аннотация.** В статье дается краткий обзор терминов, относящихся к налогово-таможенной системе терминологии, которая является одним из важных разделов лингвистики, и их изучение.

**Ключевые слова:** терминология, налоги, платежи, таможня, термин.

O'zbek tilshunosligida terminologiyaga bag'ishlangan ishlarda, asosan, biror fan sohasi yoki ijtimoiy-iqtisodiy turmushning biror sohasiga oid terminlar tadqiq qilingan. Shu ma'noda ushbu maqola mavzusi bo'lgan

soliq-bojxona terminlari O'zbekiston iqtisodiyotining alohida bir sohasida ishlatiladigan terminlar hisoblanib, bu mavzu bo'yicha o'zbek, tojik, qozoq, rus tilshunosligida bir qator maqolalar, tezislar, monografiyalari yo-

zilgan, dissertatsiya tadqiqotlari himoya qilingan. Ingliz, rus va o'zbek tilshunosligida soliq-bojxona terminlarini o'rganishga e'tibor qaratilgan ishlarda soha terminlari bir til materiali misolida ham, ikki va undan ortiq tillar materiallari asosi (qiyosiy aspekt)da ham o'rganilgan.

E.A.Fedorchenko bojxona ishi terminlarini soliq tizimi terminlaridan ajratib o'rgangan bo'lsa ham, ammo dissertatsiyaning tegishli o'rinlarida soliq kodeksidan manba sifatida foydalanadi. Bu soliq va bojxona terminlarining katta iqtisodiyot terminlari tizimidagi alohida tarkib ekanligiga misol bo'ladi. Olimning ta'kidlashicha, rus tilidagi bojxona terminlarida monosemantiklik bilan birga polisemantiklik ham keng tarqalgan, shuningdek, mazkur terminologiyadagi terminlar o'rtasida variantlilik, sinonimlik hodisalari ham mavjud.

E.A.Fedorchenkoning qayd etishicha, bojxona terminlari orasida antonimiya hodisasining barcha ko'rinishlari kuzatiladi, ularning asosiy tiplari qilib quyidagilarni sanab o'tadi:

– *kontradiktor antonimlar*: декларирование товара – недеklarирование товара. Ushbu ikki tushunchaning birida bor belgi (deklaratsiyalanmaganlik) ikkinchi tushunchada yo'q<sup>2</sup> (deklaratsiyalanmaganlik), ya'ni birining inkori ikkinchisini tasdiqlamoqda;

– *kontrar antonimlar*: сопровождаемый товар – несопровождаемый товар. Ushbu so'zlarning kontrar antonim deyilishiga sabab bu tushunchalar o'rtasida oraliq tushunchaning mavjudligi hisoblanadi;

– *komplementar antonimlar*: российские товары – нероссийские товары – komplementar antonimlar o'rtasida graduallik holati kuzatilmaydi, oraliq tushuncha ham bo'lmaydi;

– *konversiv antonimlar*: ввозная таможенная пошлина – вывозная таможенная пошлина. Bu terminlarning konversiv antonimlar deya atalishiga u yoki bu holatni ikki subyekt tomonidan qarama-qarshi yo'nalishda sodir etilishi sabab bo'lgan – bir holatda “olib kirmoq”, ikkinchi holatda “olib chiqmoq”, ya'ni obyektga yo'nalgan hamda obyektidan yo'nalgan harakatlarni ifodalamoqda.

Xorij tilshunosligida ham soliq tizimi terminlari tadqiq etilgan. Masalan, isroillik olimlar M.Pasternak hamda K.Riko tomonidan olib borilgan tadqiqotda soliq terminlarining kelib chiqishi va shakllanishi, leksik-semantik xususiyatlari, konseptual va sotsiologivistik jihatlari o'rganilgan.<sup>3</sup>

O'zbek tilshunosligida soliq-bojxona terminlari yuzasidan dastlabki tadqiqot sifatida R.Mukminovning “Tamg'a va boj terminlari haqida ba'zi qaydlar” (Toshkent, 1969) maqolasini keltirish mumkin.<sup>4</sup> O'zbek tilshunosi O.Ahmedov o'zining nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida soliq va bojxona terminlarini qiyosiy aspektida o'rgangan. Unda o'zbek va ingliz tillari materiallariga tayanilgan, tarjimada berish muammolariga e'tibor berilgan. Masalan, nomzodlik dissertatsiyasi “Soliq va bojxona terminlarining ingliz tilidan o'zbek tiliga berilishi” (Toshkent, 2011), doktorlik dissertatsiyasi “Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari” (Toshkent, 2016) deb nomlangan. Ushbu tadqiqot ishida ingliz va o'zbek tillaridagi soliq-bojxona terminlarining sinxron va diaxron

xususiyatlari, mazkur tillarda soliq-bojxona terminlarining yasaliq yo'llari (morfologik, sintaktik, konversiya va semantik usullar yordamida), ushbu sohalar terminlarining shakl va ma'no munosabatiga doir hodisalar (antonimiya, sinonimiya) o'rganilgan. Dissertatsiyaning alohida bobida soliq-bojxona terminlarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolar, terminologik tushunchani tarjimadagi leksikografik izohlarda adekvat aks ettirishga erishishning yo'l-yo'riqlari tushuntirilgan.

Soliq va bojxona terminlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar sirasida leksikografik mazmundagi adabiyotlarni ham ko'rsatib o'tish lozim. Hozirgi vaqtda soliq-bojxona ishiga oid ingliz, rus tillari bo'yicha ikki tilli lug'atlar nashr etilib, amaliyotda foydalanilmoqda. Jumladan, N.G.Sicheva hamda V.V.Ilinaning “Audit, soliq va budjet terminlarining izohli lug'ati” (Moskva, 2003), A.V.Nachalovning “Soliq terminlarining izohli lug'ati” (2006), O.V.Kruglyakovaning “Ruscha-inglizcha va inglizcha-ruscha bojxona terminlari lug'ati” (Vladivostok, 2010), L.L.Grafova va S.M.Paleyning “Inglizcha-ruscha bojxona lug'ati” (Moskva, 2013), A.N.Kozirin tomonidan tuzilgan “Bojxona huquqi izohli lug'ati” (Moskva, 2006), D.A.Abduazizova hamda G.A.Asilovanning “Bojxona xodimlari uchun inglizcha-ruscha-o'zbekcha lug'at-so'zlashgich” (Toshkent, 2013) singari leksikografik ishlarni keltirish o'rinli. Endi o'zbek tilida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga asosanib, ulardan ijodiy foydalangan holda o'zbek tili soliq va bojxona terminlarining izohli lug'ati, ikki tilli tarjima lug'atlar va lug'at-ma'lumotnomalarni tuzish hamda chop etishni yo'lga qo'yish zarur.

Ma'lumki, soliq va bojxona faoliyati iqtisodiy hayot bilan chambarchas bog'liq. Inson kundalik turmushda, biror faoliyatda soliq yoxud bojxona bilan bog'liq tushunchalarga duch kelishi tabiiy. Shuning uchun soliq-bojxona tushunchalari tarix, manbashunoslik kabi soha vakillari tomonidan ham o'rganiladi. Ayniqsa, tarix va manbashunoslik yo'nalishidagi dissertatsiyalar, kitoblar tilshunoslik bo'yicha tadqiqotlar uchun muhim manbalarni beradi. Misol uchun, I.Azizovning “XIX asrning so'nggi choragi – XX asr boshida Buxoro amirligida soliq tizimi” mavzusidagi 07.00.01 – O'zbekiston tarixi ixtisosligida tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasida “*amlodkor*” termini bilan bog'liq muhim ma'lumot beriladi: “Viloyatlardagi amlokliklar (tumanlar) va ularni boshqarishda ishtirok etadigan amaldorlar haqida ham mustamlaka davri mualliflari o'z fikrlarini bildirishgan. A.L.Kun “*amlodkor*” so'zining leksik tarjimasi “mulk egasi” degan ma'noni bildirishini keltiradi. Amaliyotda esa soliq yig'uvchi tushunilgan”<sup>5</sup>. Ushbu iqtibos XIX asrning so'nggi choragi – XX asr boshida Buxoro amirligida “*amlodkor*” termini “mulk egasi” ma'nosida emas, “soliq yig'uvchi mansabdor” ma'nosida qo'llanilganligi to'g'risidagi ma'lumotnigina emas, terminning Buxoro amirligida yashovchi kishilar nutqidagi ma'nosini aniqlashtirib ham bergan.

Tarixshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlar ma'lum bir terminologik tushunchani konkretlashtirishi ham mumkin. Jumladan, quyidagi iqtibos “zakot” terminining mohiyatini aniqlashtirib beradi: “Zakot shariat qonunlariga

ko'ra chorva mollari, ko'char mulkning barcha turlari bo'lgan tilla, kumush, tijorat mollari, naqd pul, daromad keltiruvchi barcha mahsulotlar, dehqonchilik mahsulotlari (yer maqomiga qarab ushr yoki xaroj ko'rinishida miqdori o'zgaradi), yerosti boyliklaridan olingan, agar nisobga yetsa, 1/40 qismini, ya'ni 2,5 foiz miqdorida, natural yoki naqd pul ko'rinishida to'lanishi lozim bo'lgan. Buxoro amirligida mahsulot miqdori va joyiga

qarab zakotning turlari har xil nomlar bilan atalgan bo'lsa-da, o'zining birlamchi mohiyatini saqlab qolgan"<sup>6</sup>.

Demak, terminlarni o'rganishda nafaqat lingvistik xarakterdagi manbalar hamda adabiyotlardan, balki boshqa sohalar, xususan, tarix, manbashunoslik yo'nalishidagi dissertatsiyalar natijalaridan ham foydalanish terminlar semantik strukturasi aniqroq tavsiflash, tadqiq qilinaotgan soha terminlarining salmog'ini oshirishga yordam beradi.

<sup>1</sup> O'sha manba, 21-bet.

<sup>2</sup> Новиков Л.А. Антонимия в русском языке. – Москва: Изд-во МГУ, 1973. – С. 195-236; Апресян Ю.П. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. – Москва: Наука, 1974. – С. 284–315; Собирова Б.Б. Антонимия как языковое явление // Молодой ученый, 2014, №4 (63). – С. 1240–1243.

<sup>3</sup> Pasternak M., Rico Ch. Tax Interpretation, Planning, and Avoidance: Some Linguistic Analysis // Akron Tax Journal, Vol.23. [2008], Art.2. <https://ideaexchange.uakron.edu/cgi/viewcontent.cgi?referer=https://www.google.com/&httpsredir=1&article=1131&context=akrontaxjournal>

<sup>4</sup> Мукминова Р.Г. Несколько слов о терминах *тамга* и *бадж* // Общественные науки в Узбекистане, 1969, №11.

<sup>5</sup> Azizov I. XIX asrning so'nggi choragi – XX asr boshida Buxoro amirligida soliq tizimi: Falsafa d-ri. diss. – Toshkent, 2018. 22-bet.

Halima AHMEDOVA,  
O'g'lonoy XUDAYNAZAROVA,  
Termiz davlat universiteti o'qituvchilari

## FRAZEOLIGIZM – OLAMNI KO'RISH, HIS ETISH VA ANGLASHNING LINGVOMADANIY USULI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada frazeologizmlarning kelib chiqishi, ularning turlari va mifonim komponentli frazeologizmlar haqida ma'lumot beriladi, shuningdek, ingliz tilida uchraydigan ayrim mifonim komponentli frazeologizmlar tarixi bilan tanishtiradi.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, idiomatika, barqaror ibora, qanotli so'zlar, onomastika, mifonimiya.

**Annotation.** This article provides information about the origin of phraseologies, their forms and phraseologies with mythonymical components, as well as the history of some phraseologies with mythonymical components in English.

**Keywords:** phraseology, idioms, stable expression, winged words, onomastics, mythonymy.

**Аннотация.** В статье представлены информация о происхождении фразеологизмов, их типах и фразеологизмов с компонентом-мифонимом, а также история некоторых фразеологизмов с компонентом-мифонимом, встречающихся в английском языке.

**Ключевые слова:** фразеология, идиоматика, устойчивое выражение, крылатые слова, ономастика, мифонимия.

Frazeologizm (yunoncha *phrasis* – ifoda, nutq o'rami) termini turkiyshunoslikda, dastlab, turlicha ma'nolarini ifodalagan. Ba'zi manbalarda frazeologiya (grekcha *phrasis* – ibora; *logos* – so'z) tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo'lim sifatida qaraladi. Frazeologiya termini tilshunoslikda ikki ma'noda: tildagi mavjud frazeologik birliklarning jami hamda shunday birliklarni o'rganuvchi soha ma'nolarida qo'llaniladi.

Ma'lumki, tilning leksik sathi dunyo haqidagi bilimlarning deyarli barcha tarmoqlarini qamrab oladi, frazeologiya (idiomatika) esa ko'proq inson ruhiyati, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-etnik munosabatlarni ifoda etadi. Frazeologiya nafaqat tilning turg'un birliklarini, balki muayyan badiiy asar tilidagi, shuningdek, u yoki

bu yozuvchi tilidagi iboralarni ham qamrab oladi. Frazeologiya – barqaror iboralar haqidagi fan. Frazeologiyani ma'lum bir tilning barqaror so'z birikmalari deb atash mumkin.

Frazeologiya termini, dastavval, adabiyotshunoslikda paydo bo'lib, bir asarni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida turg'un so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolganda qo'llanilgan. 1558-yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neandr badiiy asarni tarjima qilar ekan, shu terminni qo'llashga majbur bo'lgan.

Tilshunoslikda "idiomatika" termini ilk bor frazeologik birliklarga nisbatan qo'llanilgan va ilmiy asoslab berilgan (Charles Bally, 1865–1947, Universite de Geneve). XX asrning so'nggi choragida tilshunoslikning

yangi yo'nalishi sifatida maydonga kirib kelgan kognitiv tilshunoslikda til birliklarining kognitiv asosini aniqlash, tafakkur – til munosabati tadqiqiga katta ahamiyat berildi. [1]

Tilshunoslik fani sifatida frazeologiyaning asoschisi V.V.Vinogradov bo'lib, u 1940-yillarda frazeologik birliklarni tasniflashni taklif qilgan.

Ingliz tili frazeologizmlarini L.P.Smit va U.Bal o'rganagan bo'lsa, rus tili frazeologik birliklari V.V.Vinogradov va B.A.Larinlar tomonidan rivojlantirilgan. A.V.Kunin ingliz tili iboralari haqida keng qamrovli ikki tilli lug'at yaratgan bo'lsa, N.N.Amosova bu sohada qator tezislari yaratgan.

O'zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev, Sh.Maxmaraimova, A.E.Mamatovlar o'zbek tilida frazeologik birliklarning hosil qilinish omillari va frazeologik birliklarning tashkil topishi bilan bog'liq masalalarni o'rganagan. B.Raimov inson emotsional holati, N.Hakimova zoologik ismlar bilan bog'liq iboralarni, M.Vafoyeva o'zbek tili frazeologizmlarining sinonimiyasi, U.Rashidova o'zbek tili somatik xususiyatlarini o'rganagan.

Bundan tashqari, ushbu sohada g'arb tilshunoslari O.Espersin, Ch.Friz, Ch.Hokket, Ch.Marchand, S.P.Logan, taniqli rus olimlari N.Amasova, I.V.Arnold, O.S.Axmanova, B.A.Ilish, R.S.Guntsburg, S.S.Xidikel kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lsa [2], L.A.Bulakovskiy, A.V.Kunin, L.Kuliyeva, K.Musayev, I.S.Stepanova, E.F.Arsenteva inson tabiati bilan bog'liq iboralarni turli tillar miqyosida qiyosiy tahlil qiladi, I.Stepanova esa rus va ingliz tillaridagi gul nomlari bilan bog'liq frazeologik til birikmalarini o'rganagan. Isabekov qirg'iz va rus tillaridagi frazeologik birliklarda uchraydigan muammolar, Z.Koryukova ingliz tilida atoqli otlar bilan bog'liq frazeologik birliklarning asosiy aspektlari borasida ilmiy izlanishlar olib borgan.

Ingliz va amerikalik olimlar frazeologik birikmalarni, asosan, tilshunoslikning bir muammosi sifatida talqin etishgan. Ular o'z e'tiborlarini frazeologik birikmalar va iboralar lug'atini tuzishga qaratishgan. Ushbu lug'atlarda eng sodda so'zlar qatnashgan iboralardan tortib, maqollargacha mavjud.

Frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchisi Charl Balli o'zining "Fransuz stilistikasi" nomli asarida ushbu sohani chuqur yoritgan holda so'z birikmalari, ya'ni frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus bob kiritgan. U frazeologik birikmalarining tashqi (ishonchsiz, shunchaki aldamchi) va ichki (asl baho, belgi) xususiyatlarini bir-biridan farqlagan.

F.De Sossyur esa "Umumiy tilshunoslik kursi" asarida sintagma, uning belgilari haqida so'z yuritar ekan "Tilda shunday tayyor birikmalar borki, ularning xarakteri o'z ma'nosi va sintaktik xususiyatidan kelib chiqadi. Ularni tayyorgarliksiz qo'llash mumkin emas, ular tayyor holda an'anaga ko'ra qo'llaniladi", degan edi.

Sh.Balli frazeologik semantikani ularning mutlaq belgisi sifatida e'tirof etib, birikmalar leksik-grammatik, semantik va sintaktik yaxlit birliklar ekanligini ta'kidlaydi. V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy, O.S.Axmanova, V.L.Arangelskiy, Yu.A.Gvozdarev, A.G.Nazaryan, S.Royzenzon, Yu.Avaliani, A.Bushuy kabi rus tilshunoslari frazeologizmlarni semantik hodisa ekanligini e'tirof

etadilar. Turkiy tilshunoslari Z.G.Uraksin, G.A.Bayramov, F.A.G'aniyev, G.X.Axunzhanov, L.K.Bayramova, M.F.Chernov, o'zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov kabi tilshunoslari ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so'zga muqobil, yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no anglatadigan lug'aviy birliklarni frazeologik obyekt, deb e'tirof etadilar. [3]

Sh.Rahmatullayev frazeologik birliklarning ma'no tabiatini "bittadan ortiq so'z yaxlitligicha ma'lum bir obraz asosida, ko'chirish yo'li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi" deya, muayyan obraz asosida yuzaga kelgan ma'noni "frazeologik ma'no" deb ataydi. [4]

N.Ibodullayeva "Frazeologizmlarning badiiy asardagi o'rni" deb nomlangan ilmiy ishida romanlar tarkibidagi iboralarni quyidagi guruhlariga bo'lganligini ko'rish mumkin:

1) kishi tana a'zolari nomlari va ularning faoliyatini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar;

2) mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar;

3) hayvonlar, o'simliklar nomlari hamda ular bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar;

4) xalq maqollari, urf-odatlar nomlarini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar;

5) sonlarni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar;

6) jins, qarindosh-urug' ma'nolarini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar.

Kishi tana a'zolari nomlari va ularning faoliyatini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar ilmiy adabiyotlarda "somatik iboralar" ham deyiladi.

Ayrim adabiyotlarda frazeologizmlarning xrononim (tarixiy voqea va hodisa nomlari), faleronim (tanga, orden va medal nomlari), geortonim (bayram nomlari), dokumentonim (hujjat nomlari), ergonim (ijtimoiy guruh nomlari), ideonim (ma'naviy va madaniy asar nomlari), xrematonim (odamzod yaratgan mahsulotlar: mashina, qurol-aslaha, idish, musiqa asboblari alohida nomlari) va biblionim (ilmiy, badiiy, diniy kitob va asarlar nomlari) kabilar bilan bog'liq frazeologizmlar haqida so'z yuritiladi.

Frazeologizmlar tuzilishiga ko'ra gap ko'rinishidagi va so'z birikmasi shaklidagi frazeologizmlarga bo'linaadi. Ularning bir-biridan farqli jihati shundaki, gap ko'rinishidagi frazeologik birliklar fikriy tugallikni ifodalasa, ikki va undan ortiq komponentli so'z birikmasi shaklidagi frazeologizmlar o'ziga xos leksik ma'no ifodalaydi. Gap ko'rinishidagi frazeologizmlar har doim ham gap bilan tenglasha olmaydi. Ular ba'zida ma'lum so'z o'rnida qo'llanib, o'zi ifodalayotgan fikrni kitobxonga kengroq yetkazib berishga xizmat qiladi. Ingliz adabiyotida ko'plab mifonim komponentli frazeologizmlar mavjud bo'lib, quyida ulardan ayrimlarining kelib chiqish tarixi xususida to'xtalamiz:

1. *Sell your soul to the devil* – yuragini shaytonga sotmoq. Bizga ma'lumki, diniy manbalarda dastlabki inson Shaytonga ergashsa uning barcha orzulari ro'yobga chiqishiga ishongan va buning natijasida u abadiy Jannatda yashash huquqidan mahrum bo'lgan. Bugungi kunda ushbu ibora yolg'on va dalarga ishonib aldanib

qolganda, mahsulotlar o'z narxidan past qiymatda sotilganda, foydadan zarar ko'p bo'lganda ishlatiladi [Oxford dictionary of word origins. 2010. Oxford University Press. Kahle /Austin Foundation. p. 391].

2. *The cross on the breast and the devil in the heart.* O'zbek tilida "tili boshqa-yu, dili boshqa", "munofiqlik qilmoq" ma'nolarini ifodalovchi ushbu ibora aslida "ko'kragida xoch, qalbida esa shayton" deb tarjima qilinadi. Ushbu iboradan 1633- va 1732-yillarda ba'zi asarlarda foydalanilgan bo'lib, bugungi kunda ham keng qo'llaniladi [English proverbs and proverbial phrases. A historical dictionary. G.L.Apperson. I.S.O. Editor of the Antiquary. 1899–1915. p. 123].

3. *Where Christ gave the three voices.* Bu ispan tilidagi *Donde Christo dio last tres voces* iborasidan olingan bo'lib, so'zma-so'z tarjimada "Iso Masih 3 bora ovoz bergan joyda" deb tarjima qilinadi. Frazeologizm sifatida u "yomon yo'ldan qaytmoq" deb tarjima qilinadi. Ko'pgina manbalarda Iso Masih shayton vasvasasidan xalos bo'lish maqsadida 40 kunlab ro'za tutganligi haqida ma'lumotlar mavjud [Idiomantics. The Weird and Wonderful World of Popular Phrases. Philip Gooden

and Peter Lewis. Bloomsbury Publishing Plc. United Kingdom 2012. www.bloomsbury.com. p. 188].

4. *St Never's Day* nemis tilida *Sankt Nimmerleinstag* bo'lib, u hech qachon amalga oshmaydigan ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi. Nemis tilida *nimmer* – hech qachon, *lein* – ritorik ta'sir ko'rsatuvchi kichraytiruv qo'shimchasi. Ushbu iboraning bundan-da ta'sirliroq ko'rinishlari ham mavjud. 1943-yilda dramaturg Bertold Brext o'zining "Chexiyalik yaxshi inson" nomli asarida ushbu iborani qo'llagan. Baxtsiz nikoh marosimi so'ngida kuyov ko'nglidagidek mahramga uylana olmaganligidan shikoyat qilib "The Ballad of Saint Never's Day" nomli balladani kuylaydi [Idiomantics. The Weird and Wonderful World of Popular Phrases. Philip Gooden and Peter Lewis. Bloomsbury Publishing Plc. United Kingdom 2012. www.bloomsbury.com. p. 188].

Xulosa qilib aytish mumkinki, frazeologizmlar tilshunoslikning eng muhim sohasi sifatida chuqur o'rganish talab etiladigan tayyor barqaror nutqiy birkmalardir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jan Huzienga. Stories and idioms for real life. – Oxford University Press, 2000; Mamatov A., Almamatova Sh. Frazeologik transpozitsiya va uni o'rganish haqida // Uslubshunoslik va frazeologizmning dolzarb muammolari. Ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2007. 68–70-betlar.

2. Haydarov A., Choriyeva Z. Ingliz tilida frazeologik birliklarning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy-tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallar to'plami. – Toshkent: Muharrir, 2012. 8–10-betlar.

3. A. Mamatov. Frazeologizmlarning shakllanish asoslari. – Toshkent, 1969. 5–48-betlar; Y.Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1969. 51–55-betlar; H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005. 220–225-betlar; Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent, 1978. 3–21-betlar.

4. Sh.Rahmatullayev. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. – Toshkent, 1966. 9–58-betlar; Sh.Rahmatullayev. Nutqimiz ko'rki. – Toshkent, 1970. 5–43-betlar; U.Tursunov va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1992. 55–126-betlar; Hozirgi zamon o'zbek tili. – Toshkent, 1957. 152–181-betlar.

**Gulnoza KURBANOVA,**

Buxoro davlat tibbiyot institutining O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, dotsent;

**Muharram XAFIZOVA,**

Buxoro davlat tibbiyot instituti Ingliz tili kafedrasini o'qituvchisi

## SHIFOBAXSH O'SIMLIKLARNING ILMIY VA XALQ TILIDAGI NOMLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ba'zi shifobaxsh o'simliklarning ilmiy va xalq tilidagi nomlari keltirilgan. O'simliklar dunyosi nominatsiyalarining ilmiy terminologiyadagi xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** dorivor o'simliklar, tabiat, ilmiy nomlar.

**Annotation.** This article lists the scientific and popular names of some medicinal plants. The features of the nomination of flora in scientific terminology are described.

**Keywords:** medicinal plants, nature, scientific names.

**Аннотация.** В этой статье перечислены научные и народные названия некоторых лекарственных растений. Описаны особенности номинации флоры в научной терминологии.

**Ключевые слова:** лекарственные растения, природа, научные названия.

Insoniyat ma'naviyatining juda qadimgi tibbiyotga doir qo'lyozmalaridan bilamizki, burungi davrlarda yerdan unib chiqadigan xilma-xil giyohlardan turli kasalliklarni davolashda foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar

berilgan. Vatanimiz nabotot olami nihoyatda boy bo'lib, cheksiz kengliklarda gulli o'simliklarning 21 mingga yaqin turi o'sadi, shulardan 230 xili shifobaxsh hisoblanadi. Darhaqiqat, saxiy tabiat hayotda butun bor-

liqni mutanosiblashtirib turadi. Undagi barcha jonzot-u nabototlar bir-biriga bog'liq ravishda yashaydi, yashnaydi, ko'payadi va kerak bo'lganida bir-biridan malham oladi, hayotiy ehtiyoj manbalaridan bahramand bo'ladi. Bundan shuni anglash mumkinki, tabiatdagi har bir jonzot, har bir nabotot o'ziga xos shifobaxshlik xususiyatiga ega. Bu narsa qadim-qadimdan olim-u tabiblar tomonidan aniqlanib, hayotda qo'llanib kelingan, satrlarga bitilib asarlar yaratilgan va avloddan avlodga yetkazilgan. Insoniyat o'tgan asr mobaynida inson va tabiatning o'zaro ta'siri yaxlit bir butunligini aniq anglay boshladi, bu esa ushbu omilni nazariy tushunishda turtki bo'ldi.

Boshlang'ich davrda insonlar kasallarni davolashda o'z atrofida o'sadigan o'simliklardan foydalangani tabiiy. Xalq tabobatining kasalliklarni davolashdagi asosiy vositasi – dorivor o'simliklar. O'tmishda yashab ijod qilgan, dunyoga mashhur hakimlar tomonidan foydalanilgan dorivor vositalar tahlil qilinsa, ular o'z amaliyotida taxminan 70–80% dorivor o'simliklardan, kam miqdorda hayvon va ularning mahsulotlaridan hamda tabiiy minerallardan foydalangani ma'lum bo'ladi. Bu davrlarda sintetik dori preparatlari yo'q edi. Chunki kimyo fani sintetik dori vositalarini yaratishda taraqqiy etmagan, kimyo sanoati ham bu darajaga yetib kelmagan edi.

O'simliklarning dorivor vosita sifatida qo'llanilishi tarixi insoniyat tarixiga teng va u bilan chambarchas bog'langan bo'lsa kerak. Haqiqatan ham biror insonni birinchi marotaba kasallanishi (biror joyi og'rishi yoki shikastlangan yeridan qon oqishi va boshqalar)da unga davo qilish maqsadida atrofida o'sib turgan o'simlikdan foydalanishidan o'simlik dunyosini dorivor vosita sifatida ishlatilish tarixi boshlanadi. Shuning uchun ham bu tarix ilk insonning dunyoga kelish tarixiga teng, balki undan ham qadimiydir.

O'simlik nomlarining etimologiyasi va o'simliklar dunyosi dunyo lingvistik tasvirining muhim qismidir. Fitonimik lug'at odamlarning iqtisodiy va madaniy faoliyati, milliy-lingvomadaniy hamjamiyatning qadriyatlar tizimi, uning dunyoqarashini aks ettiradi. Bugungi kunda tadqiqot uchun qiziqarli material bo'lgan fitonimika o'rganila boshlandi va bu ko'pchilikda qiziqish uyg'otmoqda.

Ba'zi o'simliklar uchun turli xil nomlar berilgan ilmiy terminologiyada, shuningdek, og'zaki nutqda o'simlik dunyosi nomlanishi xususiyatlari to'liq ochilishi muhim. O'simliklarning ilmiy va xalq nomlari boshqa tuzilishga ega, buni ushbu tillarning fitonimlari tasdiqlaydi.

Mashhur rus olimi R.A. Budagovning fikricha, "inson nafaqat tabiatga ta'sir qila oladi, unga ta'sir qila turib, o'z tabiatini ham o'zgartiradi". [1: 241] Ta'kidlash joizki, tabiat, avvalo, "inson hayotining tashqi sharoitlari (iqlim, geografik xususiyatlar, o'simlik, hayvonot dunyosi), bu esa turli tillarda har xil ko'rinishda aks etadi". [2: 49]

Qoida bo'yicha agar faqat rod tushunchasi ko'rsatilgan bo'lsa, o'simliklarning lotincha ilmiy nomlari bitta yoki ikkita so'z bilan taqdim etiladi, masalan: *Juniperus L.* – archa; *Quercus L.* – eman; *Beta vulgaris* – oddiy lavlagi; *Helianthus annuus* – bir yillik kungaboqar va boshqalar. Agar o'simlik nomlari o'ziga xos xususiyat-

lari bilan beriladigan bo'lsa, o'simlik nomining rodiga qarab moslashtiriladi, masalan: *Pisum sativum* – ekma no'xat so'zida *Pisum* sredniy rodga taalluqli ot bo'lganligi uchun sifat ham sredniy rod qo'shimchasini oladi.

Ma'lumki, ba'zi o'simlik nomlarining umumiy tushunchasi yunon va rim mifologiyasi bilan bog'liq, chunki o'simlik nomlari afsonaviy xudolar va qahramonlar nomlari bilan berilgan. Masalan: *Artemisia L.* – shuvoq (ermon) – go'zallik xudosi Artemidaga nisbatan, *Adonis L.* – adonis – xushsurat o'smir Adonis sharafiga, *Achillea L.* – bo'yomodaron – jangchi Axilla nomiga qo'yilgan va boshqalar. O'simliklarning o'ziga xos xususiyati, shakli yoki belgisi, ko'pincha, o'simlikni nomlashda turtki beruvchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan: *Stellaria* – yulduz, lotinchada *stella* – yulduz; *Oxyccocus* – klyukva, yunonchada *oxy* – nordon va *coccus* – meva (klyukva mevalari nordon ta'mga ega); *Digitalis* – angishvonagul, lotinchada *digitus* – barmoq (gullarining shakliga qarab).

Ba'zi fitonimlar o'simliklarning dorivor xususiyatlarini aks ettiradi yoki davolanishi kerak bo'lgan kasalliklarni ko'rsatadi. Masalan: *Tussilago farfara* – oqqaldirmoq, lotinchada *tussis* – yo'tal so'zidan; *Potentilla L.* – g'ozpanja, lotinchadan *potentia* – kuch; *Primula L.* – navro'zgul, lotincha *primus* – birinchi degan ma'nolarni beradi.

Ko'p hollarda o'zbek tilida fitonimlar rus tilidagi muqobilidan ham olinadi. Masalan: *Abies* – pixta; *Astragalus* – astragal; *Echinacea L.* – exinatsiya va shu kabilar. Ba'zi o'simlik nomlari lotin, rus va o'zbek tillarida bir xil jaranglaydi. Masalan: *Aloe* – aloe; *Eucalyptus L.* – evkalipt; *Eucommia L.* – evkommiya; *Thermopsis* – termopsis; *Valeriana* – valeriana; *Arnica L.* – arnika; *Aronia* – aroniya; *Actinidia L.* – aktinidiya va boshqalar. Aktinidiya mevasi tarkibida qandlar, organik kislotalar, ko'p miqdorda C vitamini, bo'yoq, pektin va oshlovchi hamda boshqa moddalar borligi uchun ushbu meva sharbatidan lavsha (singa) kasalligini davolash va oldini olishda foydalaniladi.

Lotin tilidagi o'simlik nominatsiyalari asosida shaklan biror predmetga o'xshashligi bo'lgan nomlar ham bor. Masalan: *Ceratocephalus orthoceras* – to'g'ri shoxli uchma (qo'ytikan) (so'zma-so'z – shoxli bosh); *Centaurium L.* – tillabosh (yuztilla); *Lycopodium L.* – dorivor plaun (bo'ri oyog'i); *Equisetum L.* – dala qirqbo'g'imi (otning dumi) sifatida tarjima qilingan.

O'simliklar ba'zi turlarining nomlari botanik olimlar sharafiga ham qo'yilgan. Masalan: *Linnaea* – linneya o'simligi shved tabiatshunos olimi Karl Linney sharafiga atalgan; *Magnolia* – magnoliya o'simlik nomi fransuz botanigi Pyer Magnol nomi bilan bog'liq; *Salvinia* – suv paporotnigi (qirqquloq) italiyalik botanik olim A. Salviniya nomi bilan atalgan; *Komarovia* – komaroviya taniqli rus botanigi V.L. Komarov nomi bilan bog'liq; *Krylovia* – kriloviya o'simligi taniqli olim, g'arbiy shimol florasi bo'yicha mutaxassis P.N. Krilova nomi bilan bog'liq.

An'anaga ko'ra lotin tilidagi ilmiy terminlar ikki komponentli ismlar bilan ifodalanadi. Bu yerda umumiy tushuncha ot bilan, o'ziga xos tushuncha esa sifat yoki sifatdosh bilan beriladi. Masalan: *Amanita muscaria L.* – qizil muskarin; *Veratrum album* – oq maralquloq;

*Tilia cordata* – yuraksimon bargli jo'ka va boshqalar. Ba'zi o'simlik nomlari o'zi o'sib tarqalgan joy nomlari bilan ifodalanadi. Masalan: *Gallae Turcicae* – Turkiya gallalari; *Helleborus caucasicus* – Kavkaz xelleborusi; *Inula Britannica* – Britaniya andizi (chachalbosh); *Laminaria japonica* – Yaponiya laminariyasi; *Phytolacca Americana* – Amerika fitolakkasi; *Rheum turkestanica* – Turkiston ravochi.

Lotin nomenklaturasida ikki so'zli nominatsiyalar bilan bir qatorda atribut (o'ziga xos xususiyat)lar bilan ifodalangan, jumladan, o'simliklarning shakli yoki xilma-xilligini aniqlaydigan murakkab o'simlik nomlari ham mavjud. Masalan: *Cucurbita pepo giraumontia Duch.* –

qovoqcha; *Lychnis flos jovis Desf.* – lixnis (chinniguldoshlarga mansub o'simlik), Yupiter guli; *Beta vulgaris var. rapata (Chenop)* – oddiy lavlagi kabilar.

O'simliklar turli mamlakatlarda, turli qit'alarda, tog' yonbag'irlari, suv bo'ylari, sahro-adirlarda o'sadi. Turli xil xalqlarning ma'lum bir hududdagi bitta va bir xil o'simlik turi o'z nomiga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun o'simliklarning xalq nomlari milliy xususiyatlarni aks ettiradi. Masalan: *Peganum harmala L.* – isiriq respublikamizning turli hududlarida turlicha nomlanishga ega, ya'ni Buxoro, Navoiy viloyatlarida – xazorisband, Andijon, Farg'ona tomonlarda adirasman, adiraspan, dasht ildizi va boshqa nomlari mavjud.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Qosimov, H.Xolmatov. Ruscha–o'zbekcha–lotincha farmatsevtik terminlar lug'ati. – Toshkent: Meditsina, 1990.
2. A.Abdullayev, T.Madumarov. Biologiyadan qisqacha izohli lug'at. – Toshkent: "Navroz" nashr, 2016.
3. H.Xolmatov, A.Qosimov. Ruscha–lotincha–o'zbekcha dorivor o'simliklar lug'ati. – Toshkent: Ibn Sino nashriyoti, 1992.
4. G.Kurbanova. Talabalarda kasbiy mahoratni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari // "Pedagogik mahorat" jurnali, 2020. 2-son. 91–98-betlar.

**Nigina RASULEVA,**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Xitoy filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi, PhD

## XITOIY TARMOQ (INTERNET) ADABIYOTINING TAKOMIL BOSQICHLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tarmoq adabiyotining tematik tadqiqi natijalari berilgan bo'lib, ilk Internet yozuvchilarining ijodi, ularning ijodidagi o'ziga xosliklar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarmoq adabiyoti, Internet saytlari, tarmoq yozuvchilari, tarmoq janrlari, xitoy platformasi.

**Annotation.** The article presents the results of a case study of network literature, examines the work of the first Internet writers, and the features of their work.

**Keywords:** network literature, Internet sites, network writers, network genres, Chinese platform.

**Аннотация.** В статье представлены результаты тематического исследования сетевой литературы, рассматриваются творчество первых Интернет-писателей, особенности их творчества.

**Ключевые слова:** сетевая литература, Интернет-сайты, сетевые писатели, сетевые жанры, китайская платформа.

Xitoyda tarmoq adabiyoti so'nggi yigirma yil ichida jadal taraqqiy etayotgan adabiyot yo'nalishlaridan biridir. Internet adabiyoti yozuvchilari o'z asarlarini nashriyotlarda nashr ettirishmaydi, balki Internet orqali kitobxonlar e'tiboriga taqdim qilishadi. Internet adabiyoti yozuvchilari ma'lum bir saytlar bilan shartnoma tuzishadi va o'z asarlari uchun mablag' olishadi. Internet adabiyoti Xitoyda keng qamrovliligi hamda turli xil janrlarni o'zida mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda Xitoy Internet yozuvchilarining soni 4 milliondan ortiq, bu esa Xitoy yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'lgan yozuvchilar sonidan ham ortiqroqdir. Undan tashqari, jamiyatning boshqa qatlamlarida faoliyat yuritadigan, lekin adabiyotga mehri baland bo'lgan soha vakillari o'z ishlarini Internetda e'lon qilishlari mumkin. Xitoy Internet adabiyoti yozuvchilari daromadlari jihatidan ham ajralib turadilar. Agar 2019-yilda eng ko'p maosh

oladigan dunyo yozuvchilari o'ntaligiga bosma adabiyot ijodkorlari kirgan bo'lsa, Xitoyda bu ro'yxatning deyarli yarmini Internet yozuvchilari egalladi. Yildan yilga bu ko'rsatkich faqat ortishi kutilmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasi davlat statistika ma'lumotiga ko'ra, 2019-yilda madaniy asarlarni Internetda tarqatish va tegishli xizmatlarni ko'rsatish bilan shug'ullanadigan Xitoy korxonalarining umumiy daromadi 19,7 foizga oshib, 250,2 milliard yuanga yetdi.

Xitoy tarmoq adabiyoti asarlari chet ellik o'quvchilarga yetib bormoqda. Xitoy mualliflarining onlayn asarlari xorijiy tillarga tarjima qilinib, jahon madaniy bozorida muhim rol o'ynamoqda. Har yili bir necha yuzlab asarlar chet tillarga tarjima qilinadi va kitobxonlarga yetkaziladi. 2015-yildan beri xitoylik Internet yozuvchilarining ishlari Shimoliy Amerika o'quvchilari e'tiboriga tushmoqda. Xitoyning Yuewen platformasida xabar berilishicha,



AQShda allaqachon Xitoy Internet adabiyoti asarlarini tarjima qilishga ixtisoslashgan saytlar paydo bo'lgan va samarali xizmat ko'rsatmoqda. Dunyoning 80 dan ortiq mamlakatidan millionlab o'quvchilar Xitoy Internet adabiyoti namunalarini berib boriladigan saytlardagi yangilanishlarni muntazam kuzatib kelmoqdalar. Kuzatuvchilar e'tiborini eng ko'p tortayotgan va mashhur bo'layotgan janr – bu ilmiy fantastika (科幻) hamda fentezi (武侠) janrlaridir.<sup>1</sup>

Xitoylik adabiyotshunos Chjen Junszyanning ta'kidlashicha, chet elda Xitoy Internet adabiyoti na'munalari, asosan, etnik xitoyliklar yoki sinologlar tomonidan o'qiladi va tarjima qilinadi. Ular uchun bu an'anaviy adabiyotga nisbatan xitoy tilini o'rganish va xitoy jamiyati, madaniyati bilan tanishish uchun juda sodda va qulay vositadir. O'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda [www.wuxiaworld.com](http://www.wuxiaworld.com) xorijiy veb-saytida maxsus bo'limlar tashkil qilindi. Unda xohlovchilar xitoy tilini o'rganish bo'yicha tajribalari bilan o'rtoqlashadilar hamda daotsizm asoslari, in yan, bagua va boshqalar haqida muloqot qilishadi. Ba'zi bir xorijlik mutaxassislar xitoy onlayn adabiyoti to'g'risida tanqidiy fikrlar ham bildirishgan. Ularning fikriga ko'ra, Internet asarlari mazmun jihatidan juda sodda bo'lganligi sababli Xitoy adabiyotining yuzi bo'la olmaydi.

Bunday tanqidiy fikrlarga qaramasdan, 20 yillik qisqa muddat ichida Xitoy Internet adabiyoti yaxshi rivojlandi, u jahonning 4 ta yirik adabiy hodisalari, ya'ni Amerika filmlari, Yaponiya animelari va Koreya televizion dramalari kabi mashhurlikka erishib, o'z muxlilariga ega bo'ldi. Internet adabiyotining rivojlanish tarixini o'rganish zamonaviy Xitoy adabiyoti rivojlanishini anglash uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayonga ko'ra tarmoq adabiyotini ikki bosqichga bo'lib o'rganish mumkin: shakllanish va tarqatish.

“Shakllanish” bosqichida Internet adabiyotining asosiy qismi, ya'ni yozuvchi ijodi o'rganiladi. “Tarqatish” bosqichida esa tarmoq adabiyoti veb-saytlari, ularning ishlash rejimi, sayt yozuvchilari va o'quvchilari o'rtasidagi munosabatlar o'rganiladi. Internet o'quvchilari Internetdagi adabiy asarlar o'sishining barcha jihatlarida muhim rol o'ynaydi, aynan o'quvchi asarning qiymatini baholay oladi. Shu tariqa Internet yozuvchilarining turli darajadagi qatlamlari paydo bo'ladi.

Tianya forum, Rongshuxia, Qidian, Yishuwang Internet saytlarining biznes modellari bir-biriga o'xshamas bo'lsa ham, ularning barchasi Internet adabiyotining tashuvchisi hisoblanadi. Mazkur Internet saytlari har xil yoshdagi va turli xil xarakterdagi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi.<sup>2</sup>

Xitoyda Internet adabiyotining rivojlanishi uchun hukumat tomonidan Xitoy yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda “Internet adabiyotining sog'lom rivojlanishiga ko'maklashish bo'yicha ko'rsatmalar” risolasi nashr qilindi, 2010-yildan boshlab Internet adabiyoti hukumat tomonidan to'liq nazoratga olinib, qo'llab-quvvatlandi. Yangi davrda Internet adabiyoti insonlarning adabiy va badiiy tafakkurini keng rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda.

Xitoy Internet adabiyotining rivojlanishi global Internet adabiyotining taraqqiy topishi uchun ham ajoyib tajriba yaratdi. Xitoyda insonlar turmush darajasining o'sishi, Internet texnologiyalarining rivojlanishi, adabiyotning turli janrlari bilan tanishishga bo'lgan ishtiyoq ularning onlayn asarlarga bo'lgan qiziqishlarini ham oshirdi. Xitoydagi noyob siyosiy va madaniy tizim siyosatning barqaror bo'lishini ta'minlaydi, bu esa onlayn adabiyotni boshqarish uchun yaxshi muhitni yaratadi.

Xitoyning Internet adabiyotini rivojlantirish bo'yicha tajribasini takrorlash mumkin emas, lekin u boshqa davlatlarga o'z madaniyati va adabiyotini targ'ib qilishda yordamchi bo'lishi mumkin.

Internet adabiyoti – bu Internetda paydo bo'lgan va badiiy uslub orqali tasvirlarni yetkazib beruvchi badiiy amaliyotdir. Tarmoq adabiyoti – bu Internetda tug'ilgan, adabiyotda o'sgan, ma'muriyatda yetilgan yo'nalishdir.

痞子蔡 (Pi zi cai), 安妮宝贝 (Anni Baobei), 唐家三少 (Tang jia san shao), 余秀华 (Yu xiu hua) singari to'rtta yozuvchi namunasida Internet adabiyotining asosiy oqimini o'rganib chiqsak, ular ijodkorlar uchun turli muvaffaqiyat yo'lini taqdim etadilar.

痞子蔡 (Pi zi cai) yarim kun ijod qiluvchi yozuvchilar sinfidir. Kibermakon ularning ijod maydoni hisoblanib, bu yozuvchilar qalamida erkinlik mujassam. 痞子蔡 ning o'zi birinchi bo'lib kichik onlayn matndan butun asar yaratib, ilk tarmoq yozuvchisi degan e'tirofga sazovor bo'lgan.

Bu dostonchilik maktabi to'g'risidagi dastlabki ma'lumot V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovning "O'zbek xalq qahramonlik eposi" kitobida keltirilgan: "Bizga ma'lum bo'lgan baxshilar O'zbekistonning hozirgacha folklor materiallari yozib olingan barcha hududlarida qayd etilgan. Ular orasida Samarqand va Buxoro viloyatlari, Farg'ona vodiysi, Surxondaryo va Xorazmda istiqomat qiluvchi baxshilar bor. Eng kam material yozib olingan hudud Toshkent okrugi bo'lib, bu yerda shahar madaniyati ta'sirida dostonchilik an'anasining so'nish jarayoni kuzatiladi. Piskent tumanida yaqinda vafot etgan Berdi baxshi yashar edi. Ammo XIX asr oxirida Toshkentda Pirmat baxshi degan dostonchi o'tgan. Xalq orasida "Buqoq" laqabi bilan tanilgan bu baxshi asli qo'qonlik bo'lib, odamlarning mehmonxonalarida, to'y-hashamlarda "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Yusuf bilan Ahmad" kabi dostonlarni qo'biz jo'rligida ijro etgan".<sup>1</sup>

Piskent dostonchilik maktabi xususidagi nisbatan to'laroq ma'lumot akademik T.Mirzayevning "Xalq

baxshilarning epik repertuari" nomli asarida uchraydi. "O'tmishda Piskent, Ohangaron atroflarida ham rivojlangan dostonchilik maktabi mavjud bo'lgan. Bizning bu mulohazamizni 1926-yilda Piskent rayon, Evalak qishlog'ida yashovchi Berdi baxshi (Berdiyur Pirmqul o'g'li) dan Abdulla Alaviy yozib olgan "Alpomish" dostonining varianti tasdiqlaydi. Afsuski, bu rayonda folkloristik ishlar ancha kech boshlanganligi sababli Piskent dostonchilik maktabi vakillarining nomlari unutilib ketgan. Berdi baxshining biografyasi va ustozlari haqidagi ma'lumotlar ham o'z vaqtida to'planmagan. Materialning bunday nihoyatda cheklanganligi yaxlit xulosalar chiqarishga imkon bermaydi. Bu hol Piskent dostonchilik maktabini mustaqil poetik maktab sifatida baholashda, uning o'ziga xos g'oyaviy-badiiy va lokal xususiyatlarini yoritishda birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi",<sup>2</sup> – deb yozadi T.Mirzayev.

Darhaqiqat, Piskent dostonchilik maktabining eng nomdor vakili hisoblangan Berdi baxshi (Berdiyur Pirmqul o'g'li) XIX asrning oxiri – XX asrning 30-yillarida Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi Evalak qishlog'ida yashab o'tgan yirik xalq dostonchisidir. 1926-yilda undan "Alpomish" dostonining o'ziga xos varianti yozib olingan bo'lib, bu asar 1969-yilda T.Mirzayev tomonidan so'zboshi va izohlar bilan chop ettirilgan.<sup>3</sup>

Shu o'rinda ayrim manbalarda Berdi baxshi repertuaridagi "Alpomish" dostonining yozib olinishi bilan bog'liq bahstlab fikrlar ham bildirilganligini aytib o'tish kerak. Jumladan, folklorshunos olim I.Yormatovning quyidagi fikrlariga e'tibor qarataylik: "Ohangaron vodiysida yashovchi o'zbeklar folklorida doston yaratish va kuylash an'anasi so'ngan. Olmaliq shahridagi Ko'rpasoy qishlog'ida yashab o'tgan Berdi baxshi Pirmqulovdan 30-yillarda Muzayyana Alaviya tomonidan yozib olingan "Alpomish" dostonining bir variantini... mustasno qilganda, bu mintaqada dostonchilik an'analari keng yoyilgan, deb aytoilmaymiz".<sup>4</sup>

Nazarimizda, yuqoridagi iqtibosda Berdi baxshi tug'ilgan va yashab o'tgan qishloq nomi Ko'rpasoy, deb ko'rsatilishi qiziqarlidir. Chunki 1962-yilda Piskentda folklor ekspeditsiyasida bo'lgan Muzayyana Alaviya o'zining kundalik daftariga "Toshkent oblast Piskent rayon Ko'rpasoyda Berdiyur baxshining jiyani Yusuf sozanda turadi", deb yozgan. Mavjud manbalarda, xususan, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da Berdi baxshi Evalak qishlog'ida istiqomat qilganligi qayd etilgan bo'lsa-da, baxshining tug'ilgan joyi Ko'rpasoy qishlog'i ekanligi haqidagi fakt baxshi biografyasiga muayyan aniqlik kiritishi bilan ahamiyatlidir.

Ammo I.Yormatov Berdi baxshi epik repertuaridagi "Alpomish" dostoni "30-yillarda Muzayyana Alaviya

tomonidan yozib olingan” deyishi to’g’ri emas, chunki bu doston Muzayyana opaning tog’asi Abdulla Alaviy tarafidan 1926-yilda yozib olingan.

Ana shu birgina epik asarning o’zi ham Piskent va uning atroflarida ancha jiddiy rivojlangan dostonchilik maktabi mavjud bo’lganligidan dalolat beradi. Ushbu dostonchilik maktabi epik an’anasini shakllantirgan va davom ettirgan baxshilar haqida yetarli darajada ma’lumotlar saqlanib qolmagan bo’lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmida Toshkent vohasi bo’ylab o’tkazilgan folklor ekspeditsiyalarida Berdi baxshi mansub dostonchilik maktabi vakillari va ularning izdoshlari to’g’risida ayrim muhim faktlar aniqlangan. 1962-yilning iyunida Piskentning Ko’rpalisoy qishlog’ida bo’lgan Muzayyana Alaviya Berdi baxshi Pirimqul o’g’lining jiyani Yusuf sozanda bilan ko’rishib, quyidagi termalarni yozib olgan:

*Sozandalar soz keltirar sozini,  
Mirishkorlar jugurtadi tozini.  
O’qiybergin ko’krakdagi xatini,  
Men chertayin, sen chetorim kuylagin,  
Zamonaning aytar so’zin so’ylagin.  
O’shal joyda o’ltirgan, ey, jamoat,  
Besh-olti ovuz terma aytib berayin.  
Jappasiga quloq soling jamoat,  
Oldi-oldiga qiyshayib qolmay, yoronlar,  
Shuytib endi chetorni yerga qo’yayin.  
Qo’y semirsa qobirg’asi kicharar,  
O’lmagan qul shuytib bir kun kechirar.  
Tiriklikda qadiringni bilmagan,  
O’lgandan so’ng ingrangani ne bo’lar?  
Bo’laman degan bolalar,  
O’n beshida bosh bo’lar,  
Bo’lmayman degan bolalar,  
Jigirmada josh bo’lar,  
Boylag’an belbovi bo’sh bo’lar.<sup>5</sup>*

Ma’lum bo’lishicha, Yusuf sozanda Berdi baxshining jiyani bo’lib, yoshligidan tog’asining yonida yurib chetor, do’mbira chertish va terma-qo’shiqlar aytishni o’rganagan.

O’sha folklor ekspeditsiyasi paytida Muzayyana Alaviya Berdi baxshining singlisi Buvsora Pirimqulovani izlab topgan va undan baxshining biografiasiga oid quyidagi qiziqarli ma’lumotlarni yozib olgan: “Berdiy Pirimqul o’g’li Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi hozirgi Kerovchi qishloq fuqarolar yig’iniga qarashli Evalak qishlog’ida (Ko’rpalisoy ham deyiladi) 1885-yilda kambag’al dehqon oilasida tug’ilib, 1930-yilda vafot etgan. Berdi baxshining otasi Pirimqulning yetti nafar farzandi bo’lib, ularga Mo’minqul, Nurimbet, Abdumar, Abduvali, Berdiy, Isar, Kenjaboy, Gulasal, Qandbuvi, Buvsora deb ism qo’ygan. Berdiy oilada beshinchi farzand bo’lgan. U yoshligidan do’mbira va dostonchilikka qiziqqan. Ustozi Irisboy sozanda ko’lqishloqlik (Evalak bilan yonma-yon qishloq) bo’lib, el ustida yurgan juda zo’r sozanda-baxshi bo’lgan. Uning ustozi ham dostonchi bo’lgan. Berdi baxshining ozgina eskicha savodi ham bo’lgan. U baxshilik qilish bilan bir qatorda, asosan, dehqonchilik qilib kun kechirgan”<sup>6</sup>.

Berdi baxshining ustozi ko’lqishloqlik Irisboy sozanda to’g’risida qo’shimcha ma’lumotlarni aniqlashning imkoni bo’lmagan. Ammo folklor ekspeditsiyalari davomida Berdi baxshining shogirdlari, ya’ni Piskent dostonchilik maktabining so’nish davriga mansub ayrim baxshi-sozandalar haqidagi faktlar topilgan. Xalq qo’shiqlari va o’lanlarning chechan ijrochisi Anorboy Kenja o’g’li ham Berdi baxshining shogirdlaridan bo’lgan. U 1901-yilda Piskent tumanining Kerovchi qishloq fuqarolar yig’inidagi, Evalak qishlog’ida dehqon oilasida tug’ilgan. O’z hamqishlog’i Berdi baxshiga shogird tushib, undan do’mbira chertib, o’lan aytish mahoratini o’zlashtirgan. Undan “Saydimxon bilan Oysanam”, “Sohibqiron” dostonlarini o’rgangan. Anorboy Kenja o’g’li ko’p vaqtini tulkiga tozi qo’yib ov qilish bilan o’tkazgan. Tozi itdan ikkitasini ergashtirib otga minib ov qilgan. Tulki ko’rsa, “hayt” deb qo’ysa, tozilar yugurib quvlaybergan. Anorboy Kenja o’g’li ancha keksayib qolganligi sababli “Sohibqiron” dostonini Muzayyana Alaviyaga ertak qilib aytib bergan.<sup>7</sup> Uning repertuaridagi o’lanlar O’zR FA Til va adabiyot institutining 1961-yilgi folklor ekspeditsiyasi a’zosi Shahzoda Xo’jayeva tomonidan 13-iyul kuni yozib olingan. Bu materiallar Folklor arxivida 1564/1-inventar raqami ostida saqlanadi.

Toshkent viloyati hududida mashhur bo’lgan Mamatqul o’lanchi Sarmon o’g’li ham Berdi baxshini o’zining ustozi deb bilgan. U 1903-yilda Piskent tumanining Kerovchi qishloq fuqarolar yig’inidagi Evalak qishlog’ida tug’ilgan. Arab alifbosiga asoslangan eski o’zbek yozuvida savod chiqargan. Dutor, chetor chertib, bayt va o’lanlarni mahorat bilan ijro etgan. O’lan aytishni o’zining hamqishlog’i va qarindoshi Islom Qurbonovdan o’rgangan. Berdiy Pirimqul o’g’li – Berdi baxshidan ham ko’pgina o’lan va kuylarni o’rgangan. Uning repertuaridagi o’lanlar O’zR FA Til va adabiyot institutining 1961-yilgi folklor ekspeditsiyasi a’zosi Shahzoda Xo’jayeva tomonidan 13-iyul kuni yozib olingan. Bu materiallar Folklor arxivida 1564/7-inventar raqami ostida saqlanadi.

1965-yilda Evalakka kelgan Muzayyana Alaviya Mamatqul Sarmon o’g’lidan “otini maqtagan kishining bayti” deb atalgan quyidagi termanni yozib olgan:

*Bozorga kelgan odamlar,  
Bog’da bitgan bodomlar,  
O’zim qirgin yoshimda,  
Qamishqo’rg’on boshinda,  
O’ydin yerda o’ris bor,  
Qirli yerda qirg’iz bor,  
Uch biyani maqtayin,  
Birovi yaxshi olaydi (ya’ni ola edi),  
Qartang emas, bolaydi (ya’ni bola edi).  
Birovini maqtasam,  
Birovi qora biyaydi (ya’ni biya edi),  
Quyrug’i yerga tiyaydi (ya’ni tegar edi).  
O’g’irlagan o’g’rining  
Oxirati kuyadi.<sup>8</sup>*

Berdiy Pirimqul o’g’lining eng iste’dodli shogirdi Abduqayum sozchi Usmonov Toshkent viloyatining

Ohangaron tumanidagi Uvayd qishlog'ida 1906-yilda dehqon oilasida tug'ilgan. O't o'chiruvchi bo'lib ishlagan. O'zining aytishicha, 12 yoshidan boshlab, chetor chertib o'lan ayta boshlagan. U o'zining ustozlari Berdi baxshidan "Go'ro'g'li", "Ahmad sardor", "Avazning olib kelinishi", "Alpomish", "Malika Ayyor", "Yulduz bilan Qunduz", "Go'ro'g'lining Torkistonga borishi" kabi 12 ta dostonni yodlab olib, xalq orasida turli sayil-yig'inlarda aytib yurgan. Boshqa baxshilar kabi ovozni qirib aytmay, ashulachi kabi ovozni to'g'ri qo'yib aytgan. U dostonni aytishdan avval kishilarning e'tiborini o'ziga jalb qilish uchun terma, bayt va o'lan aytib, keyin bevosita doston ijrosiga o'tgan. Uning repertuaridagi o'lanlar O'zR FA Til va adabiyot institutining 1961-yilgi folklor ekspeditsiyasi a'zosi Shahzoda Xo'jayeva tomonidan 13-iyul kuni yozib olingan.<sup>9</sup>

O'zbek folklorshunosligining asoschisi Hodi Zarifovning 1946-yildagi bir qaydnomasiga ko'ra, Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida Alim sannovchi degan dostonchi yashagan. O'sha paytda yoshi yetmishlardan oshgan bu kishi qo'biz bilan doston, terma va o'lan ayta ekan. Shu tumanda yashovchi Yusuf sannovchi Dodxoyev esa chetor chertib doston aytgan. O'sha paytda 45 yashar bo'lgan bu dostonchi o'zini Berdi baxshining shogirdi deb bilgan. Ohangaronning Telov qishlog'ilik O'rinboy baxshi Tojiyev ham chetor chertib doston aytgan. H.Zarifov uning ijrosida "Kuygan qiz" dostonini eshitganligi haqida ma'lumot bergan

(O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor bo'limi tarixiga oid hujjatlar to'plami. 1946-yil hujjatlari yig'ma jildi).

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, Piskent dostonchilik maktabining taniqli vakili Berdiyoz Pirmuqol o'g'li 1885-yilda hozirgi Piskent tumanining Kerovchi qishloq fuqarolar yig'iniga qarashli Evalak qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, baxshi yashagan qishloq o'sha yerdan oqib o'tadigan suv havzasi nomi bilan Ko'rpaliyoz deb ham yuritilgan. Yoshligidan baxshichilikka havasi baland bo'lgan Berdiyoz ko'lqishloqlik Irisboy sozandaga shogird tushib, undan doston va terma aytish sirlarini, do'mbira chalishni o'rganib, asta-sekin chechan baxshi bo'lib yetishgan. Asosan, dehqonchilik bilan kun kechirgan baxshi bir necha shogirdlar tayyorlagan bo'lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmida bu hududda shahar madaniyatining ta'siri tobora kuchayishi natijasida dostonchilik an'anasida asta-sekin so'na boshlagan. Keyinchalik vohaga ko'chib kelib, Bo'kada yashab qolgan Chori baxshi Xo'jamberdiyevning sa'y-harakatlari ham Piskent dostonchilik maktabi epik an'analari jonlantira olmagan. Garchi Oqtov va To'ytepa atroflarida "Sanjarxon" nomli xalq dostoni ijro etilganligi<sup>10</sup> haqidagi ma'lumotlar o'tgan asrning 80-yillariga qadar saqlanib qolganligiga qaramay, Piskent dostonchilik maktabining o'ziga xosligini namoyish etadigan yagona namuna Berdi baxshidan yozib olingan "Alpomish" dostoni hisoblanadi.

<sup>1</sup> Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ОГИЗ, 1947. – С. 43.

<sup>2</sup> Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979. 54-bet.

<sup>3</sup> Berdi baxshi. Alpomish. So'zboshi va izohlar bilan nashrga tayyorlovchi T.Mirzayev. – Toshkent, 1969.

<sup>4</sup> Yormatov I. Ohangaron o'zbeklarining etnik xususiyatlari va og'zaki ijodiyoti. – Toshkent: Navro'z, 2013. 59-bet.

<sup>5</sup> O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv. № 9204.

<sup>6</sup> O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv. № 9205.

<sup>7</sup> Qarang: O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv. № 9208.

<sup>8</sup> O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv. № 9210.

<sup>9</sup> O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv. № 1564/9.

<sup>10</sup> Yormatov I. Ohangaron o'zbeklarining etnik xususiyatlari va og'zaki ijodiyoti. – Toshkent: Navro'z, 2013. 59-bet.

## Metodik tavsiya



**Xo'jamurod JABBOROV,**

Qarshi davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida  
dotsenti, filologiya fanlari doktori

## DEHQONCHILIKKA OID TERMINLARNI O'QUVCHILARGA O'RGATISH

Dehqonchilik, xususan, obikor va lalmikor dehqonchilik o'zbek xalqi hayotida alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Xalqning kundalik turmushi va faoliyatining barcha jabhalari dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan. Xalqning turmush darajasi dehqonlarning qadimgi va hozirgi yashash manzillari, ekin maydonlari, suv havzalari va manbalari bilan belgilangan. Shu jihatdan dehqonchilikka oid suv haqidagi tushunchalarni anglatuvchi terminlar vositasida o'quvchi va talabalarning so'z boyligini oshirish va yosh avlodning suvga

bo'lgan munosabatini shakllantirish yo'llari to'g'risida fikrlashamiz.

Avvalo, "dehqon" termini haqida so'z yuritish zarur. "Dehqon" termini o'zbek tilida "asosiy kasbi yerga ishlov berish, ekin ekishdan iborat bo'lgan kishi" ma'nosida faol qo'llansa ham, janubiy mintaqa qishloqlarida u anglatgan ma'nolar har xil. Qo'llanish sarhadlarining har biri o'z areali va ma'no nozikliklariga ega. Masalan: dehqon so'zi *ziroatchi*, *ekinchi*, *ekin ekuvchi*, *paxtakor*, *g'allakor*, *ishchi*, *yakka dehqon* (o'zi yakka holda dehqonchilik qilgan kishi), o'rta (yoki o'rtahol) dehqon

(o'z yerlarida o'zi va oila a'zolari kuchi bilan ishlagan dehqon) kabi tushunchalarni ham o'z tarkibiga qamrab olgan. Halol, o'z mehnati, peshona teri bilan kun ko'ruvchi, oddiy, sodda kabi ma'nolari ham shakllangan. Bu so'z asosida *dehqonbop* (dehqonlarga, dehqonchilik qilishga mos), *dehqonchasiga* (dehqonlarga xos bir yo'sinda, dehqonlar singari, dehqonlardek) *dehqonsifat*, *dehqonchumchuq*, *dehqonjorib*, *dehqonlik*, *dehqonparvar*, *dehqonchilik*, *dehqon xo'jaligi*, *obikor dehqonchilik*, *sug'orma dehqonchilik*, *lalmikor dehqonchilik*, *dehqonchilik madaniyati*, *dehqonchilik tizimi*, *dehqonchilik qonunlari*, *dehqon bozori* kabi so'z va birikmalar ham yaratilgan. Bu so'z va birikmalar dehqonning yerga ishlov berish, ekin ekish, ekindan mo'l-hosil olish, olingan hosilni sotish jarayoni bilan bog'liq holda vujudga kelgan.

"Dehqon" so'zi vositasida *Dehqonobod*, *Dehqonxo'ja*, *Dehqonboy*, *Dehqonqul*, *Dehqonyuzboshi* kabi toponim va antroponimlar ham yaratilgan.

"Dehqon" terminining paydo bo'lish tarixi, bu so'zning kelib chiqishi borasida fikr yuritgan tilshunos B.Jo'rayev o'zbek va tojik xalqlari o'z tillarida dehqon so'zini bir xil ma'noda qo'llashini ta'kidlagan. Bu leksemdagi "deh-" so'zi qishloq, qishlanadigan joy ma'nosida Yuqori Qashqadaryo hududida yashovchi tojiklar nutqida mustaqil ishlatilishini aniqlagan. Hozirgi o'zbek shevalarida bu so'z *dehqon*, *de:qon*, *d'yqon*, *di:qan* kabi bir necha variantlarda ishlatiladi. "Dehqon" so'zi fors-tojik tili asosida yuzaga kelgan bo'lib, aslida *dehygon* (*dehy* – qishloqli va *-gon* ko'plik qo'shimchasi, ya'ni qishloqliklar) shaklida ishlatilgan bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. "Dehygon" so'zidagi *g* jarangli undoshining qattiq *o* unlisi oldidan, ayniqsa, singarmonizmli o'zbek shevalarida *qga* o'tishi qonuniy, (chog'ishtiring: *topqan* – *tapqan*) tarzida izohlangan va bu so'z dastlab har ikki tilda ham ma'lum joyga mansub shaxslar (ya'ni qishloqlilar) ma'nosini ifodalagan va bora-bora unda shaxslarning kasb-hunar belgisi ustunlashib, uning kasbi, mashg'ulotini anglatuvchi so'zga aylanib qolgan.

B.Bafoyev esa bu fors-tojikcha so'zning morfologik tarkibi ikki so'zdan tarkib topganligi, ya'ni tarixan qo'shma so'z bo'lganligini ta'kidlaydi va quyidagicha tahlil qiladi: "Uning birinchi komponenti fors-tojikcha *deh* – qishloq va ikkinchi komponenti *qon* < *qoon* < *xoon* < *xon* turkiy tildan o'tib o'zlashgan til birligidir". O.Qurbonov fikricha, dehqon – qishloqlik, qishloqda turuvchi demakdir. Davrlar o'tishi bilan uning ma'nosida o'zgarish bo'lgan. Hozir dehqon ekin yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs ma'nosini bildiradi.

Tarixchi, akademik A.Muhammadjonovning izohicha, "dehqon" so'zi ilk o'rta asrlarda "qishloq hokimi" nomi bilan shuhrat topgan. Dehqonlar o'rta asrlarda endigina shakllana boshlagan yangi ijtimoiy munosabatlarning o'rnatilishi oqibatida qadimgi mulkdor tabaqa bag'rida dunyoga kelgan va yana-da boyib, feodallashib borayotgan quldor katta yer egalari bo'lgan.

Ko'rinadiki, "dehqon" so'zi uch xil, ya'ni qishloqlik (B.Jo'rayev), qishloq xoni (B.Bafoyev), qishloq hokimi (A.Muhammadjonov) ma'nosini anglatgan. Dehqon so'zining qaysi ma'nosi to'g'ri? Buni aniqlash uchun esa tarixiy, etnografik va lisoniy asarlardagi ma'lumotlarni qiyoslash zarur.

"Dehqonchilik" terminining ma'nosiga kelsak, bu terminning birinchi ma'nosi:

1) qishloq xo'jaligining yerga ekin ekib oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi, ziroatchilik;

2) ekin-tekin bilan shug'ullanish kasbi, mashg'uloti;

3) ekinzor, ekin dalasi. Yerga ekilgan ekin; ziroat ekinlari.

Dehqonlar yer haydash, o'rish, yanchish qurollarini yaratgan: o'roq ixtiro qilgan. Har bir zaruriy harakat, holat, asbob va boshqalarni maxsus so'zlar bilan atagan.

Dehqonchilikda eng zarur omillardan biri – suv. Xo'sh, bugungi kunda barcha o'qituvchi va o'quvchilarning suvdan foydalanishdagi vazifasi nimalardan iborat bo'lmog'i lozim? Suvga bo'lgan ijobiy munosabatni yosh avlod ongiga singdirish uchun nimalar qilish kerak? Bu kabi savollarga javob berishda umumta'lim maktablarining biologiya va botanika fanlarini o'rgatish jarayonida suv bilan bog'liq tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari suvga oid tushunchalarni fizika, geografiya, biologiya, botanika, kimyo, ona tili va adabiyot fanlari o'quv dasturlariga kiritish zarur. Bunda o'quvchilarga suvga oid bilim berish usullari quyidagicha bo'ladi: avval o'rganilgan bilimlarga asoslanib birinchi sinfdan yuqori sinflargacha oddiydan murakkablik darajasida har bir fanni o'qitish jarayonida; fanlararo bog'lanishda; mustaqil o'qish asosida; to'garaklarda; shuningdek, tabiat bilan muloqotda bo'lgan vaqtlarda olib borish, eng muhimi ularga suvshunoslikka oid terminlarning ma'nolarini o'rgatish yaxshi samara beradi.

Masalan, ona tili darslarida o'qituvchi o'quvchilardan quyidagi jadval orqali suv minimal elementli so'z birikmalarini tuzishni talab etadi. O'quvchilar mustaqil ravishda suv so'ziga qo'shilib so'z birikmasi hosil qiladigan so'zlarni jadval asosida yozishga harakat qilishadi va quyidagicha jadval to'ldiriladi:

#### Suv minimal elementli so'z birikmalari

<b>Suv</b>	yer-muhandisi
	yig'uvchi havza
	oluvchi inshoot
	to'planish maydoni
	tashlama kanal
	chiqarish
	mashinasi
	o'lchash inshooti
	o'lchash posti
	o'lchash tarmog'i
	o'lchov apparati
	....

Keyingi jadval suv minimal elementi suvga aloqador kasb-hunar, suv yo'llarini yopish yoki ochish uchun xizmat qiluvchi turli to'siqlar, suv sifati, solig'i, suvni



boshqarish, ekinlarni sug'orish, suvning turli harakat yo'nalishi, umuman olganda, suv xo'jaligi bilan bog'liq tushunchalarni ifodalash va boshqa jihatlarni nomlash uchun xizmat qiladi. Bu esa ularning suv minimal elementi ishtirokida shakllangan birikma-terminlarning

aniqlovchi komponenti sifatida kelishini namoyon qiladi.

Mana shunday jadvallar asosida o'quvchilarga tushuntirilsa, o'quvchilarning suv haqidagi tushunchalari ortadi, lug'at boyligi oshadi, suvga bo'lgan munosabatlari o'zgaradi.

### Aniqlovchi komponentli suv minimal elementli birikma so'zlar

<b>Suv</b>	arbob, band, bardosh
	bo'lgich, bo'limi
	damlash, darak, darvoza
	yoqalash, yopgich, idora
	ilmi, yig'ar, kadastr
	kattasi, ko'sak, ko'targich
	makoni, manbayi, miqdori
	mirob, muammosi
	mutaxassisi, nasos, noziri
	obyekti, ombor, resursi

<b>Suv</b>	sathi, sepgich, sig'imi
	sifati, solig'i, sug'orish
	taqsim, tadqiqoti
	tanqisligi, tarash
	tartiboti, tashlama
	tashlash, ta'minoti
	tindirg'ich, tortqich
	toshqini, tushirgich
	to'g'on, to'plam, to'ra
	to'siq, to'sma, fondi

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligida dehqonchilikning to'xtovsiz o'sishi va o'zgarishi, dehqon va fermer xo'jaliklarining tashkil etilayotganligi natijasida ko'pgina so'z va terminlar tilimizga kirib keldi. Mustaqillikning mevasi sifatida ona tilimizga o'zlashgan shirkat, shirkatchi, ijara, klaster, ijarachi, pay, paychi, dehqon-fermer, lizing, tadbirkor, fermer, fermer xo'jaligi,

dehqon xo'jaligi kabi so'z va birikma-terminlarning qo'llanishi faollashdi. Bunday terminlar anglatgan ma'nolarni maktab o'quvchilariga va oliy ta'limda talabalarga o'rgatish, dehqonchilik tizimida o'qitilayotgan fanlarni o'zlashtirishda, bu sohaning ilmiy va amaliy asoslangan yangi usullari va texnikasining sir-asrorlarini egallashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Anadjan BALTAYEVA,**

Toshkent davlat transport universiteti  
O'zbek (rus) tili kafedrasida dotsenti

## ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARGA BADIY ASAR QAHRAMONLARINI TANQIDIY BAHOLASHNI O'RGATISH

Bola kichikligidan tarbiyachi o'qib bergan ertaklar orqali (masalan, "Zumrad va Qimmat", "Bo'g'irsoq", "Sholg'om" va b.) yaxshi-yomon, saxiy-baxil, dangasa-mehnatkash kabi sifatarni farqlab, ma'nosini tushunib boradi. Demak, asar qahramonlarini o'zaro qiyoslash, ularning yaxshi va yomon sifatlarini ajratish, badiiy qahramonni hayotiy vaziyatlar orqali o'rganish orqali boshlang'ich sinflardan o'quvchilarda tanqidiy baholash ko'nikmalari shakllana boradi.

Bu xususda adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev: "Hayotdagi har bir odam yechimi topilishi mumkin bo'lmagan muammo. Badiiy adabiyot ana shu adoqsiz muammoning qirralarini butun murakkabligi, iztiroblari, kechinma-yu o'ylari bilan tasvir etish orqali o'quvchini o'zgan his qilishga, o'ziga daxli bo'lmagan begona odamning dardiga sherik bo'lishga odatlantiradi. O'z tabiati yo'nalishi va maktab qo'ygan pedagogik vazifaning xususiyatiga qarab har bir o'quvchi

timsol yordamida qilingan tahlil natijasida o'z ruhiyatida muayyan yangi sifatlar hosil qiladi. Qandaydir shaxslik sifatlariga ega bo'ladi. O'quv tahlili uchun muhimi ham shudir" [3: 116], – degan edi.

Yuqori sinf o'quvchilari badiiy asarni o'qish jarayonida uni tushunish, undan ta'sirlanish va tahlil eta olish malakalarini egallaydilar.

O'quvchilardan asar qahramonlariga tanqidiy baho berish talab qilinganda ularda qanday taassurotlar hosil bo'lishini o'qituvchilar savollar yordamida aniqlab olishlari lozim. Buning uchun ularga quyidagi kabi savollar bilan murojaat qilinadi:

*Hech narsadan tap tortmaydigan shaxs qanday odam hisoblanadi, siz o'qigan asarlaringizda bunday qahramonlar mavjudmi, ularning nomini ayting? Hayotda faqat birovlarining kamchiliklarini ko'ra oladigan odamlarni qanday shaxslar deyish mumkin, bunday odamlar siz bilgan qaysi asarlarda tavsiflangan?*

*O'zligidan voz kechib, o'zgaralar baxti uchun kurashadigan kishilar qaysi asarlarda tasvirlangan, siz ularning qaysi jihatlari havas bilan qaraysiz? O'zingiz o'qigan asarlardagi qahramonlarning qanday sifatlarini qadrlaysiz?*

Badiiy asar matnlarini tahlil qila oladigan o'quvchilar mazkur savollarga javob izlash jarayonida turli manbalarga murojaat qiladilar.

O'quvchilarda tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirishda badiiy asarlarni rollarga bo'lib o'qish va ifodali o'qish mashg'ulotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilar matndagi ijobiy hamda salbiy qahramonlarni ajratib, ularni tavsiflashga o'rganadilar. Har bir qahramonga tavsif berilayotgan o'rinlarni alohida ohang bilan o'qiydilar, ularning o'qish ohangidan asar qahramonlariga nisbatan munosabatlari oydinlashadi. Xuddi shu vaziyatda o'quvchilarda tanqidiy munosabat va tanqidiy baho berish ko'nikmalari tarkib topa boshlaydi. Agar sinfda tanqidiy savollar bermaydigan o'quvchilar bo'lsa, o'qituvchi ularga muayyan savollar berib, tanqidiy baho berishga undashi lozim. Har bir badiiy asarni o'qishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarda tanqidiy fikrlashga nisbatan moyillikni shakllantirishi talab etiladi.

O'quvchilarida tanqidiy baholash ko'nikmalarini tarkib toptirishda, ularda asar qahramonlariga nisbatan bu yaxshi (ijobiy), serharakat (faol), insonparvar, bunisi esa aksincha, bunday sifatlardan uzoq, faol emas, degan yondashuvni qaror toptirish kerak. Bunday savollar orqali o'quvchilarda muammoni hal qilishning turli yo'llarini izlash imkoniyati tug'diriladi. O'quvchilardagi tanqidiy baholash ko'nikmalari muayyan badiiy asarda qanday darajadagi qahramonlar aks ettirilganligini anglab yetishga ko'maklashadi. Bu esa o'quvchilarni asar qahramonlari shaxsiyatiga turli vaziyatlarda obyektiv baho berishga undaydi. O'quvchilar tanqidiy baholash ko'nikmalarini egallashlari natijasida salbiy nuqtayi nazar ijobiy holatlarni keltirib chiqarmasligini anglab yetadilar.

Tanqidiy tafakkur nima, degan haqli savol tug'ildi. Tanqidiy tafakkur insonning mustaqil fikrlash tarzi bo'lib, uning asosini axborotlar tashkil qiladi. U savollar qo'yishdan boshlanib, ishonchli dalillar yordamida tashkil topadi. Mazkur pedagogik hodisaning o'ziga xos jihati shundan iboratki, o'quvchilar uni ta'lim jarayonida aniq, obyektiv maqsadlardan kelib chiqqan holda mustaqil loyihalashtirib, o'z rivojlanishlarining yo'nalishlarini aks ettiradilar. [3] Buning yordamida

esa o'quvchilar yakuniy natijani aniqlashga muvaffaq bo'ladilar. Tanqidiy tafakkurning aniqlanishi vaziyatlarini bashorat qilishni ham o'z ichiga oladi. Bu kuzatish, umumlashtirish, qiyoslash, farazlarni ilgari surish, aloqalar o'rnatish, o'xshash holatlarni muhokama qilish va uning sabablarini topish, o'rganilayotgan masalaga ijodiy yondashish kabilarni o'z ichiga oladi.

Adabiyot darslari qiziqarli bo'lishi uchun, o'quvchilarda mustaqil tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun o'qituvchilar yangi metodlar va ta'lim texnologiyalarini muntazam ravishda o'zlashtirishlari lozim. Shu asosda, ular o'z amaliy tajribalarida nostandart metodika va texnologiyalarni qo'llashlari kerak.

O'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatadigan darslar o'z shakliga ko'ra an'anaviy darslardan tubdan farq qiladi. Bunday darslarda o'quvchilar tinchgina o'qituvchini tinglab o'tirmaydilar, balki dars jarayonida faol harakatlanuvchi subyektga aylanadilar. Ular chuqur o'ylaydilar, o'zlarining jarayon subyektini ekanliklarini eslab turadilar, bir-birlari bilan fikrlashadilar, o'qiydilar, yozadilar, muloqotga kirishadilar, o'qigan asarlarini chuqur muhokama qiladilar. Bu o'rinda o'quvchilar badiiy asar matniga nisbatan ijodiy yondashuvni amalga oshiradilar. O'quvchilar badiiy asarni alohida diqqat bilan o'qiydilar, bir-birlariga so'zlab beradilar, tahlil qiladilar, asar voqealari atrofida munozaraga kirishadilar, buning natijasida esa o'zlarining mustaqil qarashlarini yozma tarzda bayon etadilar. O'quvchilar o'z qarashlarini bayon etish jarayonida badiiy asar qahramonlariga bevosita tanqidiy baho beradilar. Bunday tanqidiy baho ularda izchil tarzda shakllangan tanqidiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Bu o'rinda o'qituvchi muvofiqlashtiruvchi mavqeni egallaydi.

Shuningdek, adabiyot o'qitishda faqat tafakkurni o'stirishga, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga emas, balki qalbni uyg'otishga, estetik didni tarkib toptirishga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyot tarbiyalanuvchilarga adabiyot bo'yicha qandaydir bilimlar singdirish uchun o'qitilmasligi, balki u jozibali badiiy so'z vositasida o'quvchilarning hissiyotlariga ta'sir qilish orqali ularning ma'naviy qiyofasini shakllantirishi, ularni fikrlashga o'rgatishi, qahramon xatti-harakatida, ruhiy olamida deyarli sezilmasdan o'tib ketadigan nuqtalarigacha ularning e'tiborini qaratishi va shu asosda shaxsiy fazilatlariga haqida mushohada yuritib, odamlarni to'g'ri tushunish, obyektiv baholash ko'nikmalarini shakllantirishi, komil inson qilib tarbiyalashi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018.
3. Husanboeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2004.

Abdulaziz SHARIPOV,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

## TALABALARGA CHET TIL LEKSIKASINI O'RGATISHDA NUTQ FAOLIYATI TURLARINING AHAMIYATI

Bugungi kunda texnika oliy o'quv yurtlarida chet til ta'limida qo'llanilayotgan pedagogik usullarning tatbiqiy asoslari talabalar bilim, malaka va ko'nikmalarini yanada kengaytirish hamda dars mobaynida ta'limiy-ijodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Chet til ta'limi turli mutaxassislar tayyorlash tizimining muhim qismiga aylanganligi va biror chet tilni bilish oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtini tugatayotgan mutaxassis uchun muhim ekanligi barchaga ma'lum. Bunda, albatta, talabalarga leksikani o'rgatish tilni o'rgatishning asosini tashkil qiladi.

Leksikani mukammal o'rganmay turib, nutq faoliyati turlarini o'rgatib-o'rganib bo'lmaydi. U nutq faoliyati turlari uchun material sifatida ishlatiladi. Talaba so'z bilmasa, nutqning mazmunini tushunmaydi, ma'lumot ololmaydi. Nutq mazmuni unga mavhum bo'lib qoladi. Chunki leksikani tinglab qabul qilish, taniy olish ham o'z xususiyati va qiyinchiligiga ega. Gapirishning leksik tomoni o'ziga xos xususiyat kasb etishi bois talaba uni bilmasa, gapira olmaydi. O'qishning ham o'ziga xos qiyinchiligi mavjud bo'lib, birinchidan, harf va tovushlarni tushunish, keyin uni o'qish, so'zlarni tanish va ularni qo'shib o'qiy olish, ularning ma'nosini tushunish lozim bo'ladi. Shundagina matnning mazmunini tushunib yetish va gapirib bera olish mumkin bo'ladi. Yozma nutqning leksik tomoni ustida ham alohida ishlanishi kerak. Talaba u orqali mazmunli va to'g'ri ma'lumot bera olishi uchun so'zni yoza olishi, talaffuz qila olishi, o'qiy olishi zarur. Bundan ko'rinib turibdiki, bu jarayonlarning hammasi uchun leksika kerak. Shu sababdan, talabalarga nutq faoliyati turlarini o'rgatishda leksikaning ahamiyati katta. Chet til dasturida talaffuzni o'rgatishda leksik materiallarni o'rgatish maqsad va vosita hisoblanadi.

Leksikani o'rgatishni metodik tashkil qilish deganda biz nutq faoliyatining leksik tomonini o'rgatish, leksik ko'nikmalarini shakllantirish, avtomatlashtirishni ko'zda tutamiz. Leksikani metodik tashkil qilish tinglab tushunish, gapirish, o'qish, fikrni yozma bayon qilishni o'z ichiga oladi.

So'zning leksik tomonlarini o'rgatish, ko'nikma hosil qilish bir-biridan farq qilib, alohida xususiyatga ega. Metodik tashkil qilishda quyidagicha, ya'ni:

- 1) leksikani o'rgatishga ajratiladigan vaqt;
- 2) talabalarning yoshi;
- 3) o'qitish maqsadi;
- 4) o'qitish bosqichi;
- 5) talabaning ko'nikma malakasi;

6) so'zning mavhum yoki aniq ma'no anglatishi bo'yicha qiyinchiliklar mavjudligini, albatta, hisobga olish zarur.

Har bir so'zning shakli, ma'nosi, qo'llanilishi bo'yicha xorijiy tili, ona tili va rus tillari aloqasidan kelib chiqib, talabalarga chet til leksikasini o'rgatish jarayonida uchraydigan, kelib chiqadigan qiyinchiliklarni va ularni bartaraf qilish yo'llari hisobga olinishi lozim. Keyin bunga ma'lum bir metod – usul va yo'llar tanlanadi. Natijada, har bir so'zning xususiyati hisobga olinib, ma'lum usul bilan talabalarga yetkaziladi. O'z navbatida, talaba bu so'zni tez o'zlashtirib nutqida qo'llay olishga o'rganadi. Texnika oliy o'quv yurtlarida chet til leksikasini o'rgatishda mana shunday eng samarali zamonaviy metodlar – interfaol usullardan keng foydalanib kelinmoqda.

Chet til darslarida ta'lim metodlarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Bilamizki, darsda interfaol metodlardan keng foydalanish chet til materiallarini o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan talabalarning qiziqishi ortirilishi, ularning faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi lozim. O'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda interfaol metodlarni qo'llash va talabalarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metodlar deganda talabalarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi metodlar tushunilib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: aqliy (fikriy) hujum metodi, shiddatli fikrlar hujumi metodi, klaster metodi, qora quti metodi, rasmlarni to'g'ri joylashtir metodi, videotopishmoq metodi, qarama-qarshi munosabat metodi, kichik guruhlarda ishlash metodi, muammoli vaziyat metodi, rolli o'yinlar va b.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yuqoridagi metodlar qo'llanganda ta'lim jarayoni markazida talaba turadi, o'qituvchi esa talabani faol ishtirok etishga chorlaydi. Dars jarayonida talaba uchun foydali jihatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlik qaror topadi;
- talabalar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlar egallanishi ta'minlanadi;
- talabalarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi;
- talabalar o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalari ustuvorligiga erishiladi.

Ko'zda tutilgan natijalar:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddati o'quvchining ehtiyojiga muvofiq lashtirilishi;
- talaba tashabbuskorligi va mas'uliyati qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Xulosa shuki, ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol usullardan foydalanish texnika oliy o'quv yurti talabalariga chet til leksikasini o'rgatishda o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda. Leksikani kommunikativ yo'nalish, ya'ni nutqiy amaliyotda va nutqni egallash uchun o'rgatish chet til o'qitish metodikasining nazariy va eksperimental isbotlangan masalalaridandir. Shu bilan birga, ushbu masala o'qitish amaliyotida yetarlicha hal qilingan deb bo'lmaydi. Hozir ham chet til o'qituvchilari "o'zlari uchun" o'rgangan leksikani talabalarga o'rgatishda davom etishmoqda, sabab leksikani o'rgatishning zamonaviy texnologiyasi mukammal ishlab chiqilgan emas.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J.J. Til ta'limining maqsad va mazmuni // Til va adabiyot ta'limi, 1993.
2. Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.
3. Дерibas В.М. Об изучении многозначных слов (Из опыта преподавания русского языка нерусским. – Москва, 1971.
4. Azixo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006. 51–52-betlar.
5. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
6. Rashidov X., Xabib X., Eldasheva G., Zakirova A. "Kasbiy pedagogika" blokini o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2007.

**Nargiza BABANIYAZOVA,**

Head of foreign languages department at Nukus State Pedagogical Institute

## USE OF ICT IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

From the first years of independence in our country, serious attention has been paid to the organization of teaching foreign languages based on modern requirements. In particular, Clause 4.4. of the "Strategies for further development of the Republic of Uzbekistan" relating to the "development of the sphere of education and science" identified such important tasks as "cardinal improvement of the quality of general secondary education and in-depth study of foreign languages". This allows taking a number of practical targeted measures on the use of modern technologies aimed at learning vocabulary of the English language for students. [1]

The goal of foreign language teaching is an important methodological category, since the definition of the goal determines all subsequent choices.

At present, the goal of foreign language teaching should be understood as formation of a student's personality that is able and willing to participate in communication (indirect and direct) on an intercultural level.

With regard to the competence approach, it is necessary to clarify such concepts as many native and foreign scientists researched the lexical role in developing competence.

What is the vocabulary? This term refers to the vocabulary of the language, a collection of words in it. In the "Dictionary of Methodological Terms" by E.G.

Azimov and A.N. Shchukin, the vocabulary is defined as the leading component of speech communication functioning in speech in interaction with grammar and phonetics [5: 120]. Language proficiency involves knowing a certain number of words in a given language and using them in speech. Being the main structural-semantic unit of the language, the word serves to name the objects, processes, properties and relations between them. The word reinforces the results of people's cognitive activity; without a word, not only the expression and transmission of concepts, but also their formation are impossible. According to A.R. Luria, "the word has a function of a certain meaning, in other words, it selects features, generalizes features and analyzes the subject, assigns it to a certain category, and transmits human experience. It allows a person to go beyond the limits of direct perception, thereby ensuring the jump from the sensual to the rational, which is essential for the human mind". [3: 223]

Several authors agree that vocabulary is stored in the mind in a highly organized and complex web-like system, so-called "mental lexicon". In mental lexicon words are stored, categorized and interconnected in many ways, according to their features such as meaning, form, collocation, syntactic properties, cultural background etc. Consequently, a word being retrieved

is looked up through several pathways at once, which is extremely economical in terms of time needed.

This qualitative descriptive research explains the reasons for applying programs based on ICT in the process of teaching a foreign language and effective ways of learning EFL in the Karakalpak auditorium. When we consider the problems of learning vocabulary, first of all, the selection of a lexical minimum is necessary, since it is impossible to study the entire vocabulary of the language, which covers hundreds of thousands of basic multi-valued lexical units. The minimum in the lexicon is the units that must be learned by students during a certain period of study time.

The Council of Europe's CEFR document indicates the scale of proficiency in English vocabulary from A1 to C1, the ESP students should have B2 level in foreign languages. Here is a question: "How can we get this level?" We know that, according to the descriptors of the CEFR, B2 level learners can:

- understand the main ideas of complex text on both concrete and abstract topics, including technical discussions in his/her field of specialization;
- interact with a degree of fluency and spontaneity, that makes regular interaction with native speakers quite possible without strain for either party;
- produce clear, detailed text on a wide range of subjects and explain a viewpoint on a topical issue giving the advantages and independent disadvantages of various options [2].

However, now the curriculum of ESP students in Nukus State Pedagogical Institute allows teachers to teach only 120 hours in one academic year. [4] It means that in 2 terms the students must get B2 level according to the State Educational Standards. However, the lexical competence is dominant in learning foreign languages, where for B2 level, there are approximately 2103 vocabulary. For students of the Republic of Karakalpakstan, the B2 level is the most difficult level in terms of the number of lexical units studied, which should affect the amount of study time allocated to master this level and the need to develop a special methodology for mastering them. Scientists and methodologists of the Republic of Karakalpakstan did not consider the problem of teaching, in particular, the verbal vocabulary of B2 level students' English language, based on the use of ICT in their works.

In recent years, numerous studies have identified prospects and potential benefits for enhancing the quality of education in information and communication

technologies (ICT). Nowadays, it is impossible to teach without implementing ICT technologies. ICT plays an important role in promoting learning in and outside the classroom. Through encouraging mobile learning and inclusive education, it improves the educational atmosphere.

In enhancing the lexical competence of B2 level, we show the new ways using computer-based informational technologies. Let's look at one of ICT programs below.

"The online website English B2" organizes and manages students' independent work, especially during language and speech training. This determines the nature of used exercises and methods. The most commonly used training task types are:

1. Vocabulary (formation, meaning, lexical units). Exercises to fill in the gaps. The computer offers students a text or a set of sentences with gaps, which they should fill using a hint in the form of English words in the right form. They can also fill in the gaps with the words or word combinations, choosing them from the ones offered by the computer.
2. Exercises for self-control of the dictionary.
3. Grammar exercises. They include the learnt vocabulary in the sentences.
4. Video materials (online films).
5. Resources (articles, books, list of words of B2 level).
6. Tests. In this part, students can review the units with the help of tests.

"The online website English B2" is extremely easy to operate and ideal for individual and group trainings. Here we have in mind not only the most modern technical equipment, and new forms and methods of teaching, but also a completely new approach to the learning process, which helps implement the principle of interactive, communicative learning that provides individualization and differentiation based on features of trainees, their level and inclination. There, special attention is paid to online vocabulary games on the lexical competence of B2, watching TV series, movies and cartoons in the original, which help learn spoken, situational English. Realistic dialogues and fascinating stories make the learning process even more interesting.

While information technologies have long played a major role in evaluation, with the advent of the Internet and now mobile technology, the importance of information technology is higher than ever.

### References

1. Decree No.PD-4947 of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Strategy of action for the further development of the Republic of Uzbekistan" as of 7 February 2017.
2. Common European Framework of Reference – the user/learners' competence. – p.113.
3. Chambers B., Abrami P., Therrien M. Developing a computer-assisted tutoring program to help children at risk learn to read. Educational research and evaluation, Vol. 7, 2001. – pp. 223–239.
4. Curriculum for ESP 1.04, October 2020.
5. E.G. Azimov, A.N. Shchukin. Dictionary of methodological terms. – Moscow, 2009. – p.120.



**Shoira NORMATOVA,**  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
dotsenti, f.f.n.

## O'ZBEK NASRIDA GENDER MAVZUSINING SHAKLLANISH BOSQICHLARIGA BIR NAZAR

O'tgan asr boshlari yurtimiz uchun milliy uyg'onish, jahon tamadduni tomon yuz burish, ayni paytda murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat oqibati o'laroq ziddiyatlar, bo'hronlar, inqilob, qatag'onlar pallasi bo'ldi. XIX asr so'ngi, XX asr boshlarida butun dunyoni hayajonga solgan xotin-qizlar haq-huquqi, erki masalasi ham ayni shu davrda ko'tarila boshladi.<sup>1</sup> Binobarin, Yevropa tushunchasidagi janrlar borasida o'zining ilk qadamlarini tashlayotgan, yangi mavzularga mos shakllar bobida "eksperimentlar" qilayotgan yangi adabiyotda asrlar davomida go'zallik, nafosat va ma'shuqa timsoli bo'lib kelgan ayol obraziga o'zgacha munosabat shakllana boshladi. Nasrda, she'riyatda va dramaturgiyada sharq ayolining huquqsizligi, gender tengsizligi mavzusi keskin o'rta tashlandi. Xususan, o'z otasi tomonidan kuldek sotilgan, sevgilisidan judo qilinib, majburlab turmushga berilgan bebaxt qizlar obrazi paydo bo'ldi. Cho'lponning "Qor qo'ynida lola" hikoyasi bu jihatdan e'tiborga sazovor. Bizningcha, uni o'zbek adabiyotida gender masalasini ko'targan ilk yetuk nasriy janr namunasi deyish mumkin. O'ziga xos zamonaviy lirik novella shaklida yaratilgan bu asarda yozuvchi davrning o'tkir muammolaridan biri – tengsiz nikoh mavzusi, xotin-qizlarga nisbatan g'ayriinsoniy, qullarcha munosabat masalasini o'rta tashlaydi. Keyinchalik, sharq mazlum ayolining ayanchli holati adibning "Kecha va kunduz" (1936) romanining ham yetakchi mavzularidan biriga aylanadi. Roman qahramoni – noyob iste'dod egasi bo'lgan ma'suma qiz – Zebining fojiali taqdiri zamirida jamiyatda ayolning o'rni nihoyatda pastligi, eskirgan qarashlar, jaholat, bilimsizlik hukmron ekani, buning oqibati o'laroq o'zbek xotin-qizlari o'zining zabun ahvolini hatto tushunish, anglash qobiliyatidan mahrumligi, bu esa ma'naviy tushkunlik, aynishlar, insoniy fojialar sababi ekanligi haqidagi fikr yotadi.

Ushbu qarash Oybekning "Qutlug' qon" (1938) romanida Gulnorning mudhish qismatida o'zgacharoq ko'rinishda davom ettiriladi.

Bundan tashqari, bu davr adabiyotida xotin-qizlarga nisbatan jamiyatda ildiz otgan tilsiz, zabonsiz, huquqsiz bir buyum, ko'ngil ochish vositasi sifatidagi munosabat keskin tanqid ostiga olinadi (Cho'lpon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor hikoyalari).

Ikkinchi jahon urushi davri adabiyoti o'z mavzularini ko'targani bois ayol huquqi, tengligi masalasi dolzarblik kasb etmaydi, ko'proq ayol vafosi, sadoqati, front orti mashaqqatlar mavzulari yetakchilik qiladi.

Urushdan keyingi 50-yillar adog'iga kelib, go'yo gender masalasi uzil-kesil hal qilingan "hur" Sovet zamoni-

da xotin-qizlarning holati, mavqeyi masalasi adabiyotda ko'tarila boshladi. Abdulla Qahhorning "Sinchalak" (1959) qissasidagi Saida o'zbek adabiyotida yangi zamon yetishtirgan birinchi ayol rahbar kadr obrazidir. Qissada yozuvchining unga xayrxohligi, uning zakovati, uquvi va imkoniyatlariga ishonch hissi sezilib turadi. Bir qarashda, Saida yangi tuzum bergan imkoniyatlar hosilasi. Lekin diqqat qilinsa, haqgo'y adib amaldagi haqiqiy holatni nazardan qochirmaganligini kuzatish mumkin. Ha, ayolning jamiyatdagi mavqeyi, darajasi ortgan, u zulmdan batamom xalos bo'lgan. Lekin haqiqatda shundaymikan? Biz bu yerda yozuvchining o'ta faollashib, "feministlashib" ketgan qahramoniga yengil kinoyali munosabati ustida to'xtalmoqchi emasmiz (bu haqida adabiyotshunoslikda fikr bildirilgan). Abdulla Qahhor talqinida gender tenglik masalasining qay darajada ko'tarilganligiga diqqat qaratamiz. Asardagi ko'plab ayol qahramonlar taqdirida millat mentalitetida shakllangan, "ong osti"da o'rnamshib qolgan eskicha munosabatlar o'z muhrini qoldirgan. Saida oilasining o'tmishi, yashirincha savod chiqarish kurslariga borib o'qigan uchun onasining otasi tomonidan o'ldirilishi, eri hadya qilgan uy-ro'zg'or bekasi bo'lishdan sevgan ishini, jamiyatdagi mavqeyini afzal ko'rgan Tojixon hikoyasi, zveno boshlig'i etib saylanib, oxir-oqibat ishini eplolmagan, yana o'sha ayollarga nisbatan past, buyumdek qarash sabab buzuq yo'llarga kirgan Mehri, onasining jaholat ortida qilgan jinoyati bois bolaligi jirkanch muhitda o'tgan Kifoyatxon kechmishi tasvirida gender mavzusi yetakchilik qiladi. Ayni paytda, yozuvchi paxta dalasida tengsiz og'ir mehnatga jalb qilingan o'zbek ayoli hayotining haqiqiy manzaralarini epizodik tarzda bo'lsa-da, birinchi bo'lib adabiyotga olib kiradi.

Asar personajlaridan biri kolxozchi ayol so'zlariga quloq tuting-a: "... Mana men, besh bolaning onasiman, erim olтинчи bola... O'tgan yil men sakkiz tonnadan ortiqroq paxta terdim. Bir hisoblab ko'ring-chi, shuncha paxta terganimda necha marotaba o'tirib turdim ekan, bundan tashqari, shu sakkiz tonna yukni ko'tarib necha kilometr yo'l bosdim ekan! Kechqurunlari yana ro'zg'or ishi, bola tashvishi, majlis..."

Umuman, qissada xotin-qizlarga nisbatan shakllangan stereotiplar asosida munosabatda bo'lish, uning aqliy va jismoniy imkoniyatlariga past nazar bilan qarash illatiga tanqidiy munosabat sezilib turadi.

O'tgan asrning 50-yillari o'rtalarida mamlakat ijtimoiy-ma'naviy hayotida ro'y bergan ijobiy o'zgarishlar natijasi o'laroq, "iliqlik" davri yetishtirgan 60–80-yillar

ijodkorlari bu og'riqli mavzuni dadil va keskin ko'tara boshladi. Bu davrga kelib, har tomonlama teng huquqli bo'lgan, "ozod mehnat nashidasi"ni tatib, erkaklar bilan teng mehnat qilish huquqiga ega bo'lgan ayol endi "ikki tomonlama zulm" ostida qoldi. Huquqlar tengligi amalda faqat mehnat borasida bo'lib, tengsizlik boshqacha ko'rinish kasb etdi. Jamiyatda erkaklar bilan barobar mehnat qilish huquqiga ega bo'lgan ayolga nisbatan oilada tengsiz munosabat avvalgidek qolaverdi. "Davlat o'rnatayotgan emansipatsiya jarayonlarining saqlanib kelayotgan patriarxal an'analar bilan chatishib ketishuvi erkaklar va ayollar tengligi faqat partiya hisobotlarida mavjud bo'lib haqiqiy hayotda xotin-qizlar kamsitilishi ishlab chiqarish sohasida ham, xususiy sohada ham saqlanib borishiga olib keldi. Dalalarda butun Sovet Ittifoqi to'qimachilik sanoati uchun paxta yetishtirilgan O'zbekistonda paxta terimi va birlamchi ishlov berilishi uchun, asosan, bola tug'ish yoshidagi ayollar va qiz bolalar mehnatidan foydalanilar edi. Uy-ro'zg'or ishlarini bajarish zarurati bilan bir qatorda malakasiz og'ir ishlarda bandlik ayol organizmiga haddan tashqari og'irlik tushishiga olib kelar edi"<sup>2</sup>.

Bu, bir tomondan, eskicha qarashlarning hali ham insonlar dunyoqarashida mavjud ekanligi bois bo'lsa, boshqa tomondan, butun jamiyatni o'z domiga tortgan iqtisodiy va ma'naviy aynishlar, bo'hronlar oqibati edi. Paxta yakkahokimligi avj olgan davrlarda ushbu siyosatdan butun "dehqon yurti" katta aziyat chekdi, u erkak-u ayol, yosh-u qarini ajratib o'tirmadi. Bu, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalar qismatida mudhish asoratlar qoldirdi.

Pirimqul Qodirovning o'z davrining qishloq (aniqrog'i, chorvadorlar) hayotidagi o'tkir muammolarini ko'tarib chiqqan "Qora ko'zlar" romanida olis tog' qishlog'ida xotin-qizlarning oila, sevgi, nikoh borasidagi huquqlariga nisbatan asrlar davomida shakllangan qarashlar hukmronligi bois oilalarda yuzaga kelayotgan ziddiyatli holatlar, ko'ngilsizliklar ro'yi rost aks ettiriladi.

Romanda masalaning har ikki jihatiga urg'u beriladi. Asar bosh qahramoni Hulkar qishloq udumlariga ko'ra unashtirilganiga emas, sevgan yigitiga turmushga chiqadi, atrofidagilarning ta'na-malomatlariga, gap-so'zlariga qaramasdan, erkaklar kasbini bajaradi, qishoq an'anasini buzib, eri bilan toqqa chorva boqqani chiqib ketadi. Hulkar o'z sevgisi, huquqi va jamiyatdagi o'rni uchun dadil kurashadi va oxir-oqibatda g'olib chiqadi. Ayni paytda romandan o'z vaqtida kuchli rezonansga ega bo'lgan, keng jamoatchilikni qattiq hayajonga solgan adolatsiz siyosat, amaldagi ijtimoiy, qolaversa, gender notenglik qurboni bo'lmish Ma'suda ismli ayol qissasi ham o'rin olgan. Ma'sudaning turmush o'rtog'i

tomonidan hikoya qilingan bu g'amgin qissada yosh qiz boshida ixtiyorsiz turmushga beriladi, o'qish, sevimli kasb haqidagi orzulari barbod bo'ladi; baxtiga turmush o'rtog'ini sevib qoladi, lekin butunlay qishloq udumlari asosida ongi shakllangan oila boshliqlari – qaynona va qaynota izmiga bo'ysunadi, uyining cho'risiga aylanadi, ketma-ket farzandlar tug'adi, boshi-adog'i yo'q ro'zg'or yumushlariga sho'ng'iydi. Buning ustiga, qishloq rahbarlarining zo'ravonlik siyosati tufayli og'ir dala ishlariga jalb qilinadi, salomatligi yomon bo'lishiga qaramasdan qishloq odatiga ko'ra andisha qilib holatini yashirishga harakat qiladi, odob yuzasidan to'yib ovqat yemaydi, oxir-oqibat kamqonlik dardiga yo'liqib dunyodan ko'z yumadi. Hayoti davomida bir marta bo'lsin norozilik bildirishga, nolishga ham jur'at qilolmaydi. O'limi oldidan "Men o'laman, ...rozi bo'ling!" deya eri bilan vidolashadi. Mazkur holat o'sha kezlar uchun yagona emas edi, bu o'zbek qishlog'i hayotining haqqoniy lavhalaridan edi.

Umuman, gender mavzusini bor keskinligi bilan ko'tarish borasida bu yozuvchilarimizning xizmatlarini alohida e'tirof etish zarur.

XX asrning 80-yillari so'ngigiga kelib o'lkada milliy uyg'onish, istiqloq nafasi sezila boshlagan pallada ayol sha'ni, haq-huquqi mavzusi yana bir boshqa ko'rinish kasb etdi. Qishloq joylarda aholining turmush darajasi nihoyatda pasayib ketdi, paxta dalalarida kimyoviy dorilardan zaharlanish, kasallanishlar avjiga chiqdi, og'ir turmush zalvoriga chiday olmasdan ayollarning o'ziga o't qo'yishi kabi mudhish jinoyat ko'rinishi keng tarqaldi. 90-yillarda yaratilgan ko'plab nasr va she'riyat namunalarida ushbu mavzu o'rin olgan. Xususan, Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida mazkur hodisa asar bosh qahramoni Dehqonqulning xotini taqdirida butun dahshati bilan o'ta haqqoniy tasvirlanadi.


Istiqloq davrida gender masalasi yangicha mazmun kasb etdi, endi o'tish davri qiyinchiliklari sharoitida xotin-qizlarning ahvoli, ishsizlik muammosi, odam savdosi, iqtisodiy qiyinchiliklardan qanday bo'lmasin qutulish ilinjida o'zga yurtlarga ish izlab ketgan ayollar qismati mavzusi yuzaga qalqib chiqdi. Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Iqbol Mirzo kabi ijodkorlar asarlari qahramonlari ana shunday hayot mashaqqatlari girdobida qolib, yo'l axtarayotgan, o'zini ming bir ko'chalarga urib, taqdir sinovlaridan ne-ne azoblarda o'tayotgan ayollardir.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiyotida gender mavzusi uzluksiz tadjiga ega, jamiyatning ilg'or fikrlovchi qatlamining doimo diqqat markazida bo'lib kelgan, u yirik va chuqur tadqiqotlarga boy material bo'lishda davom etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho'lpon. Asarlar. II jild. Roman. Hikoyalar. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
2. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2012.
3. Pirimqul Qodirov. Qora ko'zlar. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007.
4. Гапова Е. Классовый вопрос постсоветского феминизма, или об отвлечении угнетенных от революционной борьбы // Гендерные исследования. 2006, № 15. – С. 144–164.
5. Abdulla Qahhor. Sinchalak. – Toshkent: O'qituvchi, 1982.

## “MAYMUN YETAKLAGAN ODAM” HIKOYASIDA MIFOLOGIK RAMZLAR



Isomiddin Eshonqulov chizgan surat

Inson ongi va tafakkuridagi evrilishlar yangi ehtiyoj hamda kashfiyotlarga omil. Bu jihat badiiy adabiyotda ham o'ziga xos ifoda topadi. Hali yozuv kashf etilmagan davrdayoq vujudga kelgan badiiy adabiyot – xalq og'zaki ijodi o'sha muhit va makon tasavvur va ehtiyojlariga mos edi. Mazkur holat inson tafakkurining olamni anglash, uni idrok etishga bo'lgan izlanish, intilishi samarasi ekanligi tabiiy.

Shu ma'noda, o'tgan asrning 70–80-yillarida o'zbek ziyolilari o'rtasida G'arb falsafasi va adabiyoti namoyandalari asarlari va qarashlarini keng muhokama qilish – yangi yo'l izlash, ana shu qarashlarni ma'lum ma'noda milliy adabiyotga, milliy tafakkurga olib kirish ehtiyoji yuzaga kelganidan dalolat. Bu izlanish hosilasi o'sha davr adabiyoti vakillari bo'lmish M.Muhammad Do'st, A.A'zam, O.Otaxon, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, Sh.Hamro kabi adiblar ijodida yangi an'analar paydo bo'lishiga olib keldi.

Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi ana shu jihatdan ahamiyatlidir.<sup>1</sup>

Bu hikoyaning zamonaviy nasrdagi o'rni haqida bir qancha maqolalar, tadqiqotlar mavjud. Aksariyat adabiyotshunoslar X.Do'stmuhammad, B.Karimov, U.Normatov kabi olimlarning tadqiqotlarida bu asar badiiy-uslubiy nuqtayi nazardan yetarli tadqiq qilingan va bu hikoya o'zining ma'no-mazmuni, tili, ifoda usuli, ramziy-majoziy xususiyatlariga ko'ra o'zbek hikoyachiligida yangi davrni boshlab bergani e'tirof etilgan.

Biroq hikoyaning mifologik xususiyatlariga haligacha hech bir tadqiqotda yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shu bois mazkur maqolada Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasidagi mifologik ramzlar talqini va badiiy obrazlar tahliliga e'tibor qaratamiz.

O'tgan asrning 80-yillarida ziyolilar o'rtasida Osvald Shpenglarning “Yevropa zavoli” asari ko'p muhokama qilingan. Hikoyaning mifopoetikasini ochish uchun ushbu asarga ham to'xtalib o'tish ehtiyoji bor. Adib ham bu asar haqida o'zining matbuotdagi chiqishlarida fikrlar bildirgan. Ayni hikoyaning mazmunida ham, bizningcha, G'arb adabiyotida inson va jamiyatga nisbatan yangi qarashlar, yangi munosabatlar paydo bo'lishiga katta turtki bergan “Yevropa zavoli” asarining izi bor. Bizning bu fikrga kelishimiz bejiz emas. Bu haqida adabiyotshunos M.Xolbekov shunday deydi: “Darvoqe, XX asr oxirlashib qolgan bir paytda, uning yana o'z boshiga qaytganidan darak beruvchi alomatlar sezila boshlagandi. Ya'ni yuz yil burun aytilgan “G'arb sivilizatsiyasi poyoniga yetganligi” mavzusiga yana qaytildi. Fransuz shoiri Sharl Bodler (1821–1867)ning “Biz hammamiz go'yoki abadiy dafn marosimida qatnashayotgandekmiz” mazmunidagi hikmatli so'zlarini anglab olishga, mag'zini chaqishga qaytganligimiz bilinib qoldi. Birgina nomlar – J.Papini qalamiga mansub “Oxirgi odam”, O.Shpenglarning “Yevropa zavoli”, A.Blokning “Gumanizm halokati”, P.Valerining “Ruh tangligi”, E.Gusserlning “Yevropa odami va falsafasining tangligi” boshqa nomlar, ya'ni Romano Gvardini qalamiga mansub “Yangi zamon oxiri”, Daniel Bellning “Mafkura intihosi”, Rolan Bartning “Muallif o'limi”, Ixab Hasanning “Orfey halokati”, F.Fukuyamaning “Tarix xotimasi va oxirgi odam”, Semyuyel Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to'qnashuvi” bilan almashti. Baribir ham, Zigmund Freyd aytinganidek, shartli ravishda “madaniyat qanoatlanganligi” deb nom olgan tamoyil o'zgarmasdan eskicha hoida qolaverdi. Gap shundaki, ilg'or G'arb madaniyati o'zining liberalizm ruhidagi ideallariga sodiq qolib, kelajak loyihalarini tuzishni, tarixning u yoki bu “xato”larini tuzatishni davom ettirgani bilan, ayni vaqtning o'zida, inson erkinligi muammosi bilan bog'liq ziddiyatlar hal qilinmaganligi tufayli, baribir orqaga qaytishga majbur bo'ldi”<sup>2</sup>.

O. Shpengler “Yevropa zavoli” asarida umumdunyo tarixiga o'zigacha bo'lgan munosabatni inkor qiladi. “Tamaddunning intihosi bor. U hayot bilan yonma-yon va izma-iz yuradigan o'lim kabi taraqqiyotning yakuni, ruhiyatning qarishi, insoniyat bolaligi tasavvurlarining mahsuli bo'lgan qubballi va gotika uslublarini rad etgan Ona zaminni to'ldirib tashlagan tosh shaharlar qiyofasida moddiy taraqqiyot niqobini kiyib olib madaniyat ortidan izma-iz keladi. U, albatta, o'z nihoyasiga yetadi: dunyodagi barcha madaniy dunyo intihoga sharoit va imkoniyat yaratadi”<sup>3</sup>.



Birinchi, ma'naviy tanazzulga, jahon urushi vayronagarchiliklariga, Sho'ro inqilobi, millionlab odamlar yostig'ini quritayotgan fuqorolar urushiga guvoh bo'lgan O.Shpengler nazarida XX asr insoniyat shu paytgacha erishgan madaniyatlarining intihosi davridir. Bu intihoning o'zining alohida jihatlari va xususiyatlari bor. Bunday xususiyatlardan birinchisi shuki, bu davrda "Mazmunsizlik, zoologiya hukmronlik qila boshlaydi, hamma narsaga befarqlik boshlanadi. Madaniy organizm tarixiy hodisa sifatida o'ladi. Lekin bu jismonan yo'q bo'lib ketishni anglatmaydi, balki endi inson faqat biologik mavjudot sifatida yashay boshlaydi"<sup>4</sup>.

Taraqqiyot XX asrga kelib, ana shunday vaziyatni boshdan kechirmoqda: inson shu paytgacha o'zining ijtimoiy xususiyatlarini namoyon etib kelgan bo'lsa, XX asrdan boshlab uning ruhiyatida biologik mavjudot hukmronlikka o'tdi. Endi inson yana izziga qaytadi, ya'ni unda hayvoniy, biologik ehtiyojlar kuchayib boradi.

Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasida keltirilgan birinchi va oxirgi surat, umuman, qahramon hayotining mazmunsizligi, inson umrining mavhumlikka yuz tutgani tasvirlari, ayniqsa, hikoya qahramoni hayotning birinchi bosqichida ijtimoiy-ma'naviy yuksalish (bu hikoyada odamning o'rmondan maymunni yetaklab chiqayotgani bilan ko'rsatiladi), keyin ma'naviy tanazzul davriga kirganini, ya'ni "biologik ehtiyojlar birinchi o'ringa chiqqanini" (bu holat maymun odamni o'rmonga yetaklab ketayotgani bilan tasvirlanadi) ramzlashtiruvchi qahramon hayoti chizgilari beixtiyor ana shu asardan tug'iladigan tassurotlarni esga soladi. Bu tasodifmi? Bizningcha, yo'q.

Osvald Shpengler "Yevropa zavoli" asaridan so'ng G'arb adabiyotida "Faust" mifologik arxipipi paydo bo'ldi. Dunyo adabiyotida Faust donishmand, hayotning qadrini biladigan, shu bilan birga Shayton bilan bitim tuzgan mifologik obraz sifatida talqin etiladi.

"Maymun yetaklagan odam" hikoyasidagi chol obrazi ko'p jihatdan ana shu obrazga o'xshab ketadi.

Gamlet, Don Kixot, Don Juan ma'lum bir davrdagi madaniyatning timsoli bo'lishsa, Faust jamiki insoniyat madaniyatining timsolidir. Bu Faustning insoniyat taraqqiyotiga xos bo'lgan fazilatlar va nuqsonlarida mujassamdir. U qadimgi madaniyat ko'rinishi bo'lgan Appolondan keskin farq qiladi. Bu obrazni adabiyotga yangidan olib kirishga turtki bergan Shpengler Faust Gyote asarining birinchi qismida harakatdagi, intilishdagi, izlanishdagi, yuksalishdagi madaniy ongini, fojining ikkinchi qismida esa ruhiyati va qalbi so'nish arafasidagi, harakatsiz, faqat aqlga suyanagan, ma'naviy tanazzul bilan birga o'tirgan Yevropaning so'nggi yuz yillik madaniyatini timsollashtiradi, deydi. Shpengler nazarida, Gyotening ulug'ligi shundaki, u "Faust" fojiasi orqali Yevropa madaniyatining yuksalishi va tanazzuli nuqtalarini bashorat qilib berdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Faustning fojiasi uning iblis bilan bitim tuzishi bilan boshlangan. U aynan iblis bilan bitim tuzgani uchun ham halokatga mahkumdur. O'zida insoniyat ongining yuksalishi va tanazzulini timsollashtirgani uchun Faust Shpengler nazarida, insoniyat

tamaddunining yuksalishi va tanazzulini timsollashtiradi. "Yuksalish" va "tanazzul" tushunchalari "Maymun yetaklagan odam" hikoyasining qahramoniga ham xos. U ham avval ongning, aql-idrokning yuksalish, keyinchalik tanazzulini boshdan kechiradi va suratlar orqali adib bu jarayonni timsollashtiradi.

Keyinchalik Shpenglarning qarashlari ta'sirida ijtimoiy hayotning va siyosiy miflarning dialektikasini tahlil qilgan A.Losev asarlarida sho'ro tuzumi aql-idrok, madaniy ongning tanazzuli timsolidi tahlil qilinadiki, "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi qahramoni ko'p jihatdan ana shu tahlillarning badiiy ifodasiga o'xshaydi.

Shundan kelib chiqib aytish kerakki, hikoyadagi chol obrazi o'zi mansub bo'lgan miflashgan siyosatning yoki siyosiy mifning timsolidir.

Chol obraziga yuklatilgan bu xil mifologik vazifa keyinchalik "Qora kitob" qissasining qahramoniga ham ko'chib o'tadi. Qissa qahramoni o'zining hayoti va qarashlari bilan inson ma'naviyatining yuksalish va tanazzulini ramzlashtiradi. Bu asar haqida hali alohida to'xtalamiz.

"Doktor Faust" romanini yaratishda va uning ma'no mazmunida, falsafiy talqinida Tomas Mannga Osvald Shpenglarning Faust haqidagi qarashlari juda katta ta'sir o'tkazgan.

Tomas Manning ushbu romani haqida N.Eshonqulov shunday yozadi: "Roman qahramoni dunyoning eng zo'r taniqli kishisiga aylanish uchun xuddi Faust kabi iblis bilan o'zaro kelishuv bitimini tuzadi. Iblis avvaliga uni fahsh, xudbinlik bilan sinab, o'z tuzog'iga tushiradi. Keyin esa eng muhim shartini qo'yadi. Adrian Leverkuyunga ko'nglining tubida yashirinib yotgan orzusini – dunyoning eng mashhur bastakori bo'lishini kafolatlaydi, bunga erishtiradi, biroq buning evaziga Adrian hech kimni sevishga haqqi yo'q, sevgidan, mehrdan, bir so'z bilan aytganda qalbdan xoli yashashi kerak. Adrian iblisning bu qabih shartlarini qabul qiladi va dunyoning taniqli kompozitoriga aylanadi. Uning har bir yozgani unga beadad shuhrat keltiradi. U endi san'at va tafakkur dunyosining titanlaridan biri edi. Adrian bitimning fojiasini keyinchalik anglab yetadi".

Albatta, N.Eshonqul dunyo adabiyotidagi bu jarayonlardan va bu xil falsafiy qarashlardan bexabar bo'lganda, bizning talqinimizga o'rin qolmasdi. Lekin "Mendan "men" gacha" kitobi N.Eshonqul dunyo adabiyoti an'analardan, oqim va asarlarning falsafiy talqinlaridan ancha yaxshi xabardor bo'lganidan va bu qarashlar hamda an'analarni milliy adabiyotga olib kirishga uringanidan darak beradi.

Xulosa qilib aytganda, "Maymun yetaklagan odam" adib ijodining o'ziga xosligini belgilab beradigan, o'zbek nasrining eng zabardast hikoyalaridan biridir. Hikoya turlicha talqinlar imkonini beradi. Y.Solijonov va boshqa tadqiqotchilar ta'kidlashganidek, N.Eshonqulov ijodida G'arb adabiy-estetik qarashlari ta'siri haqidagi fikrlardan kelib chiqsak, adib ijodining dastlabki bosqichiga taalluqli "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi ham ana shu ta'sirdan xoli emas. Shunday ekan, hikoya poetikasini tahlil qilish dunyo adabiyotining yaxlitligini qayta-qayta isbot qilaveradi.

<sup>1</sup> Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004 y. 212 b.

<sup>2</sup> Xolbekov X. XX asr modern adabiyoti manzaralari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. 9 b.

<sup>3</sup> Шпенглер О. Закат Европы. – Минск: Попурри, 1997. – С. 6.

<sup>4</sup> Шпенглер О. Закат Европы. – Минск: Попурри, 1997. – С. 31.

**Gulruxbegim RAVSHANOVA,**  
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD

## SHOIR HAJVIYOTINING TAKOMIL TADRIJI

Abdulla Oripov mutafakkir shoir sifatida xalq qalbini, ming yillar davomida o'zbek xalqi hayot tajribalaridan o'tib, ma'naviy qoliplashgan hikmatlar, maqollar, matallar, hikoyat va rivoyatlarni juda yaxshi bilgan. Shoir xalqimiz yaratgan ma'naviy xazinaga, xalq qalbining diltortar ohanglariga shunchaki ergashmaydi; uning mazmun-mohiyatini to'la o'zlashtirib, o'z badiiy tafakkuri mezonlari, o'zi yashayotgan davr muammolari, hamnafas vatandoshlari va millatdoshlari ko'ngli bilan bog'laydi. Shoir katta muammolarni ham hajviyotga singdirib, o'quvchiga taqdim etish mahoratini mohirlik bilan egallagan:

*Odamlar och,  
Kolbasa lekin kuchuklarga yedirilmoqda.  
Sharh etamiz bu holni sekin:  
Sabablari qidirilmoqda.  
O'ldirmoqda aka ukani,  
Oilalar yemirilmoqda.  
Sababini kim aytar, qani?  
Sabablari qidirilmoqda.*

Mazkur she'r 1990-yilda yozilgan. Ayni mustaqillik arafasida, majlisbozliklar avj olgan, jamiyat turg'un ahvolga kelib qolgan payt. Shoir xalq ruhiyatini, milliy turmush tarzini shirali tilda, hayotiy tasvirlaydi. Bu she'rdagi kulgi achchiq kulgi bo'lib, uning zamirida yo'qotilgan inson umri, foydasiz ishga sarflangan qimmatli vaqtga achinish hissi hukmron. Majlisbozlik qorin to'ydirmasligi, hal qilinmagan biror ishni hal qilmasligi ma'lum haqiqat. Odamlarni ishdan qoldirib, kunini majlisbozlik qilib o'tkazadigan rahbarlarni tanqid qiladi bu she'r. Aka ukani o'ldirsa, oilalar yemirilsa, hatto yer yuzidan katta bir davlat yo'qolsa ham pinagi buzilmaydigan rahbarlar faqat foydasiz ish bilan, ya'ni majlisbozlik bilan ovora bo'lib qolganliklari shoirni iztirobga soladi.

*Samolyotni opqochdi birov,  
Norozilik bildirilmoqda.  
Javobimiz tayyordir darrov:  
Sabablari qidirilmoqda.  
Yer yuzidan katta bir davlat  
Shitob bilan sidirilmoqda.  
Biz-chi majlis qilamiz faqat:  
Sabablari qidirilmoqda.*

Odamzod paydo bo'libdiki, u kamchilik, nuqson, illat bilan yonma-yon yashaydi. Eng oliyjanob odamda ham boshqalarga ma'qul kelmaydigan qandaydir nuqsonning bo'lishi tabiiydir. Inson komillikka intiladi, lekin unga to'liq erishishi deyarli mumkin emas. Shuning uchun ham odamga yig'i, dard qanchalik doimiy yo'ldosh bo'lsa, kulgi ham shunchalik ajralmas sherikdir.

Shuni aytish joizki, hajviy asarlar dunyodagi barcha xalqlarda bo'lishiga qaramay, unga munosabat turli

millatlarda o'z ma'naviy-axloqiy o'lchamlaridan kelib chiqqan holda turlichadir. Bizning ma'naviyatimizda jiddiyat, andisha ustun bo'lgani uchun ham yozma adabiyotdagi hajviy yo'nalish rivojiga kam e'tibor qaratilgan deyish mumkin. Chunki islomiy axloq o'rinni-o'rinsiz kulishni, birovlarini hajv qilishni unchalik ma'qullamagan. Bu hol badiiy adabiyotimizda hajvchilikning juda ham taraqqiy etishiga imkon bermagan. Lekin diniy, axloqiy aqidalarning qandayligidan qat'i nazar, hayot insonni kulgili vaziyatlar, kulgi va masxaraga loyiq odamlar orasida bo'lishga majbur qilar ekan, tabiiy ravishda, badiiy hajviyot ham yuzaga kelgan va ma'lum darajada rivojlangan.

Biz yuqoridagi she'rni o'qir ekanmiz, majlisbozlik, va'dabozlik ustidan kulamiz, shu bilan birga behuda o'tayotgan umrimizga achinamiz, og'ir o'yga tolamiz. Shoarning "Mehr-oqibat haqida ballada" nomli she'ri bor. Bu she'rda insonlar o'rtasida mehr-oqibatning kamayib ketayotganligi haqida bong uriladi:

*Dema ko'tarildi mehr-u oqibat,  
Birgina chora bor bunday chog' faqat.  
Toki tanangda jon, og'zingda so'zing,  
Endi xabar olgin o'zingdan o'zing.*

Demak, shoir aytmoqchi, birovlardan mehr kutib o'tirma. Xotining, hamkasblaring, hatto ota-onangdan ham mehr kutma, hatto kasalxonaga tushib qolsang ham birovni kutma, deydi shoir. She'ringni ham o'zing o'qi, ko'chadan ulfat izlama, chunki hozir hamma pulning izidan ketgan. Xullas, mehr-oqibat yo'qoldi deb o'tirma, chora izla, uni topishga harakat qil. Hozirgi tezkor, jadal zamonda mehr-oqibat anqoning urug'i bo'lib qolgan. Sog'dan ham, bemordan ham hech kim xabar olmaydi, hammada bahona bisyor: vaqti yo'q. Odamzod hech qaysi jamiyatda ham, zamonda ham yakka holda yashay olmaydi. Odam taftini odam oladi, deydi dono xalqimiz. Shoir oqibatsizlik, mehrsizlikdan tashvishga tushadi. Bu muammoning hazilomuz yechimini topadi: mehr-oqibatni topishga harakat qil, hech bo'lmasa o'zingga o'zing mehr ko'rsat, deydi shoir hazilomuz. Bu, albatta, hazil. Lekin ana shu hazil zamirida og'ir illat aks etgan. Afsuski, bu illat jamiyatda rivojlanib bormoqda. Shoirmi ana shu hol bezovta qilgan. Achchiq kinoya orqali hayotdagi illatlarni o'quvchi ko'z oldida namoyon etmoqda.

Abdulla Oripov hajviyotining asosiy mavzusi oddiy xalq, mehnatkash ommaning hayoti, taqdiri, orzu-umidlariga to'sqinlik qilayotgan salbiy illatlar, manfaatparast, doim o'z foydasini ko'zlovchi amaldorlarning ustidan ayovsiz, zaharxanda kulish bo'lib kelgan. Garchi, o'zi domla bo'la turib yosh avlodga tarbiya berish o'rniga o'zi shunga muhtoj, fe'li tajang, ig'vogar qahramonni shoir to'g'ri yo'lga solishga harakat qiladi. She'ring

birinchi qismida qahramonning o'y-fikrlari, hayot deb atalmish ummonning past-balandlari, g'am-tashvishlari tahlil etiladi va inson o'zligini hech qachon unutmashligi kerakligi uqtiriladi:

*Ruhingizni chulg'amasa  
Nogahoniy bir balo,  
Miyangizning tarxi endi  
Ochilgaydir inshoolo.*

Ikkinchi qismda esa domlaning xarakter xususiyatlari, ig'vogarligi-yu murakkab hajviy xulq-atvori mohiro-na tasvirlanadi. U doim nimadandir norozi, unga hech narsa yoqmaydi, hatto xotinining turishi-yu, bolalarining quvligi, choyxonadagi chollar uning ko'ziga g'iybatchi bo'lib ko'rinadi, tramvayda joy berishmaganda u yanada tajanglashadi, bezovta bo'ladi:

*Bolalar-chi, oh bolalar,  
Tarbiyasiz, quv, suyuq.  
Shox bilan dum bitsa agar  
Shaytondan hech farqi yo'q.  
Xotini-chi, u xotin emas  
Dam so'zlab, dam to'xtaydi,  
Supurgini minib chopgan  
Alvastiga o'xshaydi.*

Bu ig'vogardan uy-ichi, mahalla-ko'y, hamkasblari tugul ishxonasidagi gullar ham cho'chidi, o'zi esa o'rgimchak misoli o'zini panaga olib o'ljasiga tashlanishga shay bo'lib turadi. Gazetani varaqlab, yana xunobi oshadi: "Mukofotni berishibdi padarla'nat anovga"<sup>1</sup>. Xabarni o'qigach yana ig'vo, fitna boshlanib ketadi. Adabiyotning vazifasi go'zallik, yaxshi xulqlarni ko'rsatish bilan bir qatorda insonlarni tarbiyalash, to'g'ri yo'lga solish hamdir. Ushbu she'r to'g'ridan to'g'ri hajvga olingan obyektga murojaat shaklida yozilgan bo'lib, unda mazax, kalaka, kulgidan ko'ra ayblarini yuziga

solib fosh etish yetakchilik qiladi. Shoir shu maqsadda: "Dil ochsangiz, jami odam dilkash erur sizga ham", deya nasihat qiladi. She'r so'ngida domlaga murojaat qilib, uni insofga chaqiradi va uning zamirida piching va kinoya yotadi:

*Endigi so'z... xullas, fe'lni  
Kengroq qiling, domlajon.  
Sizning ko'rgan bu kun esa  
Kun emasdir hech qachon.*

Novator shoir sifatida Abdulla Oripov hajvni yangi bosqichga olib chiqa oldi va buning uchun turli badiiy vositalardan keng foydalandi. "Imom" she'rida bu yaqqol namoyon bo'ladi:

*Hazratim, aslida Sizga ham qiyin,  
Somelar ko'pincha qilishar o'yin.  
Avval ortingizda namoz o'qishar,  
Qatiqqa suv qo'shib sotishar keyin.<sup>2</sup>*

Xulosa qilib aytganda, hajviyotda satira ko'proq dunyoning nomukammalligini va insoniy illatlarni shafqatsizlarcha masxara qiluvchi tur bo'lib, satirada kulgini namoyish etish usuli hamda masxara qilish tufayli muallifga nuqsonli bo'lib tuyulgan hodisa yoki narsani yo'qqa chiqarish tushuniladi va unda fosh etish xususiyati mavjud bo'ladi. Hajvnavis yuz berayotgan hayot hodisalarini tahlil qiladi, uning asl mohiyati yashirin ko'rinadigan va aldamchi kiyimlarni olib tashlaydi, befarqlik, go'llik, shuhratparastlik, ochko'zlik va insonning boshqa kamchilik hamda illatlarini fosh qiladi. Bundan tashqari, hajvnavis har doim salbiy hodisa va holatlarni yerga urishga, uning bema'ni, badbashara ko'rinishini nafrat to'la kulgi bilan ifodalab berishga intiladi. Abdulla Oripov ham ko'proq satira tig'i bilan hayotdagi nuqsonlarni yo'qotishga, odamlarni ogohlikka chaqirishga intiladi.

<sup>1</sup> Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. 1-jild, 11-bet.

<sup>2</sup> Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. 5-jild, 113-bet.

**Muxayyo RAYXONOVA,**

Qarshi davlat universiteti Adabiyotshunoslik kafedrasida o'qituvchisi

## BORLIQDA INSON O'RNINI VA UNING VAZIFALARI MUAMMOSI

(Abdulla Oripov she'riyatida misolida)

Mutafakkir shoir sifatida Abdulla Oripov she'riyatining markazida ham inson va uning hayoti, borliqdagi o'rnini, vazifalari masalasi turadi. Albatta, shoir tug'ilgan va dunyoqarashi shakllangan sho'ro tuzumining bosh shiorida ham – garchand mohiyat bo'lakcha bo'lsa ham – "Hamma narsa inson uchun, uning baxt-saodati uchun!" deyilgan edi. Abdulla Oripovning mashhur to'rtligi bor:

*Koinot gulto'ji – Insondir azal,  
Undadir eng oliy tafakkur, amal.*

*Lekin u tubanlik ichra ham tanho,  
Yo falak! Ijoding buncha mukammal.*

Mana shu to'rtlik Abdulla Oripovning insonga oid nuqtayi nazarining ham, butun ijodining ham programmasi, desak bo'ladi. Chunki unda Abdulla Oripovning inson va uning borliqdagi o'rniga oid qarashlari tezis shaklida o'z ifodasini topgan. Ya'ni:

1. Inson – mulki borliqdagi eng ulug' mavjudot. Ya'ni koinot gulto'ji (1-misra).

2. Tafakkur faqat ungagina berilgan (2-misra).
3. Inson tubanlikda ham yagona (3-misra).
4. Ikki qarama-qarshi tomoni bilan u oliy darajada mukammal qilib yaratilgan (4-misra).

Shoir butun ijodi davomida insonning mana shu xil tiyatiga turli rakurslardan nazar tashladi. Shu tezislarni lirik, dramatik, liro-epik planda keng badiiy voqelantirdi. Inson siymosida azal-abaddan mujassam ziddiyatni badiiy talqin qildi. Shoirning butun ijodini yaxlit holda ko'z oldimizga keltirsak, ayon bo'ladiki, eng oliy mavjudot o'laroq xalq etilgan odamzodning shaytoniy qilmishlari uni ko'proq tashvishga solgan. U insoniylikka zid illatlarni ko'proq qalamga olgan. Buni adibning badbinligi emas, o'z qavmini mukammal, yorug' siymoda ko'rish istagidan tug'ilgan iztirob, dardlari deb tushunishimiz kerak. "Tilla baliqcha", "Temir odam", "Xatolar", "Mo'min Mirzo", "Avgust to'rtliklari" kabi qator she'rlarida insonlik rutbasiga soya soluvchi qusurlarni qalamga oladi.

Inson siymosida buyuklik va tubanlik birmay bir mujassamlashganida oid badiiy-g'oyaviy mazmun shoir she'rlaridan qizil ip bo'lib o'tadi, shoir uni qayta-qayta ta'kidlayveradi. Iftixor, maqto'v bilan zimdan fojialar tasviri yonma-yon keladi.

*Odamni mahv etur farzandi odam  
Ammo odam erur tomoshabin ham...  
O, buyuk mavjudot, hazrati inson,  
Sening asling gohi g'aflati inson.  
Sen gahi barkamol bo'lib ko'rinding,  
Gahi bechorahol bo'lib ko'rinding.  
...olam uzra bu kun ko'tarmishsan qad,  
Unutma, buyuksan, buyuksan behad.  
("Malomat toshlari" she'ri, 1976-yil.)*

Abdulla Oripov insonni, eng avvalo, tabiatning ajralmas bir bo'lagi deb angelaydi. Agar shoirning o'zi yozgan tarjimayi holiga ham, she'rlariga ham sinchiklab nazar tashlasak, tabiatning juda ingichka tasvirlarini ko'ramiz, ya'ni u tabiatni ham o'zini bilgan kabi chuqur biladi, bilishga intiladi. "...Hayotning buyuk saltanati bilan o'z qondoshligini, mushtarakligini, birligini anglamaslik emas, balki anglash tuyg'usi ruhimizni tabiatning sirli hodisalarida o'z aksini ko'rishga majbur etadi!.. – deb yozgan edi inson va tabiat munosabati haqida buyuk rus tanqidchisi V.Belinskiy. – Chamasi, ruhimiz insonda shaxs bo'lib qaror topgan individualligi bilan umundan ajrab chiqqan sayin o'ziga qondoshligini sezishdan mahrum tabiat bilan yaxliligini shu qadar jonliroq va teranroq anglay boshlaydi... Tabiatda bizning ruh yo'q, lekin bizda tabiat ruhi bor. Negaki, borliqning qonuni shunday: oliy mavjudot pastrog'ini o'zida jamlagan bo'lishi shart. Ha, bizning ruhimizda tabiat bilan umumiylik bor va bu umumiylik hayotdir".

Shoir she'riyatida tabiiy mavjudot sifatidagi insonga oid ko'zga hadeganda tashlanavermaydigan yana bir haqiqat badiiy idrok etilgan: odamzod hayotining tashqi tomonlari o'zgardir-o'zgaryapti-o'zgaradi, lekin uning fitrati, tuyg'ulari azaldan qanday berilgan bo'lsa, shundayligicha qoladi, o'zgar olmaydi.

Abdulla Oripov inson va uning yaratilishi, borliqdagi o'rniga oid ana shu ilg'anmas, ammo o'ta muhim haqiqatni mutafakkirning ko'zlari bilan ko'ra olgan. Bu xil anglamda yangi zamon kishisini tarbiyalash da'vo-

sidagi sho'rocha konsepsiyaga yashirin raddiya bor. Qizigi shundaki, shoir bu haqiqatni juda erta anglagan. 1965-yilda yozilgan "Uyqu" she'rida o'qiyimiz:

*Asrim, samolarda yoqolding chiroq,  
Yulduz qilib otding samoga o'zni.  
Qo'zg'ata olmading o'rnidan biroq  
Askar yelkasida turgan yulduzni.  
Asrim, izga solding ummonlar kuchin,  
Yaratmak istading so'nmas bir chiroq.  
Biroq gulzoringni toptamoq uchun  
Qaydadir razilga berib qo'yding joy.*

1979-yilda yozilgan "Kavkaz" she'rida ham xuddi shu motiv ko'zga tashlanadi:

*Qor kabi pokiza, tog'dek sarbaland  
O'tyurak insonlar diydori armon.  
Inson dasti ko'kka yetsa ham garchand  
G'arib tuyg'ularga tutqun u hamon.  
Hamon qaylardadir hasad, xusumat  
Eng oliy hislarni toptagay mutloq.*

Birinchi parchaga ko'ra, shoir deydi: odam bolasi osmonga chiqdi, o'zga sayyoralarini tadqiq qildi, ummon osti dunyosini zarrama-zarra o'rgandi, lekin o'zidagi tabiatida azaldan mavjud ochko'zlik, o'zgalari ustidan hukmron bo'lish, razillik, buzg'unchilik kabi mayllarni yenga olmadi. "Kavkaz"dan olingan parchada ham xuddi shu ruh bor: odamning qo'li ko'kka – yulduzlariga yetdi-yu, lekin tuyg'ulari o'sha-o'sha. Badiiy matnni yuzga sathlariga ko'ra tahlil qilsak, manzara shunday. Lekin chuqurroq tushsak, ayon bo'ladiki, yosh shoir g'ayriixtiyoriy ravishda Yaratganning qudratini idrok etyapti. Insonning ixtiyoridan tashqaridagi, unga bog'liq bo'lmagan hodisalar ham borligidan so'z yurityapti. Odam aql-u tafakkur bilan olam sirlarini ochishi, tabiatni o'z foydasiga xizmat qildirishi va boshqa yana juda ko'p buyuk ishlarni amalga oshirishi mumkin, lekin u Alloh belgilab qo'ygan chegaradan o'ta olmaydi – o'zgartirish mumkin bo'lmagan narsalarni o'zgartira olmaydi. Shoir inson koinot gulto'ji bo'lsa-da, o'z Parvardigori oldida ojiz ekanligini e'tirof etyapti.

Sho'ro mafkurasi bilan qarama-qarshi kelib qolgan tarixiy-ijtimoiy muhitda yashagan shoir she'riyatida ba'zi bahsli nuqtalarning paydo bo'lishi tabiiy hol edi. Bu jihatdan "Tafakkur monologi" she'ri ahamiyatli. She'r 1976-yilda yozilgan. Tafakkur tilidan so'zlayotgan shoir avvaliga:

*Asrlar qa'ridan o'taman sokin,  
Menga bari birdir – kim qul, kim hokim.  
Sizning qutqu bilan zarra ishim yo'q,  
Shundoq salobatli karvonman ulug', –*

deya insonni har qanday toifalash, har qanday ijtimoiy iyerarxiyalashga qarshi o'z programmasini e'lon qiladi. She'ning 2-qismida esa marksistik ta'limotning aniq izlarini ko'ramiz:

*Meni atadilar xudo deb avval,  
Payg'ambar dedilar va daho tugal.  
Buyukman baridan ming-minglab karra,  
Xudo ham, daho ham mendan bir zarra.*

Aminmizki, shu monolog istiqloq yillarida yozilganda, shoir aslo bunday yozmas, inson tafakkurini Xudodan ming-minglab karra buyuk, Xudo tafakkurdan bir zarra, demas edi. Bu yerda “din tabiat stixiyasi oldida ojiz qolgan ibtidoiy odam tomonidan o‘ylab topilgan” degan materialistik aqida she’riy talqin qilingan deb o‘ylaymiz.

Abdulla Oripov fenomenidagi inson konsepsiyasida bir-biriga zid bo‘lib tuyuladigan ikki nuqta bor. Birinchisi shuki, odam, albatta, jamiyat ichida, jamoa bo‘lib yashashi kerak. Bu, albatta, yangilik emas. Jamiki progressiv mafkuralar, falsafiy ta’limotlar shunday deb uqtiradi. Individualizm, egoizm qattiq qoralanadi. “Kuz xayollari” she’rida olamni, umrni falsafiy idrok etishga urinayotgan yosh shoir kuzgi xayollarini “Xazonlar shoshadi, shoshaman men ham, Do’stim, huzurimga shoshib kel sen ham”, deya yakunlaydi. Insonning insonga muhabbati – uning uchun hayotning eng oliy a’moli va shu bois “sevgisiz odam” degan so‘z unga haqorat bo‘lib tuyuladi. Bu jihatdan 1963-yilda – shoir 22 yoshida yozgan “Odamlar” she’ri nihoyatda katta axloqiy, badiiy-estetik mazmun tashiydi. Qosh qoraygan, manzil hali uzoq. Ovulda yo‘lovchini tunab qolishga tak-

lif qilishadi. Zo‘rlash ham yo‘q: “Tag’in o‘zing bilasan...”. Yo‘lovchi qoladi, tuni bilan choyxo‘rlik, suhbat... Erta tongdayoq yo‘lovchi jo‘nab ketadi. Mehmon va mezbun hatto bir-birlarining nomlarini ham so‘rashmaydi. O‘zbekona hayotning oddiy kundalik manzarasi. Biroq unda nafaqat milliy mentalitet, balki umuman, katta insoniylik, beta‘ma yaxshilik qilish kabi ulkan olijanoblik ma‘nosi yashiringan.

Abdulla Oripov ilk izlanishlaridanoq xalq qalbidan o‘rin oldi, xalqimiz nazariga tushdi; milliy ruh ila o‘zbek xalqi dilidagi orzu-armonlarni badiiy tasvirlab, inson ruhiyatini jami murakkabliklari bilan ifodalash yo‘lidan bordi. Shoir she’rlarida shaxs va jamiyat ruhiyati, olam va odam g‘am-tashvishlari, orzu-umidlari, baxt-saodati kuylanadi. Shu boisdan ham shoir asarlarida ezgulik, adolat, go‘zallik singari umuminsoniy qadriyatlar talqini asosiy o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek she’riyatida falsafiylik ustuvorlik qiladi. Abdulla Oripov ijodi orqali o‘quvchi qalbi tarbiyalanadi. Inson qalbi va uning inja tuyg‘ulari shoir ijodi orqali kamol topadi.

Saida MAKSUMOVA,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

## TOG‘AY MUROD ASARLARIDA GRAMMATIK TAKROR ORQALI EKSPRESSIVLIKNING IFODALANISHI

O‘zbek adabiy tilining rivojlanishi, umummilliy adabiy til darajasiga ko‘tarilishida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos. Shunday ekan, o‘zbek adabiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan ijodkorlar asarlarining tili va uslubini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda yozuvchi Tog‘ay Murod asarlarining o‘ziga xos uslubiy jihatlari o‘rganish diqqatga sazovordir.

Tog‘ay Murod asarlarida grammatik takror orqali ekspressivlikning ifodalanishi kuzatiladi. Yozuvchi ijodida grammatik takrorlarning quyidagi ko‘rinishlarini uchratish mumkin:

**1. Bir o‘zakli so‘zlarning qaratqichli birikmalari.** Intensivlikni ifodalovchi bu konstruksiya sifat va o‘zida biroz belgi tasavvurini ham ifodalovchi otning birikuvidan tuziladi. Bunda bir sifat yoki bir otning aynan o‘zi qaratqich+qaralmish shakllari vositasida takrorlanadi: *go‘zallarning go‘zali, donolarning donosi* kabi. Quyidagi misolga e’tibor bering: *Erkaklarning erkagi olishadi, ha! – dedi. – Ana, Xidir polvon, kezi kelganda davrani gursillatib olishib keta beradi.* [1: 50]

Ba‘zan qaratqich kelishigi belgisiz holatda kuzatiladi: *Ot mo‘l bo‘lsa, aksincha bo‘ladi. Bunda zo‘rlar zo‘ri, otlar oti uloqqa talpinadi. Bundayroq otlar to‘da chetida tomoshago‘y bo‘ladi.* [1: 155] Bu gapda qo‘llangan qaratqich+qaralmish munosabatidagi birikmalar orqali ma‘no kuchaytirilgan, belgi bo‘rttirilgan (*zo‘rlar zo‘ri* – eng zo‘r; *otlar oti* – eng yaxshi ot) va shu orqali nutq subyektining ijobiy baho munosabati ifoda etilgan.

**2. So‘zlarning -mi+san shakllari orqali takrorlanishi.** Bu konstruksiya bir otning yoki sifatning -mi+san qo‘shimchalari bilan shakllangan holda takrorlanishidan hosil bo‘ladi va doim predmet belgisining o‘ta darajada kuchli ekanini ifodalashga xizmat qiladi. Otdan tuzilgan bunday konstruksiyalarda belgi bildiruvchi so‘z ishtirok etmaydi, lekin qandaydir belgi tasavvuri kuchaytiriladi. Masalan: *O‘ziyam, yigitmisan yigit edim-da. Mening kimligimni kunduzi-da bilsa bo‘lardi, kechasi-da bilsa bo‘lardi.* [1: 94] *Yigitmisan yigit* deganda eng yaxshi yigit, ya‘ni yigitning kuchliligi, aqlliligi, bilimi, zehni, kamtarligi kabi belgilari mujassam bo‘lib kelgan. Shuningdek, gapda nutq subyekt, ya‘ni shaxsning o‘zidan faxrlanishi, g‘ururi, maqtanishi kabi tuyg‘ulari -mi+san munosabatidagi so‘zlarning o‘zaro muvofiqlashuvi orqali namoyon etilgan.

**3. Bir o‘zakli so‘zlarning chiqish kelishigi (-dan) qo‘shimchasi orqali takrorlanishi.** Bu konstruksiya miqdor-daraja ravishlari, sifat, son, sifatdosh kabilardan tuziladi. Daraja-miqdor ravishlaridan tuzilgan gaplarda predmet, hodisa, belgining miqdor jihatidan ko‘p yoki oz ekanini kuchaytirib ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Mening kallam yaltirab qoldi. Bitta-da soch bitmad! Do‘xtirlar ajablandi, kamdan kam uchraydigan voqea, dedi.* [1: 102]

Quyidagi gaplarda *Bo‘ri polvon juda hayron bo‘ldi, bug‘ juda quyuq bo‘ldi*, deb berilishi kerak edi. Yozuvchi ta’sirchanlikni oshirish uchun *hayron* va *quyuq* so‘zlarini takror qo‘llaydi. Natijada, chiqish kelishigi qo‘shimchasi orqali takror so‘zlarni bog‘lab ekspressivlikni oshirgan:

*Bo'ri polvon hayrondan hayron bo'ldi.* [1: 66] *Polvonlar og'zidan chiqmish bug' quyuqdan quyuq bo'ldi.*

Tog'ay Murod bunday shakldagi takrorga *-lan* fe'l yasovchi qo'shimchasini qo'shib ma'no kuchaytirishning o'zgaracha turini hosil qilgan: *Ma'yusdan ma'yuslandi. Ma'yus bosh egdi, ma'yus xayollandi.* [1: 243] *Qahrim qo'zigandan qo'zidi.* [1: 127] Bu gapda qo'llangan *qo'zigandan qo'zidi* takrori juda ham *qattiq g'azablandi* ma'nosini ta'sirchan ifoda etishga yordam bergan. Yuqoridagi gaplarda ham *-dan* chiqish kelishigi bog'lovchilik vazifasini bajarib, analitik shaklni hosil qilishda ishtirok etgan. Yozuvchi tomondan hosil qilingan bu grammatik takror orqali harakat ifodasining ta'sir kuchi bo'rtirilgan.

**4. Bir o'zakli so'zlarning egalik qo'shimchasi orqali takrorlanishi.** Bir o'zakning 3-shaxs egalik qo'shimchasi yordamida takrorlanishi ham o'ziga xos ekspressivlik hosil qiladi. Bunda voqea-hodisaning doimiy, davomli ravishda bo'lib turishi kuchaytirilgan holda ifodalaniadi. Masalan: *O'g'lim o'ktamligida yulduzlar yongani yongan bo'ldi. O'g'lim mag'lubligida so'ngani so'ngan bo'ldi...* [1: 100] Ushbu gaplarda qo'llangan *yongani yongan, so'ngani so'ngan* grammatik takrori orqali harakatning me'yordan ortiq darajada, hamma vaqt bajarilishi ifoda etilgan. Harakat tarzining bu shaklda bayon etilishi ifodaning ta'sirchanligini ta'minlagan. Shu bilan birga, gapda grammatik takror orqali nutq subyekting baho munosabati (e'tirozi) ham aks etgan: *Xaloyiq, ko'rdilaring, Boboqul polvon bilan Mamat polvon ne vaqtdan buyon olishib, na yiqitadi, na yiqiladi! Yerga qarab suyashib yurgani yurgan!* [1: 31] *Bilib qo'y, oshna... izingdan surganim surgan! Qayerda davra bo'lsa, izingdan quvib boraman!* [1: 99] Tog'ay Murod bu gaplarda ham harakatning me'yordan ortiq darajada, hamma vaqt bajarilishini sifatdoshning 3-shaxs shaklida ifoda etgan.

Yozuvchi sifatdoshning takrorini 1-shaxs shaklida ifodalab asar qahramoni bir so'zli ekanligini, fikri qat'iy ekanligini ta'sirchan ifodalab bergan: *Haq-nohaqni men – o'zim ajrim qilaman! Aytganim aytgan, deganim degan.* [1: 17]

#### 5. Aynan bir so'zni takror holda qo'llash.

Tog'ay Murod ma'noni kuchaytirish maqsadida bir so'zning aynan takrori, ayniqsa, fe'lning vazifadosh shakllaridan biri – ravishdoshning takrorini ko'p qo'llagan. Masalan: *Davrada ikkita go'zal eshilib-eshilib o'ynadi, to'lg'onib-to'lg'onib o'ynadi.* [1: 14] *Bolasi Momoqiz ro'molini tortqilab-tortqilab turdi.* Ravishdoshning bo'lishsizlik shakli ham takrorlanib, ekspressivlikni oshirishga xizmat qiladi: *Bo'ri polvon yosh polvonga mensimay-mensimay qaradi.* [1: 51]

Quyidagi parchada yozuvchining o'ziga xos uslubi ni ko'rish mumkin: *U, o'roq o'rib-o'rib... ro'molining uchi ko'kragiga tushib-tushib... uni tag'in yelkasiga tashlab-tashlab... menga qiyo boqib-boqib... Zulflarini toblab-toblab... Ham iboli, ham ginali kulib-kulib... qo'shiq aytadi.* [1: 99]

Ot so'z turkumi takror va juft holatda keladi: *Taboq-taboq palov suzildi. Olam-jahon odam bo'ldi.* [1: 15]

Sifat so'z turkumi takrorlanadi: *Ayniqsa, hind kinolaridagi qizlar! Suv bilan yutguday qizlar! Suluv-suluv qizlar! Og'ir-og'ir toshlar gurs-gurs yumalaydi.* [1: 98]

Yozuvchining mahoratini shunda ko'rish mumkinki, u gaplarda takror so'zlarni ketma-ket qo'llab badiiy nutqning ta'sir kuchini oshirishga erishgan: *Adirlar o'rkach-o'rkach bo'ldi. Tovatoshlar ulkan-ulkan bo'ldi. Yong'oqlar azim-azim bo'ldi.* [1: 230]

Ravish so'z turkumi takrorlanadi: *Ohista-ohista joyidan turdi. Qo'l chil azal-azaldan man etiladi.* [1: 35] *Shu-shu o'ylasa, ko'ngli tub-tubida parokandalik kechar edi.* [1: 43]

Bizga ma'lumki, bir soni so'z oldidan qo'llanganda ma'noni kuchaytirib keladi: *Bir kuldi, bir urdi.* Tog'ay Murod bunday birikmani takror qo'llab ma'noni yanada bo'rttiradi: *Sollanib-sollanib bir uchdi-bir uchdi-ye!* [1: 243]

Misolalar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, Tog'ay Murod asarlarida qo'llangan grammatik takrorlarning barchasi ma'noni kuchaytirish, bo'rttirish uchun, ta'kidni oshirish uchun xizmat qilgan. Shu bilan birga, nutq subyekting baho munosabatini aks ettirgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, 2008.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Qosimova M.B. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog'ay Murod asarlari asosida): filologiya fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 2007.

**Qonaqbay TURDIBAYEV,**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
Qoraqalpoq filologiyasi fakulteti dekani, f.f.n., dotsent

## DAVR RUHIYATINI TASVIRLASHDA LIRIK QAHRAMONNING O'RNINI

Haqiqiy she'riyat davr kayfiyati va ruhiy kechinma bog'lamidan vujudga keladi. Ma'no ziddiyati badiiy fikr mantiqiy taraqqiyotiga yo'l ochadi. Poetik maqsad-mudao aniqligi aslida alohida ijodiy dunyoqarsh hosilasi, unda ruhiy holatgaingan ijtimoiy manzaralar jilvalanadi, ko'ngil rozi umuminsoniy salmoq kasb etadi, an'ana bardavomligi uslubiy izlanishlar hosil qiladi, hissiy idrok va estetik tanlov yaxlitlashadi, ifoda usuli va tahlil mala-

kasi markazlashadi. Shaxs falsafasini milliy o'lchamda tadqiq etishga ixtisoslashgan har bir adabiy talqinda lirik ifoda subyekti davr haqiqatiga payvandlanadi. Unda tasvir ruhiyatini muntazam yangilash mayli mohiyatan shakl-mazmunda poetik voqelanish darajasini tavsiflaydi.

Milliy mustaqillik davri qoraqalpoq nazmi solnomasida T.Sarsenbayev ijodi mustahkam o'rin tutadi. Ruhiy holat manzarasini publitsistik ohangda qayta tiklashga

intiladigan adabiy talqinda ifoda miqyoslarini kengaytirish malakasi yetakchilik qiladi. Ta'bir joiz bo'lsa, lirik tasvir fitratida xayol va hayot, istak va imkon, holat va harakat ziddiyati mantiqiy kengliklar hosil qiladi. Tug'yon shiddati hamda hissiy idrok omuxtalashgan "Jarshi" (1974), "Qubiluv" (1980), "Debduv" (1977), "Qiynavul" (1983), "Shabivul" (1986), "Dunya menen dartlesuv" (1990), "Tanirqant" (1995) she'riy to'plamlari bilan kitobxon ko'ngil saltanatiga kirib borgan ijodkor talqinida inja ruhiy kechinma, ifoda mustaqilligi hamda nafis ishorat ustuvor! Muallif ko'ngil falsafasi ijtimoiy mohiyatini taftish va tavsiflashga urinadi. Iztirobga qoniq jarayonda qoraqalpoqona ohang, milliy idrok va ijodiy tasavvur g'alati tarzda omuxtalashadi:

*Ko'z o'ngimdan yalt etib o'tar,  
Chaqmoq kabi qamashtirar ko'z,  
Qaldiroqlar dilni zabt etar,  
Yomg'ir kabi yog'iladi so'z. [1: 65]*

Tug'yon jilvasi va anglam po'rtanasida qabarib ko'rinadigan ruhiy kechinma aslida shoir xotirasi quyqalari, muvaqqat va o'zgaruvchan kayfiyatda oniy lahza ijtimoiy suvrati chiziladi. Holat manzarasidan ruhiy kechinma tadrijiga o'tish yordamida she'r daxlsizlik maqomini oladi. Poetik lavhada ranglarda hissiy tovlanuvchan tashbehlar, tasvir harakatiga ko'chadigan teran mushohada zalvori seziladi. Shaxs ruhiyatiga hamohanglik – shoir lirikasi yetakchi taomili. Umumiy g'oya va uning yaxlit tasavvurda namoyon bo'lishi muallif badiiy izlanishlari o'ziga xosligini belgilaydi. Ijodkor lirikasida holat manzarasi tahlil malakasini aniqlashtiradi. Qabarib ko'rinadigan kuchli ehtiros falsafiy talqinni detallashtiradi. Xos ifodada u aksar hollarda ruhiy kechim shiddatini ta'minlash maqsadida tafakkur jilosini kuchaytiradi. Fikriy tiniqlik va ravon tasvir usuli joriy ijod muvaffaqiyatini tayinlaydi. Tuyg'u tabiati hamda ifoda mustaqilligini markazlashtiradigan muallif konsepsiyasida tasvir miqyosi o'zgachaligi bo'rtib turadi. Hayrat hamda zavq-shavq tug'dirishga qodir sohir she'riyat uslubda barqarorlik va ruhiy ishlanmani birlashtiradi. Dardni idrok etishga moyillik hamda shafqatsiz ifoda she'r falsafasini belgilaydi:

*Chorasizlik chulg'aydi jonni,  
Armon etib so'nggi diydorni,  
Intiq kutmay shirin visolni,  
Ayriqliqqa eltar ilhomni. [1: 65]*

Shoirning xalq tilidan o'zlashtirgan nozik qochirimlari, teran obrazga qoim iboralari, falsafiy mushohadaga yo'g'rilgan ifoda yo'sini allaqachon muxlislar qalbini zabt etgan. Bu borada adabiyotshunos-olimlar, she'riyat ixlosmandlari tomonidan shoir lirikasi o'ziga xosligi, she'riy ifoda subyekti haqida iliq fikrlar bildirilgan. Monografik tadqiqotlarda ijodkor adabiy talqini tabiati, badiiy mushohada mantiqiy taraqqiyoti u yoki bu darajada nazariy umumlashtiriladi [2: 122–124]. Jumladan, professor Q.Orazimbetov T.Sarsenbayevning "Dunyo bilan dardlashuv" to'plamidagi she'rlarning falsafiy qamrovini ta'kidlab, lirik qahramon kechinmalarini o'quvchiga yetkazishda estetik ta'sirchanlik, urg'uda assonans va alliteratsiya vazifadoshligiga e'tibor qaratadi. Muallif

shoir ijodini I.Yusupov, M. Qarabayev, K.Rahmonov, B.Genjamuradov lirikasi bilan ichki muqoyasada tavsiflaydi. [3: 89–90] Ilmiy qarashlarda e'tiborni tortadigan asosiy jihat badiiy mahorat hamda ijodiy an'ana birikuvi asosiy o'ringa ko'tarilganligiga bog'liq. Ayniqsa, shoirning "Achchiq qand" to'plami muallifning tinimsiz mehnatlari, ko'p yillik izlanishlari samarasi bo'lib, unda shoirning estetik ta'sirchan, ma'no mag'zi teran ijod namunalari o'rin olgan. Masalan, shoirning bu to'plamdan o'rin olgan "Shinglaniv", "Qubiliv", "Tangirqant", "Kunning qurishi", "Aspan astinda", "Kisining kadiri", "Dunyo", "Adam kuni adam" kabi ijod namunalari jamiyat va borliqning o'zaro aloqalarini haqqoniy baholay olishi, kutilmagan xulosalar berilganligi bilan diqqatga sazovor. Bu ijod namunalari lirik qahramon kayfiyatida haqiqatga intilish, borliq sinoatlaridan ogoh bo'lish, qalb, ruh va jism birligiga erishish hodisalari kuzatiladi. T.Sarsenbayevning "Tangirqant" to'plamiga kirgan "Muhabbat fasllari" deb nomlangan she'ri hozirgi adabiy jarayondagi qoraqalpoq adabiyoti intim lirikasiga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi, desak adashmagan bo'lamiz. Shoirning bu ijod namunasidagi so'z saralash mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Tuyg'ular nafasi ufurib turgan she'r satrlari kitobxon qalbiga g'oyibona his-hayajon soladi.

T.Sarsenbayev lirikaning qasida yo'nalishida ham barakali ijod qildi. Uning mustaqillik yillarida "Qoraqalpogiston", "Qoraqalpoq", "Buni bilgan biladi", "Bizning Kengesboy", "Dutorni sozlash", "Sirdosh bo'lish" qasidalarini vujudga keldi va bu orqali zamonaviy odam qanday bo'lishi kerak, degan savolga bir qadar javob bera oldi. Bu qasidalarida shoir sinchkov va xolis baholovchi sifatida ziyoli shaxslarning umr yo'llariga munosib ta'rif bera oladi va o'quvchi ko'z o'ngida bu shaxslarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini to'liq gavdalandiradi.

T.Sarsenbayev mustaqillik yillarida do'stlik, birodarlik mavzusida ham salmoqli she'rlar yaratdi. Xususan, uning "Kanalimsan", "Qirgiziston" deb nomlangan ijod namunasi diqqatga loyiq. Shoirning A.Dabilov, S.Nurimbetov, T.Jumamuratovlarning shu mavzudagi adabiy ijod tajribalaridan munosib ta'sirlangan seziladi. Shoirning bu mavzudagi she'rlarida, ayniqsa, I.Yusupov ijodining ta'siri beqiyos. Masalan, "Qirgiziston", "Monolog", "Nurpayis Jarqinbayevga", "Qizquvmay", "Jamilaga" (Sodiqning tilidan) kabi she'rlarida turkiy qardosh qirg'iz xalqining urf-odatlariga, eliga, milliy dunyoqarashiga bo'lgan katta e'tibori va e'tiqodini payqash qiyin emas. Bu ijod namunalari Ch.Aytmatovning "Jamila" qissasi ta'sirida yozilganligi, umuman, shoir ushbu she'rlarida qirg'iz xalqining madaniyatidan keng ma'noda o'zgacha kayfiyat tuyganligi sezilib turadi. Ayniqsa, bu she'rlarda Jamila, Doniyor, Safar kabi qahramonlarning nomlarini "Issiqko'l", "Norin", "Olatog'" kabi toponimik nomlar ostida keltirilishi, lirik qahramonning ularga bo'lgan mehribonlik, odamgarchilik, qardoshlik tuyg'ulari aniq-tiniq bilinib turishi fikrimizning aniq dalili hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi "Qozoq shoiri Muxtor Shahanovga" nomli she'ri ham har bir o'quvchida o'zgacha kayfiyat uyg'otadi.

T.Sarsenbayev hozirgi qoraqalpoq liro-epik janrlarining rivojiga ham katta hissa qo'sha olgan. U ballada,

poema va doston janrlari ta'sir doirasining kengayishi, davr, xalq dardi bilan milliy mentalitetimiz yutuqlarini kuylash yo'lida tinimsiz mehnat qildi. Ayni shu borada muallifning "Doira durra haqida ballada", "Aysarining bolasi", "Aysa kampir haqida afsona", "Qochib ketgan pari haqida ballada", "Eshay qo'pol" singari balladalar e'tirofga loyiq. Bu asarlarda shoir xalq og'zaki ijodidan mohirona foydalangan. Masalan, "Qochib ketgan pari haqida ballada" she'rida shoir jahon adabiyotida qo'llangan mashhur ertak g'oyalaridan ustalik bilan foydalangan. Ushbu ijod namunasida yosh ilhom parisi haqida so'z boradi. Sahar chog'ida lirik qahramon ko'z oldiga bir parizod – ilhom parisi yalt etib ko'rinadi-da, keyin ko'zdan g'oyib bo'ladi. She'rda, ayniqsa, I.Yusupovning "Pari mingan ot" she'ri, B.Genjamuratovning "Suv pari" poemasi bilan qiyosiy-tipologik yo'nalishda ta'siri bo'rtib turadi. G'aroyib ilmiy-falsafiy yechim aynan ijodkor badiiy mahoratini tavsiflaydi.

Tasvir va ifoda birikuvi, davr, muhit hamda shaxs ziddiyatlari falsafiy teranligini yoritish tamoyili shoir ijodida quyidagi estetik qirralar jamuljamiga olib keladi: a) badiiy idrok hamda publitsistik talqin ziddiyatini uyg'unlashtirish; b) ham voqelik solnomasi, ham qahramon ruhiyatini mutanosiblikda tahlilga yo'naltirish; d) obyekt-

tivlashtirilmagan tasvir quyuqligi; e) rivoya texnikasi o'z yetakchilik mavqeyini yo'qotishi. Tabiiyki, mavjud holatda nutq badiiy vazifadoshligi ham o'lchamini o'zgartiradi. Muallif adabiy talqinida inson (subyektiv ibtido) va voqelik (obyektiv intiho) plastik tasavvur yaxlitligiga evriladi. Buning natijasi o'laroq, kuzatish, sharhlash va baholasharo uyg'unlik alohidalikni belgilaydigan muhim omilga aylanadi.

Umuman, T.Sarsenbayev yangi davr qoraqalpoq lirikasi halqasida jiddiy izlanishlar olib borayotgan shoir sanaladi. Uning ijodida o'ziga xos estetik salohiyatni namoyon etadigan ifoda salmog'i mavjud. Lirik "menda shaxs ruhiyati hamda ijtimoiy muhit g'alati tarzda omuxtalashib ketadi. Unda tahlil quyuqligi tasvir ruhiyatini belgilaydi, tafakkur idroki so'z zalvorini oshiradi, sohir bir dard nafasat hujayralariga singadi, falsafiy umumlashma ruhiy-axloqiy olam yaxlitligini dalolatlaydi, adabiy talqin shoir ruhi va nafasi, ovozi va sozini tasvir tasavvurida alohidalaydigan estetik baholash mezonlariga evriladi. G'oyaviy salmoq hamda ma'no originalligi T.Sarsenbayev lirikasi o'ziga xosligini belgilovchi omil hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sarsenbayev T. Taqirqant. – Nukus: Qaraqalpaqstan, 1995.
2. Axmetov S. Qaraqalpaq poeziyasi. – Nukus: Qaraqalpaqstan, 1988.
3. Orazimbetov Q. Hazirgi qaraqalpaq lirikasida ko'rkem formalarning evolyutsiyasi ham tipologiyasi. – Nukus: Qaraqalpaqstan, 2004.

**Nilufar SULTONOVA,**

Qarshi davlat universiteti Adabiyotshunoslik kafedrasida  
o'qituvchisi, PhD

## BADIIY IQTIBOSNING ADABIYOTDAGI O'RNI

Isajon Sultonning davr adabiyotshunos va munaqqidlarining e'tiborini tortgan o'ziga xos romanlaridan biri "Ozod" deb nomlanadi. Uning asarlari uchun hamisha insonning ma'naviy dunyosi, ma'rifat yo'lida yurgan qahramonlarning ruhiy-psixologik kechmishlari muhim sanaladi. Isajon Sulton o'zining "Ozod" romanini ana shunday aniq ma'naviy maqsad yo'lida yozgani asar boshidagi epigraf va "Bag'ishlov" dan ham bilsa bo'ladi. Adib o'z romani boshida "Professor Ozod Sharafiddinovning yorqin xotirasiga hamda elning gurkirab yetilib kelayotgan yosh avlodiga bag'ishlanadi" degan jumalarni yozadi. Yosh avlod hamisha dunyoning kelajagini belgilab beradi. Ularning ma'rifat bilan kamolga yetgan qalbi va yuksak bilimi bilangina jaholat ustidan g'alaba qozonish mumkin. Bu yo'lda esa ezgu so'z o'zining beminnat xizmatini bajarishi aniq.

Ikkinchi tomondan, romanning Ozod Sharafiddinov xotirasiga bag'ishlangani aytiladi. Bugungi O'zbekiston

ahli O.Sharafiddinov domlaning mamlakat madaniy, ma'rifiy, adabiy hayotidagi tutgan beqiyos o'rnini juda yaxshi biladi. Aynan adabiyotshunos professor hurmati uchun roman "Ozod" deb nomlanadi, ikkinchidan, yozuvchi ustoz adabiyotshunos hurmati uchun romanidagi bosh qahramon ismini "Ozod" deb ataydi. Ozod Sharafiddinov umrini so'zga bag'ishlagan, so'z yo'lida mehnat-mashaqqat chekkan fidoiylardan biri edi. Shuning uchun ham adabiyotshunoslik sohasidan birinchi bo'lib unga "O'zbekiston Qahramoni" degan yuksak unvon berildi. Albatta, roman voqealarini bitta adabiyotshunos olimning hayot yo'li yoki faoliyatiga bog'lab talqin qilishga zarurat sezilmaydi. Ilk sahifalaridagi bag'ishlov ham romanning mazmun-mohiyatiga borib taqaladi. "Darhaqiqat, so'zda sehr bor, deyildi. Bundan ham haybatliroq so'z aytishni istab adashganlar aytdilarki: "Avval So'z bo'lgan edi. Tangri taolon-ing So'zi aytilgach, dunyo yaraldi. Bizlar ham o'z holi-



mizcha bir soʻz aytdik”. Aytguvchilar mana shu yerda adashdilar. U Zotning soʻzi lisoniy emasligini unuttirdilar. Zotan, Tangrining soʻzi hukm-u iroda edi. U behudaga soʻz aytishdan pok edi. Soʻzda sehr bor degan hikmat – oddiy insonlarni ogohlantirish uchun aytilgan edi. Bu asar Soʻz aytishga jazm qilgan va aytgan soʻzining mohiyati-yu oqibatini sezgan isteʼdod ahliga, shoirlarga, yozuvchilarga, yaʼni maʼnaviy dunyolarni hosil qiluvchi barcha kishilarga bagʻishlanadi. Zotan, aytilgan soʻzlar allaqachon moddiylashib boʻldi, shakl yosadi, tevarakni oʻzgartirdi va aytuvchining hayoti mohiyatini belgilab berdi”. Yozuvchi oʻz soʻzining zalvorini anglagani shu bagʻishlovdan ham seziladi. Bu boshlanishda muallifning ifodasi ham ilohiy kitoblardagi “avval Soʻz boʻlgan edi”, “soʻzda sehr bor, sheʼrda hikmat” kabi tushunchalar bilan modifikatsion aloqaga kirishadi; ular oʻzaro uygʻunlashib adibning niyatini anglatadi.

Adib romani bagʻishlovidagi “Bu asar Soʻz aytishga jazm qilgan va aytgan soʻzining mohiyati-yu oqibatini sezgan isteʼdod ahliga, shoirlarga, yozuvchilarga, yaʼni maʼnaviy dunyolarni hosil qiluvchi barcha kishilarga bagʻishlanadi” degan qismida ham katta maʼno bor. Yozuvchi uchun insonning maʼnaviy dunyosi muhim. Maʼnaviy dunyo esa hamisha tafakkur bilan, yozuvchilar tomonidan yozilgan asarlar va ular ichida harakat qiladigan insonlarning saviyasi bilan bogʻliq boʻladi.

Isajon Sultonning “Ozod” romani barcha ichki nazariy unsurlarga – oʻziga xos sujeti, obrazlari, bayon usuli, kompozitsion qurilishi, hatto hajmiga koʻra oʻzbek adabiyotida mavjud boʻlgan anʼanaviy romanlardan nisbatan farq qiladi. “Ozod” romani ifoda tarzida modifikatsiya – janrlararo uygʻunlik va mushtaraklik kuzatiladi. Bu esa Isajon Sultonning oʻzbek romani imkoniyatlarini oʻz ijodi orqali namoyon qilayotgani hamda badiiy tafakkuri imkoniyatlari doirasida kengaytirayotganini anglatadi. Toʻgʻrisi, roman janrining imkoniyatlari katta boʻlib, uning tarkibida turli adabiy tur va janrlarga xos jihatlari, shu bilan birga xalq ogʻzaki ijodi namunalari yoki boshqa bir mualliflarning asarlaridan olingan parchalar ham oʻrin olishi mumkin. Dunyo adabiyotshunosligida roman tarkibida bunday unsurlar boʻlishi baʼzida, agar asar tarkibiga folklorning qadimdan kelayotgan anʼanaviy mashhur obrazlari singdirilgan boʻlsa, mifologik va agar adabiy matn tarkibida turli mualliflarning asarlaridan olingan iqtiboslar mavjud boʻlsa, postmodernistik asar sifatida baholab kelinmoqda. Postmodernizm uchun “olamning mavjud qiyofasida faqat fragmentlargagina ishonish mumkin”, shuningdek, “badiiy asar ijodiy niyat ijrosining natijasi, yaʼni oldindan belgilangan niyat asosidagi ijodiy jarayon mahsuli emas, balki uning oʻzi jarayondir”, degan qarashlar muhim sanaladi<sup>1</sup>. Amerikalik tadqiqotchi Kristofer Fort Isajon Sulton ijodi xususida fikr yuritgan bir maqolasini “Isajon Sulton va postmodernizm” deb nomlar ekan, “Meni hammadan ham koʻra I.Sulton ijodidagi postmodernizm, bu zamonaviy estetik yoʻnalish uning asarlarida qanday qiyofa va shaklda namoyon boʻlishi qiziqtiradi”, degan mulohazalar asosida adibning shu “estetik yoʻnalish”ga aloqadorligi xususida fikr yuritadi. Shu bilan bir qatorda oʻzbek adabiyotshunos olimlari ham Isajon Sulton asarlarining ichki ruhida postmodernizmga yaqin holatlarni kuzatgani ham aytil-

gan. Taniqli adabiyotshunos Abdugʻafur Rasulov yoza-di: “Ozod” romanidan va hikoyalaridan anglashiladiki, Isajon Sulton milliy oʻzlik deb atalgan maʼnaviy xazinaning – konning mohiyatini anglab yetmoqda, sharq-musulmon falsafasi, nafasatshunosligi, adabiyotshunosligining vorisi sifatida oʻzining postmodernistik asarlarini yaratmoqda<sup>2</sup>. Haqiqatan ham Isajon Sulton oʻz asarlarida murojaat etgan turli hikoyat, rivoyat, folklor obrazlari, shuningdek, ayrim ijodkorlar asarlaridan olingan parchalar yoki ularning asarlariga ishoralar aynan ijodiy jarayonda obrazlarning shakllanayotgan dunyoqarashi ifodasi uchun xizmat qiladi. Oʻtgan shoir-u adiblarga murojaat bilan yozuvchi oʻz qahramonlarining maʼnaviy bir robita bilan ularga bogʻlanganiga urgʻu bermoqchi boʻladi. Shuning uchun ham Isajon Sulton romanining bosh qahramoni boʻlmish Ozod yuksak maʼnaviy-ruhiy olamda, salafining purmaʼno hikmatlari dunyosida yashashga intilib boradi. Oʻz tevarak-atrofidagi olamni oʻz salafari tomonidan qoldirib ketilgan bebaho hikmatlar yigʻindisi, haqiqiy maʼnaviy yuksalishni insoniyat tomonidan qoldirilgan maʼnaviy merosdan bahramandlik sifatida tushunadi. Aynan “Ozod” romanida oʻtgan salafilar ijodidan, zamonaviy adiblar asarlaridan olingan yoki ularga ishora qilingan oʻrinlar ham bevosita dunyoning mavjud holati, Ozoddek qahramonning obraz sifatida shakllanish jarayonini namoyon qiladi. Yozuvchi Isajon Sulton oʻziga tengqur boʻlgan adib – Ulugʻbek Hamdam bilan qilgan “Musaffo bolalikning orzumand xayollari” deb nomlangan suhbatida “Ozod” romani tabiatiga toʻxtaladi: “Aytmoqchimanki, yana bir dunyo bor va u biz bilgan dunyodan koʻra goʻzalroq, ranginroq, chunki u salafimizning bizga qoldirgan hikmatlaridan tarkib topgan, istasangiz bir qadam qoʻyib, oʻsha dunyo ichiga bemalol kira olasiz<sup>3</sup>”. Roman qahramoni oʻsha dunyoda yashaydi. Qaysidir maʼnoda roman boshidagi bagʻishlov egasi – Ozod Sharafiddinovning turmush tarzi, juda koʻplab oʻzbek va jahon adabiyoti namunalari mutolaa qilgani ham oʻquvchi xayoliga keladi. Buning oqibatida romanning koʻlamdorligi yana ham kengaygandek boʻladi.

Bunday koʻlamdorlik va kengayish Isajon Sulton asarlari tarkibida uchraydigan Xizr (a.s.), Muso (a.s.) yoki Iskandar Zulqarnayn kabi turli tarixiy obrazlarning turli epizodlarda kelishi evaziga ham yuz beradi. Toʻgʻri, adibning katta-kichik hajmli boshqa asarlarida ham turli mumtoz va zamonaviy adiblar asarlaridan olingan iqtiboslar uchraydi. Ammo “Ozod” romani adibning boshqa asarlariga koʻra aynan badiiy parchalar va boshqa ijodkorlarning asarlariga ishora nuqtayi nazaridan ajralib turadi. Shuning uchun bu oʻrinda roman tarkibida kelgan parchalar va ularning roman tarkibidagi funksiyasiga alohida toʻxtalish lozim boʻladi.

“Ozod” romanida Alisher Navoiy bir necha marta esga olinadi. Uncha katta boʻlmagan “Toshkesar” boʻlimida yoʻlga chiqqan Ozod Toshkesar bilan gaplashadi. Toshkesarga Iskandar devoriga tomon ketayotganini soʻzlagach, Toshkesar unga shunday fikrlari orasida Alisher Navoiy dostonidan olingan quyidagi mulohazalarni aytadi: “Bu yoʻlda xunobadan iborat daryolar bor, xunoba emas, balki zahar-zaqqum, deyilsa, yana-da toʻgʻriroq boʻlar. Togʻlari ham osmonga

tig' tortgan, u tig'larning barchasi shafqatsiz ravishda qon to'kaman, deb turibdi. Har tomonida o't tutashgan dashtlar yolqinlanib, osmonga bosh uradi. O'rmonlari har xil dahshatli balolar bilan to'la, undagi har bir daraxtning shoxi g'amdan, bargi esa balodan iborat. Osmonda charx urib yuruvchi bulutlar kishi boshiga yomg'ir o'rniga tosh yog'diradi. Bulutlaridan chaqnagan chaqmoqlar olovidan olamga o't tushadi. U yerda bir tun qo'nish uchun maskan yo'q. Tanga mador beruvchi suv ham, don ham topilmaydi. Ming tuman qush u tomonga safar qilib, havoda ming yil qanot qoqsa ham, bu yo'lni bosib o'tmog'i va maqsadiga yetmog'i ma'lum emas...". Aynan mana shu qo'shtirnoq ichida keltirilgan mulohazalar Toshkesarning fikrlari bilan modifikatsiya qilinadi. Parcha "Lison ut-tayr" dostonining "Qushlar diqqat bilan so'raganlaridan so'ngra Hudhud Simurg'dan nishonlar aytgani" deb nomlangan o'n yettinchi faslidan olingan. Bu fikrlar Isajon Sulton romanida dialogga kirishgan Toshkesarning Ozodning yo'li va manzilida uchraydigan lola, baxt qushi, shamol, qir, chechaklar to'g'risida bergan ma'lumotini to'ldirib keladi. Eng muhimi Toshkesar maslahati "Assalomu alay-

kum, ey ahli ma'ni" deb qichqir" degan tarzda tugallanadi.<sup>4</sup> Ozodning maqsadi – "ahli ma'ni"larni topish. Shu e'tibordan "Ozod" romani sujeti Hudhud boshchiligida Simurg'ni izlab yo'lga chiqqan "Lison ut-tayr" sujetini esga soladi. Dostondan olingan parchalarning roman matnida modifikatsion uyg'unlashuvi roman mazmunini boyitadi.

Isajon Sultonning Alisher Navoiy ijodiyotiga muhabbati juda kuchli ekani seziladi. Shuning uchun ham u o'z romanlaridan Hazrat Navoiyning "Mezonul avzon" ("Boqiy darbadar" romanida), "Xazoyin-ul maoniy" ("Ozod" romanida) kabi asarlari nomidan o'rinni foydalanadi. Shu bilan birga Isajon Sulton o'z asarlari tarkibida zaruratga qarab, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidan tashqari shoir g'azallaridan, "Farhod va Shirin" dostoni hamda oxirida "Munjojt" asaridan iqtiboslar oladi.

Tarkibida turli adabiy parchalar, yangicha talqindagi rivoyatlar kelgan "Ozod" romani adabiyotshunos olimlarning fikrini charxlashga, roman tabiatining o'zgarib borish jarayonlari xususida fikr aytishga yordam beradigan asarlar sirasiga kiradi.

<sup>1</sup> D.Quronov va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademyonashr, 2010. 230-bet.

<sup>2</sup> Rasulov A. Akslar falsafasi // Isajon Sulton nasri badiiyati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. 52-bet.

<sup>3</sup> Musaffo bolalikning orzumand xayollari / Isajon Sulton nasri badiiyati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. 236-bet.

<sup>4</sup> Isajon Sulton. Ozod. – Toshkent: Akademyonashr, 2013. 35-bet.

**G'ayrat URAZBAYEV,**

Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistenti

## ISAJON SULTON HIKOYALARIDA MAVZU VA MUAMMO IFODASI

Hozirgi o'zbek hikoyachiligining peshqadam yozuvchilaridan biri Isajon Sulton asarlari jahon adabiyotshunosligi kontekstida juda qiziqish bilan mutolaa qilinmoqda. Aksariyat hikoyalari turk, rus, ingliz, nemis, fransuz tillariga tarjima qilinib, adabiy jamoatchilikda muhim munozaralarni keltirib chiqardi. Bu munozaralar yozuvchi o'z oldiga qo'ygan maqsad, tanlangan mavzuning dolzarbligi, hayotbaxshligi, zamonaviyligi, yangiligi, jamiyat hayotini qay darajada aks ettirishi borasida kechadi. Zero, har qanday mavzu doimiy ravishda muayyan o'zgarishlar negizida qayta idrok qilinib, yangi talqin talqin evriladi, natijada yozuvchining individual uslubida aks etadi. Bu haqida hikoyalarni o'rgangan va tahlil etgan adabiyotshunoslar – Q.Yo'ldoshev ("Yoniq so'z"), D.Quronov ("Zavqimdan bir shingil"), R.Rahmat ("Adabiyotdan chiqish"), U.Hamdani ("Badiiy tafakkur tadriji") ishlarida munosabat bildirilgan.

Aytish joizki, yozuvchi hikoyalari mazmuni, komponentlari, jumladan, mavzu va muammo ham globallik kasb etadi. Hikoyalarda badiiy kompozitsiya an'ana va noan'ana chegarasida bo'lib, yozuvchi asarga jalb etgan fabula, dispozitsiya globalashuv davriga xos.

Natijada, undagi mavzu va jamiyatda mavjud bo'lish muammosi barcha xalqlar vakillariga tegishli kompozitsiyaga aylanadi. Masalan, bugungi olamda mifopoetik unsurlarga murojaat faollashdi. Buni Uzoq Jo'raqulov ham ta'kidlagan: "Mistikaga moyillik I.Sulton ijodining dastlabki namunalaridanoq kuzatiladi. Ulardagi pari, jin, dev, arvoq kabi elementlar, ko'pincha, muhim hayotiy muammolar yechimiga qaratiladiki, bundan hatto mistika ham, yozuvchi e'tiqodiga ko'ra, turli yo'riqlarga yurishi mumkinligi anglashiladi". [2: 134–135] Ayniqsa, mifopoetik tafakkur elementlari adib hikoyalarda alohida shaklda barqarorlashgan. Joriy kun muammosini talqin qilarkan, mistik qarashlar zamonaviy mifologiyani yaratishga urinishdek taassurot uyg'otadi. Ya'ni adib postmodernistik yo'nalishda xarakterni tipiklashtirar ekan, mistik obrazlar yangi zamon kishisi ruhiyatini chuqur falsafiy-estetik qamrovda ochib berishga odatlanib borayotganligi kuzatiladi. Lekin bu barcha paytda ham o'zini oqlamagan. Masalan, adib hikoyalarda o'zga xalqlarda mif tarzida asrlar osha qadrlanib kelayotgan, e'tiqod darajasiga chiqarilgan mifologik voqeelikka ham ko'r-ko'ronda ergashish uchray turadi. "Qismat"

nomli hikoyasida ana shu jihatning o'zbek o'quvchilariga taqdim qilinishi biroz o'ng'aysizlik keltirib chiqaradi. Chunki qadim hind xalqining ma'budi Vishnu – baliq tarzida kelib, odamlarga ochlikdan xalos qiluvchi kuch tarzida muayyan yordam bergan qahramon "Qismat"ning arxitektonikasida markaziy o'rin tutadi. Natijada, o'zbek o'quvchisi mazkur asardagi mavzuni o'zlashtirishi og'irroq kechadi. Chunki bizda ham Amudaryo bo'ylaridagi qadimgi turkiy qabilalar orasida kishilarni ochlikdan qutqaruvchi baliq timsoliga e'tiqod qo'yilgan. Ammo ularda baliq ma'bud Vishnu bilan emas, balki suv ma'budi Er Xubbi (bu obraz manbalarda va xalq orasida Xubbi, Xobbi, Xovbuva, Obbuva, Bobo, Suv buva, Ob kabi nomlar bilan yashab keladi) bilan bog'lanadi.

Adib hikoyaga mavzu tanlarkan, qadimgi turkiy xalqlar adabiyotida uchraydigan eposlarga xos rivoyat, afsona, miflardan samarali foydalanadi. Masalan, "Bibi Salima", "Bog'i Eram", "Oydinbuloq", "Suvdagi kosa", "Avliyo", "Sofiya", "Shamolli kecha", "Sog'inch" singari hikoyalari mavzu va g'oya jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Bu hikoyalardagi mavzu va muammo hamda ular ifodasi uchun tanlangan kompozitsion komponentlar noan'anaviy talqinning adib ijodida tobora uslub darajasiga ko'tarilayotganini ko'rsatadi. Buni "Qoraqush yulduzning siri" nomli hikoyasida matnlaroq dialogik munosabatli nutqda mavjudligida kuzatish mumkin.

Hikoya an'anaviy usulda bitilgan bo'lib, kompozitsion jihatdan puxta tartiblashtirilgan. Asarda voqealar rivoji buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg'ariyning el-u yurtlarni kezib, "Devonu lug'otit turk" asarining yozilish tarixidan hikoya qiladi. Yozuvchi hikoyada o'quvchining diqqatini ikki jihatga qaratadi: birinchisi, turkiy xalqlar tilida aks etuvchi, iste'molda bo'lgan va yillar, asrlar o'tishi davomida muayyan o'zgarishlarga uchragan, iste'moldan chiqib ketgan so'zlar ma'nolarini qayta idrok qilishni ko'zlagan bo'lsa, ikkinchisi azal va abad tariximizning yillar suronida yo'qolib ketishi, milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz darz ketishining asl sabablarini ochiq-oydin tasvirlashida ro'y beradi. Mazkur hikoyadagi o'z tilini, demakki, milliy o'zligini unutish globallashuv jarayonida ko'plab xalqlar madaniyati oldida turgan muammo sanaladi. Lekin uning turkiy xalqlar tarixi misolida berilishi tanlangan mavzuning ifoda tamoyilida tarixiylikka asoslanganligi bilan izohlanadi. Zero, tarixiylik umuminsoniy tamoyil hisoblanadi.

Hikoya oddiy voqelik negizida bo'y ko'rsatgani bilan unda tarixiy jarayondagi ajdodlarimizning naqadar ilmi, intiluvchan, mard, jasur, olijanob fe'l-u atvori borligini ham namoyish qilganligida ko'rinadi. Demak, hikoya qahramoni Mahmud Koshg'ariy bo'lib, turkiy, arabiy, forsiy tillarda uchraydigan so'zlar asl ma'nolarini qanday izohlagan, o'rganganligini ko'rsatishdan iborat. Yozuvchi joriy kunda til va uning kelajagi borasida olib borilayotgan harakatlar natijasi o'laroq, hikoyaga tarixiy jarayon nuqtayi nazaridan yangicha ifodada ruh bag'ishlashga harakat qilgan.

Kompozitsion dominant belgilar yozuvchining voqelikni qaysi jihatdan turib yoritganligida ham seziladi. Badiiy asar kompozitsiyasida ba'zan voqelik siqiq bir tarzda qurilishi, ba'zan keng miqyosda ochiq qilinishi mumkin. Har qanday holatda ham adib uslubiy

o'ziga xosligini ta'minlovchi mavzu hamda g'oyaning butunligida ham yorqin akslanadi. Tadqiqotchi Nilufar Tosheva bu haqida ushbu mulohazalarni bayon qilgan: "Ijodkorning har bir hikoyasida folklor unsurlari o'ziga xos poetik vazifa bajargan. Isajon Sultonning qirqdan ortiq hikoyasi mavjud bo'lib, ularning deyarli barchasida folklor elementlaridan foydalanilgan. Shunga ko'ra yozuvchi hikoyalarida folklor unsurlarini quyidagicha tasnif qilamiz:

- 1) mifologik ramziy obrazlar ishtirok etgan hikoyalar;
- 2) ertakka xos sujetga asoslangan hikoyalar;
- 3) tarkibida rivoyat, naql va afsonalardan qistirma epizod sifatida foydalanilgan hikoyalar;
- 4) oddiy folklorizmlar poetik vosita vazifasini o'tagan hikoyalar;
- 5) xalq dostonlari sujetiga asoslangan hikoyalar;
- 6) urf-odatlar va an'analar tasviri yetakchilik qiladigan hikoyalar". [4: 13]

Tadqiqotlardagi bunday o'lchov yozuvchi badiiy izlanishlarida xalq og'zaki ijodiga xos tasvir mezonlari hamda g'oyaviy oziqlanish holatlari boshqa hikoyanavislariga qaraganda keng ekanligini aniqlashga qaratilgan. Ya'ni yozuvchi hikoyaga kiritilishi lozim bo'lgan asos – voqelikni folklorga oid vositalardan o'rni-o'rnida qayta tiklay olishi yuqoridagi mulohazalarimizni tasdiqlaydi. Adib hikoyalardagi kompozitsion butunlik sujet liniyalari o'zaro biriktirishda antik zamondan xabar beruvchi hamda bugungi kunda unutilib borayotgan qadriyatlarni avlod qarshisida yana-da jonli tasvirlarda yuzaga chiqara olishida qabarib ko'rinadi. Bu esa asardagi mavzu va muammo salmog'ini oshiradi.

Adabiy tanqidchi Ibrohim G'afurov ta'biricha: "Ekzistensial vaqt takrorlanmas, tugal va o'z sifatiga ega, xuddi qismat kabi yuzaga chiqadi, deydi Xaydegger. Zamin puchmoqlarida esa qismatdan ortiq sir-sinoat yo'q. Isajon Sultonning o'ta shoirtabiat personaji – o'n to'rt yashar xayolchan yigitcha zovurning qoramtir suvlarini g'ussa deb ataydi. Baliqlarni esa olam qismatini suzib olib yuruvchi deb biladi. Bu favqulodda sinchkov va ta'sirchan bolakay faqat ekzistensial ulug' asarlarning qahramoni bo'lish-chun yaralganday". [5: 20] Bu baholash, Isajon Sultonning noyob tabiatli qalbida aks-sado berayotgan tuyg'ular silsilasi, borliqni dualistik atash, ya'ni o'z nomi bilan ham, o'ziga tegishli nom bilan ham atashdan cho'chimaslikda ko'rinadi. U mulki borliqda ro'y berayotgan betizgin yangilanishlarni, voqeliklarni qalbi orqali his qiladi. Qahramonlari ham shu yo'sinda voqelikka o'z pozitsiyasida turib baho beradi. "Qismat" hikoyasidagi bitta jihatga e'tibor beraylik: hikoyada shafqatsiz otadan zulm ko'rgan bir oila taqdiri tasvirlanadi. Ya'ni oila va inson qismati har bir o'g'il taqdirida ochqich kalit bo'lib yuzaga chiqadi. Qismatga ishongan, shu zaylda umr kechirgan jamiyat esa oxir-oqibat fojiga yuz tutadi. Bu o'rinda yozuvchi mifologik kiritma negizida jamiyat taqdiriga befarq bo'lmagan inson irodasini sinovdan o'tkazadi. Natijada, qahramon ruhiy holati yana-da jonli tasvirlarda namoyon bo'ladi. "Qismat" hikoyasidagi kompozitsion usul an'anadan tashqarida, kuchli dramatism, ramzlar, ishoralar, belgilar negizida yoritiladi. Bir qarashda hikoyadagi asosiy g'oya va mavzu inson irodasining zaif va qudratli

jihatlarni sinovdan o'tkazadi. Ojizlik va qo'rqoqlik, mardlik hamda olijanoblik singari botiniy tuyg'ular silsilasida uchta o'g'il taqdiri o'quvchini chigal vaziyatlarda o'zining irodasiga tayanib yashash falsafasidan saboq chiqarishga undaydi.

Kichik janring katta imkoniyatlaridan biri shuki, tasvir va talqin o'zaro qorishib, yaxlitlashadi. Unda yozuvchi fantaziyasi hamda ijod qonuniyatlari bir butunlik kasb etadi. Natijada, folklor an'ana bo'ladimi, mifologik kiritmalarmi – barchasi bir-biriga o'tib turuvchi falsafiy-estetik kategoriyalar sanaladi.

Xulosa shuki, epik turning katta va kichik janrlari-da kompozitsion tamoyil bir-biridan keskin farq qiladi. Yozuvchi tarixiylik, mifiklik tamoyillari orqali tanlangan mavzu va tadqiq etilayotgan muammoning ko'lamini umuminsoniy darajaga olib chiqadi. Kichik janrdagi: sahnaviylik, dramatik ziddiyat voqelikning ro'y berish

vaqtiga qarab o'zgarib boradi. Zero, xarakterlarning ba'zan tayyor holatda olib kirilishi singari jihatlar ham mavzu hamda muammoni yana-da teran ochib berishga yo'naltiradi. Ayniqsa, hikoyada ro'y berayotgan voqelik siqiq holatda tasvirlansa, yozuvchi ixcham epizodik lavhada katta (romanga xos) belgilarni ham batartib ifodalashi yaqqol seziladi. Pirovard natijada hikoyaning tasvir me'yorlari yaxlit va ma'lum bir vaqtda ro'y beradigan holat, mimika, muloqot, munozarada ochib beriladi. Mavzu va muammoni yaxlitlashtirish kompozitsion markazda amalga oshiriladi. Asarning yadrosida eng muhim sanalgan jihat – voqelikni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalanitira olish yozuvchidan ijodiy tajriba hamda tasvirlash prinsiplari kengligini taqozo etadi. Mana shu jihatlar hikoya arxitektonikasining puxta tuzilishiga yo'l ochadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoqubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. Monografiya. – Toshkent: Nurafshon biznes, 2021.
2. Jo'raqulov U. Xos kalom xosiyati // Sharq yulduzi, 2013.
3. Isajon Sulton. Qoraqush yulduzning siri // O'zAS, 2017 30-yanvar. 4-son.
4. Tosheva N. Hozirgi o'zbek nasrida folklorga oid vositalarning poetik funksiyasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori avtoreferati. – Toshkent, 2020.
5. G'afurov I. Yozuvchi, tabiat va tabiiyot. Isajon Sulton nasri badiiyati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.

#### Tarjimashunoslik



**Shamsiddin YODGOROV,**  
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

## TOLEDO TARJIMA MAKTABI VAKILLARINING QUR'ON TARJIMASI BILAN BOG'LIQ ILMIY FAOLIYATIGA TANQIDIY NAZAR

Islom dinining asosiy manbayi – Qur'oni Karimni tarjima qilish deganda uning tarkibidagi sura va oyatlar matnidani anglashiladigan mazmunni arab tilidagi ma'noviy muqobillikka mutanosib ravishda, *leksik, stilistik, semantik va teolingvistik* nazariy asoslarga tayanib, arab tilidan boshqa tillarga o'girish tushuniladi.<sup>1</sup> Ammo ming afsuslar bo'lsinki, bu ilohiy kitobni tarjima qilishga kirishganlar orasida zamonaviy standartlashtirilgan arab tilidan farqli o'laroq, Qur'on tili – mumtoz arab tilini (العربية الفصحى) mukammal darajada biladigan, Islom dini teologiyasi va Qur'on ilmidan katta bilim, malaka va uzoq yillik tajribaga ega mutaxassislar ozchilikni tashkil etadi.

Hech kimga sir emaski, Qur'oni Karimni roman-german tillari oilasiga mansub bo'lgan tillarga, xususan, ingliz tiliga tarjima qilish ishlari bilan shug'ullanayotgan g'arb olami mutaxassislarining ko'pchiligi, asosan, xristian cherkoviga mansub bo'lgan rohiblar, yahudiy diniy jamoatlarining ruhoniylari, ateizm g'oyasini ilgari suruvchi sharqshunoslar va agnostik din tahlilchilaridir.<sup>2</sup> Bunday tarjimonlar orasida arab tili, Qur'on va hadis ilmlarida alohida tayyorgarlikdan o'tgan missionerlarning ham borligi Qur'on ilmi ahllarini sergak torttirish va ogohlikka chorlash zarurligini ko'rsatadi. Gap shundaki, bu kabi "tarjimonlar" Qur'onga qiziqish bildirayotgan

inglizzabon nomusulmon qatlam vakillarining Qur'oni Karimga nisbatan tushunchalarini keskin o'zgartirishga olib boruvchi "tarjimalar"ni tayyorlab, ularni islomiy bezaklar bilan ohorlangan go'zal muqovali kitob holiga keltiradilar. Muammo shunda bo'ladiki, bu kabi "bezakdor" kitoblarning ichidagi "tarjima" matni Islom bilan endigina tanishayotgan nomusulmon inglizzabon qatlam vakillarining Qur'on haqidagi xolis tasavvurlariga zimdan qattiq zarba berib, ularda Islom teologiyasiga nisbatan ikkilanish, gumon va nafratni paydo qiladi. Shu kabi bir qator sabablardan kelib chiqib, mazkur maqolada g'arb olamida Qur'oni Karimni g'oyaviy va teologik jihatdan buzib tarjima qilgan sharqshunos va materialist tarjimonlarning mahsulotlari Islomga nisbatan missionerlik xuruji ekanligini Qur'on teolingvistikasi asoslariga yondashgan holda ilmiy asoslab berishga harakat qilindi. Maqolaning xolisligini ta'minlash maqsadida unda nomusulmon qatlam vakillaridan bo'lgan ilohiyotshunos olimlarning ilmiy adabiyotlaridan ko'proq foydalanildi va iqtiboslar keltirildi.

G'arb olami xristian-yahudiy jamiyati missionerlarining Qur'oni Karimga dastlabki xurujlari XII asrda boshlandi. Ularning tarjima mahsulotlari tahliliga o'tishdan oldin Ispaniyada Qur'oni Karim va Islom saodat davrida yashagan Movarounnahr ulamolarining qalamiga

mansub ilmiy manbalarni tarjima qilish bo'yicha faoliyat yuritgan Toledo tarjimonlar maktabi haqida ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tsak. Toledo tarjimonlar maktabi (ispancha *Escuela de Traductores de Toledo*) XII–XIII asrlarda musulmon olamiga tegishli, mumtoz arab tilida bitilgan madaniy-ma'rifiy, ilmiy-diniy, badiiy-ijtimoiy, falsafiy-teologik asarlarni arab tilidan lotin tiliga tarjima qilish ishlari bilan shug'ullangan tarjimon va sharqshunoslar maktabidir. Tarjimon va sharqshunoslardan tashqari, o'zida yahudiy olimlarni, xristian cherkovi ruhoniyalarini ham birlashtirgan bu maktab Ispaniyaning Toledo shahrida joylashgan.<sup>3</sup> Maktab o'z faoliyatida ikki yo'nalish bo'yicha faoliyat yuritgan:

*Birinchi yo'nalish* XII asrda Toledo xristian cherkovi yepiskopi toledolik Raymond tomonidan asos solingan bo'lib, unda tarjimonlar Islom uyg'onish davriga oid bir qator ilmiy va badiiy adabiyotlarni lotin tiliga tarjima qilish ishlari bilan shug'ullangan<sup>4</sup>. Maqsad esa Islom uyg'onish davrida sivilizatsiya taraqqiyotiga erishgan musulmon olamining ilmiy tajribasini o'zlashtirish edi.<sup>5</sup> Shu sababdan ham yepiskop Raymond qo'l ostida faoliyat olib borgan tarjimonlarning tarjima obyekti quyidagi sohalarga oid asarlar edi:

- 1) Islom huquqi va qonunshunosligi;
- 2) Islom madaniyati va axloqshunoslik;
- 3) Islom falsafasi va uning tarkibiga kiruvchi fanlar, borliq va yaratuvchini anglashning islomiy ontologiyasi, ijtimoiy epistemologiya va boshqalar;
- 4) matematika va hisoblash texnikasiga oid fanlar: riyoziyot (algebra), handasa ilmi (geometriya), trigonometriya va boshqalar;
- 5) tabiiy fanlarga oid bo'lgan tabobat, kimyo, dorivor o'simliklar biologiyasi, minerologiya, davolash ishi va jarrohlik sohalari;
- 6) aniq fanlarga aloqador bo'lgan falakiyot ilmi (astronomiya), fizika, geodeziya, ilmi nujum (yulduzshunoslik) va boshqalar.

Toledo tarjimonlarining lotin tiliga o'g'irgan tarjima ishlari orasida vatandoshlarimiz Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Bakr ar-Roziy, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Forobiylar tomonidan yozilgan bir qator ilmiy asarlar ham mavjud. Birgina Abu Ali ibn Sinoning ikkita yirik asari: tibbiyot sohasida eng mukammal ensiklopedik manba hisoblangan

القانون في الطب "Tib qonunlari" va Islom ontologiyasiga tegishli برهان الصديقين "Xudoning borligini dalillovchi borliq haqiqatlari" kitoblari ham aynan shu maktab tarjimonlari tomonidan lotin tiliga to'liq o'g'irilgan. Ibn Sinoni falsafa dunyosining eng yetuk ontologisti, deya bir necha bor e'tirof etgan mashhur falsafashunos olim Peter Adams<sup>6</sup> o'zining "O'rta asrning buyuk faylasuflari" asarida Ibn Sinoning برهان الصديقين "Xudoning borligini dalillovchi borliq haqiqatlari" asari haqida shunday fikrlarni yozadi:

*"Dunyoning o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaganligini, uni va undagi turfa olamlarni yaratgan yagona Xudo borligini o'zining ilmiy ontologik qarashlari bilan mukammal darajada dalillay olgan Avitsenaning bu asari falsafa ilmi tarixida borliqni anglash bilan bog'liq ontologik tadqiqotlarning boshlanishi uchun kuchli turtki berdi va Yevropa ilm-fan jamiyatida ilohiyot*

*ontologiyasiga oid barcha ilmiy tadqiqotlarning poydevori bo'ldi."*

Manbalarga qaraganda, "Tib qonunlari" asarining lotin tilidagi tarjimasi XVII asrga qadar O'rta Asr Yevropasi tibbiyot olami murojaat qiladigan eng asosiy manba sifatida qaralgan.<sup>8</sup> Jami 5 jildni o'zida jamlagan bu nodir asar Yevropaning boshqa tillariga to'g'ridan to'g'ri Toledo nusxasidagi tarjimadan, ya'ni lotin tilidan o'g'irilgan.<sup>9</sup>

*Ikkinchi yo'nalish* esa, Qur'oni Karim va Nabaviy hadislarni lotin tiliga tarjima qilish bilan bog'liq. G'arb olamida Qur'oni Karimni tarjima qilgan shaxslarning eng birinchisi Robert Kettondir. U 1143-yilda Qur'onni birinchi marta lotin tiliga tarjima qiladi va tarjimaga *Lex Mahumet pseudoprophete* ("Yolg'onchi payg'ambar Muhammadning qonuni") deb nom qo'yadi. Mantiqan olib qaraydigan bo'lsak, Robert Kettonning tarjimaga bunaqa nom berishining o'zidanoq tarjima Qur'onni tili arab bo'lmagan ispanlarga tanishtirish emas, balki uni tanqid qilish ekanligi ma'lum bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Robert Kettonning bu tarjimasi hozirda Parijdagi Arsenal kutubxonasi (*Bibliothèque de l'Arsenal*)da saqlanmoqda. Robert Ketton Qur'oni Karimning Baqara surasi 62-oyatini tarjima qilish orqali Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ga yulduzparast bo'lgan degan ayblov qo'yadi.

Bu ayblovni Imom Buxoriyning Sahihidagi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam va sahobalarning sahroda suvsiz qolganliklari va bir ayolning ularga yordam berganligiga doir -٢٤٤ hadisi dalil sifatida keltirib, oyat tarjimasi orqali ayblovni asoslashga urinadi. Hadisda bir ayol tomonidan Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga الصَّابِيُّ deb nisbat berilganda, sahobalar uni tasdiqlashadi. Robert Ketton esa, bu so'zni "yulduzparast" deb tarjima qiladi va bu orqali Payg'ambar الصَّابِيُّ yulduzparast bo'lgan deya da'vo qiladi.<sup>10</sup> Aslida esa, صَبِين so'zining Qur'on teologiyasidagi mazmuni umuman boshqacha ekanligini yozgan leksikograf olim Andrew Rippin Robert Kettonning tarjimasiga keskin raddiya beradi va o'zining "Leksikografiya va Qur'on so'zlari" kitobida الصَّابِيُّ so'zini quyidagicha izohlaydi: الصَّابِيُّ so'zi قَدِيمِي الْعَرَبِيَّةِ الْفَصْحَى da ajdodlar tomonidan e'tiqod qilingan pagan e'tiqod va ta'limotlarni, ya'ni but va sanamlarni iloh sanash, toshga, yog'ochga, umuman olganda jonli va jonsiz jismlarning barchasiga xudo yoki iloh deya sig'inishni keskinlik bilan rad qilgan va Ibrohim payg'ambar e'tiqod qilgan yakkaxudolik (monoteizm) dini asoslarini qidirdan bir guruh insonlarga nisbatan aytilgan so'zdir.<sup>11</sup>

Xulosa o'rnida teologiyat olim E.Tomasning 1998-yilda nashrdan chiqqan kitobi – "Tafsir and Translation: Traditional Arabic Quran Exegesis and the Latin Qurans of Robert of Ketton" (Tafsir va tarjima: an'anaviy arabcha Qur'on tafsirlari va Robert Kettonning lotin tilidagi Qur'on tarjimasi qiyosiy tahlili) da Robert Kettonning ushbu tarjimasi haqida berilgan quyidagi fikrlarni havola qilamiz: "Robert Kettonning lotin tilidagi Qur'on tarjimasi asl Xudoning so'zi bo'lgan arabiy Qur'onga muxolif keluvchi oddiy bir matnlar jamlanmasi bo'lib, undagi payg'ambar Muhammad musulmonlar iymon keltirgan va hurmat bilan e'tirof

qilinadigan Muhammad emas. Bu tarjima arabcha Qur'on hukm qiladigan narsalarning tamomila teskarisini buyuradi va dinda chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Bu chalkashliklar esa Muhammadning bo'yniga yuklab qo'yilgan fitnadan boshqa narsa emas. Fitna esa din kushandasidir".

Tarjima ispan cherkovining prozeletistik faoliyatida o'ta qo'l kelgan, ko'pchilik ispan nomusulmonlarini

Islomdan va Qur'ondan sovuta olgan bu tarjima 1543-yilga kelib yana 3 marta nashrdan chiqariladi va Kluniya abbatlik korpusining yangi rohiblari missionerlik faoliyatida foydalaniladi. Ajablanarlisi shundaki, nashr qilingan tarjimalarning barchasi uchun yozilgan muqaddimalar xristian cherkovlariga nisbatan qilgan protestlari bilan mashhur bo'lgan nemis ilohiyotshunosi Martin Lyuterning qalamiga mansub edi.

- <sup>1</sup> Fatani Afnan. Translation and the Qur'an. – Great Britain: Routledge, 2006. – p. 657.  
<sup>2</sup> Mohammed Khaleel. Assessing English Translations of the Qur'an. – Spring: Middle East Quarterly, 2005. – p. 58.  
<sup>3</sup> M.T. D'Alverny. Translations and Translators. – University of Chicago Press: Chicago, 2000. – p. 64.  
<sup>4</sup> Brentjes, Sonja; Robert G. Morrison. The Sciences in Islamic societies. – Cambridge University Press: Cambridge, 2010. – p. 569.  
<sup>5</sup> C. Burnett. Arabic-Latin Translation Program in Toledo. – Spain: McVeigh, 2001. – p. 51.  
<sup>6</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Peter\\_Adamson\\_\(philosopher\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Peter_Adamson_(philosopher))  
<sup>7</sup> Adamson Peter. From the necessary existent to God (Interpreting Avicenna). – Cambridge University Press: Cambridge, 2013. – p.190.  
<sup>8</sup> McGinnis, Jon. Avicenna. – Oxford University Press: Oxford, 2011. – p. 227.  
<sup>9</sup> Encyclopedia Iranica; Avicenna: Medicine and Biology. Retrieved 20 December 2013.  
<sup>10</sup> *The Qur'an and its translators. Archived from the original on 21 June 2012.*  
<sup>11</sup> Andrew Rippin. The Qur'an and its Interpretative Tradition (Variorum Collected Studies). – Aldershot, Hampshire; Burlington, VT: Ashgate/Variorum, 2001. p. 45.

**Farida SAFAROVA,**  
Termez State University, teacher

## TRANSLATION OF CONFECTIONERY TERMINOLOGY THROUGH TRANSCRIPTION AND TRANSLITERATION

In general terms, it is possible to outline two ways of translation that the translator follows: direct or literal translation and indirect translation. Indeed, there may be a case when a message in the source language can be perfectly translated into a target language, because it is based either on parallel categories (structural parallelism) or on parallel concepts (metalinguistic parallelism). But it may also happen that the translator ascertains the presence of a "gap" in the target language, which must be filled with equivalent means, ensuring that the overall impression of the two messages is the same. It may also happen that, due to structural or metalinguistic differences, some stylistic effects cannot be conveyed in the target language without changing to one degree or another the order of the elements or even lexical units. It is clear that in the second case it is necessary to resort to more sophisticated methods, which at first glance may cause surprise, but the course of which can be traced in order to strictly control the achievement of equivalence. These are methods of indirect translation. Borrowing, calque and literal translation are methods of direct translation. The rest are indirect.

*Borrowing.* The easiest way to translate is borrowing, which allows you to fill in a gap, usually of a met-

alinguistic nature (new technique, unknown concepts). Borrowings constitute a special layer of vocabulary both in terms of nomination and motivation processes. Being one of the possible answers to the needs of the nomination arising as a result of linguistic contacts and expansion under the influence of other linguistic societies, ready-made units of a foreign language are used to fill the nominative lacunae that have arisen in a given language. At the same time, the loss of the previous associative connections that existed in the language from which they were borrowed entails the loss of a source of motivation, possibly inherent in the borrowed words in the language. This causes significant difficulties in recognizing their meaning in the process of speech perception.

Borrowing as a process of using elements of one language in another is due to the contradictory nature of a linguistic sign. This, apparently, explains the fact that the process of borrowing in modern English, as well as in Uzbek, according to the available data, is very unproductive. In quantitative terms, it is significantly inferior to such nomination processes as word formation and semantic derivation (word formation). The foregoing, however, does not mean that the share of borrowings in modern English is not so great. Borrowed from

about 50 languages of the world, lexical units make up almost 75% of the vocabulary of the English language and include layers of vocabulary borrowed in different historical eras and under the influence of different conditions of development and existence. Among them are historical, geographic, social, economic, cultural and other conditions.

As the result of a long historical interaction of languages, borrowing as a process and borrowing as a result of this process are of significant interest for the history of the language, within which they receive detailed coverage of not only the reasons for borrowing, but also their source languages. Also noteworthy are the ways, forms and types of borrowings, as well as the transformations that the borrowed word undergoes in a new language environment. Borrowings are interesting, first of all, because of the impact they have on the systemic structure of the vocabulary of a particular language, as well as their special, if a number of genetic characteristics are preserved, status in the language that borrowed them.

*Calque* is a borrowing of a special kind: we borrow a particular syntagma from a foreign language and literally translate the elements that make up it. In this way, we get either a calque of an expression, and we use the syntactic structures of the target language, introducing new expressive elements into it, or a calque of the structure, and we introduce new constructions into the language.

O'simliklar ba'zi turlarining nomlari botanik olimlar sharafiga ham qo'yilgan. Masalan: *Linnaea* – linneya o'simligi shved tabiatshunos olimi Karl Linney sharafiga atalgan; *Magnolia* – magnoliya o'simlik nomi fransuz botanigi Pyer Magnol nomi bilan bog'liq; *Salvinia* – suv paporotnigi (qirqquloq) italiyalik botanik olim A. Salviniya nomi bilan atalgan; *Komarovia* – komaroviya taniqli rus botanigi V.L. Komarov nomi bilan bog'liq; *Krylovia* – kriloviya o'simligi taniqli olim, g'arbiy shimol florasi bo'yicha mutaxassis P.N. Krilova nomi bilan bog'liq.

An'anaga ko'ra lotin tilidagi ilmiy terminlar ikki komponentli ismlar bilan ifodalanadi. Bu yerda umumiy tushuncha ot bilan, o'ziga xos tushuncha esa sifat yoki sifatdosh bilan beriladi. Masalan: *Amanita muscaria L.* – qizil muskarin; *Veratrum album* – oq maralquloq;

*Tilia cordata* – yuraksimon bargli jo'ka va boshqalar. Ba'zi o'simlik nomlari o'zi o'sib tarqalgan joy nomlari bilan ifodalanadi. Masalan: *Gallae Turcicae* – Turkiya gallalari; *Helleborus caucasicus* – Kavkaz xelleborusi; *Inula Britannica* – Britaniya andizi (chachalbosh); *Laminaria japonica* – Yaponiya laminariyasi; *Phytolacca Americana* – Amerika fitolakkasi; *Rheum turkestanica* – Turkiston ravochi.

Lotin nomenklaturasida ikki so'zli nominatsiyalar bilan bir qatorda atribut (o'ziga xos xususiyat)lar bilan ifodalangan, jumladan, o'simliklarning shakli yoki xilma-xilligini aniqlaydigan murakkab o'simlik nomlari ham mavjud. Masalan: *Cucurbita pepo giraumontia Duch.* –

qovoqcha; *Lychnis flos jovis Desf.* – lixnis (chinniguldoshlarga mansub o'simlik), Yupiter guli; *Beta vulgaris var. rapata (Chenop)* – oddiy lavlagi kabilar.

O'simliklar turli mamlakatlarda, turli qit'alarda, tog' yonbag'irlari, suv bo'ylari, sahro-adirlarda o'sadi. Turli xil xalqlarning ma'lum bir hududdagi bitta va bir xil o'simlik turi o'z nomiga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun o'simliklarning xalq nomlari milliy xususiyatlarni aks ettiradi. Masalan: *Peganum harmala L.* – isiriq respublikamizning turli hududlarida turlicha nomlanishga ega, ya'ni Buxoro, Navoiy viloyatlarida – xazorisband, Andijon, Farg'ona tomonlarda adirasman, adiraspan, dasht ildizi va boshqa nomlari mavjud.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Qosimov, H.Xolmatov. Ruscha–o'zbekcha–lotincha farmatsevtik terminlar lug'ati. – Toshkent: Meditsina, 1990.
2. A.Abdullayev, T.Madumarov. Biologiyadan qisqacha izohli lug'at. – Toshkent: "Navroz" nashr, 2016.
3. H.Xolmatov, A.Qosimov. Ruscha–lotincha–o'zbekcha dorivor o'simliklar lug'ati. – Toshkent: Ibn Sino nashriyoti, 1992.
4. G.Kurbanova. Talabalarda kasbiy mahoratni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari // "Pedagogik mahorat" jurnali, 2020. 2-son. 91–98-betlar.

**Nigina RASULEVA,**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Xitoy filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi, PhD

## XITOIY TARMOQ (INTERNET) ADABIYOTINING TAKOMIL BOSQICHLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tarmoq adabiyotining tematik tadqiqi natijalari berilgan bo'lib, ilk Internet yozuvchilarining ijodi, ularning ijodidagi o'ziga xosliklar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarmoq adabiyoti, Internet saytlari, tarmoq yozuvchilari, tarmoq janrlari, xitoy platformasi.

**Annotation.** The article presents the results of a case study of network literature, examines the work of the first Internet writers, and the features of their work.

**Keywords:** network literature, Internet sites, network writers, network genres, Chinese platform.

**Аннотация.** В статье представлены результаты тематического исследования сетевой литературы, рассматриваются творчество первых Интернет-писателей, особенности их творчества.

**Ключевые слова:** сетевая литература, Интернет-сайты, сетевые писатели, сетевые жанры, китайская платформа.

Xitoyda tarmoq adabiyoti so'nggi yigirma yil ichida jadal taraqqiy etayotgan adabiyot yo'nalishlaridan biridir. Internet adabiyoti yozuvchilari o'z asarlarini nashriyotlarda nashr ettirishmaydi, balki Internet orqali kitobxonlar e'tiboriga taqdim qilishadi. Internet adabiyoti yozuvchilari ma'lum bir saytlar bilan shartnoma tuzishadi va o'z asarlari uchun mablag' olishadi. Internet adabiyoti Xitoyda keng qamrovliligi hamda turli xil janrlarni o'zida mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda Xitoy Internet yozuvchilarining soni 4 milliondan ortiq, bu esa Xitoy yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'lgan yozuvchilar sonidan ham ortiqroqdir. Undan tashqari, jamiyatning boshqa qatlamlarida faoliyat yuritadigan, lekin adabiyotga mehri baland bo'lgan soha vakillari o'z ishlarini Internetda e'lon qilishlari mumkin. Xitoy Internet adabiyoti yozuvchilari daromadlari jihatidan ham ajralib turadilar. Agar 2019-yilda eng ko'p maosh

oladigan dunyo yozuvchilari o'ntaligiga bosma adabiyot ijodkorlari kirgan bo'lsa, Xitoyda bu ro'yxatning deyarli yarmini Internet yozuvchilari egalladi. Yildan yilga bu ko'rsatkich faqat ortishi kutilmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasi davlat statistika ma'lumotiga ko'ra, 2019-yilda madaniy asarlarni Internetda tarqatish va tegishli xizmatlarni ko'rsatish bilan shug'ullanadigan Xitoy korxonalarining umumiy daromadi 19,7 foizga oshib, 250,2 milliard yuanga yetdi.

Xitoy tarmoq adabiyoti asarlari chet ellik o'quvchilarga yetib bormoqda. Xitoy mualliflarining onlayn asarlari xorijiy tillarga tarjima qilinib, jahon madaniy bozorida muhim rol o'ynamoqda. Har yili bir necha yuzlab asarlar chet tillarga tarjima qilinadi va kitobxonlarga yetkaziladi. 2015-yildan beri xitoylik Internet yozuvchilarining ishlari Shimoliy Amerika o'quvchilari e'tiboriga tushmoqda. Xitoyning Yuewen platformasida xabar berilishicha,



AQShda allaqachon Xitoy Internet adabiyoti asarlarini tarjima qilishga ixtisoslashgan saytlar paydo bo'lgan va samarali xizmat ko'rsatmoqda. Dunyoning 80 dan ortiq mamlakatidan millionlab o'quvchilar Xitoy Internet adabiyoti namunalarini berib boriladigan saytlardagi yangilanishlarni muntazam kuzatib kelmoqdalar. Kuzatuvchilar e'tiborini eng ko'p tortayotgan va mashhur bo'layotgan janr – bu ilmiy fantastika (科幻) hamda fentezi (武侠) janrlaridir.<sup>1</sup>

Xitoylik adabiyotshunos Chjen Junszyanning ta'kidlashicha, chet elda Xitoy Internet adabiyoti na'munalari, asosan, etnik xitoyliklar yoki sinologlar tomonidan o'qiladi va tarjima qilinadi. Ular uchun bu an'anaviy adabiyotga nisbatan xitoy tilini o'rganish va xitoy jamiyati, madaniyati bilan tanishish uchun juda sodda va qulay vositadir. O'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda [www.wuxiaworld.com](http://www.wuxiaworld.com) xorijiy veb-saytida maxsus bo'limlar tashkil qilindi. Unda xohlovchilar xitoy tilini o'rganish bo'yicha tajribalari bilan o'rtoqlashadilar hamda daotsizm asoslari, in yan, bagua va boshqalar haqida muloqot qilishadi. Ba'zi bir xorijlik mutaxassislar xitoy onlayn adabiyoti to'g'risida tanqidiy fikrlar ham bildirishgan. Ularning fikriga ko'ra, Internet asarlari mazmun jihatidan juda sodda bo'lganligi sababli Xitoy adabiyotining yuzi bo'la olmaydi.

Bunday tanqidiy fikrlarga qaramasdan, 20 yillik qisqa muddat ichida Xitoy Internet adabiyoti yaxshi rivojlandi, u jahonning 4 ta yirik adabiy hodisalari, ya'ni Amerika filmlari, Yaponiya animelari va Koreya televidion dramalari kabi mashhurlikka erishib, o'z muxlilariga ega bo'ldi. Internet adabiyotining rivojlanish tarixini o'rganish zamonaviy Xitoy adabiyoti rivojlanishini anglash uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayonga ko'ra tarmoq adabiyotini ikki bosqichga bo'lib o'rganish mumkin: shakllanish va tarqatish.

“Shakllanish” bosqichida Internet adabiyotining asosiy qismi, ya'ni yozuvchi ijodi o'rganiladi. “Tarqatish” bosqichida esa tarmoq adabiyoti veb-saytlari, ularning ishlash rejimi, sayt yozuvchilari va o'quvchilari o'rtasidagi munosabatlar o'rganiladi. Internet o'quvchilari Internetdagi adabiy asarlar o'sishining barcha jihatlarida muhim rol o'ynaydi, aynan o'quvchi asarning qiymatini baholay oladi. Shu tariqa Internet yozuvchilarining turli darajadagi qatlamlari paydo bo'ladi.

Tianya forum, Rongshuxia, Qidian, Yishuwang Internet saytlarining biznes modellari bir-biriga o'xshamas bo'lsa ham, ularning barchasi Internet adabiyotining tashuvchisi hisoblanadi. Mazkur Internet saytlari har xil yoshdagi va turli xil xarakterdagi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi.<sup>2</sup>

Xitoyda Internet adabiyotining rivojlanishi uchun hukumat tomonidan Xitoy yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda “Internet adabiyotining sog'lom rivojlanishiga ko'maklashish bo'yicha ko'rsatmalar” risolasi nashr qilindi, 2010-yildan boshlab Internet adabiyoti hukumat tomonidan to'liq nazoratga olinib, qo'llab-quvvatlandi. Yangi davrda Internet adabiyoti insonlarning adabiy va badiiy tafakkurini keng rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda.

Xitoy Internet adabiyotining rivojlanishi global Internet adabiyotining taraqqiy topishi uchun ham ajoyib tajriba yaratdi. Xitoyda insonlar turmush darajasining o'sishi, Internet texnologiyalarining rivojlanishi, adabiyotning turli janrlari bilan tanishishga bo'lgan ishtiyoq ularning onlayn asarlarga bo'lgan qiziqishlarini ham oshirdi. Xitoydagi noyob siyosiy va madaniy tizim siyosatning barqaror bo'lishini ta'minlaydi, bu esa onlayn adabiyotni boshqarish uchun yaxshi muhitni yaratadi.

Xitoyning Internet adabiyotini rivojlantirish bo'yicha tajribasini takrorlash mumkin emas, lekin u boshqa davlatlarga o'z madaniyati va adabiyotini targ'ib qilishda yordamchi bo'lishi mumkin.

Internet adabiyoti – bu Internetda paydo bo'lgan va badiiy uslub orqali tasvirlarni yetkazib beruvchi badiiy amaliyotdir. Tarmoq adabiyoti – bu Internetda tug'ilgan, adabiyotda o'sgan, ma'muriyatda yetilgan yo'nalishdir.

痞子蔡 (Pi zi cai), 安妮宝贝 (Anni Baobei), 唐家三少 (Tang jia san shao), 余秀华 (Yu xiu hua) singari to'rtta yozuvchi namunasida Internet adabiyotining asosiy oqimini o'rganib chiqsak, ular ijodkorlar uchun turli muvaffaqiyat yo'lini taqdim etadilar.

痞子蔡 (Pi zi cai) yarim kun ijod qiluvchi yozuvchilar sinfidir. Kibermakon ularning ijod maydoni hisoblanib, bu yozuvchilar qalamida erkinlik mujassam. 痞子蔡 ning o'zi birinchi bo'lib kichik onlayn matndan butun asar yaratib, ilk tarmoq yozuvchisi degan e'tirofga sazovor bo'lgan.

安妮宝贝 (Anni Baobei) vakili bo'lgan mualliflar Internetdan shaxsiy ishlarini targ'ib qilish vositasi sifatida foydalanishadi, Internetdan foydalanish usullarini chuqur o'rganadilar, onlayn mashhurlikka erishadilar va daromad olish maqsadida o'z asarlarini offlayn nashr qiladilar.

唐家三少 (Tang jia san shao) vakili bo'lgan yozuvchilar esa Internetda yozib turib, onlayn daromad olishadi. Ular davrida Internet va adabiyot haqiqatda birlashdi, mazmun jihatidan ular o'ziga xos tarmoq adabiyotini namoyish qildilar. Shu davr mobaynida Internet adabiyoti sanoatlashtirildi va yozuvchilar yaxshi daromadlar ola boshlashdi. Internet yozuvchilarining turli darajadagi qatlamlari paydo bo'ldi.

余秀华 (Yu xiu hua) vakili bo'lgan yozuvchilar alohida ajralib chiqib, yangi yo'nalishlarni kashf qildilar, tarmoq ular uchun mustaqil makon bo'lib xizmat qildi, bu yozuvchilarning ijodida zamonaviy motivlar alohida o'rin egalladi. Bu yozuvchilarning asarlari ssenariy holatiga keltirilib, kino ijodkorlari tomonidan film va teleseriallar suratga olina boshlandi.

Yuqoridagi veb-saytlar va tarmoq yozuvchilari bir-biriga raqobatdosh bo'lgan bir paytda turli xil kichik tarmoq adabiyoti saytlari segmentlarini toraytira boshladi, kichik roman va qissalar ommabop romanlar o'rnini bosdi. O'quvchilarning kontentga bo'lgan talablari Internet adabiyotini doimiy ravishda targ'ib qilish uchun bitmas-tuganmas harakatlantiruvchi kuchdir.

<sup>1</sup> 葛红兵. 《网络文学：新世纪文学新生的可能性》社会科学，2001.

<sup>2</sup> Буяров Д.В. Современный Китай и его окружение. – Издательство Синтег, 2015.

## TA'LIMIY KORPUSDA SO'Z MA'NOLARI IZOHIGA DOIR MA'LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya.** Maqolada korpuslar, qolaversa, ta'limiy korpuslar uchun zarur hisoblangan so'z ma'nolari izohiga doir ma'lumotlar bazasini shakllantirish masalasi atroflicha tavsiflangan.

**Kalit so'zlar:** korpus, ta'limiy korpus, semantik teglash, semantik ma'lumotlar bazasi, teg, semantik teg, so'zshakl, lemma.

**Annotation.** The article discusses in detail the issue of creating a database for the interpretation of word meanings, which is necessary both for the corpus as a whole and for the training corpus.

**Keywords:** corpus, training corpus, semantic tagging, semantic database, tag, semantic tag, word form, lemma.

**Аннотация.** В статье подробно рассматривается вопрос создания базы данных по толкованию значений слов, которая необходима как для корпуса в целом, так и для обучающего корпуса.

**Ключевые слова:** корпус, обучающий корпус, семантическое тегирование, семантическая база данных, тег, семантический тег, словоформа, лемма.

Ta'limiy korpus – til o'rgatishga ixtisoslashgan elektron lingvistik, didaktik vosita. U milliy tilning lug'at boyligi, ularning izohi, ma'nolari, nutqiy qo'llanishini o'rganish uchun qulay interfeysga ega bo'la olishi bilan xarakterlanadi. Ta'limiy korpusga qo'yilgan ushbu talablardan kelib chiqqan holda o'zbek tili ta'limiy korpusida so'z qidiruvi, so'z ma'nolari ifodalangan oynani tuzish, izohlarni o'rinashtirish, ularning tushunarli bo'lishiga erishish muammolari yechilishi zarur. Til korpusi – nafaqat lingvodidaktik, balki lingvistik tadqiq sohalarining ham ish quroli hisoblanadi.

V.Zaxarov, Y.Bogdanovanning fikricha, korpus so'zning barcha ma'nolari, leksik-semantik munosabatga kirishadigan so'zlari bilan yonma-yon izohlashiga ko'ra izohli lug'at, tezarusdan farq qiladi. Izohli lug'atda faqat so'z ma'nosi izohlanasa, tezaurus so'zning nisbatan ko'proq qirralarini ochishga xizmat qiladi. Ammo bu axborot manbalari qidiruv imkoniyatining cheklanganligi bilan korpusdan farq qiladi. Millionlab matn (so'z)larni qamrab olgan til korpuslari so'zni izohlash, uni tildagi munosabatlari bilan birga ko'rsata olish imkoniyatining mavjudligi bilan yuqorida sanalgan axborot manbalari-dan ajralib turadi.

O'zbek korpus lingvistikasida milliy korpus uchun birliklarni semantik teglash, ma'nolar haqida teg (izoh) biriktirish, semantik ma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan. [7, 8, 1] Sh.Hamroyeva semantik teglarni ishlab chiqishning umumiy tamoyillari, A.Eshmo'minov milliy korpusning sinonim so'zlar bazasini shakllantirish, sinonim so'zlar izohining korpusda berilishi, bazadan joy olishi muammolarini tadqiq etgan bo'lsa, D.Axmedova o'zbek tili milliy korpusida so'zlararo leksik-semantik munosabatning ifodalanishi masalasini o'rgangan. Tadqiqotda so'zning ma'nosini izohlash yoki so'z ma'nolariga yondashuvning ikki tamoyili farqlangan, har bir tamoyildan foydalanish o'rni ko'rsatib berilgan. D.Axmedova leksikaga yondashuvning "tushunchadan so'zga", "so'zdan tushunchaga" kabi ikki turini ko'rsatadi. Uning fikricha, korpusda leksikaga semantik maydon nazariyasi asosidagi yondashuv bilan tushuncha orqali so'zga borilsa, so'zlararo leksik-semantik munosabat orqali so'zdan tushuncha izohiga borish mumkin. [1] D.Axmedova mavjud til korpuslarining aksariyatida semantik qidiruvning so'z ma'nosini izohli lug'at kabi batafsil izohlamasligini kamchilik sifatida o'rinni qayd etadi.

O'zbek tili ta'limiy korpusida shu kamchilikni bartaraf etish uchun korpusni ma'lum so'zning izohini ko'rish funksiyasi bi-

lan kengaytirish bo'yicha tavsiyalar, so'z izohini qamrab oluvchi ma'lumotlar ombori tuzish tamoyillari borasidagi kuzatishlarimizni quyida tavsiflaymiz.

Tadqiqotchi to'g'ri ta'kidlaganidek, korpus so'zning qo'llanish kontekstiga havola qilishi, so'zning birikuvchanlik imkoniyatini namoyon qilishi uning semantik xususiyat(lar)ini ko'rsatmaydi. Foydalanuvchi qidirayotgan so'z haqida batafsil ma'lumotni bir joydan topishiga erishsa, ma'lum qulaylik kelib chiqadi. D.Axmedova semantik teglashning "so'zdan tushunchaga" tamoyilini ishlab chiqar ekan, so'z ma'nolari izohi, leksik-semantik munosabatga kirishuvchi leksemalari: sinonim, antonim, giponim/giperonim, graduonim, xolo/meronim haqidagi izohlarni teg sifatida biriktirish yo'llarini ko'rsatadi. Semantik teglar tizimiga so'zshakl, lemma, izohli lug'atdagidek ma'nolar, mavjud sinonim, graduonim, giponim/giperonim, xolo/meronim, antonimlar haqida izoh kiritish lozimligini ta'kidlaydi. Ammo bu xususiyatlarni ochish uchun izohni qay tartibda keltirish masalasini ochiq qoldiradi.

O'zbek tili ta'limiy korpusi qidiruv oynasiga istalgan so'z kiritilganda, birinchi navbatda, shu so'z ishlatilgan kontekstlar ro'yxati ko'rinadi. Unda qidirilgan so'z alohida rang bilan ajratilgan bo'ladi. Foydalanuvchida istalgan kontekstni ajratib tahlil qilish imkoni bo'ladi. Kontekstdagi ma'lum bir so'zga sichqonchaning o'ng tugmasi bosilsa, shu so'zning ma'nolari aks etgan alohida oyna ochiladi. Bu izoh (oyna)ga giperhavola usuli orqali erishish mumkin. Giperhavola so'z ma'nosini ta'limiy korpus lingvistik bazasida mavjud lug'at tarkibidan qidirib, topib, natija oynasiga olib keladi. So'z ma'nolarini izohlash quyida ko'rsatilgan bir xil parametr asosida amalga oshiriladi hamda bu parametrlar barcha so'zlar uchun umumiy bo'ladi. O'zbek tilidagi so'zning ma'noviy/shakliy xususiyatlari, axborot manbalari (lug'at)da berilishini kuzatishimiz asosida o'zbek tilidagi izoh parametrlari sirasini quyidagicha belgilash mumkin degan xulosaga keldik:

1) so'z imlosi; 2) talaffuzi va urg'usi; 3) so'z tarkibi; 4) so'z ma'no (izoh)lari; 5) etimologiyasi; 6) o'z yoki o'zlashma qatlamga mansubligi; 7) sinonim(lar)i; 8) darajalanish qatori; 9) antonim(lar)i; 10) shakldosh (omonimlar)i; 11) talaffuzdosh (paronim)i; 12) turg'un birikmada ishlatilishi; 13) dialektal (sheva) varianti.

Yuqorida keltirilgan 13 belgidan so'z ma'nolarini ifodalash bilan bog'liq masalalar (4-, 5-, 6-parametrlar)ga to'xtalamiz. So'zlararo ma'noviy munosabatlarga doir ma'lumotlar bazasini yaratish (7-, 8-, 9-parametrlar) hamda so'zlararo shakliy

munosabatlarga doir ma'lumotlar bazasi (10–11-parametrlar) tarkibi, tuzilishi muammolari esa alohida mavzu.

So'zning izohlarini berishda o'zbek tilining izohli lug'atiga [9] asoslanish – eng optimal yo'l, ammo izohli lug'atdan farqli ravishda korpusdagi izohni soddalashtirishga alohida e'tibor beriladi. O'zbek tilining o'quv izohli lug'ati hozirgacha mavjud emasligi ta'limiy korpusda so'z izohini berishda qiyinchilik keltirib chiqaradi.

Quyida izohli lug'atdagi izohdan namuna keltiramiz, ulardan ta'limiy korpus bazasini shakllantirishda foydalanish xususida tavsiyalarimizni beramiz.

**BAQAR** [10; 176] [a. بقار – buqa, ho'kiz] **ayn.** sigir yili **q.** sigir. *Undan yoshini so'raganlarida, u – mush, baqar, palang, xargo'sh, nahang, deya eskicha yil ag'darib... javob beradi. G'.Rasul, "Adolat". – Afandi, buzoqni arabcha nima deydi? – Sigir bo'lguncha sabr qiladi, undan keyin baqar deydi. "Latifalar".*

Ushbu izohdan so'zning ma'nosi bilan birga o'z/o'zlashma qatlamga mansublik hamda etimologik ma'nosi ma'lum bo'ladi. Ko'rinyaptiki, baqar so'zi arab tilidan o'zlashgan; arab tilida buqa, ho'kiz degan ma'noni bildiradi. Shu asosda ta'limiy korpus bazasining bir ustuniga so'zning qaysi tildan o'zlashganligi, bir ustuniga asl tilda qanday ma'noni bildirishi, bir ustunga o'zbek tilida aynan nimani anglatishi yozilishi lozim. Masalan:

So'z	O'z/o'zlashganligi	Asl tildagi ma'nosi (etimologiyasi)	O'zbek tilidagi ma'nosi
Baqar	arabcha	buqa, ho'kiz	sigir yili

Izohdan ko'rinadiki, ushbu so'zga "ayn." belgisi bilan boshqa bir so'zga havola qilish o'rni mavjud: **ayn.** sigir yili **q.** sigir. Shu sababli ma'lumotlar bazasiga yana bir ustun kiritamiz. Bu ustunga, agar mavjud bo'lsa, so'z havola etilgan birlikni kiritamiz hamda bu birliklarni o'zaro giperhavola usuli bilan bog'laymiz.

So'z	O'z/o'zlashganligi	Asl tildagi ma'nosi (etimologiyasi)	O'zbek tilidagi ma'nosi	Havola
Baqar	arabcha	buqa, ho'kiz	sigir yili	sigir

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu imkoniyati bilan korpus lug'atdan farqlanadi: so'z sahifa oralab qidirilmaydi, bitta tugma (giperhavola)ni bosish bilan istalgan so'zning izohi topiladi.

So'z izohida keltirilgan ilustrativ misollarni korpus ma'lumotlar bazasiga kiritishga ehtiyoj yo'q. Birinchidan, izohli lug'atdagi misollar eskiradi, ikkinchidan, korpus bazasidagi minglab matnlardan ilustrativ misol tanlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Ayrim so'zning lug'at maqolasida o'zlashganlik va etimologiyasi haqida ma'lumot mavjud emas. Lug'atning kirish qismida aytilganidek, bunday so'z o'z qatlamga mansub deb hisoblanadi. Bunday hollarda ma'lumotlar bazasida so'z avtomatik ravishda "o'z qatlam" belgisiga ega bo'ladi.

Yuqorida berilgan so'zning izohidan ko'rinib turibdiki, ma'nolardan biri ko'chma. Albatta, ma'lumotlar bazasiga o'z va ko'chma ma'noni anglatuvchi teg (izoh) kiritiladi. Shuningdek, ushbu so'zning birinchi ma'nosi folklor matnlarida uchraishi haqidagi izoh ham mavjud. Shu kabi uslubiy xoslanish, ma'lum fanga oid bo'lgan terminni ifodalagan so'zlarning bu belgilari ham ma'lumotlar bazasidan o'rin oladi. Izohli lug'at maqolasini tahlil qilish asosida ma'lumotlar bazasida so'z izohlari haqidagi ustun (parametr)larni quyidagi ko'rinishda berishni tavsiya qilamiz:

So'z	O'z/o'zlashganligi	Asl tildagi ma'nosi (etimologiyasi)	O'zbek tilidagi ma'nosi: (o'z ma'no/ko'chma ma'no)	Izoh 1	Izoh 2	Izoh 3	Havola	Uslubiy xoslanishi	Grammatik xususiyati
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

O'zbek tili ta'limiy korpusida so'zning izohini berishda o'zbek tilining izohli lug'atiga asoslanish – eng optimal yo'l, ammo izohli lug'atdan farqli ravishda korpusdagi izohni soddalashtirishga alohida e'tibor beriladi. O'zbek tili o'quv izohli lug'atining mavjud emasligi ta'limiy korpusda so'z izohini berishda qiyinchilik keltirib chiqaradi. Ko'p ma'noli so'zlarning ma'lumotlar bazasi so'z, o'z/o'zlashganligi, asl tildagi ma'nosi (etimologiyasi), o'zbek tilidagi ma'nosi: izoh 1, izoh 2, izoh 3, uslubiy xoslanganlik, grammatik xususiyati kabi parametrlarni qamrab olishi mumkin. Ko'rsatilgan parametrlardan ayrimining mavjud emasligi avtomatik ishlov berishga monelik qilmaydi, ma'lum bir belgining mavjud emasligi avtomatik aniqlanadi.

Ta'limiy korpusda so'z izohi bazasida havolaga alohida vazifa yuklanadi: so'z va biror-bir ma'noga havola berish orqali axborot tejaladi, ma'lumot hajmi esa oshadi. Izohli lug'atda grammatik xarakteristikani qayd etuvchi belgi zarur hollardagina beriladi, shuning uchun bunday so'zlarda grammatik izohni bildiruvchi belgilar qo'yilmaydi. Korpus ma'lumotlar bazasiga esa bunday belgi morfoleksikondan import qilish yo'li bilan olinadi, chunki morfoleksikonda har bir so'zga uning turkumga mansubligi haqidagi izoh birkiritilgan bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov D.B. Atov birliklarini o'zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari: fil. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Buxoro, 2020.
2. Национальный корпус русского языка // Вопросы языкознания. – Москва: Наука, 2006.
3. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005.
4. Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. – (Электронный ресурс): Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported (Электронный ресурс) - //lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf.
5. Плунгян В. Зачем мы делаем Национальный корпус русского языка? «Отечественные записки», 2005, №2. [http://magazines.russ.ru/oz/2005/2/2005\\_2\\_20-pr.html](http://magazines.russ.ru/oz/2005/2/2005_2_20-pr.html).
6. Hamroyev Sh. O'zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta'minoti. Monografiya (Elektron kitob). – GloeEdit, 2020.
7. Hamroyev Sh. O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: fil. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Buxoro, 2018.
8. Eshmo'minov A.A. O'zbek tilining milliy korpusi sinonim so'zlar bazasini yaratish asoslari: fil. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Termiz, 2019.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2000–2006.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2000–2006.
11. [http://wikipedia.org/wiki/Корпусная\\_лингвистика](http://wikipedia.org/wiki/Корпусная_лингвистика). Статья в интернет-энциклопедии Википедия.
12. [www.ruscopora.ru](http://www.ruscopora.ru).

Sayyora SAMIYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasida katta o'qituvchisi

## CHET TIL GRAMMATIKASINING ILMIY TALQINI

**Annotatsiya.** Maqolada xorij va o'zbek tilshunoslari, metodistlari va psixolingvistlarining "grammatika" terminiga oid fikrlari hamda bu terminning lingvistik, lingvodidaktik va psixolingvistik talqini to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** grammatika, lingvistika, lingvometodika, psixolingvistika, nutqiy faoliyat, grammatik hodisa, ko'nikma, malaka.

**Annotation.** The article presents the views of foreign and Uzbek linguists, methodologists and psycholinguists on the term "grammar", as well as discusses its linguistic, linguodidactical and psycholinguistic interpretation.

**Keywords:** grammar, linguistics, linguomethodology, psycholinguistics, speech action, grammatical phenomenon, habit, skill.

**Аннотация.** В статье представлены взгляды зарубежных и узбекских лингвистов, методистов и психолингвистов на термин «грамматика», а также обсуждается его лингвистическая, лингводидактическая и психолингвистическая интерпретация.


**Ключевые слова:** грамматика, лингвистика, лингвометодика, психолингвистика, речевое действие, грамматическое явление, навык, умение.

Ma'lumki, xorijiy til ta'limi metodologiyasida grammatik tarkibiy qismlarni o'qitish eng ko'p muhokama qilinadigan masalalardan biridir, chunki og'zaki va yozma nutqning grammatik tomonlarini ham maktabda, ham universitetda o'zlashtirish yakuniy maqsadga erishishning zarur shartidir. Bundan tashqari, amaliy va ta'limiy ahamiyatga ega bo'lgan grammatikani oliy o'quv yurtida o'rganish talabalarni kelgusi pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Boshqa ko'plab lingvistik terminlar singari, "grammatika" terminining kelib chiqishi yunoncha bo'lib (yunoncha: *gram-*

*matike* – *gramma* – xat, imlo), dastlab "yozish va o'qish san'ati" ma'nosida ishlatilgan. Zamonaviy tilshunoslikda "grammatika" termini turli ma'nolarda ishlatiladi. Odatda, u tilshunoslikning ma'lum bir qismini (bo'limini) anglatib, ko'pincha, "tilning grammatik tuzilishi" deb nomlanadi va tilshunoslikning ushbu qismini o'rganadigan bo'lim hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada chet til grammatikasining ilmiy, ya'ni "grammatika" terminining lingvistik, lingvodidaktik va psixolingvistik jihatdan fanlararo talqini to'g'risida ma'lumot berishga harakat qilindi.



"Grammatika" ilmiy terminining lingvistik tahlilini ko'rib chiqar ekanmiz, turli mintaqa olimlarining bu haqidagi fikrlarini muxtasar muhokama qilishga to'g'ri keladi. Masalan, yirik rus tilshunosi, akademik V.N.Yarseva rahbarligida yaratilgan lingvistik ensiklopedik lug'atda keltirilgan ta'rif-tavsifga ko'ra, "grammatika tilshunoslikning alohida bo'limi bo'lib, muayyan tilning tuzilishini, ya'ni morfologik kategoriyalar va shakllar tizimi, sintaktik kategoriyalar va konstruksiyalar, so'z yasalishi usullarini o'rganadi". [1: 113]

O'zbek tilshunosi, akademik A.P.Hojiyevning "Lingvistik terminlar lug'ati"da "grammatika" terminiga tilshunoslik-

ning so'z shakllari (shakl yasalishi), so'z birikmalari turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi) haqidagi bo'limi, deb ta'rif berilgan. O'rganish manbayi, vazifasi nuqtayi nazardan grammatikaning bir necha turlari farqlanadi: 1) tarixiy grammatika; 2) tasviriy grammatika; 3) formal grammatika. [2: 31]

O'zbek metodisti, professor J.Jalolovning fikricha, "grammatika" – tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, chet til ta'limida unga "nutqning grammatik tomoni" deb qaraladi. Ilmiy manbalarda bayon etilgan turli ma'lumotlarni chet til o'qitish maqsadiga tatbiq etib, "grammatika" so'zini ikki tushuncha bilan chegaralash mumkin: 1) nutqning grammatik tomoni – tilning gapirish, tinglash, o'qish va yozuvda uchraydigan gramma-

tik hodisalari (masalan, nutq namunasi; fe'lining shaxs shakli; artikl) va 2) til hodisalarini ta'riflovchi mavhumotlar (masalan, ega gapda birinchi o'rinni egallaydi; o'tning birlik shakliga (chet tilga oid) falon qo'shimcha qo'shiladi). [3: 170]

Mashhur ingliz tilshunosi, filolog Devid Kristal rahbarligida yaratilgan lingvistik va fonetik lug'atda yozilishicha, grammatika – bu so'zlar va ularning komponentlari jumla yasash uchun birlashishini o'rganadigan fan. [4: 218]

“Grammatika” terminining lingvodidaktik talqini haqida so'z yuritadigan bo'lsak, professor J.Jalolov nutqning grammatik mexanizmda grammatik harakatlar yetakchi o'rin egallashini izohlagan. J.Jalolov *grammatik harakatni* egallashga – nutqning grammatik jihatdan avtomatlashgan ko'nikmalarini hosil qilish, grammatik *tayyor materialni* o'rganishga – grammatik shakllarni eslab qolish deb ta'rif bergan. Ta'rif, tushunchani esda saqlash va qo'llashga esa – *umumlashmani o'zlashtirish* deb nom bergan. [3: 170]

Mashhur rus tilshunosi va metodisti, akademik L.V.Shcherba grammatika haqida fikr bayon etar ekan, u aktiv va passiv turlarga bo'linishi haqida alohida to'xtalgan. L.V.Shcherba aytib o'tganidek, passiv grammatika tilning tinglab tushunish va o'qish nomi bilan yuritiladigan nutqiy faoliyatlarini, o'zga shaxs nutqini idrok etib tushunish ma'nosini bildiradi va bu nutqiy faoliyatlar retseptiv ko'nikma deb ataladi. U aktiv grammatikani lisoniy shakllarni nutqda qo'llash uchun mo'ljallangan va nutq faoliyatining produktiv turlari – gapirish va yozuvga xizmat qiladi deb talqin qilgan. Undan tashqari, L.V.Shcherba “passiv” termini faqat o'quv materialiga taalluqli, o'quvchi faoliyati esa ta'limda doimo aktiv bo'lishi zaruriyati ruhshunoslik va ta'limshunoslikda uzil-kesil e'tirof etilganligini aytib o'tgan. [5: 91]

Grammatikani o'rgatishdan maqsad talabalarga nutq faoliyatini o'rgatish ekanligini inobatga olgan holda nutqning sodir va idrok etilishi haqida psixolingvistlar bildirgan ayrim fikrlarga ham to'xtalib o'tish joiz.

Rus psixolingvisti, psixolog, filolog A.A.Leontyev o'z ilmiy izlanishlarida tilni o'zlashtirish uning barcha jihatlari: shakli, ma'nosi, funksiyasidan nutq faoliyati turlarida foydalanishni anglatadi, talaba til vositalari va nutq mazmuni o'rtasida kuchli va moslashuvchan assotsiatsiyalarni yaratishi kerak, shunda talaba o'z fikrlarini chet tilda ifodalashi va boshqa birovning gapini shu tilda anglashi uchun grammatik materialdan foydalanishi mumkin, degan fikrni taqdim etgan. [6: 38, 42]

Nutq faoliyatining ichki tarkibiy tashkil etilishi haqida gap ketganda, birinchi navbatda, yana bir mashhur rus psixologi, filologi, akademik A.N.Leontyev nazariyasiga ko'ra, har qanday nutq faoliyati uch bosqichli tabiatga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Bu tuzilmaga rag'batlantiruvchi-motivatsion (nutq faoliyatining ma'lum turini rag'batlantirish), analitik-sintetik (nutq faoliyatining muayyan turi maqsad va vazifalarini shakllantirish) va ijro etuvchi (o'qish, tinglash, yozuv, gapirish-natija nutq faoliyatining ma'lum turini ijro etishda ichki turki vazifasini bajarish) kabi bosqichlar kiradi. [7]

Taniqli rus psixologi, akademik I.Y.Zimnyaya nutqiy faoliyatni amalga oshirishni quyidagi bosqichlarga ajratgan:

1) fikrni ifoda etishga tayyorgarlik bosqichi (nutqiy faoliyat aktining boshlanishi – muloqotga kirishish motivlari, ehtiyojlari va maqsadlarini anglash);

2) nutqiy ifodaning tarkibiy qismlariga e'tibor qaratish (ushbu bosqichning mazmuni – so'zlarni tanlash, ularni kerakli ketma-ketlikda joylashtirish va grammatik jihatdan shakllantirish);

3) nutqni og'zaki yoki yozma bayon etish bosqichi (bu nutq harakatining eng muhim bosqichi bo'lib, ichki nutqdan tashqi nutqqa o'tishdan iborat). [8: 71–72]

Mazkur nutq bosqichlarining sodir etilishida grammatik hodisalarning ko'nikma shaklida ishtirok etishi lingvodidaktikada keng yoritilgan. Amerikalik metodist olim D.Larsen-Frimen “grammaring” metodik terminini (tinglash, gapirish, o'qish va yozuv bilan bir qatorda) “beshinchi malaka”, ya'ni grammatik hodisalar aniq mazmunini ifodalay olish malakasi, deb ta'riflagan. [9: 263–265]

Lingvodidaktik tadqiqotlardan ma'lumki, Amerika chet til o'rgatish ilmidagi muayyan nomuvofiqlikni kuzatish mumkin. Unda, birinchidan, nutqiy faoliyatda malaka haqida fikr-mulohazalar bayon etiladi. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab Amerikada bihevyyarizm nomli psixologik yo'nalish ta'sirida “habit forming” (ko'nikmani shakllantirish) termini keng qo'llanilar edi. Amerikalik psixolingvistlar, metodist va tilshunoslar yoppasiga chet til o'qitishda ushbu termini no'rin hisoblab, faqat “skill developing” (malakani hosil qilish) borasida mulohazalar yuritib kelishadi. Oqibatda, nutq faoliyati turlariga ham, lisoniy ko'nikmalarga ham uyqash-chalkash tamg'alar bilan yondashildi. Yana-da aniqroq aytsak, “ko'nikma” termini ingliz tilining Amerika variantidan chiqarib tashlandi. Demoqchi bo'lganimiz, keyingi yarim asrdan ortiq davr mobaynida AQShda faqat nutqiy malaka to'g'risida tadqiqotlar olib borildi, ko'nikma tadqiqotchilar e'tibordan chetda qoldi. Rus va o'zbek chet til o'qitish metodikalarida hali hanuz “ko'nikma” (rus. – *навык*, ingl. – *habit*) termini istifoda qilib kelinmoqda. Sabab shuki, nutqiy faoliyat ko'nikmalar asosida hosil bo'ladigan malakalardan iborat. CEFR ta'limoti o'rtaga chiqqandan keyin Yevropa tillarida, jumladan, nemis metodistlari asarlarida “subskill” nomi bilan lisoniy ko'nikmalarga ta'rif-tavsif beriladigan bo'ldi. Yana-da aniq aytadigan bo'lsak, leksik, grammatik, talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish asnosida yuqorida nomlari keltirilgan nutqiy malakalarni hosil qilish mumkin. Larsen Frimening lingvodidaktikada qo'llagan innovatsion tushunchasini, umuman olganda, ma'qullash bilan birga mazkur yangi termin atrofida yuritilayotgan ba'zi mulohazalarni tanqidiy ko'z bilan qabul qilishimizga to'g'ri keladi. Chunonchi, uning grammatik hodisaning uch jihati – formasi (shakli), semantikasi (ma'nosi), funksiyasi (qo'llanilishi) haqidagi fikrlari O'zbekiston chet til o'qitish ilmiy maktabi vakillari tomonidan o'tgan asrning 80-yillari boshlarida keng muhokamaga qo'yilgan. Bunda yetuk o'zbek lingvodidakti, marhum professor T.Q.Sattorov 1982-yil Moskvada (professor J.J.Jalolov ilmiy rahbarligida) muvaffaqiyatli himoya qilgan nomzodlik dissertatsiyasida aynan shunday innovatsion metodik masala o'rtaga olib chiqilgan (Amerika metodikasida 2014-yilda ushbu muammo ko'tarilgan).

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, “grammatika” termini lingvistikada – til aspekti, lingvodidaktikada – nutqning grammatik jihati, psixolingvistikada esa – nutqiy faoliyatdagi “grammatik hodisa” sifatida namoyon bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Языкознание. Большой энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. (2-е (репринтовое) издание Лингвистического энциклопедического словаря). – Москва: Большая российская энциклопедия, 1998. – 113 стр. – С. 685.
2. А.П.Нойтев. Тилshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 1985. 31-bet (– B. 158).
3. J.Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi (Foreign Language Teaching Methodology). – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 170-bet.
4. David Crystal. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. 6th edition. – Blackwell Publishing Ltd, 2008. – p. 218 (– 555 pp).
5. Л.В.Щерба. Преподавание иностранных языков в средней школе. Общие вопросы методики. Издание второе / Под редакцией проф. Рахманова И.В. – Москва: Высшая школа, 1974. – 91 стр. – С. 112).
6. А.А.Леонтьев. Методика (Зарубежному преподавателю русского языка) / Под ред. Леонтьева А.А., Королевой Т.А. М. 54 3-е изд., испр. – Москва: Русский язык, 1982. – 38, 42 стр. – С. 112).
7. А.Н.Леонтьев. Проблемы развития психики. – Москва, 1959. – С. 345. [Источники: <http://psychlib.ru/mgppu/zlp/zlp-001-.htm#p1>]
8. Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. – Москва: Воронеж, 2001. – 71–72 стр.
9. M. Celce-Murcia, Donna M. Brinton, & M. Ann Snow. Teaching English as a Second or Foreign Language (4th ed). – Boston, MA: National Geographic Learning, 2014. – pp. 263–265.

**Shohida ABDULLAYEVA,**  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Ingliz tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD

## TILSHUNOSLIKDA LEKSIKOGRAFIK-TIPOLOGIK MUAMMOLAR

**Annotatsiya.** Mazkur maqola leksikografiya nazariyasining lug'atlar tipologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, ikki tilli hamda ko'p tilli lug'atlarning asosiy tipologiyasi, zamonaviy leksikografiya nazariyasining tasnifi va tavsifi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** atomistik, aralash tipologiya, selektiv tipologiya, pluralistik tipologiya, monistik tipologiya.

**Annotation.** *The article is devoted to the typology of dictionaries of the theory of lexicography, the main typology of bilingual and multilingual dictionaries, classification and description of the theory of modern lexicography.*

**Keywords:** *atomistic, hybrid typology, selective typology, pluralistic typology, monistic typology.*

**Аннотация.** *Статья посвящена типологии словарей теории лексикографии, основной типологии двуязычных и многоязычных словарей, классификации и описанию теории современной лексикографии.*

**Ключевые слова:** *атомистическая, гибридная типология, селективная типология, плюралистическая типология, монистическая типология.*

Dunyoda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuz berayotgan jadal rivojlanishlar fan, texnika, bozor iqtisodiyoti va madaniyat kabi turli jabhalarda ko'plab yangi tushuncha va terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Soha terminologiyasida kechayotgan sezilarli o'zgarishlar terminlarni tartibga solish, lug'atshunoslik mezonlarini ishlab chiqish xususida kerakli ko'nikmaga ega bo'lishni ham taqozo etadi.

Leksikografiya nazariyasining eng dolzarb masalalaridan biri lug'atlar tipologiyasidir. Ushbu tadqiqot doirasida XVIII asrning ikki tilli hamda ko'p tilli lug'atlarining asosiy tipologiyasi hamda zamonaviy leksikografiya nazariyasi asosida V.G.Gak tasnifining beshta o'ziga xos farqli xususiyatlarini ko'rib chiqish muhim:

1. Tasniflash obyekti: globalistik, atomistik va aralash tipologiya.
2. O'rganilayotgan masalalar umumiyliigi: to'liq va saralangan tipologiya.
3. Asosga tegishli mezonlar: pluralistik va monistik tipologiya.
4. Umumiy maqsad: statik va dinamik tipologiya.
5. Materiallarning joylashishi: qarama-qarshi shaklda, daraxt shaklida va radial ko'rinishdagi tipologiya.

L.V.Shcherba tomonidan qarama-qarshi tamoyillar asosida ishlab chiqilgan oppozitiv tipologiyada ingliz, chex, rus, fransuz, golland, daniya, shved va boshqa tillarning lug'atlariga asoslanib oltita qarama-qarshilik ilgari suriladi:

1. Maqsadli: o'quv tipidagi lug'at – ma'lumotno-ma-lug'at.
2. Ilovali: ensiklopedik lug'at – umumiy lug'at.
3. Hajmli: tezaurus – odatdagi izohli yoki tarjima lug'atlar.
4. Joylashuviga ko'ra: alifbo tartibida – ideologik tarzda.
5. Tilning miqdori jihatidan: izohli lug'atlar – tarjima lug'atlar.
6. Tarixiy nuqtayi nazardan: tarixga oid emas – tarixiy lug'atlar.

L.V.Shcherba: "...sof lingvistik jihatdan fikrlaydigan bo'lsak, akademik yoki normativ turdagi lug'atni "ilmiy" deb hisoblash kerak, bu kabi lug'atlar o'z predmetiga ko'ra real lingvistik voqelikka – ma'lum bir tilning yagona leksik

tizimiga egadir", – deya e'tirof etadi. Olim til hodisalari va faktlarini adabiy til tizimiga kiruvchi tor doiradagi til me'yorlaridan emas, aynan ilmiy nuqtayi nazardan saralaydi. Ularni asosiy besh turga ajratadi. Bu turlarning har biri quyidagicha tavsiflanadi:

1. Atomistik tipologiya.
2. Monistik tipologiya.
3. Dinamik tipologiya.
4. Daraxt ko'rinishdagi tipologiya.
5. Radial tipologiya.

**Atomistik tipologiyada** Y.Malkiyel<sup>1</sup> lug'atlarning hajmi, istiqboli, taqdimotiga ko'ra asosiy uch ko'rinishini farqlaydi. Hajm jihatidan:

- a) maqolalar soni;
- b) tillarning soni;
- c) ma'lumotning tavsifi (voqelikni va atoqli, turdosh otlar kabilarni kiritish).

Lug'atlarning istiqbolli turida quyidagilar ko'zda tutiladi:

- a) ta'riflashning sinxronik yoki diaxronik tamoyillari;
- b) joylashuviga ko'ra alifbo yoki semantik tartibda (materialni gap bo'laklariga ko'ra tartibga solish yoki hayotiy sohalar asosida);
- d) ohang darajasiga ko'ra obyektiv, ko'rsatma yoki hazil tarzida.

Prezentatsiya, ya'ni taqdimot shakli o'z ichiga misollarni, iqtibos, havola, illustratsiyalarni qamrab oladi. Bunga o'xshash tipologiyani T.A.Sebeokning ishida ham uchratish mumkin. Unda tadqiqotchi o'n yettita o'ziga xos xususiyatlarni asoslaydi.

**Monistik tipologiya** bevosita bir-biriga bog'liq bo'lmagan, ya'ni mustaqil holda taqdim etilgan yagona tamoyilga asoslanadi. Xuddi shunga o'xshash holat M.A.Ekksera tomonidan ham taklif etilgan. Tadqiqotchi til belgilari strukturasi yagona tamoyil sifatida ilgari suradi. Ferdinand de Sossyur tomonidan belgilab berilgan lingvistik tuzilishi ikki xil lug'atni farqlab beradi: rasmiy va tushunchaga xos lug'atlar. M.A.Ekksera qo'shimcha ravishda uchinchi komponentni aks ettiruvchi ensiklopedik lug'atlarni qo'shimcha qiladi va semantik uchlik: predmet–so'z–tushuncha shaklida yaratadi.

**Dinamik tipologiyada** statik tipologiyadan farqli o'laroq, lug'at, asosan, tayyor mahsulot sifatida leksikograf

ishining ma'lum bosqichlarini aks ettiradi. A.Reyning fikri-cha, leksikograf ishining har bir bosqichi muayyan tanlovni va u tomonidan qilingan tanlov lug'atlarning turli qirralari hamda o'ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi. A.Rey umumiy yetti bosqichni ajratadi:

- 1) diskursiv ma'lumot;
- 2) qayta ishlab chiqish birliklari;
- 3) umumiy va restriktiv (cheklovli) leksika. Ijtimoiy-madaniy ma'lumotlarga asoslangan tushunchalar saralanib, ijtimoiy mezonlar asosidagi terminologik lug'atlar, lug'aviy so'zlar, so'z va semantik o'zaro munosabatlar asosida tanlash (sinonim lug'atlar) hamda rasmiy munosabatlar (lug'at va qofiya) bo'yicha tavsiflanadi;
- 4) elementlarning lug'atda joylashishi – lug'at shakli bo'yicha (alifbo tartibda) va tarkibiy (ideografik);
- 5) semantik-funksional ma'lumotlar;
- 6) semantikaga tegishli bo'lmagan ma'lumotlar;
- 7) tildagi illustratsiyalar (iqtiboslar, muallif misollari yoki namunalari).

**Daraxt ko'rinishidagi tipologiya** bir qancha tilshunolar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, o'ziga xos xarakterga ega. U, asosan, uch qismdan tarkib topgan:

- 1) tillarning miqdori;
- 2) mezonlari;
- 3) lug'at hajmiga ko'ra.

Lug'atlar tilning miqdoriga ko'ra bir tilli va ko'p tilli lug'atlarga bo'linadi. Tipologiyani "narsalarni anglatadigan" mezoni katta qiziqishlarga sabab bo'lib, "narsa"ga deyarli barcha ensiklopediyalarga tegishli (sohaga oid umumiy ixtisoslashgan) so'zlar kiradi va "so'zlar" mezoni lingvistik lug'atlarni tashkil etadi. Ushbu tipologiyani bir qismi 1-jadval ko'rinishida ifodaladi:

Mazkur tipologiyani "lug'aviy hajm" mezoni o'z ichiga ekstensiv va restriktiv lug'atlarni qamrab oladi. Ekstensiv lug'atda keng ko'lamdagi neologizmlar va kam uchraydigan so'zlar, shuningdek, restriktiv lug'at so'z birikmalarining faqat bir qismi til belgilarining lug'at qiyinchiliklari, terminologik lug'at, uslubiy lug'at, ijtimoiy guruhlar, yakka mualliflik kabi mezonlari asosida tanlanadi.

**Radial tipologiya** V.G.Gak<sup>2</sup> tomonidan yozilgan lingvistik-ensiklopedik lug'at to'g'risidagi maqolada batafsil yoritilgan. Radial tipologiyani yadrosi bir tilli yirik izohli lug'atlar hisoblanib, uning barcha boshqa turlari ma'lum

1-jadval

## Lingvistik lug'atlarning tipologik tasnifi

Lingvistik lug'atlar			
Umumiy lug'atlar	Ixtisoslashgan lug'atlar		
Segment aspekt	Morfogrammatik aspekt	Formal aspekt	Semantik aspekt
Lug'atning kelib chiqishi (ildizi)	Lug'at bo'limlari	Orfografik lug'at	Sinonimli lug'at
Badiiy lug'at	Fe'ldan tarkib topgan lug'at	Orfoepik lug'at	Antonim lug'at
Frazeologik lug'at	Otlardan tarkib topgan lug'at	Omonim lug'at	Ideologik lug'at
Maqollar lug'ati		Paronim lug'at	Anologik lug'at
		Qofiyali lug'at	

parametrlarga ko'ra asosiysidan farq qiladi. Ular, asosan, uch guruhga ajratiladi:

**1) obyektini qayta ishlab chiqish:**

- a) "narsaga oid so'zlar";
- b) selektiv;
- d) tizimli aloqador so'zlar;
- e) qayta ishlash birligi;
- f) aspekt bo'yicha;
- g) tarixiy istiqbolli;
- h) funksional aspekt;
- i) til soni;

**2) materialning joylashuviga ko'ra:**

- a) bir tomonlama;
- b) alifbo tartibida;

**3) bolalar uchun o'quv lug'atini yaratish.**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, terminologik lug'atlarining sifatini oshirish, ularni tayyorlashning yagona tamoyillari va usullarini belgilash leksikografik-tipologik tasnifni ishlab chiqishni taqozo etadi. Leksikografiyaning tipologik muammolarini shakllantirishda esa lug'atlar tipologiyasini ishlab chiqish, leksikografik parametr tushunchalari hamda tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> Gak V.G. Para una tipología de las tipologías de diccionarios // Voz y letra.Revista de filología,1994. p. 106–107.

<sup>2</sup> Para una tipología de las tipologías de diccionarios // Voz y letra. Revista de filología,1994. p. 106–107.

Zaxro Urunova,

Toshkent davlat pedagogika universiteti Surdopedagogika kafedrasida o'qituvchisi

## O'ZBEK TILI "DEFEKTLOGIYA" TERMINOLOGIK MAYDONNING SEMANTIK-TARKIBIY TUZILISHI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilidagi defektologiya terminlari maydon nazariyasi asosida o'rganilgan va unda muallif defektologiya terminlari mikromaydonlarini tavsiflagan.

**Annotation.** In this article, the terms of defectology in the Uzbek language are studied on the basis of field theory, in which the author describes the microfields of the terms of defectology.

**Аннотация.** В данной статье термины дефектологии в узбекском языке изучаются на основе теории поля, в которой автор описывает микрополя терминов дефектологии.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, terminologik maydon, mikromaydon, defektologiya mikromaydoni, semantik-tarkibiy tuzilish.

**Keywords:** Uzbek language, terminological field, microfield, defectology microfield, semantic structure.

**Ключевые слова:** узбекский язык, терминологическое поле, микрополе, микрополе дефектологии, семантическая структура.

Terminologik maydon haqida juda ko'p qarashlar mavjud bo'lsa-da, ulardagi asosiy jihatlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, muayyan terminologik maydon muayyan fanga oid tushunchalar tizimi asosida shakllanadi va mazkur tizimdagi ilmiy tushunchalarni ular o'rtasidagi munosabatlarni qamragan holda aks ettiradi. Terminologik maydon qurilishidan tarkibiy uzvlar sifatida joy oladigan terminlarning semantik tarkibida ularning birlashishini ta'minlaydigan umumiy jihat, xususan, umumiy belgi bo'lishi taqozo etiladi.

O'zbek tilidagi "normal rivojlanishdan og'ish, normal rivojlanishning buzilishi va ana shu buzilishlarni o'nglash" tarzidagi umumlashtiruvchi ma'nodan iborat arxisema asosida tarkib topgan "defektologiya" terminologik maydonini makromaydon sifatida qarab, uni, asosan, oltita mikromaydonga ajratish maqsadga muvofiq:

I. Defektologik ilmiy-pedagogik yo'nalishlar, fanlar va umumdefektologik tushunchalar nomlari mikromaydoni bo'lib, undan defekt (yoki nuqson), anomal rivojlanish // dizontogeniya, anomal bolalar // jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar // jismoniy va ruhiy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar // imkoniyati cheklangan bolalar // salomatligi cheklangan bolalar, murakkab buzilishlar, patologiya, korreksiyalash kabi terminlar joy oladi.

II. Eshitish bilan bog'liq buzilishlar va ularni o'nglash – surdopedagogika mikromaydonida to'rtta leksik-semantik guruh mavjud:

1) korreksion-pedagogik jarayon ishtirokchilarini bildiruvchi terminlar: eshitishda nuqsoni bor bolalar, kar bolalar, zaif eshituvchi bolalar, eshitish qobiliyati zaif bolalar, erta kar bo'lib qolgan bolalar, tug'ma kar bolalar, kar-soqov bolalar, surdopedagog, surdolog, audiolog kabi;

2) eshitish bilan bog'liq buzilishlar nomlarini bildiruvchi terminlar: karlik, tug'ma karlik, orttirilgan karlik, kar-soqovlik, soqovlik, qulog'i og'irlik, keksalikda quloqning og'irlashuvi, eshitishning buzilishi, eshitishning yo'qolishi, surdomutizm // o'tkinchi kar-soqovlik // muvaqqat kar-soqovlik (qattiq qo'rquv yoki boshqa favqulodda ta'sir natijasida vaqtincha quloqdan ham, tildan ham qolish), sensoserval eshitish buzilishlari, konduktiv qulog'i og'irlik kabi;

3) eshitish me'yorlariga daxldor tushunchalarni ifodalovchi terminlar: qulog'i og'irlikning darajalari (qulog'i og'irlikning 1-darajasi, qulog'i og'irlikning 2-darajasi, qulog'i og'irlikning 3-darajasi, qulog'i og'irlikning 4-darajasi, bu darajada odam baland ovozni (71–90 dB) ham qiyinchilik bilan qabul qiladi; mazkur darajadan keyin karlik hisoblanadi), nutqni eshitib idrok etish, eshitish analizatori, eshitish qobiliyati, eshitish qoldig'i kabi;

4) korreksion ta'sir metodlari, usullari va vositalarini ifodalovchi terminlar: audiologiya, audiogramma, audiometriya, eshitish qobiliyatini audiometriya qilish, daktilografiya, daktilogiya // daktil alifbosi, imo-ishora nutqi, mimik metod, surdotexnika, og'zaki metod, kox-

lear implantlash, binaural eshituv, binaural protezlash // ikkala quloqqa eshitish apparati qo'yish kabi;

III. Ko'rish bilan bog'liq buzilishlar va ularni o'nglash – tiflopedagogika mikromaydonida ham terminlarning to'rtta leksik-semantik guruhi farqlanadi:

1) korreksion-pedagogik jarayon ishtirokchilarini bildiruvchi terminlar: ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar // ko'zi ojiz bolalar // ko'r bolalar, zaif ko'ruvchi bolalar, tug'ma ko'zi ojiz bolalar, orttirilgan ko'zi ojizlar, tiflopedagog kabi;

2) ko'rish bilan bog'liq buzilishlar nomlarini bildiruvchi terminlar: tug'ma ko'zi ojizlik, ko'rish qobiliyatining yo'qolishi, ambliopiya, g'ilyalik, daltonizm, anoftalm, astenopiya, axromaziya kabi;

3) ko'rish me'yorlariga daxldor tushunchalarni ifodalovchi terminlar: ko'rish analizatori, ko'rish o'tkirligi, ko'rish maydoni, ko'rish qoldig'i, uzoqni yaxshi ko'rolmaslik // miopiya, uzoqni yaxshi ko'rish // ko'zi o'tkirlilik kabi;

4) korreksion ta'sir metodlari, usullari va vositalarini ifodalovchi terminlar: tiflopedagogik metodlar, brayl alifbosi, ko'zi ojizlar uchun nota yozuvi sistemasi, zaif ko'ruvchilar uchun optik asboblar, grifel, ko'rish qobiliyatini rivojlantirish, o'qitishning tiflotexnik vositalari, ko'rish xotirasini rivojlantirish, tiflografika, so'zlovchi kitob kabi.

IV. Aqliy quloqlik va uni o'nglash – oligofrenopedagogika quyidagi leksik-semantik guruhlariga ajratiladi:

1) korreksion-pedagogik jarayon ishtirokchilarini bildiruvchi terminlar: oligofrenopedagog, aqli quloq bolalar // aqli zaif bolalar // oligofren bolalar, psixopat bolalar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar // psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar maktablari kabi;

2) ruhiy-aqliy buzilishlar nomlarini bildiruvchi terminlar: akalkuliya (yunon. a – inkor yuklamasi, calculatio – "hisob, sanoq") // hisoblash qobiliyatining buzilishi, autizm // odamovilik, aqli quloqlik // aqli zaiflik, demensiya // orttirilgan aqli noqislik, apatiya, aqliy nuqson, daun kasalligi, shizofreniya, ruhiy rivojlanishning to'xtab qolishi kabi;

3) ruhiy-aqliy me'yorlarga daxldor tushunchalarni ifodalovchi terminlar: xotira hajmi, qisqa muddatli xotira, esda saqlab qolish, esga tushirish, intellektual faollik // aqliy faollik, intellektual faoliyat jarayonlari // aqliy faoliyat jarayonlari, aqli quloq bolalar psixikasi, aqli zaiflik darajalari (debillik, imbetsillik, idiotlik) kabi;

4) korreksion ta'sir metodlari, usullari va vositalarini ifodalovchi terminlar: aqliy-ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlarni korreksiyalash, aqli quloq bola shaxsini rivojlantirish, aqli zaif bolalar maktab-internati, aqli zaif bolalar rehabilitatsiyasi kabi.

V. Nutqiy buzilishlar va ularni tuzatish – logopediya mikromaydoniga oid terminlarni quyidagi leksik-semantik guruhlariga tasnif qilish mumkin:



1) logopedik-korreksion jarayon ishtirokchilari nomlarini bildiruvchi terminlar: logoped, o'qituvchi-logoped, logopat bolalar, duduq bolalar, nutqida turli nuqsonlari bo'lgan bolalar kabi;

2) nutq buzilishlarini ifodalovchi terminlar guruhini yana ikki kichik guruhga farqlash maqsadga muvofiq:

1. Nutq sifati, strukturasi va leksik-grammatik jihatlari daxldor buzilishlarning nomlarini bildiruvchi birliklar guruhi: logopatiya, agrammatizm, mutizm // gapirishga xohishsizlik, aleksiya, o'qish va yozish qoidalarining buzilishi, disleksiya, disgrafiya, parafraziya, embolofraziya, battarizm, taxilaliya // nutq sur'atining patologik tezlashuvi kabi.

2. Nutqning fonetik-fonematik va orfoepik buzilishlarini ifodalovchi birliklar guruhi: akustik agnoziya, literal parafraziya, paragrafiya, nutqning fonetik fonematik rivojlanmaganligi, dizartriya, jaranglanish nuqsoni, tovushlarni qorishtirish, gammatsizm, dislaliya, mexanik dislaliya, funksional dislaliya, rinolaliya // dimog'da gapirish // ping'illab gapirish // manqalanib gapirish kabi;

3) nutq me'yorlariga daxldor tushunchalarni ifodalaydigan terminlar: o'zbek adabiy tili, adabiy til me'yorlari, artikulyatsiya, tovush artikulyatsiyasi, artikulyatsiya jarayoni, nutq apparati, fonematik uquv, nutq sur'ati, nutq ritmi, ichki nutq, tashqi nutq, ekspressiv nutq kabi;

4) logopedik-korreksion ta'sir metodlari, usullari va vositalarini ifodalovchi terminlar: logopedik ish metodikasi, nutqni to'g'rilash ishlari, nutqiy faollikni tarbiyalash, aks ettirilgan nutq // aks etgan nutq, analitik-sintetik tovush metodi, artikulyatsiya mashqlari, nutqni tiklash kabi.

VI. Ovoz buzilishlari va ularni o'nglash – fonopediya mikromaydoni. Ovozda kamchiliklar, turli buzilishlar, norasoliklarni o'nglash va tegishli pedagogik-korreksion tadbirlar vositasida imkon qadar ulardan qutulish jamiyat a'zolarining hamisha e'tiborida bo'lib kelgan. Ayniqsa, kasbiy faoliyati ovoz bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislarning ovozi sifatiga muntazam alohida talablar qo'yilgan. Chunki ularning kasbiy faoliyatida ovoz favqulodda muhim rol o'ynaydi. Fonopediya mutaxassislari qayd etishicha, 1979-yilda Yevropa Foniatri lrtiffoqi tomonidan ovoz sifatiga qo'yiladigan talablarga muvofiq kasblarni shunday tasnif qilish taklif etilgan:

1. Ovoz sifatiga favqulodda yuksak talablar qo'yiladigan kasblar: a) yakkaxon xonandalar; b) xor ijrochilari; d) aktyorlar; e) radio va televideniye suxandonlari.

2. Ovoz sifatiga yuksak talablar qo'yiladigan kasblar: a) o'qituvchilar; b) professional notiqlar, tarjimonlar va boshqalar; d) bolalar muassasalari murabbiylari va o'qituvchilari.

3. Ovoz sifatiga oshirilgan talablar qo'yiladigan yoki faoliyati shovqinli muhit bilan bog'liq kasblar: a) advokatlar; b) sudyalari; d) shifokorlar; e) harbiy komandirlar.

Shundan kelib chiqqan holda ushbu mikromaydonidagi terminlarni quyidagi leksik-semantik guruhlariga ajratish mumkin:

1) logopedik-korreksion jarayon ishtirokchilari nomlarini bildiruvchi terminlar: fonoped, logoped-fonoped, foniatr, o'qituvchi-logoped, ovoz buzilishlari bor bolalar (kishilar) kabi;

2) ovoz buzilishlari nomlarini ifodalovchi terminlar: ovoz buzilishi, ovozning izdan chiqishi, ovoz apparatini zo'riqtirish, xirillagan ovoz // disfoniya, bo'g'i ovoz, chiyillagan ovoz, ovoz apparatining kasbiy kasalligi, ovozning kasbiy buzilishi, afoniya // ovozsizlik, ovozning organik buzilishlari, ovozning funksional buzilishlari, ovoz patologiyasi, ovoz apparatining patologik o'zgarishi, bo'g'iz patologiyasi, fonasteniya, ovoz detonatsiyasi // ovozning titrashi kabi;

3) ovoz me'yorlariga daxldor tushunchalarni ifodalovchi terminlar: ovoz apparati, ovozning akustik parametrlari, ovozning akustik xususiyatlari, ovozning kuchi, ovozning balandligi, ovoz hosil bo'lishi // fonatsiya, ovoz harakati, polifoniya, gomofoniya, geterofoniya, ovoz gigiyenasi, nutq texnikasi, nafas, nafasni boshqarish, rezonans kabi;

4) fonopedik-korreksion ta'sir metodlari, usullari va vositalarini ifodalovchi terminlar: ovoz buzilishi diagnostikasi, fonopedik yordam, fonopedik ishning samaradorligi, ovozni yo'lga qo'yish, ovoz apparati holati monitoringi, fonopedik metodlar, ovoz terapiyasi, ovoz apparatini noto'g'ri ishlatishni korreksiyalash, ovozni tiklash usullari, ovoz nuqsoni korreksiyasi kabi.

Xullas, o'zbek tili "defektologiya" terminologik maydonining semantik strukturasi, ko'rib o'tilganidek, oltila mikromaydon o'rin olgan. Birinchi mikromaydondan tashqari keyingi mikromaydonlar tarkibidagi terminlar, asosan, yana o'rttdan leksik-semantik guruhlarini o'z ichiga oladi.

**Feruz MURATOVA,**

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 44-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDA "NON" ATAMASI

Inson hayotida eng ko'p iste'mol qilinadigan ne'matlardan biri bu – non. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra boshqoqli o'simliklar donlarini pishirib iste'mol qilish tarixi juda qadimiy bo'lib, miloddan avvalgi yillarda boshlanganligi taxmin qilinadi. Olov kashf qilngach, donni pishirib yeyishga imkoniyat tug'ilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra dastlab boshqoqli cho'g'da dumbul qilinib, so'ng boshqoqli ichida qovurilib, pishgan don uqalanib, iste'mol qilingan. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida keltirilishicha, nonga "Avesto"ning deyarli bir bobi bag'ishlangan, dehqonchilikning eng qimmatbaho mahsulati sifatida ta'riflan-



Lobar MARDONOVA,  
Sohiba SAIDMURODOVA,

Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filiali O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrası o'qituvchilari

## “MIRONSHOH MIRZO” ROMANINING TARIXIY-BADIIY ASPEKTDAGI TAHLILI

Keyingi yillarda yozuvchi va shoirlarimiz tarixiy mavzularga har qachongidan ham ko'proq murojaat qilishmoqda, tarixiy voqealar talqini, buyuk siymolar badiiy obrazlari orqali tarix saboqlarini teranroq anglashga urinishmoqda. Shular orasida Muhammad Alining “Ulug' saltanat” tetralogiyasi alohida ajralib turadi. Chunki to'rt kitobdan iborat bu epopeyaning har bir romani xalqimiz tarixining eng yorqin sahifalari bo'lgan o'zbek davlatchiligi shakllanishi bilan bog'liq tarixiy voqealarni badiiy aks ettirgan.

Yozuvchi Amir Temurning har bir o'g'li haqida bir asar yaratib, Sohibqironning butun harbiy-siyosiy faoliyati, buyuk shaxsning tarixiy missiyasini badiiy gavdalanirishga jazm etgan. Mironshoh Mirzo Amir Temurning uchinchi o'g'li. Uning bahodirligi, mohir sarkardaligi, harbiy san'at sirlarini puxta egallagani haqida Amir Temur hukmronligi davriga oid barcha tarixiy asarlarda aytilgan. Tarixiy haqiqatni badiiy asarga ko'chirish yozuvchidan yuksak mahorat, ulkan tajriba talab etadi. Chunki badiiy asarning asosiy xususiyati kitobxonni ishontirishdir. Tarixiy fakti shunchaki ko'chirib qo'yish hech qanday qimmatga ega emas. Tarix kitoblarida keltirilgan voqealar tafsilotiga badiiy libos kiydirish asl mohiyatni anglashda muhim ahamiyatga ega. Muhammad Ali shu yo'ldan borgan. U tarixiy manbalarda tilga olingan voqealar, ularning tafsiloti, tarixiy shaxslarga oid har bir ma'lumotga jiddiy yondashib, ularni kitobxon ko'z o'ngida badiiy gavdalanirishga harakat qilgan. “Mironshoh Mirzo” romanida ham shu holni ko'ramiz.

Professor D.To'rayev yozuvchi Muhammad Alining tarixiy faktlardan foydalanish mahoratiga alohida e'tibor qaratadi: “Yozuvchi romanida manbalardagi son-sanoqsiz va bir-biridan ahamiyatli tarixiy voqealardan qahramonlari xarakterini ochish uchun foydalanadi. Romanda Mironshoh murakkab xarakterli shaxs sifatida ko'rinadi”. Darhaqiqat, romanni mutolaa qilganda, Mironshoh obrazi boshqa obrazlardan murakkabligi bilan ajralib turganligini ko'ramiz. Amir Temurning jang-u jadallar oldidan aziz-avliyolar yotgan joylarni ziyorat qilishi, vaqf uylari, beva-bechora, yetim-yesirlarga xayrsadaqa ulashishi tarixiy asarlarda aytilgan. Mironshoh esa aksincha ish tutib, jahl ustida aziz-avliyolar maqbaralarini buzdiradi, qabrlaridan suyaklarini chiqarib tashlab, yoqib yuboradi, ularni tavof qilish shirk, deb hisoblaydi. Manbalarda aytib o'tilgan bu ma'lumotlar yozuvchi asarida badiiy gavdalanadi. Mironshohnig o'sha paytdagi holati, ruhiy kechinmalari go'zal tasvirlanadi, kitobxonni ishontiradi, hayajonga soladi. Ko'p o'rinlarda qahramonlarning ruhiy holati, xarakteriga

xos xususiyatlarini ochib berishda ularning nutqi orqali, hadislar va Qur'on suralaridan keltirilgan iqtiboslardan foydalanish ham uchraydi. Shoh Jujo o'limi oldidan Amir Temurga yo'llagan maktubining tili, uslubi, unda hadislardan foydalangani yozuvchining tarixiy manbalarga murojaat qilib, ulardan qanchalik ustalik bilan foydalanish mahoratini ko'rsatadi.

Misir sultoni Sulton Barquqdan kelgan maktubdan Amir Temur g'azabga minadi. Shirvon sultoni Shayx Ibrohimdan kelgan xatni tinglab, piri murshidiga aytgan so'zlaridan Amir Temurning adolatli, kechirimli bo'lgani haqida tarix kitoblarida aytilgan ma'lumotlarni kitobxon ko'z o'ngida badiiy gavdalaniradi.

“– Eshitingizmu, hazratim?.. Bandasi ko'rnamak ersa, uning chorasi yo'q erkan-da... Hadisda aytilmish, yomon odam o'ziga yaxshilik qilgan odamga to yomonlik bilan javob bermaguncha bu dunyodan ketmaydi, degan hikmat nechog'lik haq... Dushmanlarni ham do'stga aylantirishga tirishmoq kerak, buning uchun mol-dunyoni ayamasmen, hamisha kechirimlik maqomini mahkam tutamen, murosaga boramen, urushning oldini olish uchun elchilar yuboramen, kengashamen...”<sup>1</sup>

Barcha tarixiy kitoblarda tarixiy voqealar tafsilotini berishda badiiy uslublardan foydalanilgan, nasriy san'atlar qo'llangan. Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa tarixchi olimlarning barcha asarlarida badiiylik xususiyatlari bo'rtib turadi, ulara badiiylikni ta'minlovchi san'atlar keng qo'llangan. A.Rasulov bu fikrning isboti uchun Sharafiddin Ali Yazdiy asaridan xarakterli bir misolni keltirib o'tadi:

“Sharafiddin Ali Yazdiy Temur askarlarining hind jangchilariga qarshi mardonavor xatti-harakatini tiniq o'xshatish orqali ifodalaydi: “Hinduston dilovarlari turib mardonalik ko'rsatur erdilar. Ammo chibinning na toqati bo'lg'aykim, pil qoshinda turgay yo kiyik sherga muqobala bo'lg'ay”<sup>2</sup>.

Boshqa tarixga oid asarlarda ham bunday tasvirlarni uchratish mumkin. Yozuvchi tarixda bo'lib o'tgan voqeani tarix kitobida qanday tavsif etilgani emas, balki qachon, qayerda yuz berganligini, kimlar ishtirok etganligini o'rganib chiqadi. Unga qanday badiiy libos kiydirish asardan ko'zda tutilgan badiiy estetik maqsad, qahramon va personajlar xarakterlarini ochib berishdagi ahamiyatga, yozuvchi mahoratiga bog'liq. Shu jihatdan olib qaraganda, tetralogiya muallifi tarixiy faktlardan nihoyatda unumli foydalangan. Buni Amir Temur va uning farzandlari xarakterini kitobxon ko'z o'ngida gavdalanirishda qo'llangan badiiy priyomlar, sohibqironga xos

adolatlilik, haqgo'ylik, bag'rikenglik fazilatlarini namoyon etuvchi lavhalarda ko'rish mumkin. Amir Temur o'zining "Tuzuklari"da mamlakatni boshqarishda o'zi tayangan asosiy prinsiplar, harbiy yurishlarida o'zi amal qilgan qat'iy qoidalar va do'st-u dushmanlariga munosabati haqida batafsil aytib o'tgan. "Yana amr qildimki, – deydi Sohibqiron "Tuzuklar"da, – o'nboshi, yuzboshi va mingboshilardan qay biri dushman safini buzib, o'z qarshisidagi askar favjini sindirsa, o'nboshi bo'lsa, shahar hokimligini bersinlar. Yuzboshi bo'lsalar, uni biron mamlakat hukmdori etsinlar"<sup>3</sup>. Bu iqtibosni keltirish orqali shuni ta'kidlash joizki, tarixiy faktlardan yozuvchi Muhammad Ali mahorat bilan foydalangan. Chunki romanda Sohibqironning bu adolatparvarligi badiiy to'qima obraz Axiy Jabbor obrazi talqinida namoyon bo'lgan. Janglardan birida o'zini ko'rsatgan Axiy Jabbor shahar hokimligiga munosib bo'ladi, ammo u bunga qiziqmaganligi sababli unga bahodirlik unvoni beriladi. Bu yerda tarixiy haqiqat buzilmagan, bil'aks yozuvchi mahorati tufayli badiiy haqiqat Amir Temur siymosini kitobxon ko'z o'ngida yana-da ulug'vor qiyofada namoyon bo'lishiga xizmat qilgan.

"Tarixga baho berishda, bizdan juda qadim zamonlarda kechgan voqealar haqida fikr yuritishimizga to'g'ri keladi. Bahoyimiz qandayligidan qat'i nazar tarix sira o'zgarimasligini esdan chiqarmasligimiz kerak. Bunda, albatta, tarixiy mantiq yo'lidan bormoq shart. Tarixiy mantiq – juda muhim tushuncha. U – tarix qonuniyatlaridan biri. Tarixni o'z "xizmatkori"ga aylantirib olishni istagan ayrim tarixchilar, tarixiy mantiqni unutib, zamon va makonni hisobga olmay fikr yuritadilar. Lekin bu fikrlari bilan tarix qadamlariga biron ta'sir o'tkaza oladilarmi yo'qmi, bunisi necha asrlardirki, noma'lum qolib kelmoqda..."<sup>7</sup>.

Yozuvchi bu mushohadalarga o'zi qat'iy amal qiladi. Har bir tarixiy voqeani badiiy aks ettirar ekan, tarixiy haqiqatni buzmasdan unga davr ruhini singdirishga, badiylik mezonlariga amal qilgan holda tarixiy faktlar mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Mironshoh Mirzo tarixiy kitoblarda qayd etilishicha, juda murakkab shaxs bo'lgan. Unda ham g'ayrat-shijoat, sarkardalik qobiliyati, jangovarlik yuksak darajada bo'lgan. Romanda uning mana shu fazilatlarini, murakkab ruhiy-ma'naviy holati o'zining yuksak badiiy ifodasini topgan.

<sup>1</sup> To'rayev Damin. O'zbek tetralogiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2017. 65–66-betlar.

<sup>2</sup> Muhammad Ali. Ulug' saltanat. Mironshoh Mirzo. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2014. 88–89-betlar.

<sup>3</sup> O'sha asar. 62-bet.

<sup>4</sup> Temur tuzuklari. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. 118-bet.

**Nazira YANGIBAYEVA,**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, PhD

## "MAORIF VA O'QITG'UCHI" JURNALIDA IMLO MASALASINING YORITILISHI

XX asrning 20-yillarida "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalida imloga oid bir qancha mulohazali maqolalar e'lon qilingan, chunki ushbu davr uchun imloning ahamiyati juda katta bo'lgan. Mazkur jurnal sahifalarida imlo (orfografiya) prinsiplari – savtiy (fonetik) va sarfiy (morfologik) usullar belgilab olingan bo'lib, u imloga oid bosh masalaning hal qilinganligini anglatar edi.

Imloning nazariy qoidalari dastlab matbuotda, "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining 1926-yil 7–8-sonlari (sentabr, oktabr) da o'z aksini topdi. Unda chop etilgan "Til va imlo" sarlavhali maqolada lotin grafikasiga asoslangan yozuvning 1929-yilda qabul qilingan varianti loyihasi e'lon qilingan bo'lib, unda loyiha bilan birgalikda imlo qoidalari ham berilgan. Loyihada "murakkab shakl" degan tushunchani izohlashda (unda ko'rsatilishicha, *-j* va *-uv* murakkab shakl) har bir tovushning o'z harfi yozilishi, chet so'zlar talaffuzida tursh (turush) – apostrof belgisining yozilishini (*mas'ol*, *ma'lom*) ko'rsatish bilan chegaralangan bo'lsa, 1926-yil Ilmiy markazning sentabr kengashida qabul qilingan "Yangi o'zbek alifbosi imlo qoidalari" e'lon qilingan. Aytish mumkinki, bu qoidalar o'zbek tilining lotin grafikasi asosidagi birinchi imlo qoidalari edi. Unda dastlab imlo (orfografiya) qoidalarining tamoyillari (prinsiplari) belgilab olingan va 2 ta prinsip olg'a surilgan:

1) savtiy usul, ya'ni fonetik prinsip;

2) sarfiy usul, ya'ni morfologik prinsip.

2-prinsip *etimologik usul* deb ham yuritilgan, bunda inqilobgacha bo'lgan davrda va XX asr boshlarida "morfologiya" termini o'rnida "etimologiya" terminining qo'llanilishi e'tiborga olingan. Savtiy usul qanday eshitilsa, shundayligicha yozish, sarfiy usul esa asos-qo'shimcha yozilishi deb tushuntirilgan. Ma'lumki, imlodagi bu prinsiplardan hamon foydalanib kelimiz. Bu maqolada ta'kidlanishicha, tilimizda shevalar ko'p bo'lganligidan ta'lim-tarbiya ishida yengillik uchun har ikkala usuldan ham foydalanishga qaror qilingan. Shuningdek, unda so'zning tomiri (o'zagi) eshitilganidek, qo'shimchalar esa sarfiy usulda yozilishi, yozuvda ba'zi o'rinlarda singarmonizm qonuniga istisnolar mavjudligi ko'rsatilgan. Bu maqolada quyidagi imlo qoidalari aks etgan:

Fe'llar bo'yicha:

– fe'llning tubi (qavs ichida "корень" so'zi ishlatilgan) sog'ir somt (qavs ichida "глухие согласные" iborasi ishlatilgan) eshitilsa ham, sarfiy usulda yagona (qavs ichida *vohid* so'zi ishlatilgan) qonunga amal qilinadi: *kettim*, *qotdim*. Ko'rinadiki, jarangsiz undosh bilan tugagan fe'llarga jarangli undosh bilan boshlangan affikslar qo'shilishi qoidalashtirilgan;

– “uturli hijoli” fe'l tublariga lablangan (arab yozuvidagi “vov” harfi bilan yoziladigan bo'g'inlar shunday nomlangan) unli so'z asos bo'lsa ham, qo'shimchalarda lablangan unli bo'lmaydi. Masalan: *oqu* – *oqudu* emas. Bu qoida faqat tuslovchi qo'shimchalarda emas, balki har qanday qo'shimchalarga tatbiq etilgan. Demak, lab garmoniyasining bu o'rinda affiksga o'tmasligi ta'kidlanmoqda;

– agar fe'lning tubi (ruscha “корень” so'zi qavs ichida ko'rsatilgan) jarangsiz undosh bilan tugasa, o'tgan zamon qo'shimchasi *-tim*, *-ting* eshitilsa ham, *-dim*, *-ding* yozilgan. Demak, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi kabi faqat jarangli varianti tanlangan;

– ravishdosh va sifatdosh affikslarining faqat jarangli variantlarigina qoidalashtirilgan, ya'ni *-kəç*, *-qaç* emas, faqat *-gəç*, *-qəç*, shuningdek, *-kən*, *-qən* emas, *-gən*, *-qən*.

– ilovada “ikki *q*, *g* tovushi orqama-orqa kelsa, ikkovi ham *q*, *k* ga aylanadi”, degan izoh bor: *tyg* – *tykkən*, *tuq* – *tuqqan*.

Ilovada, shuningdek, fonetik prinsippga amal qilinadigan o'rinlar haqida ham ma'lumotlar beriladi, ya'ni bu haqida shunday deyiladi: “... fe'llardan yasalgan bo'lub-da bugun tahajjur etkan (qotib qolgan – Y.N.) shakllar eshitilganча yoziladi” va unga *kəcyk*, *qoruq*, *turuqun*, *Tursun* (kishi ismi – Y.N.) so'zlari keltiriladi.

Kelishik qo'shimchalari jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarda *-qa*, *-kə*, *-tan*, *-tən*, *-ta*, *-tə* eshitilsa ham, ularning jarangli variantlari (*-qə*, *-gə*, *-dan*, *-dən*, *-da*, *-də*) yozilishi qoidalashtirilgan. Demak, bu o'rinda morfologik prinsippga amal qilingan.

*Bilən*, *yçyn* ko'makchilari (ular yarim mustaqil so'z deb yuritilgan – Y.N.) so'zlarga qo'shilmay yozilishi, qisqartirilgan o'rinlarda ular “suffiks” holiga kirishi va tire bilan yozilishi (*at- çun*, *at-la*) ta'kidlangan. Bu o'rinda “tire” so'zi ishlatilgan, aftidan, “defis” tushunchasidan bu davrda foydalanilmagan.

*-li*, *-lik* affikslari lablangan unli so'zlarga ham qo'shilgan (*qutli*, *kerlik*)ligi qoidalashtirilgan.

Shu bilan birga, arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tishdagi umumiy imlo qoidalari ham berilgan, xususan:

– hamza harfi (tovushsiz alomat) lotin alifbosida bo'lmasligi;

– har bir talaffuz qilingan (eshitilgan) unli yozilishi (bunda qisqa talaffuz etiladigan unli ko'zda tutiladi – Y.N.);

– singarmonizm qonuniga har yerda istisno qilinishi;

– so'z negizining eshitilgandek yozilishi;

– qo'shimchalar “sarfiy usul”da yozilishi aytiladi.

Jurnalda 1920-yillardagi imlodagi noqulayliklar mavjudligi to'g'risida munozarali maqolalar ham e'lon qilingan. Albatta, o'rganilayotgan davr uchun imloning ahamiyati juda katta bo'lgan. Shu bilan birga, imlodagi har xilliklarni singarmonizm qoidalarga bo'ysundirish, o'zlashgan so'zlar imlosini to'g'ri hal qilish uchun o'zbek shevalarini sinchiklab o'rganish lozim, degan fikrlar ham bildirilgan.

Hozirgi davrda ham imlo masalasi eng og'riqli nuqtalardan biri hisoblanadi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi ba'zi harflar imlosi hali mukammal emas. Demak, imlo masalasi hamma davrlar uchun ham dolzarb bo'lib qolaveradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek tili morfologik qurilishining o'rganilish tarixidan (1875–1917-yillardagi rus turkologlari asarlari asosida): Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 1975. 20-bet.
2. Абдуллаев Ф. Фонетика хорезмских говоров узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1961.
3. Abdullayev F. Qarnoq shevasi fonetikasidan // “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali. – Toshkent, 1965, № 6.
4. Vadud Mahmud. Til va harf masalalari // “Maorif va o'qitg'uchi” jurnali, 1925. № 5–6.
5. Жамалханов Х.А. Основы узбекской графики. – Ташкент: Фан, 1991.
6. Jamolxonov H.A., Sapayev Q. Imlo muammolari. – Toshkent, 2008.
7. Jamolxonov H.A. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009.
8. Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. – Toshkent: Ijod, 2006.
9. Yudaxin K.K. Mankent shevasining fonetikaviy yozilishi // “Maorif va o'qitg'uchi” jurnali, 1927. № 10–12.
10. G'ozli Olim. O'zbek tilining tovushlari // “Maorif va o'qitg'uchi” jurnali, 1927. № 12.

Go'zal ZAKHIDOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

## “MEHMON” SO'ZINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI

Kognitologiya – *cognitive science* – tafakkur haqidagi fan bo'lib, tayanch tushunchalar sirasiga kiradi va istalgan “lingvistik tahlil – kognitiv tahlilning bir turi” hisoblanadi. [3] XIX asrda Boduen de Kurtene tilshunoslikning psixologik va sotsiologik ruhda bo'lishi haqida fikr yuritib, “tilda ruhiy va ijtimoiy omillar harakatda bo'lishi sababli tilshunoslik uchun yordamchi fan sifatida dastlabki o'rinda psixologiya va so'ng insonlarning jamiyatdagi muloqot, munosabatlari haqidagi fan – sotsiologiyani tanlaymiz” [4] deb yozgan edi. Demak, psixologiya, tilshunoslik, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar hamkorligi kognitiv faoliyat asosida voqealanuvchi hodisadir.

Bilish deganda faoliyat bilan bog'liq barcha turdagi nomenal, ya'ni ijtimoiy, madaniy, lisoniy hodisalar tushuniladi. Tafakkur faoliyati jarayonida yuzaga keladigan bilim turli ko'rinish va xususiyatlarga ega bo'ladi; bu farq dastlabki o'rinda bilimning qanday maqsadda va sharoitda o'zlashtirilishi bilan bog'liq.

Olimlar miya chap yarimshari nutqiy axborotni qabul qiluvchi va uzatuvchi hududlar o'zaro murakkab munosabatda ekanligini doimo uqtirishadi. [5] Lekin bu munosabatlar qanday yuzaga keladi-yu, ularning zaminida nima turishi to'g'risidagi fikrlar u qadar aniq emas. Balki neyrofiziologik tuzilmalarning vazifalari va ularni harakatlantiruvchi mexanizmlarning ish

faoliyatini aniqlash uchun dastlab lisoniy faoliyatning kognitiv tizimini batafsil o'rganish lozimdir. Bu ehtimollarning haqiqatga o'ta yaqinligi kognitiv tilshunoslik taraqqiyoti jarayonida o'z isbotini topmoqda. Bilimning mavjudligi – tilning mavjudligidan. Tilning o'zi esa kognitiv tizimning faoliyat mahsuli bo'lib, lisoniy tarkiblar tafakkur faoliyati natijasida shakllanadi. Aytish joizki, lisoniy faoliyat faqatgina insonga xos faoliyatdir hamda u yana bir insonga xos boylik – tafakkur bilan bevosita bog'liq. "Til va tafakkur aynan bir narsa bo'lmasa kerak. Tafakkur predmet, hodisalarning aloqa va munosabatlari haqida ma'lumot beruvchi voqelikning umumlashgan holdagi in'ikosidir", [6] deb ma'lumot beriladi kognitiv tilshunoslikda.

Tilning tafakkur faoliyatidagi rolini bilish uchun ong va tilning munosabatiga oddiy bir hodisa sifatida qaramaslik lozim. Bu munosabat ikki mustaqil hodisaning o'zaro "muloqoti"dir. Xuddi shu "muloqot" mental (aqliy) faoliyatning lisoniy lashuviga olib keladi, zero, lisoniy va mantiqiy faoliyatlar bir-biriga hamroh bo'lib, ular yagona nutqiy tafakkur jarayonini tashkil etadi. Demak, til ongni harakatlantiruvchi vositalardan biri, u ongda eng oddiy, birlamchi tafakkur kategoriyalari paydo bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu kategoriyalarsiz "alohida nutqiy tuzilmalar – gaplarni tushunish va fikr (g'oya)ning shakllanishini hamda shu yo'sinda bilimning faollashuvini ham tasavvur qilib bo'lmaydi". [7]

Qay darajadiligidan qat'i nazar, til va tafakkur munosabati masalasining falsafa, tilshunoslik va psixologiya fanlari doirasida batafsil muhokama qilinishi kognitiv tilshunoslik taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.

Kognitiv tilshunoslikda keng miqyosda qo'llaniladigan "konsept" va mantiqiy faoliyat hosilasi bo'lgan "tushuncha" terminlarini bir xil mazmunda qo'llash mumkinmi, degan savol tug'iladi. So'zsiz, bu ikkala hodisa ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo'ladi. Bular ikkalasining ham boshlang'ich nuqtasi voqelikdagi predmet-hodisaning his va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog'liq. Paydo bo'lgan hissiy yoki tasavvuriy obraz dastlab har bir shaxsda alohida, individual ko'rinishda bo'ladi. Bunga Sh.Safarov shunday misol keltiradi: "gul" bir kishi uchun "atirgul" bo'lsa, boshqasi uchun "rayhon", yana biri uchun "lola". [8] Bunga leksikologiyadan "table" so'zi orqali misol keltirsak. Unga ko'ra "a piece of furniture that consists of a flat surface held above the floor, usually by legs" degan ta'rifdan ruslar o'zlarining baland to'rtburchak "stol"larini tasavvur qilsalar, o'zbeklar "xontaxta"ni, inglizlar esa aylana shaklidagi stolni tasavvur qilishadi. Millatidan qat'i nazar, har bir inson o'z tafakkuri bilan biri oval shaklidagisini, biri shishalisini, biri past bo'yli, ikki qavatlisini, yana biri esa oddiy yozuv stolini tasavvur etishi mumkin. Hissiyot va tafakkur faoliyatining yuqori bosqichlarida individual obraz aniq predmetdan uzoqlashib boradi va asl mantiqiy (aqliy) hodisaga aylanadi. Voqelikning bir xilda bunday his va tafakkur etilishi, umumlashgan hamda qisman mavhumlashgan obrazning yuzaga kelishi barcha uchun bir xil ramziy belgi hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Quyida keltirmoqchi bo'lganlarimiz ham tahlil qilingan ma'lumotlardan kelib chiqqan "mehmon" so'zining ichki ma'nolaridir.

**"Mehmon" so'zining o'zbek tilidagi ichki/yashirin ma'nolari:**

– **taom iste'mol qiluvchi.** Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan. (O'zbek xalq maqoli). Mehmon haqida gap boshlanib, ketidan rizq ulanmoqda. Umuman, bu maqolda mehmondan taom qizg'anmaslik, mehmon kutishdan qochmaslik haqida aytilgan. Shundan kelib chiqib mehmon bu yerda taom iste'mol qiluvchi ma'nosida qo'llanilmoqda;

– **vaqtinchalik.** "Mehmon tuyg'ular" (Tohir Malik). Bu ibora asar nomi bo'lib, unda ma'lum bir yoshga xos bo'lgan tuyg'ular yozilib, u kelib ketuvchi, vaqtinchalik ma'nosida ishlatilgan;

– **baraka olib keluvchi.** Mehmon kelgan uy – barakali. (Maqol). Xonadonga unum, baraka olib keluvchi ma'nosida qo'llanilgan;

– **chaqaloq.** Tushda laylak ko'rish oilada yangi mehmon tug'ilishidan darakdir. (Tush ta'biri kitobidan)

**Mehmonning turlari:**

– **chaqirilgan** (taklif qilingan). Majlis, yig'ilish, kengash va shu kabilarga chetdan chaqirilgan kishi. *Sessiyaga chaqirilgan deputat va mehmonlar;*

– **chaqirilmagan** (taklif qilinmagan). *Chaqirilmagan mehmonlarni ham to'y, bazm va hokozolarga kiritish;*

– **kutilgan.** Biror bazm yo ma'rakada chaqirilmasa ham kelishi kerak bo'lgan, kutilgan mehmon;

– **kutilmagan.** Chaqirilmagan va kelmaydi deb o'ylangan mehmon;

– **nozik mehmonlar.** Quda tarafdari kelganlar, obro'li, xonadon egasi uchun alohida e'tiborga ega mehmon.

Ingliz tilida esa xuddi yuqoridagilarga (*invited, uninvited, expected, unexpected*) qo'shimcha tarzda "*unwanted*" sifatli ham mavjud:

– **unwanted** – *tips for getting rid of unwanted guests* (istalmagan);

– **unexpected** – "*Western hospitality prevails; it is reminiscent of the kind displayed earlier here by a host who said to an unexpected guest, "Stranger, you take the wolf skin and the chaw o' sowbelly — I'll rough it";*

– **VIP guests** – *The ceremony will take place before 10.000 invited VIP guests.* O'zbek tilidagi "*nozik mehmonlar*" iborasiga to'g'ri keladi;

– **a constant guest** – *A constant guest is never welcome.* (Maqol)

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib aytish mumkinki, ingliz va o'zbek xalqlarida mehmondo'stlik va mehmon turlari juda o'xshash. Yagona farq esa "*unwanted*" (istalmagan) so'zi bo'lib, buni o'zbek tiliga "xushlanmagan" deb tarjima qildik va o'zbek tilida ham bu sifatdagi mehmon tushunchasi mavjud, degan xulosaga keldik: *xushlamaygina kutib oldi.*

Ikki xalq madaniyati bo'yicha ishlab chiqilgan mehmondo'stlik belgilarini solishtirish jarayonida ular o'rtasida katta farq yo'qligi, ammo ular ijrosida farqlar kattaligiga amin bo'ldik. Tadqiqot davomida "mehmon/guest" so'zining omamviy ishlatilib kelinayotgan, lekin hali hatto ingliz tili izohli lug'atlariga ham kiritilmagan ma'nolarini, sohalarini topdik. Shuning uchun ham ushbu maqoladagi ma'lumotlar nafaqat o'zbek, balki ingliz leksikografiyasini ham boyitishga xizmat qiladi, deb ayta olamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lamb, Sydney M. The Crooked Path of Progress in Cognitive Linguistics. Monograph Series on Languages and Linguistics. – Georgetown University, 1971.
2. Geeraerts, Dirk. Cognitive Linguistics: Handbook of Pragmatics. – Amsterdam: John Benjamin's, 1995.
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor nashriyoti, 2006.
4. Бодуэн де Куртенэ И.А. О задачах языкознания. Избранные труды по общему языкознанию. – Москва: Изд. АН СССР, 1963.
5. Иванов В.В. Четные и нечетные асимметрии мозга и знаковых систем. – Москва, 1978.
6. Кацнельсон С.Д. Категория языка и явления. Из научного наследия. – Москва: Языки славянской культура, 2001.
7. Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – Москва: Наука, 1982.

Dilfuza DJUMAMBETOVA,  
 Qoraqalpoq davlat universiteti assistent o'qituvchisi

## INGLIZ TILI STILISTIKASINI O'QITISHDA MILLIY-MADANIY YONDASHUV (publitsistik va badiiy uslub misolida)

Ingliz tili stilistikasini o'qitish masalasi yurtimiz oliy o'quv yurtlarining til bo'yicha o'quv dasturlarida muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi o'ttiz yillik davrda ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayonida publitsistik va badiiy matnlardan foydalanish tobora ko'proq e'tiborni tortmoqda. Shu tufayli badiiy adabiyotdan ta'lim maqsadlarida foydalanish bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda quyidagi dolzarb masalalar ko'tarilmoqda:

- badiiy matnni mutolaa va muhokama qilish jarayonida uning mazmunini ocha oladigan va izohlay oladigan faol kitobxonni tarbiyalash, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish<sup>1</sup>;

- asarni madaniyat kontekstida talqin qilish, undan adabiy, milliy-madaniy tabiatga<sup>2</sup> ega axborot manbayi, madaniyatlararo va meta-madaniy kompetensiyani shakllantirish uchun asos sifatida foydalanish;

- ona tili va xorijiy tilni o'qitish jarayonida adabiy-she'riy matnlardan foydalanish samaradorligi va imkoniyatlarini<sup>3</sup> kengaytirish;

- xorijiy tilni bolalar va yoshlar adabiyoti<sup>4</sup> matnlari, hikoya janri<sup>5</sup> materiallari asosida o'qitish;

- ekstensiv o'qishning xorijiy tilni egallashga ta'siri<sup>6</sup>;

- badiiy matnni stilistik tahlil qilish usullaridan foydalangan holda adabiy material asosida xorijiy tilni o'qitish<sup>7</sup>;

- multimadaniyatli guruhda adabiyotni o'qitish tamoyillari, xususiyatlari, afzalliklari<sup>8</sup>;

- bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga ingliz adabiyotini o'qitish masalalari<sup>9</sup>.

Zamonaviy uslubiy tadqiqotlarda tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradigan badiiy matnlarni haqiqiy material sifatida xorijiy til o'qitish dasturiga kiritish muhimligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar adabiy asarlar asosida o'tkazilgan darslar talabalarning xorijiy tilga nisbatan munosabatiga ijobiy ta'sir etishini qayd etadilar<sup>10</sup>.

Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda haqiqiy matnlardan, shu jumladan, badiiy adabiyotdan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Bu o'qitishning kommunikativ usuli ommalashishi va xorijiy tilni o'qitishda markazlashtirilgan tizimdan asta-sekin voz kechilishi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, bunday matnlarni tanlab olish mezonlari, mashg'ulotlarda ular bilan ishlashning eng samarali yo'llarini topish masala yuzaga chiqadi.

Xorijiy tilni o'rgatishda badiiy matnlardan foydalanishning hozirgi holati har tomonlama tahlil qilingan tadqiqotlarda<sup>11</sup> e'tibor matnlarni tanlab olishda ko'proq talabalar manfaatini inobatga olish, ingliz tilini o'qitishda

muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratiladi. O'zbekistonda ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda badiiy matnlar ishlatiladi. Badiiy adabiyotni mutolaa qilish nafaqat talabalar lug'atini boyitadi, balki ijodiy qobiliyat, o'qish texnikasi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham takomillashtiradi.

E.Davidenkoning fikriga ko'ra, badiiy matnlar ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, chunki ular tasavvurdagi vaziyatlarni boshqa odam nuqtayi nazaridan ko'rishga talabalarni qiziqtiradi<sup>12</sup>. Zamonaviy tadqiqotlar, asosan, chet til o'qituvchilarining amaliyotda badiiy matnlardan foydalanishi tahlili yoki asl adabiy asarlarni ishlatishining nazariy asoslariga qaratilgan.

A.V.Tsepkova matnni ekstralingvistik, lingvistik va badiiy darajalarda ko'rib chiqishni taklif qiladi<sup>13</sup>:

*Tahlilning ekstralingvistik darajasi* muallif shaxsiyati, adabiy yo'nalishi, tarixiy davri, ya'ni asarda bevosita yoki bilvosita aks etgan matndan tashqaridagi voqelikning o'sha jihatlari bilan bog'liq. Asarning ekstralingvistik kontekstini hisobga olgan holda o'qituvchi ushbu ma'lumotni mavzuga kirish bilan bog'liq birinchi dars uchun asos sifatida ishlatishi mumkin.

L.G.Babenko va Y.V.Kazarin filologik tahlil jarayonida matnning ekstralingvistik parametrlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlab, "bu turdagi eng muhim parametrlardan biri – bu matn mazmuni voqelikning o'zi bilan aks etishi, uning yozilish vaqti, milliy-madaniy tasavvurlar, asar muallifining shaxsiyati, psixologiyasi xususiyatlari, asarning turli diniy va falsafiy g'oyalar, biror adabiy oqim, san'at maktabi va boshqalar bilan bog'liqligi"ni ko'rsatishadi<sup>14</sup>.

2. *Matnning badiiy xususiyatlarini uslubiy jihatdan tahlil qilish.* Matnning badiiy mazmuni ekstralingvistik daraja bilan bog'liq bo'lib, uning tuzilish asosini lingvistik daraja o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi tahlil uchun badiiy asarning asosiy tarkibiy qismlari va xususiyatlariga oid bilim talab etiladi. Janrga yo'naltirilgan topshiriqlar talabalarga darsning turli bosqichlarida o'qishni o'rgatishda berilishi mumkin. Masalan, parcha orqali asar janrini aniqlash (tanishish uchun o'qish, izlashga oid o'qish, o'rganish uchun o'qish); sujetni ertak, she'r, detektiv, afsona, komiks, xat va boshqa janrlarda qayta yozish (matndan keyingi bosqich: yozma nutq, ijodkorona yozish ko'nikmalarini rivojlantirish).

Badiiy matnning o'ziga xos jihati quyidagi xususiyatlarga ega:

a) birinchi / ikkinchi / uchinchi shaxs tomonidan hi-  
koya qilish, muallifning soʻzi;

b) nutqning funksional-semantik turlari (hikoya qilish,  
tavsiflash, mulohaza yuritish; polilog, dialog, monolog).

Darsda matnni oʻzgartirish yoki hikoya qilishda  
“boʻshliqlarni toʻldirayotgan” ijodkorga yozish yoki gapi-  
rish vazifalari beriladi: muallif gapirish imkoniyatini ber-  
magan personajlar oʻrtasida dialog yaratish; monolog,  
personajning ichki monologini yaratish<sup>15</sup>; personajning  
muallif va boshqa qahramonlar nuqtayi nazaridan qayta  
taqdim etilishini taqqoslash<sup>16</sup>; personajni, personajning  
xonasini, uni aks ettiruvchi sifatlarni tavsiflash; maʼlum  
bir kayfiyatni aks ettiradigan vaziyatlarni tavsiflash  
(mashʼum, quvnoq va h.k.); hikoya fragmentini drama-  
tizatsiyalash (masalan, dialogga oʻtish). Bundan tash-  
qari, matndan oldingi va keyingi bosqichlarda oʻqish va  
gapirish koʻnikmalarini rivojlantirish boʻyicha vazifalar  
muallif pozitsiyasini aniqlash bilan bogʻliq boʻlishi mum-

kin. Oʻrganish uchun va tahliliy oʻqish uchun vazifalar  
yuqorida keltirilgan farqlanishga tayanib, asosiy va  
ikkinchi darajali, universal va oʻziga xos milliy boʻlishi  
mumkin.

Matn bilan tanishish uchun oʻqish bosqichida asar  
mavzusini aniqlash matn mazmunini muammo va gʻoya  
darajasida chuqurroq anglashning muhim shartidir.

*Matnning lisoniy xususiyatlarini uslubiy jihatdan  
tahlil qilish.* Matnning grammatik va leksik darajalari,  
shuningdek, uning uslubiy xususiyatlari dastur talabla-  
riga muvofiq tahlil qilinib, soʻngra soddalashtirilmagan  
asl matnda mavjud lisoniy qiyinchiliklar toʻgʻrisida xu-  
losa beriladi. Xorijiy tilni oʻqitishda badiiy matnning li-  
soniy tomoni mazmuniy jihatidan kam emas. Matn bilan  
ishlashning oldingi bosqichida, matn ustida ishlash ja-  
rayonida va matn bilan ishlashning keyingi bosqichida  
passiv materialni faollashtirish yoki yangi lisoniy materi-  
allarni kiritish taqozo etiladi.

<sup>1</sup> Alameddinea M.M., Ahwal H.W. Inquiry Based Teaching in Literature Classrooms // *Procedia – Social and Behavioral Sciences*. – 2016. – Vol. 232. – pp. 332–337. DOI: <http://dx.doi.org/10.1016/j.sbspro.2016.10.031>; Fahim M., Khatib S. The Effect of Applying Critical Thinking Techniques on Students’ Attitudes towards Literature // *International Journal of Applied Linguistics & English Literature*, 2013. – Vol. 2, No. 1. – pp. 80–84. DOI: <http://dx.doi.org/10.7575/ijalel.v.2n.1p.80>; Gomes S. L. A. Culture and society in the teaching of the mother tongue and literature // *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 2015. – Vol. 178. – pp. 123–127. DOI: <http://dx.doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.03.167>

<sup>2</sup> Gomes S.L.A. Culture and society in the teaching of the mother tongue and literature // *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 2015. – Vol. 178. – pp. 123–127. DOI: <http://dx.doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.03.167>

<sup>3</sup> Chalikendy M.A. Literature: A natural source for teaching English in ESL/ EFL classrooms // *International Journal of Applied Linguistics & English Literature*, 2015. – Vol. 4, No. 6. – pp. 224–234. DOI: <http://dx.doi.org/10.7575/aiac.ijalel.v.4n.6p.224>; Collie J., Slater S. *Literature in the Language Classroom. A resource book of ideas and activities*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – p. 58.

<sup>4</sup> Songören S.A. The place of children’s literature texts in teaching German as a foreign / second foreign language // *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 2013. – Vol. 70. – pp. 1825–1830. DOI: <http://dx.doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.01.259>

<sup>5</sup> Ceylan N.O. Using short stories in reading skills class // *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 2016. – Vol. 232. – pp. 311–315. DOI: <http://dx.doi.org/10.1016/j.sbspro.2016.10.027>

<sup>6</sup> Safaeia L.A., Bulca M. Extensive reading and creative practices // *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 2013. – Vol. 70. – pp. 592–597. DOI: <http://dx.doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.01.097>

<sup>7</sup> Fogal G.G. Pedagogical stylistics in multiple foreign language and second language contexts: A synthesis of empirical research // *Language and literature*, 2015. – Vol. 24, Issue 1. – pp. 54–72. DOI: <http://dx.doi.org/10.1177/0963947014555450>

<sup>8</sup> Nasirahmadi A., Madarsara F.A., Aghdam H.R. Cultural issues and teaching literature for language learning // *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 2014. – Vol. 98. – pp. 1325–1330. DOI: <http://dx.doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.03.549>

<sup>9</sup> Spirovska Tevdovska E. Literature in ELT setting: students’ attitudes and preferences towards literary texts // *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 2016. – Vol. 232. – pp. 161–169. DOI: <http://dx.doi.org/10.1016/j.sbspro.2016.10.041>

<sup>10</sup> Khatib M., Askari H. A study of the effects of teaching literature on improving students’ second language attitudes // *International Journal of Applied Linguistics & English Literature*, 2012. – Vol. 1, No. 4. – pp. 37–45. DOI: <http://dx.doi.org/10.7575/ijalel.v.1n.4>

